

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
«BUXGALTERIYA HISOB VA AUDIT» KAFEDRASI



“MOLIYAVIY HISOB ASOSLARI”
FANI BO'YICHA

O'QUV USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi:	400000	–	Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi:	410000	–	Biznes va boshqaruv
Ta'lim yo'nalishi:	60410200	–	Buxgalteriya hisobi

Samarqand – 2025

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi tasdiqlangan o'quv reja, ishchi o'quv reja, o'quv dasturi va sillabusi (ishchi o'quv dasturi)ga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

Eshmuradov U. -"Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrası mudiri, i.f.f.d. PhD
Fayzullayev M. -"Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrası assistenti

**"BUXGALTERIYA HISOBI"
FANINING O'QUV-USLUBIY MAJMUASI:**

"Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasining 2025 yil " 26 " avgustdagi " 1 " -son yig'ilishida muhokamadan o'tgan hamda fakultet kengashida muhokama etish va o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya qilish uchun taqdim etilgan (1-bayonnoma).

Kafedra mudiri



U.T.Eshmuradov

"Iqtisodiyot" fakulteti Kengashining 2025 yil " 28 " avgustdagi " 1 " -son yig'ilishida muhokama etilgan va o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya qilingan (1-bayonnoma).

Fakultet kengashi raisi



A.I.Alikulov

Kelishildi:

**O'quv-uslubiy boshqarma
boshlig'i, v.f.n., dotsent**



Sh.X.Qurbanov

M U N D A R I J A

№	Ma'lumotlar	bet
I	Fanning o'quv dasturi	4
II	Fanning sillabusi (ishchi o'quv dasturi)	5
III	Fanning asosiy o'quv materiallari:	6
3.1	Ma'ruza mashg'ulotlari uchun o'quv materiallari	7
3.2	Amaliy mashg'ulotlari uchun o'quv materiallari	131
3.3	Laboratoriya mashg'ulotlari uchun o'quv materiallari	155
3.4	Mustaqil ta'lim bo'yicha o'quv materiallari	156
3.5	Fan bo'yicha glossariy (o'zbek, rus, ingliz tillarida)	159
IV	Fan bo'yicha o'tkaziladigan attestatsiyalar uchun savollar:	163
4.1	1 OB uchun og'zaki savollar-150 ta (<i>auditoriya darslari bo'yicha -75 ta, mustaqil ta'lim bo'yicha-75 ta</i>)	164
4.2	2 OB uchun og'zaki savollar-150 ta (<i>auditoriya darslari bo'yicha -75 ta, mustaqil ta'lim bo'yicha-75 ta</i>)	168
4.3	YaB uchun og'zaki savollar-300 ta (<i>auditoriya darslari bo'yicha -150 ta, mustaqil ta'lim bo'yicha-150 ta</i>)	172
4.4	1 OB uchun yozma ish savollari-150 ta (<i>auditoriya darslari bo'yicha -75 ta, mustaqil ta'lim bo'yicha-75 ta</i>)	180
4.5	2 OB uchun yozma ish savollari-150 ta (<i>auditoriya darslari bo'yicha -75 ta, mustaqil ta'lim bo'yicha-75 ta</i>)	187
4.6	YaB uchun yozma ish savollari-300 ta (<i>auditoriya darslari bo'yicha -150 ta, mustaqil ta'lim bo'yicha-150 ta</i>)	195
4.7	1 OB uchun test savollari-150 ta (<i>auditoriya darslari bo'yicha -75 ta, mustaqil ta'lim bo'yicha-75 ta</i>)	210
4.8	2 OB uchun test savollari-150 ta (<i>auditoriya darslari bo'yicha -75 ta, mustaqil ta'lim bo'yicha-75 ta</i>)	227
4.9	YaB uchun test savollari-300 ta (<i>auditoriya darslari bo'yicha -150 ta, mustaqil ta'lim bo'yicha-150 ta</i>)	247
VI	Fan bo'yicha tarqatma materiallar	316
VI	Fan bo'yicha tarqatma materiallar	318
VII	O'UMning elektron varianti	329

I. Fanning o‘quv dasturi

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**



"TASDIQLAYMAN"

Samarqand davlat veterinariya
meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti

Ro'yxatga olindi: № BD-60410200-1.21
2025-yil "30" 04

X.B. Yunusov
2025-yil "30" 04

MOLIYAVIY HISOB ASOSLARI

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 400000 - Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi: 410000 - Biznes va boshqaruv
Ta'lim yo'nalishi: 60410200 - Buxgalteriya hisobi

Fan/modul kodi MHA1405		O'quv yili 2025-2026	Semestr 4	ECTS – Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya Mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Moliyaviy hisob asoslari	60		90	150
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga xo'jalik yurituvchi subyektlarda me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish, hisobda to'g'ri aks ettirish, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish, professional xizmatlarni ko'rsatishni tasnif qilish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni va ko'nikmasini shakllantirish. Fanning vazifasi – buxgalteriya hisobining konseptual asoslarini, buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil qilishning huquqiy-tashkiliy asoslarini, xo'jalik aktivlari, majburiyatlari, kapitali va moliyaviy natijalarini hisobda to'g'ri aks ettirish hamda moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etishni o'rgatishdan iborat. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. Asosiy vositalar hisobi Asosiy vositalar hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish. Asosiy vositalarning mohiyati. Asosiy vositalarning turkumlanishi, baholanishi va hisobga olish vazifalari. Asosiy vositalarni qabul qilish va hujjatlashtirish. Asosiy vositalar kiriminin hisobi. Kapital qo'yilmalarni hisobga olish. Asosiy vositalarning sintetik hisobini tashkil qilish. Asosiy vositalardan foydalanish hisobi. Asosiy vositalarni inventarizatsiya natijalarini hisobda aks ettirish tartibi. Asosiy vositalarni qurish va ta'mirlash xarajatlarini hujjatlarda va buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish tartibi. Asosiy vositalarni hisobdan chiqarish hisobi. Asosiy vositalar amortizatsiyasining hisobi. Amortizatsiya ajratmalari. Asosiy vositalarga amortizatsiyasi hisoblashning tartibi va usullari. Asosiy vositalar amortizatsiyasining hisobda aks ettirilishi. 2-mavzu. Nomoddiy aktivlar hisobi Nomoddiy aktivlar hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish. Nomoddiy aktivlarning mohiyati, turkumlanishi, hisobining vazifalari. Nomoddiy				

aktivlarni baholash. "Nomoddiy aktivlar" nomli 7-son BHMS mazmuni va amal qilish sohasi. Nomoddiy aktivlarni qabul qilishni hujjatlashtirish. Nomoddiy aktivlarning analitik va sintetik hisobini tashkil qilish.

Nomoddiy aktivlarni hisobdan chiqarish hisobi. Nomoddiy aktivlarni tekinga berish. Nomoddiy aktivlarni ustav kapitaliga ulush sifatida berish. Nomoddiy aktivlarning foydali xizmat muddati tugashi munosabati bilan chiqib ketishi.

Nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblashning tartibi va usullari. Nomoddiy aktivlar amortizatsiyasining hisobi.

3-mavzu. Pul mablag'lari hisobi

Pul mablag'lari hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish. Kassa operatsiyalarini tashkil etish va hujjatlashtirish. Kassa operatsiyalari hisobini tashkil etish. Kassa operatsiyalarining analitik va sintetik hisobi. Kassa operatsiyalarining inventarizatsiyasi.

Banklarda hisob-kitob schyotini ochish tartibi. Bank muassasalaridagi pul mablag'lari bo'yicha hisob-kitob va valyuta schyotlarning hisobini tashkil qilish. Hisob-kitob va valyuta operatsiyalarining analitik va sintetik hisobi.

Bank muassasalaridagi boshqa pul mablag'lari hisobini tashkil qilish. Bankdagi akkreditiv, chek daftarlari va boshqa maxsus schyotlar. Pul ekvivalenti, yo'ldagi pul mablag'lari schyotining analitik va sintetik hisobi.

4-mavzu. Investitsiyalar hisobi

Investitsiyalar hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish. Investitsiyalarning tasniflanishi, baholanishi va ularni hisobga olish vazifalari. Investitsiyalarning tarkibi. "Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish" nomli 12-son BHMS mazmuni va amal qilish sohasi. Investitsiyalar hisobini tashkil qilish.

Uzoq muddatli investitsiyalar hisobi. Qisqa muddatli investitsiyalar hisobi. Investitsiyalardan olingan daromadlar hisobi. Investitsiyalarni sotib olishdan va foydalanishda moliyaviy natijalarni oldindan hamda keyin aniqlash hisobi.

5-mavzu. Tovar-moddiy zaxiralar hisobi

Tovar-moddiy zaxiralar hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish. Tovar-moddiy zaxiralarning ta'rifi va turkumlanishi, tovar-moddiy zaxiralarni baholash. "Tovar-moddiy zaxiralar" nomli 4-son BHMS mazmuni va amal qilish sohasi.

Materiallar hisobi. Materiallarning iqtisodiy mohiyati, baholanishi va turkumlanishi. Materiallarning dastlabki, analitik va sintetik hisobi. Xo'jalik jihozlari va inventarlari hisobining xususiyatlari. Materiallarning ombordagi hisobini tashkil etish. Materiallar inventarizatsiyasi va uning natijalarini buxgalteriya schyotlarida aks ettirish.

O'stirishdagi va boquvdagi hayvonlar hisobi. O'stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning iqtisodiy mohiyati, baholash va hisobini vazifalari. O'stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning dastlabki va yig'ma hisobi. O'stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning sintetik va analitik hisobi.

6-mavzu. Mehnat va unga haq to'lashning hisobi

Mehnat va unga haq to'lashning iqtisodiy mohiyati, hisobga olishning vazifalari, mehnatga haq to'lash tizimlari va shakllari. Vaqtbay va ishbay mehnatga haq to'lash. Mehnat va unga haq to'lashning dastlabki, sintetik va analitik hisobi.

Mehnat ta'tili va kasallik bo'yicha qo'shimcha haq hisoblashni hujjatlashtirish va hisobini yuritish tartibi.

Ish haqidan ushlab qolinadigan ajratmalar va to'lovlar hisobi.

7-mavzu. Xarajatlari hisobi

Xarajatlar hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish. Xarajatlar haqida tushuncha. Xarajatlar hisobini tashkil etish asoslari. Xarajatlarning turkumlanishi. Ishlab chiqarish xarajatlari. Tannarxga kiritiladigan xarajatlar. Tannarxga kiritilmaydigan xarajatlar. Xarajat elementlari va xarajat moddalari.

Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari hisobi. Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari hisobi. Umumishlab chiqarish xarajatlari hisobi va ularning taqsimlanishi. Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar xarajatlari hisobi. Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlar va xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar hisobi.

8-mavzu. Mahsulot, tovar (ish, xizmat)lar va ularni sotish hisobi

Mahsulot (ish va xizmat)lar hisobining mazmuni, baholanishi va uning vazifalari.

Tayyor mahsulotlar haqida tushuncha, ularni omborga qabul qilish tartibi, baholash. Tayyor mahsulotlarni yuklab jo'natish va sotish jarayonini hujjatlarda rasmiylashtirish. Tayyor mahsulotlar kiriminining hisobi. Tayyor mahsulotlar sotilishi va boshqa hisobdan chiqishining hisobi.

Tovarlar haqida tushuncha, ularni omborga qabul qilish tartibi, baholash. Tovarlarini ulgurji sotish, chakana sotish hisobi. Tovarlar sotilishi va boshqa hisobdan chiqishining hisobi. Ish bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan tushum hisobi.

9-mavzu. Ijara hisobi

Ijara hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish. Ijara tushunchasi, ijaraning asosiy turlari, ijara beruvchida (lizingga beruvchida) moliyaviy ijara bo'yicha operatsiyalarning hisobi.

Ijaraga oluvchida (lizingga oluvchida) moliyaviy ijara bo'yicha operatsiyalarning hisobi. Operativ ijara mohiyati. Operativ ijara hisobini tashkil

etish. Operativ ijara hisobi.

10-mavzu. Hisob-kitoblar hisobi

Hisob-kitoblar hisobini tashkil etish asoslari va vazifalari. Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan to'lovlar hisobi. Xodimlarga berilgan bo'naklar hisobi. Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar hisobi. Budjetga bo'nak to'lovlari hisobi. Davlat maqsadli jamg'armalariga va sug'urtalar bo'yicha bo'nak to'lovlari hisobi. Xodimlarning boshqa operatsiyalar bo'yicha qarzi hisobi. Boshqa debitorlik qarzlari hisobi.

Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lovlar bo'yicha joriy majburiyatlar hisobi.

11-mavzu. Bank kreditlari va qarzlari hisobi

Bank kreditlarining mohiyati, iqtisodiy munosabatlar tizimidagi o'rni. Qisqa va uzoq muddatli kreditlar hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari. Qisqa va uzoq muddatli bank kreditlarini olish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar hisobi.

Qarzlari bo'yicha xarajatlar ta'rifi, qarzlari bo'yicha xarajatlar hisobining asosiy usuli. Qarzlari bo'yicha xarajatlar hisobining tartibi. Qarzlari bo'yicha kapitalizatsiya qilinadigan xarajatlar tarkibi va buxgalteriyada aks ettirish tartibi, ma'lumotlarni yoritib berish.

12-mavzu. Xususiy kapital hisobi

Xususiy kapital hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish. Xususiy kapital mohiyati va tarkibi. Ustav kapitali hisobi: Oddiy aksiyalar. Imtiyozli aksiyalar. Pay va ulushlar.

Qo'shilgan kapital hisobi: Emissiya daromadi. Ustav kapitalini shakllantirishdagi kurs farqi. Rezerv kapitali hisobi: Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar. Rezerv kapitali (fondi). Tekinga olingan mulk. Sotib olingan xususiy aksiyalar hisobi. Sotib olingan xususiy aksiyalar — oddiy. Sotib olingan xususiy aksiyalar — imtiyozli.

Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) hisobi: Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari). Jamg'arilgan foyda (qoplanmagan zarar).

Maqsadli tushumlar hisobi: Grantlar. Subsidiyalari. A'zolik badallari. Maqsadli foydalaniladigan soliq imtiyozlari. Boshqa maqsadli tushumlar. Kelgusi xarajatlar va to'lovlar rezervlari hisobi.

13-mavzu. Soliq va yig'imlar hisobi

Soliq va yig'imlar hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish. Soliqlar va yig'imlar turlari hamda hisobga olish vazifalari.

Qo'shilgan qiymat solig'i va uni hisobda aks ettirish. Aksiz solig'i va uni hisobda aks ettirish.

Foyda solig'i, mol-mulk va resurs soliqlarini hisobda aks ettirish. Aylanmadan olinadigan soliq hisob-kitobi va hisobi.

14-mavzu. Daromadlar va xarajatlar hisobi

Daromadlar va xarajatlar hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish.. Moliyaviy natijalarning shakllanishi va ularni hisobga olish.

Asosiy (operatsion) faoliyatning daromadlari hisobi. Sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)larning tannarxi hisobi. Asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishi hisobi. Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari hisobi.

Davr xarajatlari hisobi. Moliyaviy faoliyat bo'yicha daromadlar hisobi. Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar hisobi.

Favqulodda vaziyatlardan olingan foyda (zarar) hisobi. Soliq majburiyatlarini to'lash uchun foydaning ishlatilishi. Yakuniy moliyaviy natija hisobi.

15-mavzu. Buxgalteriya hisobi schyotlarini yopish tartibi

Buxgalteriya hisobi schyotlarining hisobot davri oxirida yopishning iqtisodiy ahamiyati. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarni haqiqiy tannarxi bilan reja tannarxini aniqlash tartibi. Reja tannarxi bilan haqiqiy tannarx farqlariga buxgalteriyada to'g'rilash provodkalarini tuzish. Buxgalteriya schyotlarini yopish ketma-ketligini aniqlash. Yopilgan schyotlarni, schyotlar registridagi raqamlarni to'g'riligini tekshirish.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Asosiy vositalar hisobi
2. Nomoddiy aktivlar hisobi
3. Pul mablag'lari hisobi
4. Investitsiyalar hisobi
5. Tovar-moddiy zaxiralar hisobi
6. Mehnat va unga haq to'lashning hisobi
7. Xarajatlari hisobi
8. Mahsulot, tovar (ish, xizmat)lar va ularni sotish hisobi
9. Ijara hisobi
10. Hisob-kitoblar hisobi
11. Bank kreditlari va qarzlar hisobi
12. Xususiy kapital hisobi
13. Soliq va yig'imlar hisobi
14. Daromadlar va xarajatlar hisobi
15. Buxgalteriya hisobi schyotlarini yopish tartibi

IV. Fan bo'yicha kurs ishi.

Kurs ishi uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish
2. Asosiy vositalar hisobi va uni buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida takomillashtirish
3. Nomoddiy aktivlar hisobi va uni buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida takomillashtirish
4. Investitsiyalar hisobi va uni buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida takomillashtirish
5. Kapital qo'yilmalar hisobini buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida takomillashtirish
6. Pul mablag'lari hisobi va uni buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida takomillashtirish
7. Tovar-moddiy zaxiralar hisobi va uni buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida takomillashtirish
8. Materiallar hisobi va uni buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida takomillashtirish
9. Tayyor mahsulotlar hisobi va uni buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida takomillashtirish
10. Ijara hisobi va uni buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida takomillashtirish
11. Mehnat va unga haq to'lashning hisobi va uni buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida takomillashtirish
12. Majburiyatlar hisobi va uni buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida takomillashtirish
13. Kreditlar hisobi va uni buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida takomillashtirish
14. Soliq va yig'imlar hisobi va uni buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida takomillashtirish
15. Hisob-kitoblar hisobini tashkil etish va uni buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida takomillashtirish
16. Mahsulot, tovar (ish, xizmat)lar va ularni sotish hisobini takomillashtirish
17. Xususiy kapital hisobi va uni buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida takomillashtirish
18. Xarajatlar hisobi va uni buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida takomillashtirish
19. Umumishlab chiqarish xarajatlari hisobi va uni buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida takomillashtirish

20. Davr xarajatlari hisobi va uni buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida takomillashtirish

21. Moliyaviy natijalar hisobi va uni buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida takomillashtirish

22. Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga transformatsiya qilish masalalari

23. Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos

24. Hisob siyosati va moliyaviy hisobot

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Asosiy vositalar hisobi
2. Asosiy vositalar amortizatsiyasining hisobi
3. Nomoddiy aktivlar hisobi
4. Nomoddiy aktivlar amortizatsiyasining hisobi
5. Kassa operatsiyalari hisobi
6. Hisob-kitob operatsiyalari hisobi
7. Valyuta operatsiyalari hisobi
8. Materiallar hisobi
9. O'stirishdagi va boquvdagi hayvonlar hisobi
10. Tayyor mahsulotlar va tovarlarning hisobi
11. Mehnat va unga haq to'lashning hisobi
12. Xarajatlar hisobi
13. Majburiyatlar hisobi
14. Soliq va yig'imlar hisobi
15. Ustav kapitali hisobi
16. Qo'shilgan kapital hisobi
17. Rezerv kapitali hisobi
18. Sotib olingan xususiy aksiyalar hisobi
19. Taqsimlanmagan foyda hisobi
20. Maqsadli tushumlar hisobi
21. Kelgusi xarajatlar va to'lovlar rezervlari hisobi
22. Asosiy (operatsion) faoliyatning daromadlari hisobi.
23. Sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)larning tannarxi hisobi.
24. Asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishi hisobi.
25. Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari hisobi.
26. Davr xarajatlari hisobi.
27. Moliyaviy faoliyat bo'yicha daromadlar va xarajatlar hisobi.
28. Favqulodda vaziyatlardan olingan foyda (zarar) hisobi.

	29. Yakuniy moliyaviy natija hisobi. 30. Buxgalteriya schyotlarini yopish tartibi
3.	VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobni tashkil etish haqida <i>tasavvurga ega bo'lishi</i>; • xo'jalik yurituvchi subyektlarda aktivlar, majburiyatlar, kapital va moliyaviy natijalarni hisobda o'z vaqtida va to'g'ri aks ettirishni <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i>; • xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari asosida moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i>.
4.	VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • amaliy ishlarni bajarish va xulosalash; • interfaol keys-stadilar; • blis-so'rov; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	VIII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish hamda joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazoratni muvaffaqiyatli topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar 1. Abdusalomova N.B, Temirov F.T. Moliyaviy hisob. O'quv qo'llanma. –T.: IQTISODIYOT, 2021. – 283 bet. 2. Karimov A.A., Kurbanbayev J.E., Jumanazarov S.A. – T.: Moliyaviy hisob va hisobot. O'quv qo'llanma. "Iqtisodiyot-Moliya", 2018.-496 bet. 3. Хасанов Б.А., Хашимов А.А. ва бошқ. Бухгалтерия ҳисоби. Darslik. –T.: "Иқтисодиёт дунёси", 2021 – 249 б. 4. Urazov K.B., Po'latov M.E. Buxgalteriya hisobi. Darslik. --Toshkent: "Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi", 2020. – 245 bet. 5. Alexander, D., Jorissen, A., Hoogendoorn, M., Van Mourik, C., & Kirwan, C. (2020). International financial reporting and analysis (8th ed.). – 378 page. Qo'shimcha adabiyotlar 1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik.

	"Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021. – 52 bet. 2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. – 416 bet. 3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohatlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. Toshkent: "O'zbekiston", 2023. – 398- bet. 4. Abduvaxidov F.T., Qo'ziyev I.N., Dadabayev Sh.X. Buxgalteriya hisobi. Darslik. –Toshkent: TDIU, 2019. – 320 bet. 5. Toshmamatov N., Ismanov I., Buzrukhanov S. Moliyaviy hisob va hisobot. Darslik: -T.: – Toshkent "Sanostandart" nashriyoti, 2019. – 350-bet. 6. Xolboyev D., Ibragimov U. Moliyaviy hisob. –T.: "Cho'lpon", 2016. – 239-bet. 7. Шеремет А.Д., Старовойтова Е.В. Бухгалтерский учет и анализ. Учебник. –М: ИНФРА-М, 2010. – 185 с. 8. Melville, A. (2019). International financial reporting: A practical guide (7th ed.). Pearson Education. – 476 page. 9. Connolly, C. (2018). International financial accounting and reporting (6th ed.). Chartered Accountants Ireland. – 381 page. Axborot manbaalari 1. www.lex.uz 2. www.gaap.ru 3. www.soliq.uz 4. www.norma.uz
7	Fan dasturi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti huzuridagi "840000-Veterinariya" ta'lim sohasi bo'yicha Kengashning 2025-yil <u>2024</u> <u>2</u>-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	Fan/modul uchun mas'ullar: A.I.Alikulov – SamDVMChBU, "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrası professori, iqtisodiyot fanlari doktori U.T.Eshmuradov – SamDVMChBU, "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrası katta o'qutuvchisi.
9.	Taqrizchilar: Toshnazarov S. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Buxgalteriya hisobi" kafedrası mudiri professor, i.f.d. Mardonov M. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali "Buxgalteriya hisobi va statistika" kafedrası mudiri dotsent i.f.d. (PhD).

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasini professori, iqtisodiyot fanlari doktori A.I.Alikulov, katta o'qituvchi U.T.Eshmuradovlar tomonidan 60410200-"Buxgalteriya hisobi" ta'lim yo'nalishi talabalarini uchun "Moliyaviy hisob asoslari" fanidan tayyorlangan o'quv dasturiga

TAQRIZ

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarda buxgalteriya hisobi va hisobotini mustaqil fan hamda amaliyotda kompaniyalar boshqaruvining muhim bo'g'ini sifatida xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish o'ta muhim vazifalar sirasiga kiradi.

"Moliyaviy hisob asoslari" fani bo'yicha o'quv dasturi bakalavriatning 60410200-"Buxgalteriya hisobi" ta'lim yo'nalishi talabalarini uchun mo'ljallangan. Mazkur fan o'quv rejada majburiy fanlar blokidan o'rin olgan bo'lib, ushbu fanni o'zlashtirish uchun jami 90 soat, shundan 30 soat ma'ruza, 30 soat amaliy dars soatlari ajratilgan.

"Moliyaviy hisob asoslari" fani o'quv dasturini mazmuni shuni ko'rsatadiki, o'quv dasturini tayyorlashda fanni o'rganish ketma-ketligiga rioya qilingan holda tartib bilan tuzilib, shu fanni o'rganish ketma-ketligiga mos keladi.

"Moliyaviy hisob asoslari" o'quv dasturi o'z ichiga 15 ta mavzuni qamrab olib, talabalarga korxonalarda moliyaviy hisobotni tashkil etish asoslari, ularning aktivlari, majburiyatlari va xususiy kapitalini hisob va hisobotda aks ettirishning xalqaro va milliy standartlarga doir nazariy bilimlarini berish hamda ularda amaliy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Umuman olganda, "Moliyaviy hisob asoslari" o'quv dasturi qo'yilgan talablarga javob beradi, talabalarda ushbu fan bo'yicha yetarlicha bilim va malakaga ega bo'lishlari uchun mos holda tuzilgan, undan 60410200-"Buxgalteriya hisobi" ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitishda o'quv dasturi sifatida foydalanish uchun tavsiya etaman.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
"Buxgalteriya hisobi" kafedrasini mudiri,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

S.N.Toshnazarov



Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrası professori, iqtisodiyot fanlari doktori A.I.Alikulov, katta o'qituvchi U.T.Eshmuradovlar tomonidan 60410200-"Buxgalteriya hisobi" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Moliyaviy hisob asoslari" fanidan tayyorlangan o'quv dasturiga

TAQRIZ

Iqtisodiyotimizning barcha jabhalarida bo'lgani kabi moliyaviy hisobotlar borasida ham ulkan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Keyingi yillar mobaynida, xalqaro standartlarga to'la-to'kis javob beruvchi moliyaviy hisobot tizimini yaratish borasida ko'pgina islohotlar olib borilmoqda. Moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar doirasi ancha kengayib borayotganligi, integratsiya jarayonlari chuqurlashayotganligi, qo'shma korxonalar barpo etilayotganligi, jahon moliya bozoriga chiqilayotganligi, sarmoyalar, ishchi kuchi va valutaning ayrim mamlakatlar o'rtasida erkin harakatlanishi zarurligi, buxgalteriya hisobi tizimini jahon standartlariga ko'chirishni yanada qattiqroq talab etmoqda.

"Moliyaviy hisob asoslari" fani bo'yicha fan dasturi bakalavriatning 60410200-"Buxgalteriya hisobi" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, o'quv rejada majburiy fanlar blokidan o'rin olgan, ushbu fanni o'zlashtirish uchun jami 90 soat, shundan 30 soat ma'ruza, 30 soat amaliy dars soatlari ajratilgan.

Fan dasturi korxonalarda moliyaviy hisobotni tashkil qilish asoslari, asosiy vositalar hisobi, nomoddiy aktivlar hisobi, pul mablag'lari hisobi, mehnat va ish haqini hisobga olish, tovar-moddiy zaxiralar hisobi, mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxi hisobi, tayyor mahsulot va uning sotilishini hisobga olish, xususiy kapital hisobi, moliyaviy natijalar hisobi, moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish mavzularini o'z ichiga olgan.

Mazkur fan dasturi "Moliyaviy hisob asoslari" fani bo'yicha talabalar egallashi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni to'la qamrab olgan.

Umuman olganda mazkur fan dasturi qo'yilgan talablarga mos holda tayyorlangan bo'lib, shu dastur asosida 60410200-"Buxgalteriya hisobi" ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitishda foydalanish uchun tavsiya etaman.

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Samarqand filiali "Buxgalteriya hisobi va statistika"
kafedrası mudiri, i.f.b.f.d., dotsent**

Mardonov M.Sh.



II. Fanning sillabusi (ishchi o‘quv dasturi)

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**



MOLIYAVIY HISOB ASOSLARI

FANI BO'YICHA

SILLABUS

Kunduzgi ta'lim shakli uchun

Bilim sohasi:	400000	- Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi:	410000	- Biznes va boshqaruv
Ta'lim yo'nalishi:	60410200	- Buxgalteriya hisobi

Samarqand – 2025



Modul / FAN SILLABUSI
Iqtisodiyot fakulteti
60410200 – Buxgalteriya hisobi ta'lim yo'nalishi



Fan nomi:	<i>Moliyaviy hisob asoslari</i>
Fan turi:	Majburiy
Fan kodi:	MHA1405
Yil:	2025-2026
Semestr:	4
Ta'lim shakli:	Kunduzgi
Mashg'ulotlar shakli va semestrga ajratilgan soatlar:	150
Ma'ruza	30
Amaliy mashg'ulotlar	30
Laboratoriya mashg'ulotlari	—
Seminar	—
Mustaqil ta'lim	90
Kredit miqdori:	5
Baholash shakli:	Imtihon
Fan tili:	O'zbek

Fan maqsadi (FM)

FM1	Talabalarga xo'jalik yurituvchi subyektlarda me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish, hisobda to'g'ri aks ettirish, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish, professional xizmatlarni ko'rsatishni tashkil qilish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni va ko'nikmasini shakllantirish.
------------	---

Fanni o'zlashtirish uchun zarur boshlang'ich bilimlar

1.	Buxgalteriya hisobiga kirish
2.	Buxgalteriya hisobi
3.	Biznesda buxgalteriya hisobi
4.	Moliyaviy tahlil
5.	Boshqaruv hisobi

Ta'lim natijalari (TN)	
	<i>Bilimlar jihatidan:</i>
TN1	Moliyaviy hisobotning nazariy va uslubiy asoslari, moliyaviy hisobot shakllari va ularni taqdim etish, ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun zarur ma'lumotlarni moliyaviy va boshqaruv hisobidan hamda hisobotlardan olish haqida bilimga ega bo'lishlari kerak.
TN2	Moliyaviy hisobot buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot, pul oqimlari to'g'risida hisobot, xususiy kapital to'g'risida hisobot, moliyaviy hisobotga izohlar, hisob-kitoblar, tushuntirishlarni taqdim etishni bilishlari lozim.
TN3	Xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining milliy standartlari asosida moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish haqida bilimga ega bo'lishlari kerak.
	<i>Ko'nikmalar jihatidan:</i>
TN4	Xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari asosida moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.
TN5	Moliyaviy hisobot shakllarini farqlay oladi.
TN6	Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida moliyaviy hisobotlarni tayyorlash biladi.

Fan mazmuni	
Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)	
M1	Asosiy vositalar hisobi.
M2	Nomoddiy aktivlar hisobi.
M3	Pul mablag'lari hisobi.
M4	Investitsiyalar hisobi.
M5	Tovar-moddiy zaxiralar hisobi.
M6	Mehnat va unga haq to'lashning hisobi.
M7	Xarajatlari hisobi.
M8	Mahsulot, tovar (ish, xizmat)lar va ularni sotish hisobi.
M9	Ijara hisobi.
M10	Hisob-kitoblar hisobi.
M11	Bank kreditlari va qarzlar hisobi.
M12	Xususiy kapital hisobi.
M13	Soliq va yig'imlar hisobi.
M14	Daromadlar va xarajatlari hisobi.

M15	Buxgalteriya hisobi schyotlarini yopish tartibi.
Mashg'ulotlar shakli: amaliy mashg'ulotlar (A)	
A1	Asosiy vositalar hisobi.
A2	Nomoddiy aktivlar hisobi.
A3	Pul mablag'lari hisobi.
A4	Investitsiyalar hisobi.
A5	Tovar-moddiy zaxiralar hisobi.
A6	Mehnat va unga haq to'lashning hisobi.
A7	Xarajatlari hisobi.
A8	Mahsulot, tovar (ish, xizmat)lar va ularni sotish hisobi.
A9	Ijara hisobi.
A10	Hisob-kitoblar hisobi.
A11	Bank kreditlari va qarzlar hisobi.
A12	Xususiy kapital hisobi.
A13	Soliq va yig'imlar hisobi.
A14	Daromadlar va xarajatlar hisobi.
A15	Buxgalteriya hisobi schyotlarini yopish tartibi.

Mashg'ulotlar shakli: Mustaqil ta'lim (MT)		
MT1	Asosiy vositalar hisobi.	4
MT 2	Asosiy vositalar amortizatsiyasining hisobi.	2
MT 3	Nomoddiy aktivlar hisobi.	4
MT 4	Nomoddiy aktivlar amortizatsiyasining hisobi.	4
MT 5	Kassa operatsiyalari hisobi.	4
MT 6	Hisob-kitob operatsiyalari hisobi.	4
MT 7	Valyuta operatsiyalari hisobi.	4
MT 8	Materiallar hisobi.	4
MT 9	O'stirishdagi va boquvdagi hayvonlar hisobi.	2
MT 10	Tayyor mahsulotlar va tovarlarning hisobi.	4
MT 11	Mehnat va unga haq to'lashning hisobi.	4
MT 12	Xarajatlar hisobi.	4
MT 13	Majburiyatlar hisobi.	4
MT 14	Soliq va yig'imlar hisobi.	4
MT 15	Ustav kapitali hisobi.	2
MT 16	Qo'shilgan kapital hisobi.	4
MT 17	Rezerv kapitali hisobi.	2
MT 18	Sotib olingan xususiy aksiyalar hisobi.	2
MT 19	Taqsimlanmagan foyda hisobi.	2

MT 20	Maqsadli tushumlar hisobi.	2
MT 21	Kelgusi xarajatlar va to'lovlar rezervlari hisobi.	4
MT 22	Asosiy (operatsion) faoliyatning daromadlari hisobi.	2
MT 23	Sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)larning tannarxi hisobi.	2
MT 24	Asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishi hisobi.	2
MT 25	Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari hisobi.	2
MT 26	Davr xarajatlari hisobi.	4
MT 27	Moliyaviy faoliyat bo'yicha daromadlar va xarajatlar hisobi.	2
MT 28	Favqulodda vaziyatlardan olingan foyda (zarar) hisobi.	2
MT 29	Yakuniy moliyaviy natija hisobi.	2
MT 30	Buxgalteriya schyotlarini yopish tartibi.	2
Jami		90

Asosiy adabiyotlar	
1.	Abdusalomova N.B, Temirov F.T. Moliyaviy hisob. O'quv qo'llanma. –T.: IQTISODIYOT, 2021. – 283 bet.
2.	Karimov A.A., Kurbanbayev J.E., Jumanazarov S.A. – T.: Moliyaviy hisob va hisobot. O'quv qo'llanma. "Iqtisodiyot-Moliya", 2018.-496 bet.
3.	Хасанов Б.А., Хашимов А.А. ва бошк. Бухгалтерия ҳисоби. Darslik. –T.: "Иқтисодиёт дунёси", 2021 – 249 б.
4.	Urazov K.B., Po'latov M.E. Buxgalteriya hisobi. Darslik. –Toshkent: "Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi", 2020. – 245 bet.
5.	Alexander, D., Jorissen, A., Hoogendoorn, M., Van Mourik, C., & Kirwan, C. (2020). International financial reporting and analysis (8th ed.). – 378 page.
Qo'shimcha adabiyotlar	
1.	Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. "Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021. - 52 bet.
2.	Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021. - 36 bet.
3.	Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. - 416 bet.
4.	Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. Toshkent: "O'zbekiston", 2023. - 398-bet.
5.	Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. Toshkent: "O'zbekiston", 2024. - 481 bet.
6.	Abduvaxidov F.T., Qo'ziyev I.N., Dadabayev Sh.X. Buxgalteriya hisobi.

	Darslik. –Toshkent: TDIU, 2019. – 320 bet.
7.	Toshmamatov N., Ismanov I., Buzrukhanov S. Moliyaviy hisob va hisobot. Darslik: -T.: – Toshkent “Sanostandart” nashriyoti, 2019. – 350-bet.
8.	Шеремет А.Д., Старовойтова Е.В. Бухгалтерский учет и анализ. Учебник. –М: ИНФРА-М, 2010. – 185 с.
9.	Melville, A. (2019). International financial reporting: A practical guide (7th ed.). Pearson Education. – 476 page.
10.	Connolly, C. (2018). International financial accounting and reporting (6th ed.). Chartered Accountants Ireland. – 381 page.
Axborot manbaalari	
1.	www.lex.uz
2.	www.gov.uz
3.	www.soliq.uz
4.	www.sciencedirect.com

Talabanning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi mezonlar tavsiya etiladi:

a) 5 baho olish uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- fanning mohiyati va mazmunini to'liq yoritib olsa;
- fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiylik va mantiqiylik saqlanib, ilmiy xatolik va chalkashliklarga yo'l qo'ymas;
- fan bo'yicha mavzu materiallarining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lsa;
- fan doirasida mustaqil erkin fikrlash qobiliyatini namoyon eta olsa;
- berilgan savollarga aniq va lo'nda javob bera olsa;
- konspektga puxta tayyorlangan bo'lsa;
- mustaqil topshiriqlarni to'liq va aniq bajargan bo'lsa;
- fanga tegishli qonunlar va boshqa me'yoriy-xuquqiy xujjatlarni to'liq o'zlashtirgan bo'lsa;
- fanga tegishli mavzulardan biri bo'yicha ilmiy maqola chop ettirgan bo'lsa;
- tarixiy jarayonlarni sharhlay bilsa;

b) 4 baho olish uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- fanning mohiyati va mazmunini tushungan, fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiy va mantiqiy chalkashliklarga yo'l qo'ymas;
- fanning mazmunini amaliy ahamiyatini tushingan bo'lsa;

- fan bo'yicha berilgan vazifa va topshiriqlarni o'quv dasturi doirida bajarsa;
 - fan bo'yicha berilgan savollarga to'g'ri javob bera olsa;
 - fan bo'yicha konspektini puxta shakllantirgan bo'lsa;
 - fan bo'yicha mustaqil topshiriqlarni toliq bajargan bo'lsa;
 - fanga tegishli qonunlar va boshqa me'yoriy xujjatlarni o'zlashtirgan bo'lsa.
- d) 3 baho olish uchun talabaniing bilim darajasi quyidagilarga javob berishi**

lozim:

- fan haqida umumiy tushunchaga ega bo'lsa;
- fandagi mavzularni tor doirada yoritib, bayon qilishda ayrim chalkashliklarga yo'l qo'yilsa;
- bayon qilish ravon bolmasa;
- fan bo'yicha savollarga mujmal va chalkash javoblar olinsa;
- fan bo'yicha matn puxta shakllantirilmagan bo'lsa.

e) quyidagi hollarda talabaniing bilim darajasi qoniqarsiz 2 baho bilan baholanishi mumkin:

- fan bo'yicha mashg'ulotlarga tayorgarlik ko'rilmagan bo'lsa;
- fan bo'yicha mashg'ulotlarga doir hech qanday tasavvurga ega bo'lmasa;
- fan bo'yicha matnlarni boshqalardan ko'chirib olganligi sezilib tursa;
- fan bo'yicha matnda jiddiy xato va chalkashliklarga yo'l qoyilgan bo'lsa;
- fanga doir berilgan savollarga javob olinmasa;
- fanni bilmasa.

Fan o'qituvchisi haqida ma'lumot

Mualliflar:	A.I.Alikulov – SamDVMCHBU, “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrası professori, iqtisodiyot fanlari doktori. U.T.Eshmuradov – SamDVMCHBU, “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrası katta o'qituvchisi. M.N.Fayzullayev – SamDVMCHBU, “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrası o'qituvchisi.
E-mail:	murodbekfayzullayev.1995@gmail.com
Tashkilot:	Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrası.
Taqrizchilar:	S.Toshnazarov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Buxgalteriya hisobi” kafedrası mudiri, i.f.d., professor M.Mardonov – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrası mudiri i.f.d. (PhD), dotsent.

Mazkur Sillabus universitet o'quv-uslubiy Kengashning 2025 yil 25 06
dagi 6 sonli yig'ilishi bayoni bilan tasdiqlangan.

Mazkur Sillabus "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasining 2025 yil
26 06 dagi 10 sonli yig'ilishi bayoni bilan maqullangan.

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i

Fakultet dekani

Kafedra mudiri

Tuzuvchilar

Sh.Qurbonov

A.Alikulov

U.Eshmuradov

M.Fayzullayev

III.Fanning asosiy o‘quv materiallari

3.1. Ma'ruza mashg'ulotlari uchun o'quv materiallari

1-ma'ruza. ASOSIY VOSITALAR HISOBI

1.1. Asosiy vositalarning mohiyati, baholanishi va daromadga olish hisobi.

1.2. Asosiy vositalar eskirishi (amortizatsiyasi)ning hisobi.

1.3. Asosiy vositalarni qurish va ta'mirlash hisobi. Asosiy vositalarni hisobdan chiqarish hisobi

Tayanch iboralar: *“Asosiy vositalar”, “Amortizatsiyalanadigan qiymat”, “Tugatish qiymati”, “Amortizatsiya”*

1.1. Asosiy vositalarning mohiyati, baholanishi va daromadga olish hisobi

Asosiy vositalar – uzoq davom etadigan vaqt mobaynida (bir yildan ko'prok vaqt davomida) moddiy ishlab chiqarish sohasida ham, noishlab chiqarish sohasida ham amal qilinadigan, shuningdek ijaraga berish uchun foydalanadigan moddiy aktivlardir (5-son BHMA ning 7-bandi).

Asosiy vositalar aylanma mablag'lardan quyidagi belgilari bilan farq qiladi:

- Ishlab chiqarish jarayonida bir necha marta ishtirok etishi.

- Xizmat muddati davomida natura ko'rinishini saqlab qolishi.

- O'z qiymatini xarajatga bosqichma-bosqich (amortizatsiya shaklida) qo'shishi.

Asosiy vositalarning baholanishi:

Boshlang'ich qiymat – ularni barpo etish (qurish, o'stirish, yetishtirish, yasash) yoki sotib olish bo'yicha amalda qilingan xarajatlar qiymatidir.

Joriy qiymat – asosiy vositalarning muayyan bir vaqtda amaldagi bozor baholari bo'yicha qiymati yoki aktivlarni xabardor manfaatdor tomondan o'rtasida almashtirilishi mumkin bo'lgan summasidir.

Qoldiq qiymati – asosiy vositalarning dastlabki (qayta tiklangan) yoki joriy qiymatidan to'plangan amortizatsiya chiqarib tanlangan summasidir.

Tugatish qiymati – asosiy vositalarni hisobdan chiqarish vaqtida ko'zda tutilgan qiymati, bundan asosiy vositani tugatish xarajatlari ayriladi.

Asosiy vositalar holati va harakati to'g'risidagi axborotlar 0100-«Asosiy vositalar hisobi schyotlari» tarkibidagi quyidagi schyotlarda olib boriladi:

0110-«Yer»;

0111-«Yerni obodonlashtirish»;

0112-«Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish»;

0120-«Binolar, inshootlar va uzatuvchi moslamalar»;

0130-«Mashina va asbob-uskunalar»;

0140-«Mebel va ofis jihozlari»;

0150-«Kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasi»;

0160-«Transport vositalari»;

0170-«Ishchi va mahsuldor hayvonlar»;

0180-«Ko'p yillik o'simliklar»;

0190-«Boshqa asosiy vositalar»;

0199-«Konservasiya qilingan asosiy vositalar».

Asosiy vositalar kelishi bo'yicha quyidagicha buxgalteriya provodkalari tuziladi:

1) Debet 0100-«Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlar»

Kredit 0810-«Tugallanmagan qurilish» schyoti - Qurilgan obyektlar asosiy vositalar tarkibiga qabul qilinganda.

2) Debet 0820-«Asosiy vositalarni sotib olish» schyoti.

Kredit 6010-«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar» schyoti.

-Asosiy vositalar sotib olinganda. Bir vaqtning o'zida shu asosiy vositalar xo'jalikda asosiy vositalar tarkibiga qabul qilinganda.

Debet 0100-«Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlar»

Kredit 0820-«Asosiy vositalarni sotib olish» schyoti.

3) Debet 0100-«Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlar».

Kredit 0310-«Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar» schyoti - Moliyaviy lizingga olingan asosiy vositalarning moliyaviy lizing muddati tugagandan so'ng o'z asosiy vositalar tarkibiga qabul qilinganda.

4) Debet 0100-«Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlar»

Kredit 4610-«Ustav kapitali (fondi)ga badallar bo'yicha ta'sisчилarning qarzi» schyoti - Ta'sis etuvchilardan ustav kapitaliga qo'shilgan asosiy vositalar qabul qilinganda.

5) Debet 0100-«Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlar»

Kredit 8530-«Bepul olingan mulk» schyoti - Asosiy vositalar tekinga olinganda.

6) Debet 0170-«Ishchi va mahsuldor hayvonlar» schyoti.

Kredit 0840-«Asosiy podani shakllantirish» schyoti - Ishchi yoki mahsuldor hayvon asosiy vosita tarkibiga qabul qilinganda.

7) Debet 0100-«Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlar».

Kredit 0890-«Boshqa kapital qo'yilmalar» schyoti - Asosiy vositani kengaytirish va rekonstruksiya qilishda qiymati oshganda.

8) Debet 0111-«Yerni obodonlashtirish» schyoti.

Kredit 0850-«Yerni obodonlashtirishga qilingan kapital qo'yilmalar» schyoti - Yerni holatini yaxshilash uchun qilingan sarflar asosiy vosita tarkibiga qabul qilinganda.

9) Debet 0100-«Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlar»

Kredit 8510-«Aktivlarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar» schyoti-Asosiy vositalar qayta baholashda oshgan summasiga.

10) Debet 0100-«Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlar»

Kredit 9390-«Boshqa operasion daromadlar» schyoti-Asosiy vositalar inventarizatsiya natijasida ortiqcha chiqsa, oshgan summasiga.

Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashning tartibi va usullari

Amortizatsiya ajratmalari – asosiy vositalar qiymatini xarajatga bosqichma-bosqich, ya'ni mahsulot (ish, xizmat) tannarxiga qo'shiladigan qismidir.

Amortizatsiya ajratmalari yig'indisi eskirish summasini tashkil etadi.

Quyidagi asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblanmaydi:

- yer uchastkalari va tabiatdan foydalanishga doir boshqa obyektlar (suv, yer osti boyliklari va boshqa tabiiy resurslar);
- mahsuldor chorva mollari;
- kutubxona fondi;
- muzey qimmatliklari;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda konservatsiyalashga o'tkazilgan asosiy vositalar;
- arxitektura yodgorliklari;
- umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari, yo'laklar, sayilgohlar, xiyobonlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari tasarrufidagi bo'lgan obodonlashtirish inshootlari;
- amortizatsiya to'liq hisoblangan mol-mulk;
- asosiy vositalar tarkibiga o'tkazilmagan kapital qo'yilmalar.

Amortizatsiya ajratmalari

G uruh- lar ta rtib raqami	Kic hik guruhlar tartib raqami	Asosiy vositalarning nomi	Amortiz at-siyaning yillik normasi, % da
I		Binolar, imoratlar	5
II		Uzatish qurilmalari	8
III		Kuch-quvvat beradigan mashinalar va uskunalar	8
IV		Faoliyat turlari bo'yicha ish mashinalar va uskunalar (harakat transportdan tashqari)	15
V		Harakatlanuvchan transport	
	1	Temir yo'lining harakatdagi tarkibi, dengiz, daryo kemalari, baliqchilik sanoati kemalari, havo transporti	4
	2	Avtomobil transportining harakatdagi tarkibi, ishlab chiqarish transporti	20
	3	Yengil avtomobillar, sanoat traktorlari, kommunal transport, maxsus shaxta vagonlari	20
	4	Boshqa transport vositalari	20
VI		Kompyuter, periferiya qurilmalari, ma'lumotlarni qayta ishlash uskunalari	20
VI I		Boshqa guruhlarga kiritilmagan qat'iy belgilangan aktivlar	

	1	Ko‘p yillik dov-daraxtlar	10
	2	Boshqalar	10

5-son BHMSga muvofiq asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash usullari:

- to‘g‘ri chiziqli (bir tekisda hisoblash) usuli;
- ishlab chiqarish (amortizatsiyani bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda hisoblash) usuli;
- qoldiqli kamayish (ikki karrali) usuli;
- yillar yig‘indisi usuli (kumulyativ usul).

Korxonaning mulki hisoblangan yoki uzoq muddatli ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarning eskirishi quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

0211-«Yerni obodonlashtirishning eskirishi»;

0212-«Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning eskirishi»;

0220-«Bino, inshoot va uzatuvchi moslamalarning eskirishi»;

0230-«Mashina va asbob-uskunalarining eskirishi»;

0240-«Mebel va ofis jihozlarning eskirishi»;

0250-«Kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasining eskirishi»;

0260-«Transport vositalarining eskirishi»;

0270-«Ishchi hayvonlarning eskirishi»;

0280-«Ko‘p yillik o‘simliklarning eskirishi»;

0290-«Boshqa asosiy vositalarning eskirishi»;

0299-«Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarning eskirishi».

/r	Xo‘jalik operatsiyalarining mazmuni	Schyotlarning bog‘lanishi	
		Debet	Kredit
	Korxonalarning asosiy, yordamchi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklarida foydalanilayotgan asosiy vositalarga eskirish hisoblanganda	2010, 2310, 2710	0211- 0299
	Umumishlabchiqarish maqsadida foydalanilayotgan asosiy vositalarga eskirish hisoblanganda	2510	0211- 0299
	Ma‘muriy maqsadlar uchun foydalanilayotgan asosiy vositalarga eskirish hisoblanganda	9420	0211- 0299
	Quyidagi maqsadlarda foydalanilayotgan asosiy vositalarga eskirish hisoblash: a) yangi turdagi mahsulotni ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ishga tushirish ishlarida; b) umumiy yoki yakka tartibda ishlab chiqarishga mo‘ljallanmagan yangi texnologik	9440	0211- 0299

	jarayonlarni o'zlashtirishda;		
	Ishchi xayvonlarga eskirish hisoblanganda	2010, 2310	0270
	Ko'p yillik o'simliklarga eskirish hisoblanganda	2010	0280
	Joriy (qisqa muddatli) ijaraga berilgan asosiy vositalarga eskirish hisoblanganda	9430	0220- 0299
	Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni xususiy asosiy vositalar tarkibiga o'tishi natijasida ularga hisoblangan eskirish summasini o'tkazish	0299	0211- 0290
	Uzoq muddatli ijara shartnomasining muddati tugagandan keyin ijaraga beruvchiga qaytariladigan asosiy vositalarning eskirishni hisobdan chiqarish	0299	0310
0	Asosiy vositalarning eskirishini qayta baholash: a) qiymati oshirilganda b) qiymati kamaytirilganda	8510 0211- 0299	0211- 0299 8510
1	Asosiy vositalarni tugatish, sotish, tekinga berish, ustav kapitaliga ulush sifatida berish, uzoq muddatli ijaraga berish, kamomad yoki buzilish natijasida ularga haqiqatda hisoblangan eskirishni hisobdan chiqarish	0211- 0290	9210

1.3. Asosiy vositalarni qurish va ta'mirlash hisobi. asosiy vositalarni hisobdan chiqarish hisobi

Asosiy vositalar to'liq eskirganda, sotilganda, tabiiy ofat natijasida nobud bo'lganda va boshqa hollarda hisobdan chiqariladi. Asosiy vositalarni hisobda chiqarilishida maxsus tuzilgan xay'at tomonidan «Asosiy vositalarni tugatish dalolatnomasi» (№4-OS-shakl) rasmiylashtiriladi. Dalolatnomani korxona rahbari tasdiqlangandan so'ng, buxgalteriyaga topshiriladi va asosiy vositalar hisobi kartochkasiga tegishli yozuvlar yoziladi. Asosiy vositani tugatishdan olingan materiallar «Dalolatnoma» asosida omborga qabul qilinadi. Asosiy vositalarni tugatilishi va boshqa hisobdan chiqishi tranzit schyot bo'lgan 9210-» Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi « schyotida hisobga olib boriladi. Ushbu schyot bo'yicha quyidagicha buxgalteriya provodkalari tuziladi.

1. Debet 9210-«Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi» schyoti.

Kredit 0110-0190 schyotlari - Hisobdan chiqarilgan (sotilgan, tekinga berilgan, tugatilgan) asosiy vositalar dastlabki qiymatiga.

2. Debet 9210-«Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi» schyoti.

Kredit 0110-0190 schyotlari - Lizingga berilgan yoki boshqa Korxonalarga hissa badali sifatida berilgan asosiy vositaning dastlabki qiymatiga.

3. Debet 0210-0299 schyotlari.

Kredit 9210-«Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi» schyoti - Hisobdan chiqarilgan asosiy vositaning eskirish summasiga.

4. Debet 9210-«Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi» schyoti.

Kredit 2310-«Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti-Asosiy vositani tugatishda yordamchi ishlab chiqarishlar xizmati summasiga.

5. Debet 9210-«Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi» schyoti.

Kredit 6710-«Mehnat haki bo'yicha xodimlar bilan hisob kitoblar» schyoti- Asosiy vositani tugatishda qatnashganlarga mehnat haqi hisoblansa.

6. Debet 9210-«Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi» schyoti.

Kredit 6520-«Davlat maqsadli fondlariga to'lovlar» schyoti - Ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar hisoblansa

7. Debet 1050, 1090 schyotlari.

Kredit 9210-«Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi» schyoti-Asosiy vositani tugatishdan olingan turli xil materiallar summasiga.

8. Debet 4010-«Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti.

Kredit 9210-«Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi» schyoti - Xaridorlarga sotilgan asosiy vositalar summasiga (puli to'lanmagan).

9. Debet 9210-«Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi» schyoti.

Kredit 9310-«Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimidan olingan foyda» schyoti - Asosiy vositani tugatishdan moliyaviy natija (foyda) aniqlansa.

10. Debet 9430-«Boshqa operasion xarajatlar» schyoti.

Kredit 9210-«Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi» schyoti - Asosiy vositani tugatishdan moliyaviy natija (zarar) aniqlansa.

Asosiy vositalar foydalanishga yaroqsiz bo'lganda yoki to'liq eskirgan «Asosiy vositalarni hisobdan chiqarish dalolatnomasi» rasmiylashtirilib, hisobdan chiqariladi. Ushbu xo'jalik operatsiyalari buxgalteriya schyotlarida quyidagicha aks ettiriladi:

1. Debet 9210-«Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi» schyoti.

Kredit 0110-0190 schyotlari – Asosiy vositaning dastlabki qiymatiga.

2. Debet 0210-0290 schyotlari.

Kredit 9210-«Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi» schyoti - Asosiy vositani eskirish summasiga.

3. Debet 9210-«Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi» schyoti.

Kredit 2310, 6710, 6520 schyotlari - Asosiy vositani tugatish bilan bog'liq xarajatlarga.

4. Debet 1040, 1050, 1090 schyotlari.

Kredit 9210-«Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi» schyoti - Asosiy vositani tugatishdan olingan turli materiallar summasiga.

Asosiy vositalarni boshqa hisobdan chiqarishlari bo'yicha moliyaviy natija, xuddi asosiy vositalarni sotishdagidek aniqlanadi.

Asosiy vositalar inventarizatsiya natijasida kam chiqqanda yoki tabiiy ofat natijasida yoki boshqa sabablar bilan ham hisobdan (balansdan) chiqariladi. Ushbu operatsiyalar buxgalteriya schyotlarida quyidagicha aks ettiriladi:

1. Debet 9210-«Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi» schyoti.

Kredit 0110-0190 schyotlari - Asosiy vositaning dastlabki qiymatiga.

2. Debet 0210-0290 schyotlari.

Kredit 9210-«Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi» schyoti-Asosiy vositaning eskirish summasiga.

3. Debet 5910-«Kamomadlar va moddiy boyliklarni buzilishidan keladigan nobudgarchiliklar».

Kredit 9210-«Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi»-schyoti -Kam chiqqan asosiy vositaning qoldiq qiymati summasiga.

4. Debet 4730-«Moddiy zararni qoplash bo'yicha xodimning qarzi» schyoti.

Kredit 5910-«Kamomadlar va moddiy boyliklarni buzilishidan keladigan nobudgarchiliklar» schyoti -Kamomad summasi aybdorga olib borilsa.

Asosiy vositalar kamomadi yoki boshqa hisobdan chiqishiga aybdor shaxs aniqlanmasa, summa 5910-«Kamomadlar va moddiy boyliklarni buzilishidan keladigan nobudgarchiliklar» schyotda qoladi va yil oxirida 9910-«Yakuniy moliyaviy natija» schyotiga o'tkaziladi.

Asosiy vositalarning sotilishi va boshqa hisobdan chiqishida inventar obyektlarni har bir turi bo'yicha alohida analitik schyotlar ochilib, analitik hisobi yuritiladi.

Asosiy vositalar lizing bo'yicha berilganda, lizing bo'yicha olinishi lozim bo'lgan summalar, daromad hisoblanib quyidagicha provodka beriladi:

1. Debet 6290-«Muddati uzaytirilgan daromad» schyoti.

Kredit 9210-«Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi» schyoti-Joriy yilda (hisobot davrida) olinadigan lizing summasi.

2. Debet 7290-«Boshqa muddati uzaytirilgan uzoq muddatli majburiyatlar» schyoti.

Kredit 9210-«Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi» schyoti-Keyingi davrlarda olinadigan lizing summasi.

Agar asosiy vositalar uzoq muddatli ijaraga berilsa:

Debet 0920-«Uzoq muddatli ijara bo'yicha olinadigan to'lovlar» schyoti

Kredit 9210-«Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi» schyoti buxgalteriya provodkasi beriladi

2-ma'ruza. NOMODDIY AKTIVLAR HISOBI

2.1. Nomoddiy aktivlarning mohiyati

2.2. Nomoddiy aktivlarning baholanishi, daromadga olish va hisobdan chiqarish hisobi

2.3. Nomoddiy aktivlar eskirishi (amortizatsiyasi)ning hisobi.

Tayanch iboralar: nomoddiy aktivlar, nomoddiy aktivni turkumlash, nomoddiy aktivni baholash, nomoddiy aktivga amortizatsiya hisoblash, gudvil.

2.1. Nomoddiy aktivlarning mohiyati,

Nomoddiy aktivlar - korxona tomonidan ulardan ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish yoki tovarlarni sotish jarayonida foydalanish maqsadida yoxud ma'muriy va boshqa funksiyalarni amalga oshirish uchun uzoq muddat mobaynida tutib turiladigan, moddiy-ashyoviy mazmunga ega bo'lmagan mol-mulk obyektlari (7-son BHMA ning 4-bandi).

Boshqacha aytganda nomoddiy yoki "yashirin" aktivlar tarkibiga jismoniy, oshkora shaklga ega bo'lmagan, lekin xo'jalik yurituvchi subyektga daromad keltiruvchi vositalar kiritiladi.

Nomoddiy aktivlarni hisobga olishning asosiy qoidalari bo'lib tan olish (e'tirof etish) paytini belgilash, balans qiymati va foydali xizmat muddatini baholash, amortizatsiyani hisoblash usullarini belgilash, balans qiymatidagi boshqa o'zgarishlarni baholash va hisobga olish hamda ularning chiqib ketishidan moliyaviy natijalarni aniqlash, shuningdek ular bo'yicha axborotlarni moliyaviy hisobotda ochib berish tartibi hisoblanadi.

Nomoddiy aktivlarni buxgalteriya hisobiga nomoddiy aktivlar sifatida qabul qilishda bir vaqtning o'zida quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

- a) moddiy-ashyoviy tuzilish (shakl)ga ega bo'lmasligi;
- b) aktivlardan mahsulot ishlab chiqarishda, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatishda yoxud korxonaning ma'muriy va boshqa funksiyalari uchun uzoq muddat, ya'ni davomiyligi 12 oydan yuqori foydali xizmat muddati yoki agar u 12 oydan oshadigan bo'lsa, oddiy operasion sikl mobaynida foydalanish;
- c) korxona ushbu aktivni keyinchalik qayta sotishni mo'ljallamaydi;
- d) ishonchlilik, ya'ni korxonada aktiv va unga bo'lgan mutlaq huquqning mavjudligini tasdiqlovchi tegishli ravishda rasmiylashtirilgan hujjatlar (patentlar, guvohnomalar, boshqa muhofaza qiluvchi hujjatlar, patent, tovar belgisidan voz kechish (sotib olish) shartnomasi)ning mavjudligi;
- e) korxona tomonidan boshqa aktivlardan identifikasiyalash (bo'lish, ajratish) imkoniyati, ya'ni aktivni undan foydalaniladigan xo'jalik faoliyatidan alohida foydalanishning mumkin bo'lishi.

Nomoddiy aktivlarga quyidagi obyektlar kiritilishi mumkin:

patent egasining ixtiro, sanoat namunalari va foydali modellarga bo'lgan mutlaq huquqi;

muallif yoki boshqa huquq egasining EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalariga bo'lgan mutlaq huquqi;

muallif yoki boshqa huquq egasining mikrosxemalarga bo'lgan huquqi;

huquq egasining tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisiga bo'lgan mutlaq huquqi, shuningdek tovar ishlab chiqarilgan joy nomidan foydalanish huquqi;

huquq egasining seleksiya yutuqlariga bo'lgan mutlaq huquqi;

gudvill

tabiiy resurslardan foydalanish huquqi, ya'ni yer osti boyliklari, atrof-muhitdagi boshqa resurslar, atrof-muhit to'g'risidagi geologik va boshqa ma'lumotlar va shu kabilardan foydalanish huquqi;

mol-mulkdan foydalanish huquqi, ya'ni yer uchastkalari, binolar va shu kabilardan foydalanish huquqi;

boshqa nomoddiy aktivlar (mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish, iqtisodiy va boshqa imtiyozlardan foydalanish huquqi va shu kabilar).

Patent — u yuridik tomondan ro'yxatga olingan va tan olingan qati'y huquq.

Mualliflik huquqi — qonun tomonidan adabiyot asarlari, musiqa, tasviriy san'at kabi ijodiy ishlarning mualliflariga qaratilgan himoya shakli.

Savlo markalari va savlo nomlari. Savdo markalari (masalan, "Nestle", "Adidas") va (yoki) savdo nomlari (Coca-Cola) — bu kompaniyalarga, mahsulot yoki xizmatlarga berilgan nomlar, belgilar yoki boshqa belgilovchi aksiyalardir. Ular egalik qilishni asoslash uchun ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin.

Franchayz — bir korxona tomonidan boshqasiga unga qarashli aktivlardan, shu jumladan savdo markalari va shu kabi moddiy aktivlardan foydalanish huquqining berilishi.

Nou-xau - yangi texnologiyalar bo'lib, texnik, tijorat, boshqaruv, moliya kabi xarakterdagi texnik bilim va amaliy harakterdagi boshqa bilimlarni o'z ichiga oladi.

Gudvill (korxona bahosi) – korxonana xarid qilish paytida yuzaga keladi va sotib olinayotgan korxona uchun haq hamda uning sof aktivlarining bozor qiymati o'rtasidagi farq (kelgusida olinish ehtimoli mavjud bo'lgan iqtisodiy foyda bozori bahosi).

Nomoddiy aktivlar hisobi oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan:

Nomoddiy aktivlarni tegishli guruhlariga asosida hisobini tashkil etish va ulardan samarali foydalanishini ta'minlash.

Nomoddiy aktivlar hisobini tegishli andoza av boshqa me'yoriy hujjatlar talablari asosida to'g'ri va o'z vaqtida baholash.

Nomoddiy aktivlarga tegishli andoza va me'yoriy xujjatlar asosida amortizatsiya hisoblash.

Eskirgan va xo'jalik uchun oshiqcha bo'lgan nomoddiy aktivlarni o'z vaqtida hisobdan chiqishini ta'minlash.

Hisobdan chiqarilgan nomoddiy aktivlar bo'yicha moliyaviy natijalarni to'g'ri va o'z vaqtida aniqlash va hisobvaraqlarda aks ettirish.

2.2. Nomoddiy aktivlarning baholanishi, daromadga olish va hisobdan chiqarish hisobi

Nomoddiy aktivlar hisobi.

Korxonalarda mulkchilik huquqi korxonalarga tegishli bo'lgan nomoddiy aktivlarning mavjudligi va harakati to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish

0400-“Nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi schyotlar” schyoti tarkibidagi quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

0410 «Patentlar, lisenziyalar va nou-xau»

0420 «Savdo markalari, tovar belgilari va sanoat namunalari»

0430 «Dasturiy ta’minot»

0440 «Yer va tabiat resurslaridan foydalanish huquqlari»

0460 «Franchayz»

0470 «Mualliflik huquqlari»

0480 «Gudvill»

0490 «Boshqa nomoddiy aktivlar».

Nomoddiy aktivlar quyidagilar natijasida korxona balansiga kiritiladi:

➤ ishlab chiqish tugaganidan so‘ng yaratilgan obyektни qabul qilish-topshirish;

➤ oldi-sotdi shartnomasi bo‘yicha obyektни sotib olish;

➤ ustav kapitaliga muassislar (ishtirokchilar)ning ulushi ko‘rinishida kelib tushish;

➤ tekinga kelib tushish (hadya shartnomasi bo‘yicha);

➤ davlat subsidiyalari hisobiga olish;

➤ ayirboshlash;

➤ ortiqcha (hisobga olinmagan) nomoddiy aktivlar obyektlarini aniqlash va boshqa asoslarga ko‘ra.

Obyektlarni nomoddiy aktivlarga kiritish tartibi va ularning tarkibi qonunchilik asosida hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998 yil 12 oktyabrda 49-son bilan tasdiqlangan (7-BHMA) «Nomoddiy aktivlar» Buxgalteriya hisobining milliy standarti asosida tartibga solinadi.

Nomoddiy aktivlar quyidagi obyektlar uchun aniqlanadigan boshlang‘ich bahoda nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi schyotlarda hisobga olinadi:

a) ta’sischilar tomonidan korxonalarning ustav kapitaliga ulush hisobidan kiritilgani - tomonlarning kelishuvi bo‘yicha;

b) to‘lov asosida boshqa korxonalar va shaxslardan harid qilingan ushbu obyektlarni harid qilish va tayyor holatga keltirish bo‘yicha amalga oshirilgan - haqiqiy xarajatlar bo‘yicha;

c) boshqa korxonalar va shaxslardan tekinga olingan obyektlar - kirim qilish sanasidagi bozor bahosida yoki qabul qilish-topshirish hujjatlarida ko‘rsatilgan qiymat bo‘yicha;

d) korxonalarning o‘zi tomonidan yaratilgan yoki korxonalarning o‘zida ilmiy - tadqiqot ishlari natijasida olingan obyektlar - haqiqiy tannarxi bo‘yicha.

Ta’sischilar tomonidan korxonalarning ustav kapitaliga ularning ulushlari hisobiga kiritilgan nomoddiy aktivlarni kirim qilish (0400) nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi schyotlarning debetida va 4610 «Ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo‘yicha qarzi» schyotining kreditida aks ettiriladi.

Boshqa korxonalar va shaxslardan harid qilingan nomoddiy aktivlar, nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi schyotlarning debeti, 0830 «Nomoddiy aktivlarni harid qilish» schyotining kreditiga kirim qilinadi.

Boshqa korxonalar va shaxslardan tekinga olingan nomoddiy aktivlarning kirim qilinishi nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi schyotlarning debetida, 8530-«Tekinga olingan mulk» schyoti bilan bog'langan holda aks ettiriladi.

Agar nomoddiy aktiv korxonalarning o'zi tomonidan yaratilsa va uni yaratish xarajatlarining aniq summasini aniqlash imkoni mavjud bo'lsa, u holda nomoddiy aktiv haqiqiy tannarxi bo'yicha aks ettiriladi. Nomoddiy aktivlarning haqiqiy tannarxini aniqlash imkoniyati mavjud bo'lmagan holda ushbu xarajatlar ilmiy-tadqiqot ishlari (ITI) yoki ilmiy-tadqiqot, sinov konstruktorlik ishlari (ITSKI) xarajatlari sifatida aks ettiriladi.

«Gudvill (firma bahosi)»ning buxgalteriya hisobi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998 yil 12-oktyabrda 49-son bilan tasdiqlangan (7-BHMA) «Nomoddiy aktivlar» Buxgalteriya hisobining milliy standartiga muvofiq amalga oshiriladi.

Nomoddiy aktivlar chiqib ketganda (sotilganda, tekinga berilganda va boshqalarda) ularning boshlang'ich qiymati nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi tegishli schyotlarning (0400) kreditidan 9220-«Boshqa aktivlarning sotilishi va turli chiqimi» schyotining debetiga hisobdan chiqariladi.

0400 «Nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi schyotlar»ning korrespondensiyasi.

/r	Xo'jalik operatsiyalarining mazmuni	Schyotlarning bog'lanishi	
		Debet	Kredit
	Harid qilingan nomoddiy aktivlarning boshlang'ich qiymati (haqiqiy tannarxi) bo'yicha kirim qilinishi	0410-0490	0830
	Korxonalarning o'zida yaratilgan nomoddiy aktivlarning haqiqiy tannarxi bo'yicha kirim qilinishi	0410-0490	0830
	Ustav kapitaliga ulush sifatida yoki aksiyaga obuna bo'lishga haq to'lash hisobiga olingan nomoddiy aktivlarning kirim qilinishi	0410-0490	4610
	Tekinga olingan nomoddiy aktivlarning kirim qilinishi	0410-0490	8530
	Korxonalarni sotib olishda aktivlarning haqiqiy bahosi va sotib olish bahosi o'rtasidagi farq sifatida vujudga keladigan gudvill (firma bahosi)ni aks ettirish	0480	8330
	Gudvill (firma bahosi) summasini har oy foydali xizmat muddati davomida hisobdan chiqarilishi.	2010, 2310, 2510, 2710	0480
	Nomoddiy aktivlarning boshlang'ich qiymati bo'yicha sotilishi, hisobdan chiqarilishi, harid qilingan	9220	0410-

	qimmatli qog'ozlar haqining to'lovi uchun berilishi, boshqa korxonalarning ustav kapitaliga ulush sifatida, shuningdek, tekinga berilganda va boshqalar natijasida chiqib ketishi		0490
--	---	--	------

2.3. Nomoddiy aktivlar eskirishi (amortizatsiyasi)ning hisobi

Amortizatsiya nomoddiy aktivning foydali xizmat muddati davomida amortizatsiya qiymatini muntazam ravishda taqsimlash va ko'chirish ko'rinishida erskirishning qiymat ifodasidir.

Nomoddiy aktivlarning amortizatsiya qiymati taxmin qilinayotgan tugatilish qiymatini chiqarilgan holda aktivning dastlabki yoki moliyaviy hisobotlarda ko'rsatilgan qiymatning summasidir.

Buxgalteriya hisobi 7-son "Nomoddiy aktivlar" milliy andozasiga binoan nomoddiy aktivning amortizatsiya qiymati uning foydali xizmat muddatidan oshmagan holda, foydali xizmat muddatini belgilash mumkin bo'lmagan paytda 5 yilni hisobga olib (lekin korxonaniing faoliyat muddatidan oshmagan holda) belgilanadi.

Nomoddiy aktivlarning alohida guruhlar uchun foydali xizmat muddati ushbu moddiy aktivdan foydalanish natijasida olinishi kutilayotgan mahsulotlar miqdori yoki ishlar hajmining boshqa moddiy ko'rsatkichlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Mulkchilik huquqi korxonalarga tegishli bo'lgan nomoddiy aktivlar bo'yicha jamlangan amortizatsiya to'g'risida ma'lumotlar 0500-Nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisobga oluvchi schyotlarda umumlashtiriladi:

0510 «Patentlar, lisenziyalar va nou-xauning amortizatsiyasi»

0520 «Savdo markalari, tovar belgilari va sanoat namunalarining amortizatsiyasi»

0530 «Dasturiy ta'minotning amortizatsiyasi»

0540 «Yer va tabiat resurslaridan foydalanish huquqlarining amortizatsiyasi»

0560 «Franchayzning amortizatsiyasi»

0570 «Mualliflik huquqlarining amortizatsiyasi»

0590 «Boshqa nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi».

Nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi Soliq kodeksi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998 yil 12 oktyabrda 49-son bilan tasdiqlangan (7-BHMA) «Nomoddiy aktivlar» Buxgalteriya hisobining milliy andozasida ko'zda tutilgan usullarga muvofiq, belgilangan me'yorlar bo'yicha korxonalar tomonidan hisoblab chiqilib, oyma-oy tegishliligiga qarab tannarxga yoki davr xarajatlarga olib boriladi.

Nomoddiy aktivlarga hisoblangan amortizatsiya summasi xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlarning debeti va (0500) nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisobga oluvchi schyotlarning kreditiga olib boriladi.

Nomoddiy aktivlarning chiqib ketishi (sotilishi, tekinga berilishi va boshqalar)da ular bo'yicha hisoblangan eskirish summasi (0500) nomoddiy

aktivlar amortizatsiyasini hisobga oluvchi schyotlarning debetidan 9220 «Boshqa aktivlarning sotilishi va turli chiqimi» schyotining kreditiga hisobdan chiqariladi.

Nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisobga oluvchi schyotlar (0500) bo'yicha analitik hisob nomoddiy aktivlarning turlari va alohida obyektlari bo'yicha yuritiladi.

0500 «Nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasini hisobga oluvchi schyotlar»ning korrespondensiyasi.

/r	Xo'jalik operatsiyalarining mazmuni	Schyotlarning bog'lanishi	
		Debet	Kredit
	Asosiy, yordamchi ishlab chiqarishda foydalanilayotgan nomoddiy aktivlar bo'yicha amortizatsiya hisoblash	2010 , 2310	051 0-0590
	Umum ishlab chiqarish maqsadida va xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarda foydalanilayotgan nomoddiy aktivlar bo'yicha amortizatsiya hisoblash	2510 , 2710	051 0-0590
	Boshqaruv maqsadida foydalanilayotgan nomoddiy aktivlar bo'yicha amortizatsiya hisoblanganda	9420	051 0-0590
	Quyidagi maqsadlarda foydalanilayotgan asosiy vositalarga eskirish hisoblanganda: a) yangi turdagi mahsulot ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan ishga tushirish ishlarida; b) umumiy yoki yakka tartibda ishlab chiqarishga mo'ljallanmagan yangi texnologik jarayonlarni o'zlashtirishda;	9440	051 0-0590
	Kapital quyilmalarda foydalanilayotgan nomoddiy aktivlar bo'yicha amortizatsiya hisoblanganda	0810 -0890	051 0-0590
	Nomoddiy aktivlar summasi hisobdan chiqarilganda	0510 -0590	922 0

3-ma'ruza. PUL MABLAG'LARI HISOBI

3.1. Pul, uning aylanishi (oqimi) va u bo'yicha atamalar. Pul tushumi va to'lovlari toifalari.

3.2. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni to'ldirish bo'yicha axborot manbalari va uni to'lg'azish.

3.3. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot bo'yicha o'zaro bog'lanishlar.

Tayanch tushunchalar. *Pul. Pul aylanishini jami ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish belgisi bo'yicha guruhlanishi. Pulni to'lov turiga ko'ra aylanishi. Pul oqimi bo'yicha operasion, investisiya va moliyaviy faoliyat. Pul ekvivalentlari. Pul*

oqimi to'g'risidagi hisobotni to'ldirish bo'yicha axborot manbalari. Ushbu hisobotdagi o'zaro bog'lanishlar.

3.1. Pul, uning aylanishi (oqimi) va u bo'yicha atamalar. Pul tushumi va to'lovlari toifalari.

Pul insoniyat kashfiyotlari ichida eng oddiy, eng murakkab, eng tushinarlisi bo'lib hisoblanadi.

Insoniyatning buyuk yutuklari ham, fojialari ham pul bilan bog'liqdir. Pul inson faoliyatining eng muhim harakatga keltiruvchi kuchlardan biri bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

Pul – bu maxsus tovar, umumiy ekvivalent bo'lib, abstrakt mexnat xarajatlarini o'zida aks ettiradi va tovar xo'jaligidagi ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarini ifodalaydi.

Bozor iqtisodiyotiga utish sharoitida pul ahamiyatining ortib borishi jamiyatimizda mavjud huquqiy va jismoniy shaxslar faoliyati va uning natijasi – daromadi pul bilan bog'liq ekanligidir. Darhaqiqat, pul – «bozor tili» deb bejiz aytilmagan. Har bir iqtisodiy axborot, tovarlar va xizmatlar baxosi, to'lovlar, daromad va xarajatlar, moliyaviy talablar va majburiyatlar, iqtisodiy aloqalar makro va mikro darajalarda fakat pulda ifodalanadi.

Xalq xo'jaligi tarmoqlarida yaratilgan tovarlarning barchasi pul yordamida ayir boshlanadi. Bunda hisob-kitoblar nakd pul va nakd pulsiz holda amalga oshiriladi.

Nakd pulsiz va nakd pul to'lash yuli bilan amalga oshiriladigan to'lovlarning yig'indisi pul aylanishini tashkil etadi.

Bunda pul aylanishini quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

- Ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan to'lovlar (ishlab chiqarish vositalarini sotib olish, ish haqi to'lash va boshqalar);
- Xarajatlarni koplash uchun kelib tushadigan tushumlar va jamgarmalarni tashkil qilish;
- Turli xil moliyaviy majburiyat va daromadlardan to'lovlarni amalga oshirish va boshqa to'lovlar.

Pul aylanishini quyidagi asosiy ikki belgiga:

- Jami ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish;
- Pulning funksiyalariga ko'ra tarkibiy qismlarga bo'lish mumkin.

Jami ijtimoiy mahsulotni ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq holda pul aylanishi tovarlarni ishlab chiqarish va sotish, kapital kurilish bilan bog'liq aylanishga, hamda tovar va ularning harakati bilan bog'liq bulmagan aylanishiga bo'linadi.

Pul aylanishining birinchi guruhiga ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur resurslar – mexnat kurollari, mexnat predmetlari, ish kuchi sotib olish va aksincha axoli tomonidan davlat, kooperativ-savdo tashkilotlaridan, dexkon bozorlardan, fukoralardan iste'mol uchun zarur tovarlarni sotib olish va axolining yukoridagi subyektlarga tovarlar sotish, kapital kurilish va ta'minlash soxasidagi hisob-kitoblar va boshqalar kiradi.

Pul aylanishining ikkinchi turiga ishchi va xizmatchilarga ish haqi to'lash, milliy daromadni taqsimlash va kayta taqsimlash bilan bog'liq to'lovlar, kreditlash jarayoni bilan bog'liq to'lovlar va boshqa tovar harakati bilan bog'liq bulmagan to'lovlar kiradi.

Pul funksiyalariga va to'lov turiga ko'ra pul aylanishi nakd pullik va nakd pulsiz aylanishga bo'linadi.

Pul aylanishining asosiy qismi nakd pulsiz aylanish, ya'ni xo'jalik subyektlarining bir depozit hisobvaragidan ikkinchisining depozit hisobvaragiga mablag' utkazish yuli bilan amalga oshiriladigan aylanish tashkil qiladi.

Nakd pullik aylanish – bu nakd pul yordamida amalga oshiriladigan to'lovlar yig'indisidir.

Odatda nakd pul bilan ish haqi, nafaka, mukofotlar, kommunal to'lovlar, soliqlarni ba'zi turlari va boshqa ba'zi cheklangan to'lovlar amalga oshiriladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlari pul aylanishining (oqimi) hamma jixatlarini hisobga olgan holda № 9 buxgalteriya hisobi milliy andozasi talablari asosida yil yakuni bo'yicha pul oqimi to'g'risida hisobot tayyorlaydi va uni moliyaviy hisobotni tarkibiy qismi sifatida taqdim etadi.

Bu hisobot bulajak pul oqimlari prognozi to'g'riligini tekshirishda, foyda olish va pul oqimlarining sof harakati va narx uzgarishi ta'siri urtasidagi alokalarni taxlil qilish imkonini beradi.

Ushbu hisobot bo'yicha quyidagi tushuncha (atamalar) mavjud:

1. Pul mablag'lari – kassadagi nakd pul va talab kilib olinadigan depozitlar, banklardagi boshqa hisobvaraqlardagi mablag'lar.

2. Pul ekvivalentlari – ma'lum pul mablag'iga tez va oson almashtiriladigan hamda qiymatidagi uzgarishlar tufayli biroz xatarli bo'lgan qisqa muddatli, yukori likvidli investisiyalar (moliyaviy quyilmalar) – aloka markalari, lotereya, zayom, bilet, putyovka, tovar cheki va boshqalar.

3. Pul oqimlari – pul oqimlari hamda ular ekvivalentlarining oqimi (tushumi) va chiqimi (sarflanashi, chiqishi)dan iborat.

4. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot – hisobot davrida pul mablag'i oqimlarini batafsil ko'rsatuvchi ko'rsatkichlar yig'indisi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot ma'lum bir hisobot davrida fermer xo'jaliklarining pul mablag'lari holatiga operasion, investisiya va moliyaviy faoliyati ta'sirini aks ettiradi hamda shu davr ichida pul mablag'lari o'zgarishini ko'rsatadi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot ma'lumotlaridan foydalanish quyidagi imkoniyatlarni beradi:

♦ fermer xo'jaliklarining pul mablag'lari va ularning ekvivalentlarini ishlab topish qobiliyatini, shuningdek, shunga o'xshagan pul mablag'laridan foydalanishda fermer xo'jaliklari ehtiyojini baholash;

♦ fermer xo'jaliklarining sof aktividagi o'zgarishlarni, uning (to'lov qobiliyati ham qo'shilgan holda) moliyaviy strukturasini va uning o'zgaruvchan vaziyat va

imkoniyatlariga moslashish maqsadida pul oqimlarining summalari hamda o'z vaqtida tushishiga ta'sir etish qobiliyatini baholash;

♦ turli fermer xo'jaliklarining operasion faoliyati to'g'risidagi hisobotlarini taqqoslash. Chunki bu xo'jalik faoliyatining bir xil operasiya va voqyealari uchun buxgalteriya hisobining turli usullaridan foydalanish oqibatlarini bartaraf etadi.

Pul oqimi to'g'risidagi hisobotda hisobot davri ichida pul mablag'lari oqimi quyidagi faoliyatlar bo'yicha tasniflanadi:

- ♦ operasion faoliyati;
- ♦ investision faoliyati;
- ♦ moliyaviy faoliyati.

Operasion faoliyatdan olinadigan pul mablag'lari hajmi fermer xo'jaliklari faoliyati samarasining hal etuvchi ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi. Chunki u tashqi moliyalash manbalarisiz qaytarish, mehnat unumdorlik darajasini saqlash, dividendlar to'lash va yangi kapital qo'yilmalarni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Operasion faoliyatida bo'lgan pul mablag'lari harakati birinchi navbatda daromad olish bo'yicha asosiy faoliyat natijasi bo'lib hisoblanadi.

Investision faoliyat - bu pul ekvivalentiga kirmaydigan uzoq muddatli aktivlar va boshqa investisiyalarni sotib olish va sotish, qaytariladigan kreditlarni berish va olishdir. Bularga bino, asbob - uskuna, nomoddiy va boshqa aktivlarni sotish va sotib olish, aksiya yoki boshqa qarz majburiyatlarini sotishdan tushgan tushum va boshqa fermer xo'jaliklarining aksiyalari va qarz majburiyatlarini sotib olish, fyuchers, forvard, opsion va svop - kontraktlar bo'yicha tushumlar va ular bo'yicha to'lovlar kiradi.

Fyuchers kontrakt (muddatli kontrakt) - bu ma'lum miqdorda moliyaviy instrumentlarni yoki belgilangan me'yordagi tovarni erkin savdo birjasida kelishilgan bahoda oldi - sotdisi to'g'risidagi shartnoma.

Forvard kontrakti - bu tovar yoki moliyaviy instrumentlarni kelajakda jo'natish va hisob - kitob qilish bo'yicha oldi - sotdi to'g'risidagi bitim.

Opsion kontrakt (mukofotli bitim) - bu ma'lum miqdordagi moliyaviy instrumentlar yoki tovarlarni kelishilgan muddat ichida belgilangan miqdorda mukofot to'lash evaziga qayd etilgan bahoda sotib olish yoki sotish huquqi.

Moliyaviy faoliyat - bu shunday faoliyat turiki, uning natijasida fermer xo'jaliklarining xususiy kapitali, qarzlari hajmi va strukturasi (tuzilishi) da o'zgarish hosil bo'ladi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot hisobot davri davomida operasion, investision va moliyaviy faoliyat natijasida xo'jalik yurituvchi subyekt olgan pul oqimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etishi lozim.

Operasion faoliyat - xo'jalik yurituvchi subyektning daromad keltiruvchi asosiy faoliyati. Odatda xo'jalik yurituvchi subyektning asosiy faoliyati mahsulotni sotishga, ishlarni bajarishga yoki xizmat ko'rsatishga karatilgan bo'lib unga quyidagilar kiradi:

1. Tovarlarini sotish va xizmat ko'ratishdan tushgan pul.

2. Royalti, badallar, vositachilik haqi va uzga yullar bilan pul mablagʻlari tushumi.

3. Tovarlar va xizmatlar uchun ularni yetkazib beruvchilarga pul toʻlovlari.

4. Xodimlarga va xodimlar nomidan toʻlovlar.

5. Sugurta kompaniyasining sugʻurta polislari boʻyicha mukofotlari, talablari, yillik va uzga toʻlovlari buicha pul tushumlari va toʻlovlar.

6. Soliqlar boʻyicha pul toʻlovlari yoki uni urnini bosuvchi toʻlovlar, agar ular investisiya va moliya faoliyatiga taallukli bulmasa.

7. Savdo yoki dilerlik maqsadlarida tuzilgan bitimlar boʻyicha pul tushumlari va toʻlovlar.

8. Boshqalar.

Investisiya faoliyati – pul ekvivalentlariga kiritilmagan uzoq muddatli aktivlar va boshqa investisiya obyektlarini sotib olish va sotish. Investisiya faoliyatidan olingan asosiy pul oqimlari quyidagilar:

1. Asosiy vositalarni, nomoddiy va uzga uzoq muddatli aktivlarni xarid qilishga pul toʻlovlari. Bu tajriba – konstruktorlik ishlariga ajratilgan sarmoyalashtirilgan xarajatlar, shuningdek xoʻjalik usuli bilan amalga oshirilgan kurilishlar bilan bogʻliq boʻlgan toʻlovlarni uz ichiga oladi.

2. Asosiy vositalarni, nomoddiy va uzga uzoq muddatli aktivlarni sotishdan olingan pul tushumi.

3. Boshqa subyektlarning aksiyalari yoki qarz majburiyatlarini hamda kushma korxonalarda ishtirok etish huquqini sotib olishga doir pul toʻlovlari, pul ekvivalentlari hisoblangan yoki dilerlik maqsadlariga yoki savdo maqsadlariga saklab quyilgan toʻlov hujjatlari boʻyicha toʻlovlar (veksellar kabi hujjatlar boʻyicha toʻlovlardan tashqari).

4. Boshqa subyektlarning aksiyalari va qarz majburiyatlarini hamda kushma korxonalarda ishtirok etish huquqini sotishdan kelgan pul tushumlari, pul ekvivalenti hisoblangan yoki dilerlik yoki savdo maqsadlari uchun saklanayotgan veksel kabi toʻlov hujjatlari boʻyicha tushumlar bunga kirmaydi.

5. Boshqa taraflarga berilgan bunaklar va kreditlar (moliyaviy muassasalarga berilgan bunaklar va kreditlardan tashqari).

6. Boshqa taraflarga berilgan bunaklar va ssudalar kaytarilishidan pul tushumlari (moliyaviy muassasalarga berilgan bunaklar va kreditlardan tashqari).

7. Fyuchers va forvard bitimlari, opsiyon bitimlari va svop bitimlari boʻyicha toʻlovlar, ular diler yoki savdo maqsadlari uchun muljallangan holatlar bundan istisno buladi yoki toʻlovlar moliyaviy faoliyat sifatida tasnif etiladi.

8. Fyuchers va farvard bitimlari, opsiyon bitimlar va svop bitimlar boʻyicha pul tushumlari, ular diler yoki savdo maqsadlariga muljallangan holatlar bundan mustisno yoki toʻlovlar moliyaviy faoliyat sifatida tasnif etiladi va boshqalar.

Moliyaviy faoliyat – bu faoliyat natijasida xoʻjalik yurituvchi subyektining oʻz mablagʻi va qarz mablagʻlari mikdori va tarkibidagi uzgarishlar yuz berishi aks etib unga quyidagilar kiradi:

1. Aksiyalar yoki o'z mablag'i bilan bog'liq boshqa vositalarni chiqishidan keladigan pul tushumlari.

2. Subyektlar aksiyalarning haqini to'lash yoki sotib olish uchun ularning egalariga to'lovlari.

3. Ta'minlanmagan obligasiya emissiyasidan moliya korxonalari tomonidan berilgan ssudalardan garovga quyilgan va boshqa qisqa hamda uzoq muddatli zayomlardan pul tushumlari.

4. Zayomlarni to'lash.

5. Moliyaviy lizing bo'yicha majburiyatlarni qisqartirish uchun ijarachilarning to'lovlari va boshqalar.

3.2. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni to'ldirish bo'yicha axborot manbalari va uni to'lg'azish

Pul oqimi to'g'risidagi hisobotni to'ldirishda asosiy manbalar bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Xo'jalik yurituvchi subyektning pul mablag'lari harakatini hisobga oluvchi 5000, 5100, 5200, 5500, 5600, 5700, 5800, 5900- hisobvaraqlarni hisobot davr ma'lumotlari.

2. Pul mablag'lari hisobi bo'yicha depozit hisobvaraqlaridan kuchirma, dastlabki hisob, xo'jalikni boshqa tashkilotlar bilan pul tushumi va to'lovlari bo'yicha o'zaro tekshiruv aktlari va boshqalar.

3. Xukumatning sxema asosida pul mablag'laridan foydalanish bo'yicha qarori.

4. Pul mablag'lari hisobini tashkil etish bo'yicha amaldagi qoidalar, me'yoriy hujjatlar va boshqa ayrim manbalar axboroti.

Ushbu manbalar va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002 yil 27 dekabrda 40-son buyrugi bilan tasdiqlangan «Moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirish bo'yicha qoidalar»ga asosan pul oqimi to'g'risidagi hisobot to'ldiriladi va uning tegishli satrlarida quyidagilar aks etadi:

010 – «Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan kelib tushgan pul mablag'lari» satrida sotilgan mahsulot, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun korxonaning bankdagi hisobvaraqlari va kassasiga hisobot davrida kelib tushgan pul mablag'lari summasi ko'rsatiladi.

020 – «Material, tovar, ish va xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilarga to'langan pul mablag'lari» satrida mol yetkazib beruvchilarga to'langan pul mablag'lari summasi ko'rsatiladi.

030 – «Xodimlarga va ular nomidan to'langan pul mablag'lari» satrida xodimlarga mexnat haqi shaklidagi to'langan pul mablag'lari, shuningdek davlat maqsadli jamgarmalariga to'langan mablag'lar summasi, jismoniy shaxslar tomonidan byudjetga to'langan daromad soligi, alimentlar, uy-joy fondiga, xodimlarga berilgan bank kreditlari uchun to'lov, korxonaning xodimlarga ko'rsatiladigan xizmatlarga haq to'lashi va kassadan hamda xodimlar bilan va ular nomidan operatsiyalarga to'g'ri keladigan bank hisobvaraqlaridan boshqa sarflar va

pul mablagʻlari hamda ularning ekvivalentlarini sarflash bilan bogʻliq kolgan sarflar koʻrsatiladi.

040 – «Operasion faoliyatning boshqa pul tushumlari va toʻlovlari» satrining chiqim ustunida royalti, turli xil takdirlashlar, komission yigimlar va boshqa operasion faoliyatdan toʻlangan pul mablagʻlari summasi, kirim ustunida esa ulardan olingan pul mablagʻlari summasi koʻrsatiladi.

050 – «Jami operasion faoliyatning sof pul kirimi/chiqimi» satrini kirim va chiqim ustunlari boʻyicha 010, 020, 030, satrlar summalarini qoʻshish (ayirish) natijalari koʻrsatiladi.

060 – «Asosiy vositalarni sotib olish va sotish» satrining chiqim ustunida mahsulot yetkazib beruvchilarga asosiy vositalarni xarid qilganlik uchun toʻlangan pul mablagʻlari summasi, kirim ustunida – asosiy vositalarni sotishdan kelib tushgan mablagʻlar summasi koʻrsatiladi.

070 – «Nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish» satrini chiqim ustunida ularni xarid qilganlik uchun mahsulot yetkazib beruvchilarga toʻlangan pul mablagʻlari summasi, kirim ustunida – nomoddiy aktivlarni sotganlik uchun kelib tushgan mablagʻlar summasi koʻrsatiladi.

080 – «Uzoq muddatli va qisqa muddatli investisiyalarni sotib olish va sotish» satrining chiqim ustunida qimmatli qogʻozlar va investisiyalar boshqa dastaklarini xarid qilish uchun toʻlangan pul mablagʻlari summasi, kirim ustunida esa qimmatli qogʻozlar va investisiyalar boshqa dastaklarini sotishdan tushum summasi aks ettiriladi.

090 – «Investisiya faoliyatining boshqa pul tushumlari va toʻlovlari» satrining chiqim ustunida boshqa investision faoliyatga oid toʻlangan summalar, kirim ustunida esa olingan pul mablagʻlari summasi koʻrsatiladi.

100 – «Jami investision faoliyatning sof pul kirimi/chiqimi» satriining kirim va chiqim ustunlarida 060, 070, 080, 090 satrlar yigʻindisi koʻrsatiladi.

110 – «Olingan va toʻlangan foizlar» satrining kirim ustunida olingan foizlar summasi, chiqim ustunida esa toʻlangan foizlar summasi koʻrsatiladi.

120 – «Olingan va toʻlangan dividendlar» satrini kirim ustunida olingan dividendlar summasi, chiqim ustunida toʻlangan dividendlar summasi koʻrsatiladi.

130 – «Aksiyalar chiqarishdan yoki xususiy kapital bilan bogʻliq boʻlgan boshqa instrumentlardan kelgan pul tushumi» satrida hisobot yilida chiqarilgan (sotilgan) aksiyalar yoki uz kapitali bilan bogʻliq boshqa dastaklar uchun aksiyadorlardan tushgan pul mablagʻlari summasi koʻrsatiladi.

140 – «Xususiy aksiyalar sotib olingandagi pul toʻlovlari» satrida korxonada boʻlgan uz aksiyalari uchun, ularni keyingi tarkatish yoki yuk qilish maqsadida, egalariga toʻlangan pul mablagʻlari summasi koʻrsatiladi.

150 – «Uzoq va qisqa muddatli kreditlar va qarzlar boʻyicha pul tushumlari va toʻlovlari» satrining kirim ustunida hisobot davrida kelib tushgan kreditlar va qarzlar summasi, chiqim ustunida esa ular boʻyicha toʻlovlar koʻrsatiladi.

160 – «Uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing) boʻyicha pul tushumlari va toʻlovlari» satrining chiqim ustunida ijaraga beruvchiga (lizing beruvchiga)

to'langan summa, kirim ustunida – ijarachidan (lizing oluvchidan) tushgan summa ko'rsatiladi.

170 – «Moliyaviy faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlari» satrining chiqim va kirim ustunlarida boshqa moliyaviy faoliyatga oid to'lov va olingan pul mablag'lari summolari ko'rsatiladi.

180 – «Jami moliyaviy faoliyatning sof pul kirimi/chiqimi» satrining kirim va chiqim ustunlarida 110, 120, 130, 140, 150, 160, 170 satrlar summolari yig'indisi (+, - xolida) ko'rsatiladi.

190 – «Tulangan daromad (foyda) soligi» satrida shu soliq bo'yicha to'langan summa ko'rsatiladi.

200 – «Tulangan boshqa soliqlar» satrida to'langan soliqlar, bojlar va ularga tenglashtirilgan yigimlar hamda ajratmalar summasi ko'rsatiladi, bundan yukoridagi daromad (foyda) soligi mustasno.

210 – «Jami to'langan soliqlar» satrida 190, 200 satrlar yig'indisi ko'rsatiladi.

220 – «Jami moliyaviy xo'jalik faoliyatining sof pul kirimi/chiqimi» satrining kirim va chiqim ustunlarida 050, 100, 180, 210 satrlar summasining yig'indisi (+, - xolida) aks ettiriladi.

230 – «Yil boshidagi pul mablag'lari» satrida korxona balansi 320-satri 3-ustuni bo'yicha kayd etilgan 5000, 5100, 5200, 5500, 5600, 5700-hisobvaraqlar qoldiq summolari ko'rsatiladi.

240 – «Yil oxiridagi pul mablag'lari» satrida korxona balansi 320-satri 4-ustunida ko'rsatilgan 5000, 5100, 5200, 5500, 5600, 5700-hisobvaraqlar koldigi ko'rsatiladi.

Hisobotning «Chet el valyutada pul mablag'larining harakati to'g'risida ma'lumot» bo'limida hisobot davrda valyuta pul mablag'larining harakati O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida, valyuta mablag'lari koldigi esa, hisobot davrining oxirgi sanasiga aks ettiriladi.

Ma'lumotnomaning 250 – «Yil boshiga qoldiq» satrida hisobot davr boshiga korxonaning 5200 va 5000 hisobvaraqlarida bo'lgan valyuta mablag'lari summasi ko'rsatiladi.

260 – «Kelib tushgan valyuta mablag'lari jami» satrida 261, 262, 263, 264-satrlari bo'yicha hisobot davrida tushgan summalar yig'indisi ko'rsatiladi.

270 – «Sarflangan valyuta mablag'lari, jami» satrida 271, 272, 273-satrlar summasi yig'indisi ko'rsatiladi.

271 – «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lovlar» satrida mol-mulkni xarid qilishga sarflangan valyuta mablag'lari summasi, 272 – «Moliyaviy faoliyat bo'yicha to'lovlar» satrida moliyaviy faoliyat bo'yicha sarflangan valyuta mablag'lari summasi ko'rsatiladi.

273 – «Boshqa maqsadlar uchun» satrida 271, 272- satrlarda kayd etilmagan valyuta mablag'larini boshqa maqsadlarga bo'lgan sarfi ko'rsatiladi.

Ma'lumotnomaning 280 – «Yil oxiridagi qoldiq» satrida hisobot yili oxirida korxonaning valyuta hisobvaraqlari va kassasida bo'lgan (250+260-270 satrlar) valyuta mablag'lari summasi ko'rsatiladi.

3.3. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot bo'yicha o'zaro bog'lanishlar

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2002 yil 27 dekabrda 40-son buyrugi bilan tasdiqlangan moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirish bo'yicha qoidalarga asosan «Pul oqimlari to'g'risida hisobot (4-shakl)»ni tuzishda quyidagi o'zaro bog'lanishlarga rioya qilinishi lozim:

1. Satr 050 ustun 4 = satr 010+020+030+040 ustun 4
2. Satr 050 ustun 3 = satr 010+020+030+040 ustun 3
3. Satr 100 ustun 3 = satr 060+070+080+090 ustun 3
4. Satr 100 ustun 4 = satr 060+070+080+090 ustun 4
5. Satr 180 ustun 3 = satr 110+120+130+140+150+160+170 ustun 3
6. Satr 180 ustun 4 = satr 110+120+130+140+150+160+170 ustun 4
7. Satr 210 ustun 3 = satr 190+200 ustun 3
8. Satr 220 ustun 4 = satr 050+100+180 ustun 4 – 210 ustun 4
9. Satr 230 satr 3 = shakl 1, satr 320 ustun 3
10. Satr 230 satr 4 = shakl 1, satr 320 ustun 4
11. Satr 260 = satr 261+262+263+264
12. Satr 270 = satr 271+272+283
13. Satr 280 = satr 250+260-270

Shu kabi hisobotni 110, 120-satrlari summasini moliyaviy hisobot 2-shaklini 120, 130, 180 satrlari summalari bilan, 190, 200 satrlar summasini (4-shakl) 250, 260 satrlar (2-shakl) summalari bilan ma'lum bog'liqlik mavjud.

4-ma'ruza. INVESTITSİYALAR HISOBİ

4.1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalashtirish sharoitida investitsiyalarning roli va bu sohada hisobning vazifalari.

4.2. Investitsiyalar hisobini tashkil qilish. Investitsiyalarni turkumlash.

4.1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalashtirish sharoitida investitsiyalarning roli va bu sohada hisobning vazifalari.

Investitsiyalar — investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

– mablag'larni, shu jumladan, pul mablag'larini (shu jumladan chet el valyutasini), maqsadli bank omonatlarini, paylarni, ulushlarni, aksiyalarni, obligatsiyalarni, veksellar va boshqa qimmatli qog'ozlarni;

– ko'char va ko'chmas mol-mulkni (binolar, inshootlar, uskunalar, mashinalar va boshqa moddiy qimmatliklarni);

- intellektual mulkka doir mulkiy huquqlarni, shu jumladan u yoki bu ishlab chiqarish turini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan, texnik hujjatlar, ko‘nikmalar va ishlab chiqarish tajribasi tarzida rasmiylashtirilgan, patentlangan yoki patentlanmagan (nou-xau) texnik, texnologik, tijoratga oid va boshqa bilimlarni, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa qimmatliklarni;
 - investor – foyda olish maqsadida investitsiya faoliyati obyektlariga o‘zining mablag‘larini va (yoki) qarz mablag‘larini yoxud jalb qilingan boshqa investitsiya resurslarini investitsiya qilishni amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati subyekti;
 - mahalliy investorlar – investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, O‘zbekiston Respublikasi rezidenti maqomiga ega bo‘lgan chet ellik fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari;
 - reinvestitsiyalar – investitsiyalardan olingan, tadbirkorlik faoliyati va boshqa faoliyat turlari obyektlariga kiritiladigan har qanday daromad, shu jumladan, foyda, foizlar, dividendlar, royalti, litsenziya va vositachilik haqlari, texnik yordam, texnik xizmatlar uchun to‘lovlar va haqlarning boshqa turlari.
 - to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalari — chet ellik investorning hukumat kafolatlarisiz, tavakkalchilik sharoitlarida o‘z mablag‘lari yoki qarz mablag‘lari hisobidan investitsiyalari;
 - chet el investitsiyalari — chet ellik investor tomonidan ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo‘lgan huquqlar, shu jumladan, intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlar, shuningdek, reinvestitsiyalar;
 - chet ellik investorlar — chet davlatlar, chet davlatlarning ma‘muriy yoki hududiy organlari, davlatlar o‘rtasidagi bitimlarga yoki boshqa shartnomalarga muvofiq tuzilgan yoki xalqaro ommaviy huquq subyekti bo‘lgan xalqaro tashkilotlar, chet davlatlarning qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan va faoliyat ko‘rsatadigan yuridik shaxslar, har qanday boshqa shirkatlar, tashkilotlar yoki uyushmalar, chet davlat fuqarolari va O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida doimiy yashaydigan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar;
 - O‘zbekiston Respublikasi hududidagi chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar — aksiyalarining (ulushlarining, paylarining) yoki ustav fondining (ustav kapitalining) kamida o‘n besh foizini chet el investitsiyalari tashkil etadigan korxonalar.
- O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatining asosiy yo‘nalishlari orasida quyidagilarni alohida ta’kidlab ko‘rsatish mumkin:
- investitsiya jalb qilish uchun xalqaro me‘yor va konvensiyalarga mos, sanoati rivojlangan mamlakatlar investorlari tomonidan tan olinadigan huquqiy shart-sharoitlarni yaratishga intilish;
 - respublikaga jahon darajasidagi texnologiyalarni yetkazib beradigan va iqtisodiyotning zamonaviy tuzilishini vujudga keltirishga yordam beradigan investorlar uchun ochiq eshiklar siyosatini izchillik bilan amalga oshirish;
 - ishlab chiqarish bilan bog‘liq investitsiyalarni kiritishga ko‘maklashish;

- mamlakatning kredit qobiliyatini qo'llab-quvvatlash;
- mamlakatning ayrim mintaqalarida ijtimoiy va ekologiya muammolarini hal qilishga qaratilgan investitsiyalarni kiritishga yordam berish

Investitsiya inglizcha investment so'zidan olingan bo'lib, sarmoya qo'yish degan ma'noni anglatadi. O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Qonunining 2-moddasiga binoan, investitsiyalar – iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy investitsiyalarni hisobga olishning vazifalari quyidagilardir:

- uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarni va ular bo'yicha olingan daromadlarni o'z vaqtida va to'g'ri aniqlash;
- uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar uchun ajratilgan mablag'larni o'z vaqtida hisobdan chiqarishni ta'minlash;

- uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarni hisobga olishda BHMSlarini keng qo'llash;
- uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalardan olingan daromadlarning korxona moliyaviy natijalarida aks ettirilishini ta'minlash;

- uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalardan olingan daromadlardan byudjetga tegishli qismini amaldagi me'yoriy hujjatlarga, Soliq Kodeksining talabiga muvofiq to'g'ri hisoblashni tashkil qilish, byudjetga tegishli qismini o'z vaqtida o'tkazishni ta'minlash;
- uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar hisobiga kelib tushgan mablag'lardan korxonani kengaytirish, rivojlantirish va korxona jamoasi ehtiyoji uchun ishlatishni ta'minlash.

4.2. Investitsiyalar hisobini tashkil qilish. Investitsiyalarni turkumlash.

Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar – bu uzoq muomala muddatiga ega (12 oydan ortiq) aktivlarning sotib olinishiga oid investitsiyalardir.

Qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar – o'zida muomala muddati 12 oydan oshmaydigan, yengil sotiladigan moliyaviy aktivlarning xarid qilinishiga oid investitsiyalardir.

Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarni buxgalteriya hisobida hisobgada quyidagi guruhlariga ajratiladi:

- Qimmatli qog'ozlar;
- Sho'ba korxonalariga investitsiyalar;
- Qaram birlashmalarga investitsiyalar;
- Qo'shma korxonalarga investitsiyalar;
- Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar

Real investitsiyalar – bu korxona asosiy vositalarini vujudga keltirish va takror ishlab chiqarishga, shuningdek, moddiy ishlab chiqarishning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo'shiladigan investitsiyalardir. Buxgalteriya hisobida bu turdagi investitsiyalar kapital qo'yilmalar sifatida e'tirof etiladi.

Moliyaviy investitsiyalar - xo‘jalik yurituvchi subyekt tasarrufidagi daromad olishga (foiz, royalti, dividend va ijara haqi shaklida) mo‘ljallangan, investitsiya qilingan sarmoya qiymatining ortishi yoki investitsiya qiluvchi kompaniya boshqa naf olish uchun foydalanadigan aktivlar.

Intellectual investitsiyalar – bu korxonaning intellektual boyliklarini xarid qilishga sarflangan mablag‘lar.

Moliyaviy qo‘yilma – bu korxonaning qimmatli qog‘ozlarni sotib olish uchun qilgan xarajatlari (pul mablag‘larini qo‘shma korxonalar, aksioner jamiyatlari, shirkatlarning asosiy vositalari, nomoddiy va boshqa aktivlariga qo‘shish), boshqa korxonalarga qarz tarzida berilgan debitor qarzlaridir.

Mo‘ljallangan obyektiga ko‘ra investitsiyalarning turlari:

1. Kapital investitsiyalar
2. Ijtimoiy investitsiyalar
3. Innovatsiya investitsiyalari

Kapital investitsiyalar - asosiy fondlarni vujudga keltirish va takror ishlab chiqarishga, shu jumladan yangi qurilishga, modernizatsiyalashga, rekonstruksiya qilishga, texnik jihatdan qayta jihozlashga, shuningdek moddiy ishlab chiqarishning boshqa shakllarini rivojlantirishga kiritiladigan investitsiyalar kiradi.

Innovatsiya investitsiyalar – yangi yoki takomillashtirilgan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni), ishlab chiqarish jarayonini, tadbirkorlik faoliyatini yuritishda yangi marketing uslubini yoki tashkiliy uslubni ishlab chiqish va o‘zlashtirishga kiritiladigan investitsiyalar kiradi.

Ijtimoiy investitsiyalar inson salohiyatini, ko‘nikmalarini va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek, nomoddiy ne‘matlarning boshqa shakllarini rivojlantirishga kiritiladigan investitsiyalar kiradi.

Investitsiya resurslariga quyidagilar kiradi:

- pul va boshqa moliyaviy mablag‘lar, shu jumladan, kreditlar, paylar, aksiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar;
- ko‘char va ko‘chmas mol-mulk (binolar, inshootlar, uskunalar va boshqa moddiy qimmatliklar) hamda ularga bo‘lgan huquqlar;
- intellektual mulk obyektlari, shu jumladan, texnikaviy hujjatlar tarzida tuzilgan texnikaga, texnologiyaga, tijoratga oid va boshqa bilimlar, u yoki bu turdagi ishlab chiqarishni tashkil etish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar va ishlab chiqarish tajribasi majmui, nou-xau;
- yerga va boshqa tabiiy resurslarga, binolarga, inshootlarga, uskunalarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqi, shuningdek, mulk huquqidan kelib chiquvchi boshqa ashyoviy huquqlar.

Investitsiya resurslariga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa qimmatliklar ham kiritilishi mumkin.

21-son BHMS tomonidan uzoq muddatli investitsiyalarni buxgalter hisobi uchun quyidagi 0600 "Uzoq muddatli investitsiyalar" guruhi schyotlari oldindan ko‘rib chiqilgan:

0610 "Qimmatli qog‘ozlar";

0620 "SHo'ba xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar";
0630 "Qaram xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar";
0640 "Chet el kapitali mavjud bo'lgan korxonalarga investitsiyalar";
0690 "Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar".

Qimmatli qog'ozlar – hujjatlar bo'lib, ular mazkur hujjatlarni chiqargan yuridik shaxs bilan ularning egasi o'rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlaydi, dividendlar yoki foizlar tarzida daromad to'lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga o'tkazish imkoniyatini nazarda tutadi.

Qimmatli qog'ozlarning quyidagi turlari mavjud:

- aksiyalar;
- obligatsiyalar;
- g'aznachilik majburiyatlar;
- depozit sertifikatlar;
- vekselar;
- qimmatli qog'ozlarning yasamolari.

Qimmatli qog'ozlar chiqarilish shakliga ko'ra blankalar tarzida hujjatli va elektron shakldagi hisobga olish registrlaridagi yozuvlar tarzida hujjatsiz bo'lishi mumkin

Qimmatli qog'ozlarning chiqarilish shakli qonun hujjatlariga muvofiq qimmatli qog'ozlar chiqarish to'g'risidagi qarorda belgilanadi.

Aksiyalar, korporativ va infratuzilma obligatsiyalari, shuningdek depozitar tilxatlar hujjatsiz shaklda chiqariladi.

Emissiya qimmatli qog'ozlari chiqarilishi O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasining qimmatli qog'ozlar bozorini koordinatsiya va rivojlantirish bo'yicha Markazda davlat ro'yxatidan o'tilishi lozim.

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni davlat ro'yxatidan o'tkazganlik uchun yig'im quyidagi hollarda undirilmaydi:

– aksiyalar O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan emissiya risolasi asosida chiqarilgan taqdirda;

– O'zR Prezidenti yoki O'zR Vazirlar Mahkamasi qarorlari bo'yicha;

– infratuzilma obligatsiyalari va opsion chiqarilgan taqdirda. Qimmatli qog'ozlarni chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun

"Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi" Qonun tomonidan qimmatli qog'ozlar bozorida quyidagi cheklovlar belgilangan.

Taqiqlanadi:

- emitentga yoki qimmatli qog'ozlarga taalluqli axborotni oshkor qilmasdan qimmatli qog'ozlar emissiyasini amalga oshirish;

- chiqarilishi ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollarda davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan yoki to'xtatib qo'yilgan qimmatli qog'ozlarni joylashtirish, ularning muomalasi, ularni reklama qilish va taklif etish;

- qimmatli qog'ozlar egasining o'z depo hisobvarag'ida bo'lgan qimmatli qog'ozlarning qiymati to'liq to'languniga qadar ularga doir bitimlar tuzishi, bundan nettingdan foydalanish mustasno;

- hiyla-nayrang ishlatish va insayder axborotdan foydalanish;

- emitentning ustav fondi shakllantirilguniga qadar (tijorat banklarining ustav fondini shakllantirish hollari bundan mustasno), shuningdek, emitentning ustav fondini to'ldirish yoki emitentning moliya-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq zararlarining o'rnini qoplash uchun korporativ obligatsiyalar chiqarish.

- obligatsiyalarning chiqarilishi ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin obligatsiyalar chiqarish to'g'risidagi qarorning shu qaror bilan belgilangan obligatsiyalarga doir huquqlar hajmiga taalluqli qismiga emitent tomonidan o'zgartishlar kiritish;

- qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchisining va Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysining majburiyatlari bo'yicha mijozning qimmatli qog'ozlari va pul mablag'larini undirish;

- emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni ommaviy joylashtirishda va (yoki) ularning muomalasida bir investorga boshqasiga nisbatan afzallik belgilash, alohida hollar bundan mustasno;

- emitent o'zi chiqargan aksiyalar bo'yicha ularni qayta sotib olish sharti bilan bitimlar tuzishi, shuningdek, o'zi chiqargan aksiyalarni ishonchli boshqaruvga topshirishi.

Aksiya – o'z egasining aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etishga va u tugatilganidan keyin qoladigan molmulkning bir qismiga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan, egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'oz.

Oddiy aksiyalar ovoz beruvchi hisoblanadi, ular egasiga dividend olishga, jamiyatni boshqarishda ishtirok etishga huquq beradilar.

Imtiyozli aksiyalar deb egasiga, birinchi navbatda, dividend, shuningdek, jamiyat tugatilishida aksiyalarga hissa qilingan vositalarni olishga huquq beradigan aksiyalar hisoblanadi. Imtiyozli aksiyalar egasiga belgilangan dividendlarni korxonaning daromadi mavjudligidan mustaqil ravishda olishga huquq beradi.

Qimmatli qog'ozlar bilan birjadan tashqari bitimlar depozatariyda quyidagi operatsiyalar amalga oshirilganda ro'yxatga olinishi lozim:

– qimmatli qog'ozlar tegishli shartnomalarni tuzish yo'li bilan birinchi egalariaga begonalashtirilganda; – aksiyadorlarning talabiga ko'ra aksiyadorlik jamiyati tomonidan o'z aksiyalari sotib olinganda;

– qimmatli qog'ozlar yuridik shaxslarning ustav fondiga kiritilganda;

– ayirboshlanganda;

– hadya berilganda

– meros qilib berilganda;

– garovga qo'yilganda;

– egasining almashinuviga olib keladigan boshqa qimmatli qog'ozlar bilan birjadan tashqari bitimlar tuzilganda.

Quyidagi faoliyatlarni amalga oshiruvchi xo‘jalik yurituvchi obyektlarda aksiyalarni xarid qilish bo‘yicha bitimlarni amalga oshirishga rozilik talab qilinadi:

- agar bitimlarni tuzish paytida tovar bozorida faoliyatni amalga oshiruvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlardagi tegishli aktivlarning jami balans qiymati yoki oxirgi kalendar yilda tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan jami tushum eng kam oylik ish haqining yuz ming baravari miqdoridan ortiq bo‘lsa yoxud bitim qatnashchilaridan biri tovar bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo‘jalik yurituvchi shaxs hisoblansa;

- agar moliya bozorida o‘z faoliyatini amalga oshiruvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlardagi aktivlarning jami balans qiymati qonuniy hujjatlarda nazarda tutilgan miqdordan ohsa yoxud bitim qatnashchilaridan biri moliya bozorida ustun mavqega ega bo‘lsa.

Obligatsiya – emissiyaviy qimmatli qog‘oz bo‘lib, u obligatsiyani saqlovshining obligatsiyaning nominal qiymatini yoki boshqa mulkiy ekvivalentini obligatsiyani chiqargan shaxsdan obligatsiyada nazarda tutilgan muddatda olishga, obligatsiyaning nominal qiymatidan qat’iy belgilangan foizni olishga bo‘lgan huquqini yoxud boshqa mulkiy huquqlarini tasdiqlaydi.

Obligatsiyalar korporativ va infratuzilish turlariga bo‘linadi. Korporativ obligatsiyalar deb tashkiliy-huquqiy shaklidan mustaqil ravishda tijorat banklari va aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan chiqariladigan obligatsiyalar hisoblanadi. Ular quyidagi shartlarga rioya qilinganda chiqariladi:

- auditorlik tashkilotining xulosasi bilan tasdiqlangan o‘z kapitalining obligatsiyalar chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilingan sanadagi miqdori doirasida;

- oxirgi uch yil mobaynida rentabellik, to‘lovga qobiliyatlilik, moliyaviy barqarorlik va likvidlilikning auditorlik tashkiloti xulosalari bilan tasdiqlangan ijobiy ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan emitentlar bilan. Mazkur talablar tijorat banklariga tadbiq etilmaydi.

- qonuniy hujjatlar bilan belgilangan tartibda mustaqil reyting bahosini olgan emitentlar bilan;

- investorlarga tegishli mablag‘larning emitentlar tomonidan to‘lanishi bo‘yicha to‘lov agentlari vazifasini bajaruvchi tijorat banklari ishtirokida;

- ustav kapitalini qonun hujjatlarida belgilangan eng kam miqdordan kam bo‘lmagan miqdorda shakllantirgan; - kamida uch yildan beri faoliyat yuritayotgan.

Tijorat banklari – ochiq aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan ustav bilan belgilangan bank ustav kapitali miqdori doirasida obligatsiyalar chiqarilgan taqdirda qaror qabul qilingan sanadagi auditorlik tashkilotining o‘z kapitali miqdoriga doir xulosasining mavjudligi talab qilinmaydi.

Infratuzilma obligatsiyalari – ishlab chiqarish infratuzilmasini va boshqa infratuzilmani barpo etish va (yoki) rekonstruksiya qilishni moliyalashtirish uchun pul mablag‘larini jalb etish maqsadida xo‘jalik jamiyatlari va davlat korxonalari

tomonidan chiqariladigan obligatsiyalar. Infratuzilma obligatsiyalari quyidagi shartlarga rioya etgan holda:

- emitentning bunday obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadagi, auditorlik tashkiloti xulosasi bilan tasdiqlangan o'z kapitali va chiqarilish bo'yicha qo'shimcha ta'minot miqdori doirasida;
- infratuzilma obligatsiyalarini joylashtirishdan olingan mablag' - lardan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorida nazarda tutilgan loyihani moliyalashtirish uchun foydalanilsa;

- infratuzilma obligatsiyalari bo'yicha emitentning majburiyatlari ular to'liq muomaladan chiqarilguniga qadar belgilangan tartibda sug'urtalangan bo'lsa, chiqariladi.

Davlat korxonalari infratuzilma obligatsiyalarini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda chiqaradi.

Infratuzilma obligatsiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag'lar alohida bank hisobvarag'ida jamlanadi va emitentning ulardan maqsadli foydalanilishini nazorat qiluvchi kuzatuv kengashi yoki yuqori boshqaruv organi qaroriga ko'ra sarflanadi.

Boshqa korxonalarning qimmatli qog'ozlariga, mamlakat hududida va xorijda tuzilgan sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlari va boshqa korxonalarning ustav kapitallariga qilingan uzoq muddatli investitsiyalar (qo'yilmalar)ning mavjudligi va harakati hamda boshqa korxonalarga berilgan uzoq muddatli qarzlarni to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

0610 "Qimmatli qog'ozlar";

0620 "Sho'ba xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar";

0630 "Qaram xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar";

0640 "Chet el kapitali mavjud bo'lgan korxonalarga investitsiyalar";

0690 "Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar".

Aktivlarni investitsiyalar tarkibiga kiritish va ularning turlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998 yil 25 dekabrda 65-son bilan tasdiqlangan Buxgalteriya hisobining milliy standarti (12-son BHMS) "Moliyaviy investitsiyalar hisobi" (1999 yil 16 yanvarda 596-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) ("O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralari me'yoriy hujjatlar axborotnomasi", 1999 y., 3 va 6-son) va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998 yil 14 oktyabrda 50-son bilan tasdiqlangan Buxgalteriya hisobining milliy standarti (8-son BHMS) "Konsolidasiyalashtirilgan moliyaviy hisobotlar va sho'ba xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar hisobi" (1998 yil 28 dekabrda 580-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) ("O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralari me'yoriy hujjatlar axborotnomasi", 1999 y., 6-son) bilan tartibga solinadi.

0610 "Qimmatli qog'ozlar" schyotida obligatsiyalar, aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarga qilingan uzoq muddatli investitsiya (quyilma)larning mavjudligi va harakati hisobga olinadi.

0620 "Sho'ba xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar", 0630 "Qaram xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar", 0640 "Chet el kapitali mavjud bo'lgan korxonalarga

investitsiyalar" schyotlarida tegishli chet el kapitali mavjud bo'lgan sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlariga qilingan uzoq muddatli investitsiyalarning mavjudligi va harakati hisobga olinadi.

0690 "Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar" schyotida yuqorida keltirilgan schyotlardahisobga olinmagan boshqa uzoq muddatli investitsiyalar hisobga olinadi.

Aksiyalar, obligasiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar sotib olish bahosida 0610 "Qimmatli qog'ozlar" schyotining debetida ushbu qo'yilmalar hisobiga berilgan qiymatliklar hisobga olinadigan schyotlar bilan bog'langan holda hisobga olinadi.

Agar korxona tomonidan xarid qilingan obligasiyalar va boshqa qarzga oid qimmatli qog'ozlarning xarid qiymati ularning nominal qiymatidan yuqori bo'lsa, u holda xarid qilingan vaqtdan to qoplash vaqtigacha bo'lgan davrda xarid qiymati va nominal qiymat o'rtasidagi farq qismi hisobdan chiqariladi. Bunda 9690 "Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar" schyotining debeti va 0610 "Qimmatli qog'ozlar" schyotining krediti bo'yicha yozuvlar amalga oshiriladi.

Agar korxona tomonidan xarid qilingan obligasiyalar va boshqa qarzga oid qimmatli qog'ozlarning xarid qiymati ularning nominal qiymatidan past bo'lsa, u holda xarid qilingan vaqtdan to qoplash vaqtigacha bo'lgan davrda xarid qiymati va nominal qiymati o'rtasidagi farq qismi qo'shimcha hisoblanadi. Bunda 0610 "Qimmatli qog'ozlar" schyotining debeti va 9590 "Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari" schyotining krediti bo'yicha yozuvlar amalga oshiriladi.

Yuqorida ko'rsatilgan har ikkala holatda ham qimmatli qog'ozlarni qoplash muddati kelganda 0610 "Qimmatli qog'ozlar" schyotida hisobga olingan baho nominal qiymatga to'g'ri kelishi lozim.

Qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizlar (dividendlar) hisoblanganda 4830 "Olinadigan foizlar" yoki 4840 "Olinadigan dividendlar" schyotining debeti va 9530 "Foizlar ko'rinishidagi daromadlar" yoki 9520 "Dividendlar ko'rinishidagi daromadlar" schyotlarining krediti bo'yicha yozuvlar amalga oshiriladi.

Uzoq muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schyotlar bo'yicha analitik hisob uzoq muddatli investitsiyalarning turlari va ushbu investitsiyalar amalga oshirilgan obyektlar (qimmatli qog'ozlarni sotuvchi-korxonalar, korxona ishtirokchisi hisoblangan sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlari va shu kabilar) bo'yicha yuritiladi. Bunda analitik hisobning tashkil qilinishi O'zbekiston Respublikasi hududi va xorijdagi obyektlarga qilingan uzoq muddatli investitsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni olish imkoniyatini ta'minlashi lozim.

Uzoq muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schyotlar (0600)ning bog'lanishi:

T/r	Xo'jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog'lanishi	
		Debet	Kredit
1	Sotuvchi korxonaga asosiy vositalarni berish yo'li bilan qimmatli qog'ozlarni xarid qilish	0610	9210

2	Sotuvchi korxonaga nomoddiy aktivlar va materiallar berish yoʻli bilan qimmatli qogʻozlarni xarid qilish	0610	9220
3	Sotuvchi korxonaga mahsulot, tovar, ish, xizmatlarni berish yoʻli bilan qimmatli qogʻozlarni xarid qilish	0610	9010, 9020, 9030
4	Sotuvchi korxonaga oʻrnatiladigan asbob-uskunalarini berish yoʻli bilan qimmatli qogʻozlarni xarid qilish	0610	9220
5	Qimmatli qogʻozlar uzoq muddatli investitsiyalar sifatida tekinga olinganda	0610	8530
6	Boshqa korxonalarning qimmatli qogʻozlari xarid qilinganda	0610	5010-5530
7	Debitorlik qarzlari hisobiga qimmatli qogʻozlarning xarid qilinishi	0610	Olinadigan schyotlar
8	Qisqa muddatli investitsiyalar tarkibi oʻzgartirilganda (restrukturizasiya)	0610	5810-5890
9	Taʼsischilarning korxona ustav kapitaliga ularning ulushi sifatida berilgan qimmatli qogʻozlarning qiymati	0610	4610
10	Korxona qimmatli qogʻozlarga tegishli huquqlar unga oʻtganligi toʻgʻrisida guvohnoma oldi	0610	6990, 7920
11	Obligatsiyalar va boshqa qarzga oid qimmatli qogʻozlarning xarid va nominal qiymatlari oʻrtasidagi farq: a) nominal qiymati xarid qiymatidan yuqori; b) xarid qiymati nominal qiymatdan yuqori.	0610 9690	9590 0610
12.	Chet el valyutasidagi uzoq muddatli investitsiyalar bilan bogʻliq operatsiyalar boʻyicha kurs farqlari: Ijobiy Salbiy	0610 9620	9540 0610
13	Uzoq muddatli investitsiyalarni: a) shoʻba xoʻjalik jamiyatlarida; b) qaram xoʻjalik jamiyatlarida; v) chet el kapitali mavjud boʻlgan korxonalarda aks ettirish.	0620 0630 0640	9010-9030, 9210-9220
14	Uzoq muddatli investitsiyalar sifatida hisobga olingan qimmatli qogʻozlarning qoplanishi (sotib olinishi)	5110-5530	0610
15	Uzoq muddatli investitsiyalar sifatida hisobga olingan qimmatli qogʻozlarning sotilishi	9220	0610

Korxonaning boshqa korxonalar qimmatli qog'ozlariga qilingan qisqa muddatli (bir yil muddatdan ko'p bo'lmagan) investitsiyalari (qo'yilmalar) davlat qarzlarining foizli obligasiyalari, boshqa korxonalarga berilgan qarzlar va boshqalarning naqdligi va harakati to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

5810 "Qimmatli qog'ozlar";

5830 "Berilgan qisqa muddatli qarzlar";

5890 "Boshqa joriy investitsiyalar".

5810 "Qimmatli qog'ozlar" schyotida aksiyalarga, davlat qarzlarining foizli obligasiyalariga va boshqa qimmatli qog'ozlariga qo'yilgan qisqa muddatli investitsiyalarning mavjudligi va harakati hisobga olinadi.

Obligasiya va boshqa qimmatli qog'ozlar 5810 "Qimmatli qog'ozlar" schyotiga sotib olish qiymatida kirim qilinadi.

Korxonada aksiya, obligasiya va boshqa qimmatli qog'ozlarning sotib olinishi 5810 "Qimmatli qog'ozlar" schyotining debetida va pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar va agar qimmatli qog'ozlar uchun to'lov moddiy yoki boshqa qiymatliklar (pul mablag'laridan tashqari) orqali amalga oshirilsa, moddiy va boshqa qiymatliklarning sotilishini hisobga oluvchi schyotlarning kreditida hisobga olinadi.

Agar sotib olingan obligasiya va boshqa qarzga oid qimmatli qog'ozlarning sotib olish bahosi ularning nominal qiymatidan farq qilsa, u holda sotib olish va nominal qiymati o'rtasidagi farq shunday hisobdan chiqarilishi yoki qo'shimcha hisoblanishi kerakki, 5810 "Qimmatli qog'ozlar" schyotida hisobga olingan qimmatli qog'ozlarning bahosi ularni qoplash davrida nominal qiymatiga muvofiq bo'lishi lozim. Sotib olish va nominal qiymati o'rtasidagi farq qoplanadigan vaqtgacha bo'lgan davrda 5810 "Qimmatli qog'ozlar" schyotining debeti (qo'shimcha hisoblash)da yoki krediti (hisobdan chiqarish)da, 9590 "Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari" yoki 9690 "Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar" schyotlari bilan bog'langan holda aks ettiriladi.

"Qimmatli qog'ozlar" schyotida hisobga olingan obligasiya va boshqa qimmatli qog'ozlarning qoplanishi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlarning debeti va 5810 "Qimmatli qog'ozlar" schyotining kreditida aks ettiriladi.

5830 "Berilgan qisqa muddatli qarzlar" schyotida korxonaning boshqa korxonalarga qisqa muddatga bergan pulli va boshqa qarzlarining harakati hisobga olinadi.

Berilgan qarzlar 5830 "Berilgan qisqa muddatli qarzlar" schyotining debetida pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar bilan bog'langan holda aks ettiriladi. Qarzlarining qaytarilishi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlarning debeti va 5830 "Berilgan qisqa muddatli qarzlar" schyotining kreditida aks ettiriladi.

5890 "Boshqa joriy investitsiyalar" schyotida korxonalarning bank va boshqa omonatlarga so'mdagi va chet el valyutasidagi qo'yilmalarining harakati hisobga olinadi.

Omonatlarga pul mablag‘larining o‘tkazilishi korxonalarda 5890 “Boshqa joriy investitsiyalar” schyotining debetida pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi. Hisobda bank tomonidan omonatlar summasi qaytarilganda korxonada teskari yozuv amalga oshiriladi.

Qisqa muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schyotlar (5800) bo‘yicha analitik hisob qisqa muddatli investitsiyalarning turlari va ushbu qo‘yilmalar amalga oshirilgan obyektlar (qimmatli qog‘ozlarni sotuvchi-korxonalar, omonatlar va hokazolar) bo‘yicha yuritiladi.

Qisqa muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schyotlar (5800)ning bog‘lanishi:

T/r	Xo‘jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog‘lanishi	
		Debet	Kredit
1	Qimmatli qog‘ozlar mahsulotlar, tovarlar, ish, xizmatlarni berish yo‘li bilan xarid qilindi	5810	9010-9030
2	Qimmatli qog‘ozlar asosiy vositalar va boshqa aktivlarni berish yo‘li bilan xarid qilindi	5810	9210, 9220
3	Uzoq muddatli investitsiyalarning tarkibiy o‘zgarishi (restrukturizasiya) amalga oshirildi	5810	0610
4	Qimmatli qog‘ozlar naqd pulga xarid qilindi	5810	5010
5	Qimmatli qog‘ozlar qiymati bankdagi schyotdan to‘lanishi orqali xarid qilindi	5810	5110-5530
6	Xaridorlarga ssuda mablag‘larining vekselda berilishi	5810	5110-5530
7	Aksiyalarning to‘lov sifatida qimmatli qog‘ozlarning kelib tushishi	5810	4610
8	Qimmatli qog‘ozlarning sotilishi	5110	5810
9	Korxonaning qarzi qimmatli qog‘ozlar bilan qoplanishi	6990	5810
10	Majburiyatlar uchun garov sifatida aksiyalarning berilishi	6010	5810
11	Xaridorga veksels summasiga da’vo bildirilishi	4860	5810
12	Da’vo muddati tugaganligi tufayli veksels bo‘yicha qarzni zarar hisobiga chiqarish	9690	5810
13	Inventarizasiya natijasida qimmatli qog‘ozlarning kamomadi	4730	5810
14	Qisqa muddatli qarzlarning asosiy vosita va boshqa aktivlar ko‘rinishida berilishi	5830	9210, 9220
15	Qisqa muddatli qarzlarning tayyor mahsulot, tovar, ish, xizmatlar ko‘rinishida berilishi	5830	9010-9030
16	Boshqa korxonalar tomonidan qisqa muddatli qarzlarning qaytarilishi	5110	5830

5-ma'ruza. TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBI

5.1. Tovar-moddiy zaxiralar (TMZ)ning xo'jalik subyektlari faoliyatida to'tgan o'rni va bu sohada hisobning vazifalari.

5.2. TMZlarni turkumlash va baholash.

5.3. TMZlarni kirim qilish yo'llari va ular harakatini hujjatlashtirish.

Tayanch iboralar: tayyor mahsulot, tayyor mahsulot tannarxi, tayyor mahsulotni sotilishi, tayyor mahsulotni ombordagi hisobi.

5.1. Tovar-moddiy zaxiralar (TMZ)ning xo'jalik subyektlari faoliyatida to'tgan o'rni va bu sohada hisobning vazifalari

Korxonalar o'z ishlab chiqarish faoliyatlarini amalga oshirishi uchun ma'lum miqdorda ishlab chiqarish zaxiralarga ega bo'lishi kerak. Ishlab chiqarish zaxiralari xo'jalik yurituvchi subyektning ishlab chiqarish faoliyatini normal davom etishini ta'minlaydi. Ularning tarkibiga materiallar, xomashyo, ehtiyot qismlar va boshqalar kiradi.

Ishlab chiqarish zaxiralari – bir ishlab chiqarish jarayonida qatnashib, o'z qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatiga shu davrning o'zida to'la o'tkazadigan zaxiralarga aytiladi.

Ishlab chiqarish zaxiralari, asosiy vositalardan farqli ravishda, bir ishlab chiqarish jarayonida qatnashib, o'z qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatiga shu davrning o'zida to'la o'tkazadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalarda ishlab chiqarish zaxiralardan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish, ularning oqilona sarflanishiga rioya qilish, mahsulot tannarxida moddiy xarajatlarning salmog'ini minimallashtirish masalalariga alohida e'tibor beriladi. Eng avvalo, materiallarni to'g'ri, tejamli sarflash korxona faoliyatini rivojlantirishda va bu orqali mamlakat iqtisodiyotini gullab-yashnashida, aholining moddiy farovonligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

4-sonli BHMSda TMZga quchidagisha ta'rif berilgan:

Tovar-moddiy zaxiralar – keyinchalik sotish maqsadida normal faoliyat yuritish jarayonida tutib turiladigan va ishlab chiqarish jarayonida mavjud bo'lgan, shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan moddiy aktivlardir.

2-sonli BHHSda TMZga quyidagicha ta'rif berilgan: 22

Tovar-moddiy zaxiralar – bu quyidagi aktivlardir:

- odatdagi faoliyat doirasida sotish uchun mo'ljallangan;
- bunday sotuv uchun ishlab chiqarish jarayonida bo'lgan
- ishlab chiqarish jarayonida yoki xizmatlar ko'rsatilishida foydalanilishi ko'zlangan xomashyo va materiallar ko'rinishidagi aktivlar.

Tovar-moddiy zaxiralar (TMZ) korxonaning quyidagi aktivlari tarzida hisobga olinadi:

1. Xomashyo, xarid qilinadigan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar, yoqilg'i, idishlar, ehtiyot qismlar, inventar va xo'jalik anjomlari, ishlab chiqarish jarayonida yoki ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatishda foydalanish uchun mo'ljallangan boshqa material zaxiralar.

Inventar va xo'jalik anjomlari tarkibiga quyidagi mezonlardan biriga javob beradigan mol-mulk kiritiladi:

a) xizmat muddati bir yildan oshmaydigan;

b) qiymati bir birlik (komplekt) uchun xizmat muddatidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasida belgilangan (xarid qilish paytida) eng kam ish haqining ellik baravarigacha miqdorda bo'lgan buyumlar. Rahbar hisobot yilida ularni inventar va xo'jalik anjomlari tarkibida hisobga olish uchun buyumlar qiymatining bundan past chegarasini belgilash huquqiga egadir.

Xizmat muddati va qiymatidan qat'i nazar inventar va xo'jalik anjomlari tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

a) maxsus asboblari va moslamalar (muayyan buyumlarni uzluksiz (seriyali) va ommaviy ishlab chiqarish yoki yakka tartibdagi buyurtmani tayyorlash uchun mo'ljallangan maqsadli vazifadagi asboblari va moslamalar);

b) maxsus va sanitariya kiyimlari, maxsus poyabzal;

v) yotarjoy buyumlari;

g) kanselyariya anjomlari (kalkulyatorlar, stol ustiga qo'yiladigan asboblari va hokazo);

d) oshxona va ovqatxona inventari, shuningdek, oshxonadagi sochiq-dasturxonlar;

e) vaqtinchalik (titulda bo'lmagan) inshootlar, moslamalar va qurilmalar, ularni barpo etish uchun ketadigan xarajatlar qurilish-montaj ishlarining tannarxiga kiritiladi;

j) foydalanish muddati bir yildan kam bo'lgan almashtiriladigan uskunalar;

z) ovlash qurollari (trallar, yoyma to'rlar, to'rlar, anjomlar, matraplar va hokazolar).

2. Detallar, uzellar, buyumlarning tugallanmagan ishlov berilishi va yig'ilishi hamda tugallanmagan texnologik jarayonlar, ular bo'yicha qabul qilish-topshirish hujjatlari rasmiylashtirilmagan va tashkilot tomonidan tegishli daromad tan olinmagan tugallanmagan ishlar (xizmatlar)ni bajarishga doir xarajatlar ko'rinishidagi tugallanmagan ishlab chiqarish.

3. Korxonada tayyorlangan va sotish uchun mo'ljallangan tayyor mahsulotlar.

4. Boshqa yuridik yoki jismoniy shaxslardan xarid qilingan (olingan) va tashkilotning odatdagi faoliyati davomida qo'shimcha ishlov berishsiz sotish yoki qayta sotish uchun mo'ljallangan tovarlar. Keyinchalik sotish yoki qayta sotish maqsadida xarid qilingan binolar, inshootlar, transport vositalari, mulkiy (mutlaq) huquqlar va boshqa uzoq muddatli aktivlar tovar bo'lib hisoblanishi mumkin.

5. Boquvdagi va yaylovdagi yosh hayvonlar, katta yoshdagi hayvonlar, parrandalar, asalari oilalari, sotish uchun asosiy podadan yaroqsiz qilingan

(boquvga qo'yilmasdan) katta yoshdagi qoramollar, sotish uchun chetdan qabul qilingan qoramollar.

Tovar-moddiy zaxiralarning buxgalteriya hisobining birligi ushbu zaxiralar haqida to'liq va ishonchli ma'lumotlarni shakllantirishni ta'minlash, shuningdek, ularning mavjudligi va harakati ustidan tegishli nazorat o'rnatish maqsadida korxonalar tomonidan ixtiyoriy ravishda tanlanadi.

Tovar-moddiy zaxiralar xususiyatiga, ularni sotib olish va foydalanish tartibiga ko'ra tovar-moddiy zaxiralarning birligi quyidagicha bo'lishi mumkin:

- nomenklatura raqami;
- to'plam; - bir turdagi guruh va h.k.

Tovar-moddiy zaxiralar aktiv sifatida tan olinadi, agar: a) kelgusida aktiv bilan bog'liq iqtisodiy foyda kelib tushishiga ishonch bo'lsa; b) aktiv qiymatini ishonchli baholash mumkin bo'lsa; v) aktivga bo'lgan mulk huquqi o'tib ketsa. Tovar-moddiy zaxiralarga bo'lgan mulk huquqi, ular bilan bog'liq xatarlar va mukofotlarning o'tish payti shartnoma shartlari asosida belgilanadi.

Ular bo'yicha mulk huquqi tashkilotga tegishli bo'lmagan, biroq shartnoma shartlariga muvofiq uning ixtiyorida bo'lgan tovar-moddiy zaxiralar balansdan tashqari hisobvaroqlarda shartnomada nazarda tutilgan baho bo'yicha aks ettiriladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda moddiy boyliklardan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish, xo'jasizlikka qarshi ko'rashish, mahsulot tannarxida moddiy xarajatlarning ulushini kamaytirib borish masalalariga alohida e'tibor beriladi. Bular bevosita TMZlar hisobining vazifalarini belgilaydi.

Materiallar hisobining vazifalariga quyidagilar kiradi:

- TMZ harakati bilan bog'liq o'zgarishlarni o'z vaqtida tegishli hujjatlarda rasmiylashtirish
 - moddiy-texnika ta'minoti rejasining bajarilishi ustidan nazorat olib borish
 - TMZning ishlab chiqarishga to'g'ri berilishi va ularni sarflash me'yoriga rioya etishni nazorat qilish
 - mahsulot tannarxini hisoblashda sarflangan TMZlarni kalkulyatsiya obyektlariga to'g'ri taqsimlash
 - ichki resurslarni ishga solish maqsadida ortiqcha va foydalanilmayotgan TMZlarni aniqlash va sotish
 - materiallarning butligini saqlash, ombor xo'jaligini yuritish va inventarizatsiyani o'tkazish
 - ishlab chiqarish zaxiralarini saklanishi ustidan nazorat o'rnatish;
 - ombordagi mavjud ishlab chiqarish zaxiralarining belgilangan me'yoridan oshmayotganligini nazorat qilish;
 - ishlab chiqarish zaxiralarining kelib tushishi, saqlanishi va sarflanishi bilan bog'liq bo'lgan xo'jalik jarayonlarini hujjatlarda to'g'ri rasmiylashtirish;
 - ishlab chiqarishga sarflanayotgan zaxiralarning belgilangan me'yorlariga amal qilishini va kalkulyatsiya obyektlari bo'yicha to'g'ri taqsimlashni nazorat qilish.

5.2. TMZlarni turkumlash va baholash

“Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq “Tovarmoddiy zaxiralarni baholash quyidagi ikkita bahoning eng past bo‘yicha — balans tuzilayotgan sanadagi haqiqiy tannarx (sotib olish 357 narxi yoki ishlab chiqarish tannarxi) bo‘yicha yoki bozor bahosi (realizatsiya qilishning sof qiymati) bo‘yicha amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish zaxiralarini baholash «Tovar-moddiy zaxiralar» nomli 4-son BHMSga asoslangan bo‘lishi lozim. Ushbu standartga muvofiq materiallar eng kam bahoda, ya‘ni tannarxi bo‘yicha yoki sof sotish qiymatida hisobga olinishi lozim. Chunki buxgalteriya hisobining ehtiyotkorlik tamoyilini aks ettirishning biri bo‘lib past baholash qoidasi hisoblanadi: tannarx bo‘yicha yoki sotishning sof qiymati.

Materiallarning turkumlanishi tartibi

№	Materiallar turkumi	Materiallar turkumlash tasnifi
1	Xomashyo	metall ishlab chiqarishda ruda, tekstil sanoatida momiq paxta tolasi va h. k.
2	Asosiy materiallar	mashinasozlikda qora metallar, yog‘ochsozlik sanoatida yog‘och
3	Sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar	stanoksozlikda motorlar, avtomobilsozlikda shinalar
4	Yordamchi materiallar	moylash materiallari bo‘yoq, lak, artish materiallari va h. k.
5	Chiqindilar	qirindilar, qipiqalar, truba kesiklari va h. k
6	Idish va idish materiallar	yog‘och, karton va metall idishlari
7	Ehtiyot qismlar	ta‘mirlash uchun mashina va asbobuskunalarning ayrim detallari
8	Inventar va xo‘jalik jihozlari	otvertkalar, iskana, xo‘jalik inventarlari, maxsus qiyimlar va h. k
9	Boshqa materiallar	Yuqoridagi guruhlariga kirmaydigan boshqa materiallar (tuzatilmaydigan braklar, metallom)

Ishlab chiqarish zaxiralarini baholash «Tovar-moddiy zaxiralar» nomli 4-son BHMSga asoslangan bo'lishi lozim. Ushbu standartga muvofiq materiallar eng kam bahoda, ya'ni tannarxi bo'yicha yoki sof sotish qiymatida hisobga olinishi lozim. Chunki buxgalteriya hisobining ehtiyotkorlik tamoyilini aks ettirishning biri bo'lib past baholash qoidasi hisoblanadi: tannarx bo'yicha yoki sotishning sof qiymati.

Materiallarni baholashda quyidagi usullar foydalaniladi:

1. Erkin bozor (shartnoma) yoki davlat tomonidan tartibga solinadigan (preyskurant) ulgurji baholar. Bu narx tovar jo'natish shartnomalarini tuzishda korxona tomonidan mustaqil belgilanadi va mol yuboruvchi va mol oluvchi bilan hisob-kitoblar olib borishda mol yuboruvchining to'lov hujjatlarida ko'rsatilib molning sotish narxi shaklida foydalaniladi;

2. Nomenklatura hisob bahosi bo'yicha. Bu sotib olingan (tayyorlangan) materiallarning reja tannarxi, o'rtacha sotib olish narxlari bo'lishi mumkin. Barcha hollarda ham baho asosida shartnoma yoki preyskurant baholari bo'lib, ustiga rejalashtirilgan (hisoblangan) transport – tayyorlov xarajatlarini qo'shib belgilaydi. Bu baholar mavjud materiallarni va ularning harakatini joriy va operativ hisobga olishda qo'llaniladi. Hisob bahosi bo'lib reja yoki shartnoma baholari hisoblanadi.

4 – BHMS 9-bandiga binoan «Material xarajatlari» elementida aks ettiriladigan sotib olinadigan material qiymatliklarining xaqiqiy bahosi (qiymati) quyidagilardan tashkil topadi: – sotib olish narxi, – import bo'yicha boj to'lovlari,

- mahsulotlarni sertifikatsiyalash xarajatlari,
- ta'minot va vositachilik tashkilotlariga to'lanmalar,
- soliqlar (keyinchalik soliq organlaridan qaytarib olinadigan soliqlardan tashqari, masalan QQS),
- transport – tayyorlov xarajatlari,
- xizmat ko'rsatish xarajatlari va zaxiralarni sotib olish bilan bevosita bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlar.

Marketing xizmatlari va zavod omborlarini asrash xarajatlari materiallar tannarxiga kiritilmaydi va ular davr xarajatlariga o'tkaziladi.

Joriy hisobda shartnoma baholaridan foydalanilsa, haqiqiy tannarxga yetkazib qo'yish uchun oy oxirida transport – tayyorlov xarajatlarining summasi va foizi chiqariladi.

Reja narxlar qo'llanilgan hollarda har oyda haqiqiy tannarxni rejadan farq summasi va foizi aniqlanadi. Bu ko'rsatkich materiallar tayyorlash jarayoniga baho berish imkoniyatini yaratadi.

Transport tayyorlov xarajatlari yoki reja narxdan farqi materiallarning har bir nomenklatura raqami bo'yicha emas, balki materiallar guruhlariga bo'yicha hisoblab chiqariladi. Asos qilib materiallarning oy boshiga qoldig'i va ularning oy davomidagi kirimi olinadi

5.3. TMZlarni kirim qilish yo'llari va ular harakatini hujjatlashtirish.

Materiallar korxonaga quyidagilar natijasida kelib tushishi mumkin:

- oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha xarid qilish;
- ta'sischilarning ustav sarmoyasiga qo'yilmalari;
- asosiy vositalarni xo'jalik jamiyati ta'sischilar tarkibidan chiqayotganda yoki tugatilayotgan xo'jalik jamiyatining mulki ta'sischilar orasida taqsimlanayotganda qo'lga kiritish;
- bepul kelib tushish (hadya shartnomasi bo'yicha);
- ayirboshlash;
- uzoq muddatli aktivlar tarkibidan o'tkazish;
- ortiqcha (hisobga olinmagan) tovar-moddiy zaxiralarni aniqlash;
- avval berilgan tovar qarzini qaytarish yoki tovar qarzini olish;
- tashkilotning o'zida ishlab chiqarish;
- asosiy vositalarga mulkka egalik, xo'jalik yurituv yoki tezkor boshqaruv huquqini qo'lga kiritishga olib keladigan boshqa operatsiyalar yoki holatlar natijasida. Materiallar tannarxi bo'yicha tushganda tashkilotning buxgalter balansiga kiritilishi lozim.

Materiallar tannarxi o'z ishiga:

- yetkazib beruvchiga shartnoma bo'yicha to'lanadigan summalar;
- ularni xarid qilish bilan bog'liq xarajatlarni oladi.

Moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bog'liq xarajatlarga quyidagilar kiradi:

- bojxona bojlari va yig'implari;
- tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bog'liq bo'lgan soliq va boshqa majburiy to'lovlar summolari (agar ular qoplanmasa);
- tovar-moddiy zaxiralar ular orqali xarid qilingan ta'minotchi va vositachi tashkilotlarga to'lanadigan vositachilik haqi;
- tovar-moddiy zaxiralarni sertifikatlash va ularni tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bog'liq bo'lgan texnik shartlarga muvofiq sinash bo'yicha xarajatlar;
- tovar-moddiy zaxiralarni tayyorlash va ularni joriy joylashish yoki foydalanish joyiga yetkazib berish bo'yicha transport-tayyorlov xarajatlari. Ular tayyorlash, yuklash-tushirish ishlari, tovar-moddiy zaxiralarni barcha turdagi transport bilan ularni joriy joylashish yoki foydalanish joyiga tashish uchun tariflar (fraxt)ni to'lash bo'yicha xarajatlar, shu jumladan, tovar-moddiy zaxiralarni tashishda xatarlarni sug'urtalash bo'yicha xarajatlardan tashkil topadi;
- tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bevosita bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlar.

Materiallar tannarxiga, shuningdek, xususiy va chetdagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan moddiy zaxiralarga qo'shimcha ishlov berish va ularni foydalanish holatigacha olib kelish bo'yicha ishlar bilan bog'liq xarajatlar kiradi. Ushbu xarajatlarga saralash, qadoqlash (o'rash) va ularni tovar ko'rinishiga keltirish bo'yicha xarajatlar kiradi.

4-son BHMSning 13-bandiga ko'ra muddatidan oldin to'lash natijasida yoki katta hajmda xarid qilish natijasida yoxud taraflarning kelishuvida nazarda tutilgan

boshqa shunga o'xshash sabablarga ko'ra olingan pul chegirmalari xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralar qiymatini kamaytirmaydi, balki ular sodir bo'lgan hisobot davrida moliya-xo'jalik faoliyati natijalariga kiritiladi.

Quyidagi xarajatlar materiallar tannarxiga kiritilmaydi va davr xarajatlari deb e'tirof qilinadi:

- akkreditiv ochish xarajatlari, o'tkazmalar uchun bank komissiyasi, tovar-moddiy zaxiralarni chet el valyutasiga xarid qilish chog'ida valyutani konvertatsiyalash bo'yicha komissiya va boshqa bank xizmatlari;

- tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bo'yicha kontraktlarni tayyorlash, ro'yxatdan o'tkazish va yopish bilan bog'liq xarajatlar;

- aktivlarni xarid qilish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan boshqa xarajatlar.

Kredit (qarz)dan foydalanganlik uchun foizlar ko'rinishidagi xarajatlar uning hisobidan butkul yoki qisman sotib olingan tovarmoddiy zaxiralarning tannarxiga kiritilmaydi.

Haq evaziga xarid qilingan materiallar tannarxi tannarxi qoplanadigan (hisobga kiritishga qabul qilinadigan) soliqlar bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar qo'shilgan holda, shartnomaga yoki ularning xarid qilinganligi, ishlar bajarilganligi, xizmatlar ko'rsatilganligini tasdiqlovchi hujjatlarga muvofiq yetkazib beruvchi (sotuvchi)ga to'lanadigan summa tariqasida aniqlanadi.

Chet el valyutasida xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi chet el valyutasidagi summani bojxona yuk deklaratsiyasi yoki ishlar bajarilganligi, xizmatlar ko'rsatilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni rasmiylashtirish sanasidagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi bo'yicha qayta hisoblash yo'li bilan so'mda belgilanadi.

Tashkilotning ustav kapitaliga ulush sifatida olingan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi, agar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida boshqa hol nazarda tutilmagan bo'lsa, tashkilot muassislari (ishtirokchilari) tomonidan kelishilgan ularning puldagi bahosidan kelib chiqib aniqlanadi.

Bepul tarzda (hadya shartnomasi bo'yicha) olingan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi buxgalter hisobiga qabul qilingan sanada joriy qiymatdan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Xuddi shunday tovar-moddiy zaxiralarga ayirboshlash yo'li bilan olingan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi berilgan tovar-moddiy zaxiralarning balans qiymatiga teng.

Xuddi shunday bo'lmagan tovar-moddiy zaxiralarga ayirboshlash yo'li bilan olingan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi berilgan tovarmoddiy zaxiralarning joriy qiymatiga teng.

Tovar-moddiy zaxiralar qo'shimcha to'lov bilan ayirboshlangan holatlarda almashtirish yo'li bilan olingan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi berilgan tovar-moddiy zaxiralarning ayirboshlanish chog'ida o'tkazilgan (olingan) pul mablag'lari yoki ularning ekvivalentlari summasiga oshirilgan (kamaytirilgan) joriy qiymatiga teng.

Majburiyatlarni (to'lovni) pul ko'rinishida bo'lmagan mablag'lar bilan bajarish nazarda tutiladigan shartnomalar bo'yicha olingan tovarmoddiy zaxiralarning tannarxi deb tashkilot tomonidan berilgan yoki berilishi lozim bo'lgan aktivlarning joriy qiymati yoki bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarning joriy qiymati tan olinadi. Tashkilot tomonidan berilgan yoki beriladigan aktivlarning qiymatini belgilash imkoniyati mavjud bo'lmagan taqdirda, majburiyatlarni (to'lovni) pul ko'rinishida bo'lmagan mablag'lar bilan bajarishni nazarda tutadigan shartnomalar bo'yicha tashkilot tomonidan olingan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi shunga o'xshash vaziyatlarda xuddi shunday tovar-moddiy zaxiralar xarid qilinadigan joriy qiymatdan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Uzoq muddatli aktivlar tarkibidan tovar-moddiy zaxiralar tarkibiga o'tkazilgan aktivlarning tannarxi ushbu uzoq muddatli aktivlarning balans (qoldiq) qiymati bo'yicha belgilanadi.

Ortiqcha (hisobga olinmagan) tovar-moddiy zaxiralarni inventarlash natijasida aniqlangan aktivlar tannarxi ular aniqlangan sanadagi joriy qiymatdan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Korxona yetkazib berish, transportda tashish (korxonagacha yetkazib berish), korxonaning tashkiliy tuzilishi va bo'linmalarni (bo' - lim, ombor) va mansabdor shaxslarning funksional majburiyatlari shartlarini hisobga olgan holda kelib tushayotgan materiallarga hisobkitob hujjatlarini qabul qilish, ro'yxatga olish, tekshirish, aktseptlash tartibini belgilaydi.

Materiallar tushumida quyidagilar umumiy belgilangan harakatlar bo'ladi:

1. Hujjatlarni tushayotgan yuklar hisobi jurnalida ro'yxatga olish;
2. Mazkur hujjatlar ma'lumotlarini materiallar assortimenti, narxi va soni, yuklab jo'natish usuli va muddati va shartnomada oldindan ko'rib chiqilgan boshqa yetkazib berish shartlari bo'yicha yetkazib berish shartnomasiga (boshqa o'xshash shartnoma) muvofiqlikni tekshirish;
3. Hisob-kitob hujjatlarida hisob-kitoblarni to'g'riligini tekshirish;
4. To'la yoki qisman aktsept (to'lash roziligi), yoki aktseptni asosli rad qilish;
5. Shartnoma shartlari buzilgan holda javobgarlikni aniq o'lchamlarini aniqlash;
6. Hujjat oboroti qoidalarini tomonidan belgilangan muddatda hujjatlarni korxona bo'linmalariga berish;
7. Materiallarni kirim daftariga qayd qilish.

Oldi-sotdi, yetkazib berish shartnomalari va boshqa asoslar bo'yicha yetkazib beruvchidan materiallarni olish bilan birga hisobkitob va kuzatib boriladigan hujjatlar: to'lov talabnomalari, hisobvaroq-fakturalar, yukxatlar, spetsifikatsiyalar, sertifikatlar, sifat guvohnomalari va boshqalar ham olinishi kerak.

Materiallarni va taralarni (materiallar uchun) qabul qilib olish va kirim qilish yetkazib beruvchi ma'lumotlari va haqiqiy ma'lumotlar (son va sifat bo'yicha) orasidagi tafovutlar mavjud bo'lmaganligida kirim orderlari (M-4-son shakl) tuzish yo'li bilan muvofiq omborlar bilan rasmiylashtiriladi.

Bitta yetkazib beruvchidan kun mobaynida tushadigan ko'plab bir turdagi yuklarga bir kun uchun bitta kirim orderi tuzishga yo'l qo'yilgan. Bunda ushbu kun mobaynida har bir material qabul qilinganligi uchun order ort tomonida yozuvlar qayd etiladi, ular kun oxirida hisoblanadi va umumiy natija kirim orderiga qayd qilinadi.

Kirim orderi uchun materiallar qabul qilish va kirim qilish yetkazib beruvchi hujjatida (hisobvaroq, yukxat va h.k.) kirim orderidagidek rekvizitlar mavjud bo'lgan shtamp qo'yish bilan rasmiylashtirilishi mumkin. Bunday holda ko'rsatilgan shtampning rekvizitlari to'ldiriladi va kirim orderining navbatdagi raqami qo'yiladi. Bunday shtamp kirim orderiga teng.

Yuk avtotransport orqali tashishda tushadigan materiallarni qabul qilib olish yuk jo'natuvchidan olinadigan tovar-transport yukxati asosida amalga oshiriladi.

Tushgan materiallar yetkazib beruvchi hujjatlarida ko'rsatilgan sana, assortiment va sifatga muvofiq emasligi aniqlanganda, shuningdek, materiallar sifatida belgilangan talablarga muvofiq bo'lmagan xollarda (ezilish, bo'zilish, sinish, suyuq materiallar oqib ketishi va sh.k.) qabul qilib olishni uni materiallar qabul qilish to'g'risidagi dalolatnoma (M-7 shakl) bilan rasmiylashtiradigan Komissiya amalga oshiradi.

Kirim dalolatnomasi tuzilgan hollarda kirim orderi rasmiylashtirilmaydi. Komissiya tarkibiga korxonaning moddiy javobgar shaxslari va yetkazib beruvchining vakil shaxslari yoki manfaatdor bo'lmagan tashkilotning vakili kiritilishi lozim. Kirim dalolatnomasi yetkazib beruvchi va (yoki) transport tashkilotiga shikoyat va da'vo qilishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Ba'zan ishlab chiqarish manfaatlarida materiallar omborga jo'natilmasdan, bevosita korxonaning bo'linmasiga jo'natiladi. Bunday materiallar partiyalari hisobda omborga tuchib korxonaning bo'linmasiga o'tkazilgandek aks etadi. Bunda omborning kirim va chiqim hujjatlarida va bo'linmaning kirim hujjatlarida materiallar yetkazib beruvchidan olingan va omborga olib borilmasdan bo'linmaga berilganligi (tranzit) to'g'risida qayd qilinadi.

Bevosita bo'linmalarga tranzit bilan kiritila oladigan materiallarning ro'yxati korxona bo'yicha boshqarish hujjati bilan rasmiylashtirilishi lozim.

Qabul qilish dalolatnomalari va kirim orderlari muvofiq materiallar omborga kelib tushgan kunda yoki korxonada belgilangan boshqa muddatlarda, ammo kelib tushadigan yuklarni qabul qilib olish uchun me'yoriy dalolatnomalar tomonidan belgilangan muddatdan kechiktirilmasdan, tuzilishi lozim.

Avtozapravka, avtogazzapravka va avtomobillarni gaz bilan to'ldirish kompressor stansiyalari orqali naqd pulsiz hisob-kitobga xarid qilinadigan yoqilg'i-moylash mahsulotlari tushumi AV tomonidan 23.01.2010 y. 2072-son bilan ro'yxatga olingan "Ruxsatnomalar, tarqatish vedomostlari va limit kitobchalari bo'yicha avtotransport vositalariga yonilg'i quyish uchun neft mahsulotlari, suyo'ltirilgan va siqilgan tabiiy gazni berish" Qoidalariga muvofiq rasmiylashtiriladi.

Mas'ul saqlanishga tushadigan materiallar ombor mudiri (omborchi) tomonidan maxsus daftarga (kartochka) yoziladi, omborda alohida saqlanadi va sarflana olmaydi. Bundan tashqari, korxona mas'ul saqlanishga tushgan materiallar hisobini balansdan tashqari bir nomdagi 002 "Mas'ul saqlashga qabul qilingan tovar-moddiy qiymatliklar" schyotida olib borishni ta'minlashi lozim.

Hisobot topshiruvshi shaxslar tomonidan xarid qilingan materiallar umumiy belgilangan tartibda hisobot topshiruvchi shaxsning bo'nak hisobotiga ilovalanadigan xaridni tasdiqlovchi oqlaydigan hujjatlar (do'kon hisobvarag'i va cheklari, boshqa tashkilotdan naqd pul hisob-kitobiga xaridda kirim kassa orderiga kvitansiya, bozorda yoki xalqdan xarid to'g'risida dalolatnoma yoki ma'lumotnoma) asosida omborga kirim qilinadi.

Bo'linmalar tomonidan omborga materiallar topshirilishi quyidagi hollarda materiallar ichki joy o'zgartirishiga yukxat (M-11 shakl) bilan rasmiylashtiriladi:

- korxona bo'linmalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot korxonada ichki iste'mol uchun yoki kelgusida qayta ishlab chiqarilishi uchun ishlatiladi;
- bo'linmalar tomonidan omborga yoki sex omborxonasiga qaytarish amalga oshirilsa

- mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish) jarayonida paydo bo'ladigan chiqimlarni topshirish, shuningdek, brak topshirish amalga oshiriladi;

- asosiy vositalar tugatilishida (qismlarga ajralganda) olingan materiallarni topshirish amalga oshiriladi;

- boshqa o'xshash hollarda.

Korxonaning bir bo'linmasidan boshqasiga materiallarni o'tkazish bo'yicha operatsiyalar, shuningdek, materiallar ichki o'tkazmasiga yukxat bilan rasmiylashtiriladi (M-11 shakl).

Tovar-moddiy boyliklarni olish uchun ishonchnomalarni rasmiylashtirish, ro'yxatdan o'tkazish va berish tovar-moddiy boyliklarni olishga ishonchnomalar berish va ularni ishonchnomalar bo'yicha berish tartibi to'g'risida Nizomga muvofiq amalga oshiriladi. (O'zR AV tomonidan 27.05.2003 y. 1245-son bilan ro'yxatga olingan).

Moddiy boyliklarni olishga ishonchnoma – korxona o'z vakiliga yetkazib beruvchilardan tovar-moddiy boyliklarni olish uchun beradigan belgilangan shakldagi hujjat.

Ishonchnomalar berilishi korxona tomondan ishonchnomaning qaysi shakli tanlanganga qarab ishonchnomalar kitobi koreshogida yoki "Berilgan ishonchnomalarni hisobga olish daftari"da ro'yxatga olinadi. "Berilgan ishonchnomalarni hisobga olish daftari" raqamlanishi va ip o'tkazib tiqilishi lozim. Daftarning muqovasida o'tkazilgan iplar uchi ustidan alohida qog'ozda bankning rahbari va bosh buxgalteri tomonidan "Mazkur daftarda ... varoq raqamlandi" degan yozuv qayd etiladi, yelimlanadi va muhr bilan tasdiqlanadi. Varoqlar soni yozuv bilan ko'rsatiladi.

Ishonchnoma kitobi va berilgan ishonchnomalarni hisobga olish daftari ishonchnomalarni ro'yxatdan o'tkazish uchun mas'ul bo'lgan shaxsda saqlanishi lozim. Berilayotgan ishonchnomalarning barcha rekvizitlari to'liq to'ldirilishi lozim.

Ishonchnoma korxonaning rahbari yoki vakil shaxs tomonidan imzolanadi, muhr bilan tasdiqlanadi, daftarda ro'yxatga olinadi va ishchiga beriladi.

Yuqorida ko'rsatilgan Nizomda ishonchnomaning amal qilish muddati u asosida ishonchnoma berilgan shartnomalar va boshqa bitimlar bo'yicha tegishli qimmatliklarni olish va olib chiqib ketish imkoniyatiga bog'liq ravishda belgilanadi, biroq u qonuniy hujjatlarda ko'rsatilgan muddatdan oshmasligi kerak. Agar ishonchnomada muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, u bir yil mobaynida o'z kuchini saqlab qoladi.

Korxona buxgalteriyasi ishonchnomaga ro'yxat daftari bo'yicha tartib raqamini o'zlashtiradi (yilning boshidan raqamlanib keladi), ishonchnoma foydalanishini kuzatadi, daftarning maxsus grafasida material omborga yetkazilganligini yoki ishonchnoma buxgalteriyaga foydalanilmasdan qaytarilganda uni bekor qilinganligini belgilaydi.

Bekor qilingan ishonchnomalar "foydalanilmagan" yozuvi bilan so'ndiriladi va hisobot yili oxiriga qadar saqlanadi, undan so'ng tegishli dalolatnoma tuzish bilan yo'q qilinadi.

Foydalanilmagan ishonchnomalar korxona buxgalteriyasiga ularning amal muddati tugagandan so'ng keyingi kun qaytariladi.

"Tovar-moddiy zaxiralar" 4-son BHMSning 13-16-bandlariga asosan haq evaziga xarid qilingan materiallarning tannarxi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- shartnomaga muvofiq yetkazib beruvchiga to'lanadigan summalar;
- bojxona bojlari va yig'implari; - materiallarni xarid qilish bilan bog'liq bo'lgan soliq va yig'implar summolari;
- materiallar ular orqali xarid qilingan ta'minotchi va vositachi tashkilotlarga to'lanadigan vositachilik haqi;
- materiallarni tayyorlash va ularni joriy joylashish yoki foydalanish joyiga yetkazib berish bo'yicha transport-tayyorlov xarajatlari. Ular tayyorlash, yuklash-tushirish ishlari, materiallarni barcha turdagi transport bilan ularni joriy joylashish yoki foydalanish joyiga tashish uchun tariflar (fraxt)ni to'lash bo'yicha xarajatlar, shu jumladan, materiallarni tashishda xatarlarni sug'urtalash bo'yicha xarajatlardan tashkil topadi;
- materiallarni sertifikatlash va ularni tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bog'liq bo'lgan texnik shartlarga muvofiq sinash bo'yicha xarajatlar;
- materiallarni xarid qilish bilan bevosita bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlar.

Materiallar tannarxiga, shuningdek, materiallarga qo'shimcha ishlov berish va ularni foydalanishga yaroqli holga keltirish bo'yicha ishlar bilan bog'liq xarajatlar kiradi. Ko'rsatilgan ishlar tashkilot – xaridorning 'z kuchi bilan, ham chet tashkilotlar tomonidan bajarilishi mumkin. Bunday ishlar chet tashkilot tomondan bajarilishida qo'shimcha ishlov berish bo'yicha xarajatlarga bajarilgan ishlar

qiymati va chet tashkilotlar tomonidan bajarilgan ishlar bajarilishi joyiga yetkazish va qaytarish bo'yicha, yuklab ortish va yukni bo'shatish bo'yicha xarajatlar kiradi.

Materiallarni tannarxi bo'yicha hisobni korxonalarda ishlab chiqarish kichik hajmida va materiallar nomlarini kichik miqdorida olib borish maqsadga muvofiq. Materiallarni haqiqiy tannarxini bevosita 1000 "Materiallar" guruhi schyotlarida tashkil qilinishini aks etadigan buxgalteriya o'tkazmalari quyidagicha boshqaadi:

Pul chegirmalari (odatdagi sotuv narxini pasaytirish) bilan xarid qilingan materiallar muddatidan oldin to'lash natijasida yoki katta hajmda xarid qilish natijasida yoxud taraflarning kelishuvida nazarda tutilgan boshqa shunga o'xshash sabablarga ko'ra chegirmalar hisobga olinmagan narx bo'yicha zaxiralar hisobi schyotlariga kirim qilinishi lozim (chegirmalar xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralarni narxini pasaytirmaydi). Chegirma summasini ular sodir bo'lgan hisobot davrida moliya-xo'jalik faoliyati natijalariga kiritilishi lozim.

Bunga muvofiq, agar shartnoma tomonidan sotilayotgan/xarid qilinayotgan mulkga chegirma ko'rib chiqilgan bo'lsa, u hisobvaroqfakturada aks etilishi lozim. Xaridor boyliklarni to'la qiymati (chegirmasiz) bo'yicha kirim qiladi, QQSni hisobga oladi, chegirma summasini esa hisobot davrining boshqa operatsion daromadiga kiritadi.

Yetkazib beruvchining hisobvaroq-fakturasida materiallarning xarid narxi aks etadi:

Dt – 1000 "Materiallar" – chegirmalar hisobga olinmagan qiymat;

Kt – 6010 "Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar" – to'lanadigan summaga;

Kt – 9390 "Boshqa operatsion daromadlar" – chegirma summasiga.

Yetkazib beruvchilardan olingan chegirmalar summasi: - foyda solig'i bo'yicha soliq solish bazasi hisob-kitobida boshqa daromadlar tarkibiga kiritilishi lozim; - yagona soliq to'lovi bo'yicha soliq solish bazasiga kiritilmaydi.

Materiallar qiymati, shuningdek, hisob baholari bo'yicha aks etishi mumkin. Agar yuqorida ko'rsatilgan usul bo'yicha materiallarning haqiqiy tannarxi bevosita 1000 "Materiallar" schyotida tashkil topgan bo'lsa, hisob bahosi bo'yicha esa tannarx 1510 "Materiallarni tayyorlash va xarid qilish" va 1610 "Materiallar qiymatidagi farqlar" qo'shimcha schyotlar ishlatilishi bilan tashkil topadi.

Materiallar tannarxi 1510 "Materiallarni tayyorlash va xarid qilish" va 1610 "Materiallar qiymatidagi farqlar" schyotlari ishlatilishi bilan tashkil topganda materiallarning haqiqiy tannarxi to'g'risidagi barcha ma'lumotlar 1000 guruhi schyotlari va 1610 schyoti debeti bo'yicha aks etgan ma'lumotlarni qo'shish yo'li bilan aniqlanadi. Bunda 1000 guruhi schyotlari debeti bo'yicha materiallar hisob bahosi bo'yicha aks etadi, 1610 schyotida esa materiallarning hisob bahosi va haqiqiy tannarxi orasidagi farq ko'rsatiladi. Yordamchi sifatida 1510 schyotidan foydalaniladi, uning debeti bo'yicha materiallarning haqi-qiy tannarxi to'g'risidagi ma'lumot tashkil topadi, krediti bo'yicha esa - hisob bahosi bo'yicha.

1610 schyotida jamg'arilgan hisob baholaridan debet va kredit farqlari ishlab chiqarish xarajatlarini hisoblash schyotlari debeti bo'yicha hisobdan chiqariladi.

Hisob bahosi sifatida quyidagilar e'tirof qilinishi mumkin: - yetkazib beruvchining narxi; - oldingi oy ma'lumotlari bo'yicha materiallarning haqiqiy tannarxi; - reja hisob-kitob narxlari. Materiallarni baholash usuli korxona tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi va uning hisob siyosatida aks etadi.

Materiallar tushumini 1510 va 1610 schyotlaridan foydalanib hisoblash. Materiallarning hisob bahosi ularning haqiqiy tannarxidan oshishi. Korxona – umumiy belgilangan soliq va yig'imlar to'lovchisi.

Materiallar tushumini 1510 va 1610 schyotlaridan foydalanib hisoblash. Materiallarning haqiqiy tannarxi ularning hisob bahosidan oshishi. Korxona – umumiy belgilangan soliq va yig'imlar to'lovchisi. 1610 schyoti bo'yicha debet saldosi hisobot oyning ohirida xaridorlarga sotilgan yoki ishlab chiqarishga chiqarilgan materialishlab chiqarish zaxiralari qiymatiga proporsional shaklda sarflanilgan yoki sotilgan material-ishlab chiqarish zaxiralari ko'chirilgan schyotlarga ko'chiriladi. Hisobdan chiqariladigan farqlarning summasi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi

6-ma'ruza. MEHNAT VA UNGA HAQ TO'LASHNING HISOB

6.1 Mehnat haqida tushuncha, Ishchi kuchi xarajatlarini hisoblash

6.2. Ish haqini to'lashga xarajatlarni tahlil qilish.

6.3. Mehnatga haq to'lash shakllari.

6.1 Mehnat haqida tushuncha, Ishchi kuchi xarajatlarini hisoblash.

Mehnat haqi – bu sarflangan mehnatning soni va sifati asosida xodimlar ixtiyorida qoladigan milliy daromadning bir qismi hisoblanadi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida mehnat haqini tashkil etish quyidagilarni o'z ichiga oladi: mehnatni normallashtirish, tarif tizimi, mehnat haqini shakl va tizimlari.

Mehnatni normallashtirish – amaldagi vaqt normalari hamda xizmat ko'rsatish va ish bajarish normalaridir.

Tarif tizimi – tarif-malaka ma'lumotnomasi, tarif setkasi va tarif stavkasini o'z ichiga oladi.

Tarif-malaka ma'lumotnomasi – ishchilar malakasini aniqlash va ularga ma'lum razryad belgilashga asos bo'ladi.

Tarif setkasi – razryadlar va ularga tegishli bo'lgan tarif koeffitsiyentlari ko'rsatiladigan hujjat.

Tarif stavkasi – ishchilarning yoki ishning razryadiga muvofiq unga ma'lum vaqt birligi davomida yoki bajarilgan ish (xizmat) miqdoriga to'lanadigan haq miqdori.

Ish haqining ishbay va vaqtbay shakllari qo'llaniladi.

Ish haqining ishbay shaklida mehnatga haq ishbay baho asosida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori va sifatiga muvofiq to'lanadi.

Ish haqining vaqtbay shaklida mehnatga haq xodimning ishlagan vaqti va malakasiga qarab to‘lanadi.

Ish haqi o‘z tarkibiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi: asosiy va qo‘shimcha.

Asosiy ish haqi – xo‘jalik xodimlarining ishlagan vaqti uchun to‘lanadigan haqdir.

Qo‘shimcha ish haqi – xodimlarning ishlamagan vaqti uchun amaldagi qonun-qoidalariga muvofiq to‘lanadigan haqdir.

Xodimlarning asosiy va qo‘shimcha mehnat haqlari hamda ro‘yxatda bo‘lmagan xodimlar mehnat haqi summasi **mehnatga haq to‘lash fondini** tashkil qiladi. Unga quyidagilar kiradi:

- mehnatga haq to‘lash shakllari va tizimlariga muvofiq hisoblangan mehnat haqi;

- mehnat haqi ko‘rinishida berilgan mahsulot qiymati;

- tarif stavkalari va okladlariga qo‘shimchalar;

- mukofotlar;

- korxona shtatida bo‘lmagan xodimlar mehnatiga haq;

- mehnat ta‘tiliga to‘lanadigan haq va boshqalar.

Mehnatga haq to‘lash fondini tarkibiga kirmaydigan to‘lovlarga quyidagilar kiradi:

- tadqiqot va ratsionalizotirlik takliflari uchun rag‘batlantirish;

- xizmat safari xarajatlari;

- ishlayotgan nafaqaxo‘rlarga berilayotgan nafaqa;

- maxsus kiyim, poyabzal qiymati;

- o‘quv muassasalari, bolalar internatlariga ko‘rsatiladigan yordam;

- kutubxonalar, tibbiyot punkti, muzeylar bilan bog‘liq xarajatlar.

Mehnat va unga haq to‘lash hisobining asosiy vazifalari:

- soliqlar va ish haqidan ushlanmalar ham qo‘shilgan holda korxona xodimlari bilan mehnatga haq to‘lashga doir hisob-kitoblarni o‘z vaqtida olib borish;

- hisoblangan ish haqi va sug‘urtaga ajratmalar summasini xarajatlar schyotlariga o‘z vaqtida hamda to‘g‘ri o‘tkazib borishni ta‘minlash;

- boshqarish va zaruriy hisobotlarni tuzish uchun mehnat va ish haqi bo‘yicha ko‘rsatkichlarni operativ yig‘ish va guruhlash;

- ishchi-xodimlar soni, ularning mehnat unumdorligi va ish vaqtidan foydalanishini doimiy nazorat qilishdan iborat.

Suv xo‘jaligi korxonalarida ham boshqaruv hisobining murakkab, ko‘p mehnat hamda aniq va tezkor ma‘lumotlar talab qiladigan bo‘g‘ini mehnat ish haqini hisobga olish hisoblanadi.

Ma‘lumki, “Xarajatlar tarkibi to‘g‘risida”gi nizomga asosan endilikda mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga ishlab chiqarishda bevosita qatnashayotgan ishchi va xizmatchilarning mehnat haqi xarajatlari kiritiladi. Qolgan ishchi va

xizmatchilarning mehnat haqi xarajatlari davr xarajatlari tarkibida hisobga olinib, daromad hisobidan qoplanadi.

Endilikda mehnat xarajatlarining rentabelligini aniqlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Buning uchun sof foydani mehnat xarajatlariga bo'lish kerak, olingan natija sarflangan 1 so'mlik mehnat xarajati qancha sof foyda keltirganligini bildiradi. Bu ko'rsatkichning aksi esa 1 so'm foyda olish uchun qancha mehnat xarajati sarf qilinishini ko'rsatadi va bu olingan ma'lumotlar samarali boshqaruv qarorlari qabul qilishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda korxonalarda ham mehnat resurslarini baholash va hisobga olish muammosi o'rta qo'yilmoqda. Bunga sabab bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar mehnat resurslarini tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qancha mablag' sarflanganligini bilishi zarur. Chunki bozor iqtisodiga o'tishdan oldin bu soha uchun zarur mablag'lar, asosan, davlat byudjeti tomonidan sarflanardi. Endilikda esa asosiy mablag'ni korxonalar sarflay boshladi. Shuning uchun mehnat resurslarini baholash va hisobini yuritish zarurati yuzaga chiqmoqda.

Mehnat resurslarini baholash zarurligi masalasida iqtisodchilar yagona fikrga kelishgan. Asosiy muammo baholash o'tkazish tartibini aniqlash masalasidir. Buxgalteriya hisobida mehnat resurslari moddiy va moliyaviy resurslar kabi buxgalteriya hisobining obyekti bo'lishi va uning uchun ular qiymat ko'rinishida baholanishi lozim. Mehnat xarajatlari ishlab chiqarish chiqimlarining bir qismi sifatida mahsulot tannarxining shakllanishi va oxirgi natijada korxonaning foyda olishiga ta'sir qiladi.

Ishchi kuchi xarajatlari hisobi quyidagi yo'nalishlar bo'yicha yuritilishi mumkin:

- ayrim operatsiyalar qiymatiga va qo'shimcha xarajatlarga kiritish zarur bo'lgan ishchi kuchiga xarajatlar hisobi;
- bajarilgan ish uchun ishchilarga soliq organlariga tegishli, pensiya fondi va shu kabilarga to'lanishi lozim bo'lgan summani ro'yxatga olish bilan bog'liq ish haqini hisoblash.

Ishchi kuchiga xarajatlarni hisobga olish maqsadi barcha ishchilar faoliyatning har bir turiga sarflagan vaqtni buyurtmaning alohida kartochkasi yoki tabelda qayd etish va shunga muvofiq soatboy stavkani qo'llashdir. Ishlab chiqarishga mehnat sarfini hisobga olish uchun mazmuni, shakli, harakat muddati jihatidan har xil juda ko'p boshlang'ich hisob hujjatlari mavjud. Bunga buyurtmaning hisob kartochkasi misol bo'la oladi, bu kartochkada aniq ishga xarajatlar yoziladi. Shunday hujjatlardan biri qatnashish tabelidir, unga ishchilar ish bajargan vaqt aks ettiriladi.

Buyurtmaning hisob kartochkasi aniq bir ishga sarflangan vaqt yozuvidir. Odatda u ishchi kuchining qiymatini ko'rsatadi. Vaqtni qayd etishning aniqligini ta'minlash uchun imkon boricha kartalardan foydalanish tavsiya qilinadi. Qatnashish tabeli ishchi ish vaqtini sarflagani to'g'risidagi yozuvdir.

Qatnashish tabeli buyurtmaning alohida hisob kartochkasi kabi aniq emas, buyurtma kartochkasi ma'lum operatsiya bilan bog'liq ishlar tugallangandan so'ng darhol ofisga qaytarilishi kerak. Qatnashish tabeli qo'llanilgan hollarda band bo'lmagan ish vaqti to'la oshilmay qoladi. Mehnat resurslarini baholashning ikki xil variantini taklif qilish mumkin: 1) ish haqidan kelib chiqqan holda; 2) umumiy va maxsus ma'lumot olish hamda malaka oshirish xarajatlaridan kelib chiqqan holda baholash. Ikkinchi variant tarafdorlaridan biri S.A. Stukov xorij tajribasini va iqtisodchilarning takliflarini tahlil qilib, mehnat resurslarini umumiy va maxsus ma'lumot olish uchun ketgan xarajatlardan kelib chiqqan holda baholash, ularning qiymatini balansdan tashqari hisobda yuritish va korxona pasportidan qayd etish kerak degan xulosaga kelgan.

Bizningcha, mehnat resurslarini turli o'quv yurtlarida o'qitish, ishlab chiqarish bilan tanishtirish, malakasini oshirish, ishlab chiqarish va diplom oldi amaliyoti, texnika xavfsizligini o'rgatish xarajatlari qiymatida baholash zarur. Qilingan xarajatlar esa 0400-“Nomoddiy aktivlar” hisobida qayd qilinishi lozim.

Mehnati resurslarida xodimlarning aybi bilan bo'ladigan yo'qotishlar (nafaqa yoshiga yetmasdan ishlab chiqarishdan chiqib ketishi, xodimlarning unumsizligi va h.k.) o'z vaqtida hisoblanishi kerak. Bunday yo'qotishlarning oldini olish chora-tadbirlari qurilishi lozim. Chunki bu holat bozor iqtisodiyotida katta ahamiyatga egadir.

Mehnati resurslarini boshqarishda mehnatni me'yorlashtirish muhim rol o'ynaydi. Biroq me'yor va me'yorlashtirishning hozirgi kundagi holati bozor iqtisodiyoti talablariga javob bermaydi. Bu sohadagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun mehnat me'yorlarini qayta ko'rib chiqish lozim. Har bir korxona mehnati resurslarini me'yordan chetga chiqishlarning hosil bo'lish joylari, sabablari, aybdorlari bo'g'ini asosida boshqarishni joriy etish lozim. Mehnati resurslaridan foydalanishda me'yordan chetga chiqishlarni hisobga olish, tahlil qilish, nazorat qilish va umumlashtirish uchun ish haqi xarajati bo'yicha me'yordan chetga chiqishlarning sabablari va aybdorlari klassifikatorini to'ldirish lozim.

Suv xo'jaligi qurilish korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish haqidagi ma'lumotlar smena raporti va smena ishlab chiqarish hisobotida beriladi. Ularning hisobi esa mehnati xarajatlari va bajarilgan ishni hisobga oluvchi qaydnomalar, mahsulot ishlab chiqarish haqidagi dalolatnomalarda yuritiladi.

Ishlab chiqarish jarayonida har xil sabablarga ko'ra me'yoriy sharoitdan chetga chiqish texnologik jarayonning o'zgarib qolishi, oldindan belgilangan xomashyo o'rniga boshqa xomashyo ishlatilishi yoki dastlab belgilangan ish o'rniga boshqa ishning bajarilishi, ish vaqtidan tashqari ishlash, dam olish va bayram kunlari ishlash, ishning to'xtab qolishi va shu kabi hodisalar sababli bo'lib turadi. Bu hodisalar, o'z navbatida, ishchilarning qo'shimcha yoki boshqa xarakterdagi ishlarni bajarishi va shu bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha ish haqi sarflanishini talab etadi.

Ishning me'yoriy sharoitdan chetga chiqilgan har bir holati har bir ishchi yoki brigada uchun ochiladigan qo'shimcha haq to'lash varoqasi va ish to'xtab qolishi to'g'risidagi varoqa bilan rasmiylashtiriladi.

Har ikkala varoqada ish haqi bo'yicha me'yordan chetga chiqishlarning joylari, sabablari va aybdorlari taklif qilingan klassifikator asosida ko'rsatiladi.

Vaqtbay mehnatga haq to'lanadigan brigadalarda ish haqi bo'yicha me'yordan chetga chiqishlarni hosil bo'lish joylari bo'yicha aniqlash katta ahamiyatga ega. Hisob-kitoblarda mehnatga haq to'lashning ish joylari me'yor bo'yicha, haqi hisoblangan miqdori va chetga chiqishlarni esa sabablari va aybdorlari bo'yicha ko'rsatish lozim.

Bu tartibda aniqlangan ish haqi bo'yicha chetga chiqishlarni umumlashtirish, tahlil qilish va olingan natijalarni boshqaruvchilarga tegishli tadbir ko'rish uchun taqdim etish lozim. Bu maqsadda dastlabki hujjatlar va hisob-kitoblar asosida sabablar va aybdorlar, javobgarlik markazlari bo'yicha (hosil bo'lish joylarini kursatgan holda) ish haqining me'yordan chetga chiqishi haqida ma'lumotnomani tuzish tavsiya qilinadi.

Mehnatga haq to'lash me'yori va chetga chiqishlar haqidagi ko'rsatkichlar asosida (o'sib boruvchi holda) smena, o'n kunlik, oy bo'yicha haqiqiy ma'lumotlarni aniqlash lozim. Bu haqiqiy tannarxni aniqlash, alohida turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishdan ko'zlanayotgan rentabellikni tahlil etish va shu kabilar uchun zarurdir.

6.2. Ish haqini to'lashga xarajatlarni tahlil qilish.

Korxona rahbariyati to'g'ri va egri xarajatlarni tahlil qilganda, mahsulot sifatini pasaytirmay, uning tannarxini pasaytirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilishga erishishi lozim. Bevosita ish haqi mahsulot tayyorlash bilan oson bog'lash mumkin bo'lgan ishlab chiqarishdagi mehnatning xarajatlari qatoriga kiradi.

Bevosita ishlab chiqarish mehnatiga aniq buyurtmani bajarish bilan bog'liq bo'lgan ishchilarning ishlab chiqarish liniyasidagi, yig'uv konveyeridan mehnatini kiritish mumkin.

Mahsulot tayyorlash bilan bevosita bog'lanmaydigan mehnatni yordamchi yoki bilvosita mehnat deyiladi. Ularni ishlab chiqarishning ustama (qo'shimcha) xarajatlariga qo'shiladi va so'ngra mahsulotga tegishli stavka bo'yicha taqsimlanadi. Bilvosita mehnatga sex boshliqlari, brigadirlar, muhandis xodimlar, qorovullar, sex farroshlari mehnati kiradi. Noishlab chiqarish xodimlarining, ya'ni mahsulotni sotish bilan shug'ullanadigan xodimlarning ish haqi va ma'muriy boshqaruv xodimlarining ish haqi hisobot davridagi sarflar sifatida hisobga olinadi va bunday xarajatlar vujudga kelishiga qarab foyda va zararlar schyotiga hisobdan chiqariladi.

Band bo'lmagan ish vaqti yoki mehnatsiz bo'sh turib qolish vaqti unumsiz, lekin haq to'lanadigan vaqtdir.

Bartaraf etiladigan mehnatsiz bo'sh turib qolish vaqti rejalashtirish yaxshi amalga oshirilsa, bunday holat bo'lmasligi mumkin bo'lgan vaziyat oqibatida

vujudga keladi. Bunday mehnatsiz bo'sh turib qolish bo'yicha sarflar mahsulot tannarxiga kiritilmasligi, balki foydalar va zararlar hisobvarag'i orqali hisobdan chiqarilishi kerak.

Oldini olish mumkin bo'lgan mehnatsiz bo'sh turib qolishning asosiy hollari quyidagilardir:

- ishlab chiqarish jarayonining to'xtab qolishi (uskunalarning sinishi, materiallarning yetishmasligi, ishni yaxshi rejalashtira olmaslik);
- boshqaruv qarorlari (buyumlarning texnik xususiyatini o'zgartirish, omborda materiallarning yo'qligi, rejalarning o'zgarishi).

Muqarrar to'xtash korxonaning nazorat qilib bo'lmaydigan yoki muqarrar xarajatidir. U odatdagi ish sharoiti yoki tashqi omillar, choy ishishga tanaffus, to'satdan mahsulotga talabning kamayishi, ishlab chiqarish asosiy xomashyo yetkazib beruvchida boshlang'ich ish tashlashdan kelib chiqadi. Bunga ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga qo'shiladigan (ularni umumiy ishlab chiqarish sarflari hisobvarag'ida aks ettirish yo'li bilan) xarajatlarning bir qismi sifatida qaraladi.

Ajratilgan ish vaqtidan tashqari sarflangan vaqt mehnat qonunida belgilangan tartibga asosan asosiy ish vaqtidan tashqari vaqt hisoblanib, ma'lum davrda unga ustama sifatida haq to'lanadi.

Asosiy ishchilar uchun tashqari vaqt quyidagi sabablar bilan zarur bo'ladi: 1) ishlab chiqarish jarayonida to'la ishlanmagan vaqtni to'ldirish; 2) dastlab rejalashtirilgan mahsulot miqdorini ko'paytirish.

Kutilish imkoni bo'lgan tashqari ish vaqtiga xarajatlar, odatda, ish davridagi foydalar va zararlar hisobvarag'iga o'tkazilib, hisobdan chiqariladi. Muqarrar yoki zarur ish vaqtidan tashqari ishlar qiymati uni umumiy ishlab chiqarish xarajatlari hisobvarag'iga o'tkazish yo'li bilan mahsulot tannarxiga qo'shiladi.

Mukofot haqi, asosiy xodimlar va yordamchi ishlab chiqarish xodimlariga yuqori ishlab chiqarish ko'rsatkichlari uchun to'lanadi, unga oddiy ishlab chiqarish xarajati deb qaraladi va mahsulot tannarxiga kiritiladi. Noishlab chiqarish xodimlariga to'langan mukofot shu davrdagi foyda va zararlar hisobvarag'iga o'tkaziladi.

"Mehnat haqi xarajatlari" moddasida korxonaning asosiy ishlab chiqarish xodimlarining mehnat haqi xarajatlari o'z aksini topadi. Bunga yana ishchi va xizmatchilarning ishlab chiqarish natijalari uchun mukofotlar, kompensatsiya to'lovlari, yosh bolasi belgilangan yoshga yetgunga qadar ta'tilda bo'lgan ayollarning kompensatsiyalari, shuningdek, asosiy faoliyatda band bo'lgan, lekin korxona shtatida bo'lmagan ishchilarning mehnat haqi xarajatlari ham kiradi.

Ijtimoiy ehtiyoj uchun ajratmalar moddasida qonun bilan belgilangan ijtimoiy sug'urta, pensiya jamg'armasi, davlat bandlik jamg'armasi va tibbiy sug'urtaga majburiy ajratmalar o'z aksini topadi. Bo'lar "mehnat haqi xarajatlari" moddasi bo'yicha mahsulot (ish xizmat) tannarxiga kiruvchi ishchilar mehnat haqi xarajatlariga kirmaydigan ajratmalardir.

Shartnomaga kiruvchi mehnat uchun sarflar reja va hujjatlar tuzish bilan bog'liq ofis ishi, bevosita zavoddagi ishlab chiqarish operatsiyalari va qurilish maydonchasidagi ishlarni o'z ichiga oladi. Qurilish joyidagi barcha ishlarga shartnoma bo'yicha to'g'ri mehnat sifatida qaraladi.

Har xil maydonchalardagi quruvchilarning ish vaqtlari maxsus ish vaqtining hisobi tabellarida olib boriladi. Bunday mehnat bilan bog'liq barcha xarajatlar shartnoma hisobiga yoziladi.

Materiallar va mehnatdan tashqari shartnoma bo'yicha to'g'ri xarajatlar ham mavjud. Ularga subshartnoma bo'yicha ishlar va ishlab chiqarish qurilmalari uchun sarflar kiradi.

Mehnat haqi xarajatlari mehnat qiymati va foydalanilgan mehnat qiymati hamda foydalanilgan mehnat miqdorini hisobga olgan holda aniqlanadi. Shunga bog'liq holda tahlil mobaynida ikkita omil ta'sirini hisobga olish zarur:

- mehnat haqi o'rtacha stavkasining o'zgarishi;
- ishlangan vaqtning chetlanishi. Mehnat haqi stavkasining o'rtacha o'zgarishi ta'sirini aniqlash uchun mehnat haqining haqiqatdagi normativ stavkalar o'rtasidagi farqi haqiqatda ishlangan vaqt (agar soatbay mehnat haqi bo'lsa) yoki ishlab chiqarilgan mahsulot soniga (agar mehnatga ishbay asosida haq to'lash) ko'paytiriladi. Uning formulasi:

$$\Delta M H S H m . h . o' = (M H o'r . haq - M H o'r . nor) \times V a q t \text{ ishlanhaq}.$$

Bunda:

– $\Delta M H S H m . h . o'$ – mehnat haqi bo'yicha o'rtacha stavkaning o'zgarishi natijasida mehnat haqining chetlanishi;

MH o'r. haq – mehnat haqi bo'yicha o'rtacha haqiqiy stavkasi;

MH o'r. nor – mehnat haqining o'rtacha normativ stavkasi;

Vaqt.ishlan haq – haqiqatda ishlangan vaqt (norma-soatda) yoki ishlab chiqarilgan mahsulot soni.

Mehnat unumdorligining ta'siri, ya'ni mahsulot ishlab chiqarish uchun ishlangan vaqtning o'zgarishi haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot uchun ketgan haqiqiy (soatda) vaqt va normativ (soatda) vaqt orasidagi farqni ish haqining normativ soatboy stavkasiga (o'rtacha) ko'paytiriladi: $\Delta I X i . vaqt = (V a q t a i s h l a n h a q - V a q t . i s h l a n n o r) \times I s h . h a q n o r . o' r$. Bunda: IX i.vaqt – ishlangan vaqtning o'zgarishi natijasida xarajatlarning chetlanishi; Vaqt.ishlanhaq – haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot uchun sarflangan haqiqatda ishlangan vaqt (soatda); Vaqt.ishlannor – haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot uchun sarflangan normativ vaqt (soatda); Ish.haqnor.o'r – ish haqining normativ soatboy stavkasi.

Korxonaning iqtisodiy salohiyatini (potensialini) keltirilgan xarajatlar (Kp^{**}) nuqtayi nazaridan hisoblash uning qancha qismi shu hisobot davrida yangidan yaratilgan mahsulot (ish, xizmat) qiymatiga kirishini aniqlash uchun zarur bo'ladi. Bunda aylanma mablag'larning to'liq summasi, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning shu joriy yil davomida eskirish summasi haqida ishchi va

xizmatchilarga to'lanadigan mehnat haqi (Mh) summasini olish mumkin. Buni aniqlash uchun quyidagi formulani tavsiya qilamiz:

$$Kpkx = (Av \times An) + (Aym \times Kay) + (Na \times En) + Mh,$$

bunda:

An – asosiy vositalarning eskirishi (amortizatsiya) normasi;

Kay – aylanma mablag'larning aylanuvchanlik koeffitsienti;

En – nomoddiy aktivlarning eskirishi normasi;

Mh – mehnatga to'lanadigan xarajatlar summasi.

Ushbu ko'rsatkich korxona iqtisodiy salohiyati (potensial)ning joriy davrdagi qo'llanilishi mumkin bo'lgan qiymatini ifodalaydi. Uni korxona iqtisodiy salohiyati (potensial)ning keltirilgan xarajatlari deb ham atash mumkin.

Mehnat salohiyatidan foydalanganlik uchun sarf qilingan joriy xarajatlarga (Xmx) mehnat haqi xarajatlari, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, kadrlar tayyorlash, pensiya jamg'armasiga ajratmalar kiradi.

Mehnattalab korxonalar shunday korxonalarki, unda mehnat haqi xarajatlari hamma xarajatlardan ustun. Ishlab chiqarishga zamonaviy uskunalar kirib kelishi, avtomatlashtirilishi va kompyuterlashtirilishi tufayli eng mehnattalab tarmoqlar asta-sekinlik bilan fondtalab tarmoqlarga aylanmoqda va mehnat unumdorligi oshmoqda.

6.3.Mehnatga haq to'lash shakllari.

Mehnatga haq to'lash shakllari ikki xil usulda amalga oshiriladi:

1. Mehnatga vaqtbay asosida haq to'lash.
2. Mehnatga ishbay asosida haq to'lash.

Mehnatga vaqtbay asosida haq to'lashda xodimlarga ish haqi ularning haqiqatda ishlagan vaqti va lavozim maoshidan (tarif stavkasidan) kelib chiqqan holda belgilanadi. Ish haqi shu oydagi hamma ish kunini ishlab berish sharti bilan to'liq to'lanadi. Lavozim maoshi to'liq ishlab berilgan oy uchun ish haqi miqdori.

Mehnatga vaqtbay asosida haq to'lash, odatda, xodimning ishini me'yorlashtirish yoki bajarilgan ishlarga asoslangan hisob yuritish imkoniyati bo'lmagan holatlarda qo'llaniladi.

Mehnatga vaqtbay asosida haq to'lashda ishchi yoki xizmatchining ish haqi, uning malakasi va ishlangan ish vaqti miqdoriga muvofiq holda aniqlanadi. Rahbar va xo'jalikni boshqaruvshi xodimlar, navbatshi xodimlar (shilangarlar, santexniklar, elektriklar), ta'mir-lovchi hamda mashinalarga xizmat ko'rsatuvchi ishchilar va hokazolarning mehnatlari vaqtbay asosida to'lanadi.

Mehnatga vaqtbay asosida haq to'lash turli xil bo'ladi:

- oddiy vaqtbay;
- mukofotli vaqtbay.

Mehnatga haq to'lashning oddiy vaqtbay shaklida ish haqi miqdorini hisoblashning asosi qilib xodimlar jadvaliga muvofiq bo'lgan tarif stavkasi yoki lavozim maoshi olinadi. Mehnatga haq to'lashning soatbay va kunbay shakllarini, vaqtbay tizimining turli xillari sifatida ajratiladi. Ish haqi miqdorini aniqlash,

soatlik (kunlik) ish haqi stavkasini haqiqatda ishlangan soat (kun)ga ko'paytirib topiladi.

Odatda, mehnatga haq to'lashning bunday shakllari korxonaning yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarining o'rindoshlik asosida ishlovchi shaxslariga nisbatan qo'llaniladi.

Mehnatga haq to'lashning mukofotli vaqtbay shaklida tarif stavkasi (maoshi) bo'yicha ish haqidan tashqari ishchilarni mukofotlash haqidagi korxonada ishlab chiqilgan qaror, jamoa shartnomasi yoki korxona boshqaruvchisi buyrug'i (farmoyishi) asosida qo'shimcha ravishda ma'lum miqdor va sifat ko'rsatkichlariga erishgani uchun mukofot to'lanadi. Mukofotlash oylik yoki undan uzoqroq muddat (choraklik) ish natijalari asosida amalga oshirilishi mumkin.

Mehnatga ishbay asosida haq to'lash shaklida ish haqi haqiqatda bajarilgan ish (tayyorlangan mahsulot) uchun bir birlik ishga to'lanadigan amaldagi narxlar bo'yicha hisoblanadi. Mehnatga ishbay asosida haq to'lash, mehnatni tashkil etish usuliga bog'liq holda individual va jamoaviy (brigada)ga bo'linadi.

Mehnatga ishbay asosida haq to'lashning individual shaklida ishchini uning mehnati uchun mukofotlash to'liq individual ravishda ishlab chiqilgan mahsulotlar soni, uning sifati va ishbay bahosiga bog'liq.

Mehnatga ishbay asosida haq to'lashning jamoaviy (brigada) shaklida butun brigadaning ish haqi haqiqatda bajarilgan ish hajmi va uning bahosini hisobga olgan holda aniqlanadi. Brigadadagi har bir ishchining ish haqi esa butun brigada tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga hamda ishchining umumiy hajmdagi ish miqdori va sifati ulushiga bog'liq bo'ladi.

Mehnatga haq to'lashning ishbay tizimi ish haqi hisoblashning usuliga bog'liq holda quyidagilarga bo'linadi

- : – to'g'ri ishbay;
- ishbay-mukofot;
- ishbay-progressiv;
- bilvosita;
- akkord.

To'g'ri ishbay shakli ish haqi, o'rnatilgan ishbay narxlar bo'yicha haqiqatda bajarilgan ish (tayyorlangan mahsulot)ga muvofiq aniqlanadi. Mehnatga haq to'lashning ishbay-mukofot shakli mehnatga ishbay asosida haq to'lashning nisbatan ko'p tarqalgan tizimidir. Ishbay-mukofot shaklida to'g'ri ishbay baholardagi ish haqidan tashqari qo'shimcha ravishda o'rnatilgan ko'rsatkichlarni (ish sifati, shoshilinshiligi, mijozlar tomonidan asoslangan shikoyatlarning yo'qligi va hokazo) bajarganligi yoki oshirib bajarganligi uchun mukofot hisoblanadi. Mukofotlar ishbay ish haqi bo'yicha haqiqatda ishlab berilgan vaqt uchun hisoblanadi.

Ishchilar mehnatiga haq to'lashning ishbay-progressiv shakli o'rnatilgan boshlang'ich me'yor (negiz)lar chegarasida to'g'ri ishbay narxlarida, bu me'yordan ortiqchasi oshirilgan narxlarda amalga oshiriladi. Ishbay baholarning

oshishi har bir holatda maxsus shkala bo'yicha aniqlanadi. Masalan, boshlang'ich me'yorni 1 %dan 10 %gacha ortig'i bilan bajarganda, ishbay baho 30 %ga oshadi, 10 dan 30 %gacha 50 %ga oshadi va hokazo. Bu tizim bo'yicha qo'shimcha haqlar har xil usullar bilan belgilanadi. Quyidagi usullar nisbatan universal hisoblanadi:

- ish haqining butun bajarilgan ish hajmi uchun to'g'ri baholarda hisoblangan qismini aniqlash;

- olingan kattalik ishlab chiqarish me'yorini oshirib bajarish foizi va ishbay narxning oshish koeffitsientiga (koeffitsient amaldagi progressiv to'lov shkalalaridan olinadi) ko'paytiriladi.

Mehnatga haq to'lashning bilvosita shakli, odatda, yordamchi ishlarni bajaruvchi ishchilar mehnatiga haq to'lash uchun qo'llaniladi: texnologik uskunalarni sozlovchilar, ta'mirlovchi chilangarlar, ustalar va boshqa yordamchi ishchilar yordamchilari, faoliyat natijalari asosiy ishchilar ishlab chiqarish unumdorligiga ta'sir etuvchilar.

Mehnatga haq to'lashning akkord shakli butun ish hajmi (yig'indisi) uchun ish haqi miqdorini belgilaydi va akkord topshiriqlarini bajarish muddatlarini qisqartirganlik uchun mukofotlashni o'z ichiga oladi. Bunda ishlarning umumiy qiymati ishlab chiqarish me'yoriy vaqtlari va baholari asosida aniqlanadi. Brigadaga butun asosiy va yordamchi ishlar yig'indisi nazarda tutilgan akkord topshirig'i topshiriladi. Topshiriqda ish boshlanishi va tugash vaqti, shuningdek, ish haqi va mukofotlar qiymati ish sifati e'tiborga olingan holda ko'rsatiladi. Muddatidan ilgari bajarilgan hollarda mukofot miqdori oldindan ma'lum bo'ladi. Akkord tizimi ishlab chiqarish davri uzoq muddat davom etadigan ishlarda va qurilishga ixtisoslashgan avtotransport tashkilotlarida qo'llaniladi.

Mehnatga haq to'lashning tarifli tizimi mehnat sharoitlari va uning og'irligi, ishlarni bajarishning tabiiy iqlim sharoitlari, mehnatning jadalligi va xususiyati inobatga olingan holda, mehnatga haq to'lashni tabaqalashtirishni ta'minlashda foydalaniladigan me'yorlar majmuyidir.

Quyidagilar mehnatga haq to'lashning tarifli tizimini tashkil etuvchi asosiy elementlar hisoblanadi:

- tarif stavkalari va setkalari;
- tarif koeffitsientlari;
- ishchilarning ish va kasb malakaviy-tarif ma'lumotnomalari, xizmatchilar lavozimlarining malakaviy ma'lumotnomalari;

- odatiy bo'lmagan mehnat sharoitlarida ishlaganliklari uchun ustama va boshqa qo'shimsha haqlar. Tarif stavkasi – bir birlik ish vaqti uchun to'lanadigan, pul shaklida ifodalangan mehnatga haq miqdori. Ishchilarga mehnat haqi to'lashda qo'llaniladigan tarif stavkasi bir birlik vaqt (soat, kun, oy) davomida bajarilgan ma'lum murakkablikdagi mehnat uchun mukofot miqdoridir. Bajarilayotgan ishning murakkablik ko'rsatkichi razryadlar hisoblanadi va ular asosida u yoki bu ish turiga tarif belgilanadi. Shu vaqtning o'zida razryad ishchining malakasi ko'rsatkichi vazifasini ham o'taydi. Mehnatga haq to'lash har doim bajarilgan ish

razryadiga asosan amalga oshirilganligi uchun ishchi tomonidan bajarilayotgan ish razryadi oshishi bilan uning mehnat haqi miqdori ham ortib boradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrda PQ-1675-sonli qaroriga asosan tarif setkasidagi 0-razryad bekor qilinib, 2012-yil 1-yanvardan boshlab bir oyga hisoblanadigan ish haqi Yagona tarif setkasining 1-razryadidan kam bo'lmagan miqdorda belgilanishi lozim. 1-razryad uchun tarif koeffitsienti 2,476 ni tashkil qiladi. Bu tarif stavkasi ishchidan hesh qanday malaka talab etmaydigan, eng oddiy turdagi mehnatga haq to'lash uchun qo'llaniladi.

Mehnatga haq to'lashning vaqt birligi qilib soat, kun, oy tanlanishi mumkin. Shunga mos ravishda tarif stavkasi soatlik, kunlik yoki oylik bo'lishi mumkin. Ishchilar mehnatiga haq to'lash uchun u yoki bu turdagi tarif stavkasini tanlash bu korxonada qanday mehnat me'yorlari qo'llanilishi bilan shartlanadi. Agar mehnat me'yorlari smenali topshiriq shaklida ifodalangan bo'lsa, u holda unga haq to'lash uchun kunduzgi tarif stavkalari qo'llaniladi.

Oxirgi paytlarda mehnatni tashkil etish va unga haq to'lash tizimida soatbay tarif stavkasi ahamiyati ortib bormoqda. Bu, birinchidan, iqtisodiyotning ko'pchilik tarmoqlarida mehnatga haq to'lash soatbay stavkalar asosida amalga oshirilayotganligi; ikkinchidan, ayni soatbay tarif stavkasi asosida ishchiga amaldagi qonunchilik bilan kafolatlangan (zararli mehnat sharoitlari tufayli qisqartirilgan ish vaqtida, ish vaqtidan tashqari ish bajarganligi uchun, kechki payt ishlaganligi uchun va hokazo) qo'shimcha haq miqdorining aniqlanishi bilan tushuntiriladi.

Mehnatga haq to'lashning tarifsiz tizimi. Tarifsiz tizimi qo'llanilganda, ishchining ish haqi miqdori har doim bo'lim yoki korxonaning yakuniy ish natijalariga bog'liq bo'ladi, chunki ish haqining umumiy fondi shu natijalarga muvofiq ravishda aniqlanadi.

Masalan, kodeksning 16-moddasida xodimning asosiy huquqlaridan biri sifatida o'z mehnati uchun qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi bo'yicha belgilanganidan oz bo'lmagan miqdorda haq olish belgilab o'tilgan. Xuddi shuningdek, kodeksning 155-moddasida mehnat haqining eng kam miqdori belgilangan bo'lib, unga ko'ra, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasi va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emas.

Mehnat va unga haq to'lashni tashkil etishda rasmiylashtiriladigan dastlabki hujjatlar:

- Ish vaqtini hisobga olish tabeli (64 shakl);
- Mehnat va bajarilgan ishlarni hisobga olish varaqasi (66 shakl);
- Traktorchī–mashinistning hisob varaqasi (67 shakl) yoki traktorning yo'l varaqasi (68 shakl);
- Chorvachilik tarmog'ida band bo'lgan xodimlarga mehnat haqi hisoblash hisob-kitobi (69 shakl);

– Ishbay ish naryadi (70 shakl).

Korxonada har bir xodim bo'yicha mehnat haqining hisobi "Mehnat haqi bo'yicha hisob-kitoblar daftari (44 shakl)" yoki "Hisoblashuv-to'lov qaydnoma (73 shakl)"da olib boriladi.

Korxonalarda xodimlar bilan mehnat haqi bo'yicha hisoblashuvlarga quyidagi sintetik hisobvaraqlar mo'ljallangan:

6710-«Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlar»;

6720-«Deponentlangan ish haqi»;

4210-«Mehnat haqi bo'yicha berilgan bo'naklar»,

6710-«Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlar» schyotining kredit tomonida mehnat haqi, ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalar, pensiyalar va boshqa shu kabi summalar, debet tomonida hisoblangan mehnat haqini to'lash va undan ushlanmalar aks ettiriladi.

6720-«Deponentlangan ish haqi» schyotida xodimlarning olinmagan ish haqi bo'yicha qarzlari aks ettiriladi.

6700 «Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblarni hisobga oluvchi schyotlar»ning korrespondensiyasi.

T/r	Xo'jalik operatsiyalarining mazmuni	Schyotlarning bog'lanishi	
		Debet	Kredit
1	Asosiy ishlab chiqarish ishchilariga mehnat haqi hisoblanganda	2010	6710
2	Kapital qo'yilmalar sohasida band bo'lgan xodimlarga mehnat haqi hisoblanganda	0810-0890	6710
3	Boshqaruv xodimlariga mehnat haqi hisoblanganda	9420	6710
4	Kelgusi davr xarajatlariga kiritiladigan ishlar uchun mehnat haqi hisoblanganda	3190	6710
5	Asosiy vositalarni hisobdan chiqarish jarayonlarida ishtirok etganlarga mehnat haqi hisoblanganda	9210	6710
6	Ortiqcha to'langan summalar (mehnat haqi va hokazolar) kassaga qaytarildi	5010	6710
7	Tabiiy ofatlar, yong'inlarni bartaraf qilish bilan bog'liq bo'lgan ishchilarga mehnat haqi hisoblanganda	9720	6710
8	Xodimlarga bir martalik mukofot hisoblanganda	9430	6710
9	Mahsulot, ish, xizmatlar qiymati ishchilardan ushlab qolinganda	6710	4790
10	Xodimlarga hisoblangan summalar kassadan to'langanda (mehnat haqi, mukofotlar va hokazo)	6710	5010
11	Hisobdor shaxslarning qaytarmagan bo'nak summolari ushlab qolinganda	6710	4220
12	Kreditga sotib olingan tovarlar uchun hisob-kitoblar bo'yicha navbatdagi to'lovlar ishchilardan ushlab qolinganda	6710	4710

13	Moddiy javobgarlarning mehnat haqi summasidan yetkazilgan moddiy zararlar summasi ushlab qolinganda	6710	4730
14	Mehnat haqi summasidan daromad solig'i ushlanganda	6710	6410
15	Mehnat haqi summasidan nafaqa jamg'armasiga ushlab qolinganda	6710	6520
16	Mehnat haqi summasi deponentga o'tkazilganda	6710	6720
17	Ijro varaqalari asosida(aliment va boshqalar) mehnat haqidan ushlab qolinganda	6710	6990
18	Deponent summasi kassadan berilganda	6720	5010

Korxonada xodimlarga mehnat haqi bo'yicha berilgan bo'naklar bo'yicha hisob-kitoblar to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish balansga nisbatan aktiv schyot bo'lgan 4210-«Mehnat haqi bo'yicha berilgan bo'naklar» schyotida amalga oshiriladi.4210-«Mehnat haqi bo'yicha bo'naklar» schyot korrespondensiyasi.

T/r	Xo'jalik opratsiyalarining mazmuni	Schyotlarning bog'lanishi	
		Debet	Kredit
1	Mehnat haqi hisobidan bo'nak berildi	4210	5010
2	Xodimlarga kelgusidagi mehnat haqi hisobiga berilgan bo'naklar ushlab qolindi	6710	4210

7-ma'ruza. XARAJATLARI HISOBI

7.1 Xarajatlar haqida tushuncha va ularning turkumlanishi.

7.2 Ishlab chiqarish xarajatlarini asosiy, yordamchi ishlab chiqarishlar va xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarishlar bo'yicha hisobga olishni tashkil qilish.

7.3 Umumishlab chiqarish xarajatlari.

Tayanch iboralar: ishlab chiqarish xarajatlari, tannarx, bevosita xarajatlar, bilvosita xarajatlar, kalkulyatsiya, o'zgaruvchan, doimiy materiallar.

7.1 Xarajatlar haqida tushuncha va ularning turkumlanishi

Har qanday korxona shunday qarorlar qabul qilishga harakat qiladiki, bu qarorlar imkon darajada ko'proq foyda olishni ta'minlasin. Foydaning qanday bo'lishi ko'plab tashkil etuvchilarga bog'liq. Tashkil etuvchilarning muhim bir qismi ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga nisbatan qilingan xarajatlardir.

Odatda, xarajat deganda, iste'mol qilingan resurslar tushuniladi. Bundan tashqari tovarlar va xizmatlar uchun to'lanishi lozim bo'lgan pul mablag'lari ham xarajat hisoblanadi. Boshqarish uchun menejerlarga shunchaki xarajatlar emas, balki aniq bir obyektga (mahsulot, uning guruhi, xizmatga) nisbatan qilingan chiqimlar to'g'risidagi, ya'ni "xarajatlarni qayd qilish obyektiga" nisbatan qilingan chiqimlar to'g'risidagi axborot zarur bo'ladi.

Xarajatlar aniq maqsadlarda foydalanilgan resurslarning pul mablag‘lari ko‘rinishidagi o‘lchovidir.

Xarajatlarning maqsadi xarajatlarni alohida o‘lchash mumkin bo‘lgan har qanday faoliyatdir. Bunga misol sifatida biror-bir mahsulot, sex, savdo hududi yoki aniqlash mumkin bo‘lgan har qanday faoliyatni ko‘rsatish mumkin.

Ishlab chiqarish xarajatlarini to‘g‘ri hisobga olish boshqaruv – buxgalteriya hisobi oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Odatda, ishlab chiqarish xarajatlari mahsulot ishlab chiqarishni tayyorlashdan boshlab, uni tayyor mahsulot holida omborga qabul qilingungacha bo‘lgan xarajatlar yig‘indisidan iborat bo‘ladi va ular mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasi va ishlab chiqarishning xususiyatiga qarab har xil bo‘ladi.

Xarajatlarning salmog‘i ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga, tannarx esa korxonaning daromadiga ta’sir qiladi. Shu sababli ularni to‘g‘ri hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda xarajatlarning tarkibi va turlarini bilish zarur.

Hozirgi vaqtda respublikamizning hamma korxonalarida, shu jumladan, suv xo‘jaligi korxonalarida ularning faoliyatini hisobga oluvchi asosiy hujjat “Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxiga qo‘shiladigan, uni ishlab chiqarish va sotish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarning tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi haqidagi nizom” hisoblanadi. Bu nizomga asosan boshqaruv hisobida tannarxga qo‘shiladigan xarajatlar tarkibi quyidagi maqsadlar uchun aniqlanadi: • buxgalteriya hisobi schyotlarida bevosita mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonida yuzaga keladigan xarajatlar haqida to‘liq va aniq ma’lumotlar to‘plash;

- korxonalar faoliyati rentabelligini hisoblash;
- raqobatbardoshligini aniqlash;
- soliqqa tortish asosini to‘g‘ri belgilash. Ushbu vazifalarni hal etish uchun xarajatlar quyidagi guruhlariga bo‘linadi:
 - mahsulotni ishlab chiqarish tannarxiga qo‘shiladigan xarajatlar;
 - davr xarajatlari tarkibida hisobga olinadigan va asosiy faoliyat foydasini aniqlashda e’tiborga olinadigan xarajatlar;
 - korxonaning umumiy faoliyatidan keladigan foyda yoki zararni aniqlashda hisobga olinadigan moliyaviy faoliyat xarajatlari;
 - soliqqa tortishdan oldingi foyda yoki zararni aniqlashda hisobga olinadigan favqulodda ko‘zda tutilmagan zararlar yoki foyda. Suv xo‘jaligi korxonalarida qurilish-montaj ishlarini bajarishda qatnashadigan xarajatlarni guruhlariga to‘g‘ri va aniq bo‘lish buxgalteriya hisobi ma’lumotlarining sifatini oshiradi. Qurilish ishlarini bajarish xarajatlari, o‘z navbatida, bir necha ko‘rsatkichlari bo‘yicha guruhlariga ajratiladi.

Xarajatlarni quyidagi belgilariga qarab tasniflash mumkin:

a) mahsulotga tegishli xarajatlar tayyor mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq. Bu xarajatlar zaxiralar qiymatiga kiritiladi. Mahsulotga tegishli xarajatlarga asosiy materiallar, asosiy mehnat va ishlab chiqarishga ustama sarflar kiritiladi.

Asosiy materiallar – xomashyo va materiallar tayyor mahsulotning qismiga aylanadi. Ularning qiymati bevosita va tejamli ravishda qo‘shimcha amallarsiz ma’lum mahsulot tarkibiga qo‘shiladi. Bevosita materiallar xarajatini mahsulot tarkibida undan qancha foydalanilishiga qarab, bu miqdorni material birligi narxiga ko‘paytirib hisoblab chiqish mumkin bo‘ladi. Asosiy mehnat barcha ishchi kuchi xarajatlarini o‘z ichiga oladi, ularni bevosita mahsulotlarning ma’lum turiga tejab qo‘shish mumkin.

Umumishlab chiqarish xarajatlari (ishlab chiqarish ustama xarajatlari) bo‘lar mahsulot ishlab chiqarishga qilingan asosiy materiallar va asosiy mehnatdan tashqari barcha xarajatlardir, ya’ni ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan, lekin tayyor mahsulotning aniq bir turiga tegishli deb bo‘lmaydigan turli sarf-xarajatlarning jamlanmasidir (masalan, qo‘shimcha materiallar, qo‘shimcha ishchilar mehnati, ishlab chiqarish binolari va uskunalarining amortizatsiyasi, kommunal xizmatlar, ishlab chiqarish binolarini ijaraga olishga doir xarajatlar jamlamasi).

Davr xarajatlariga ular paydo bo‘lgan davrda qilingan, lekin zaxiralar qiymatiga kiritilmaydigan sarflar kiradi. Davr xarajatlari o‘z ishiga sotish xarajatlari va ma’muriy xarajatlarni oladi.

Sotish xarajatlari korxona mahsulotini sotish va uni mahsulot bozorida savdoga tayyorlash bilan bog‘liq bo‘lgan barcha xarajatlaridir. Ma’muriy xarajatlar korxonaning umumiy faoliyati bilan bog‘liq (masalan, ma’muriy xodimlarning ish haqi, ma’muriy bino va ofis anjomlari amortizatsiyasi va shu kabilar);

b) bevosita va bilvosita xarajatlar. Xarajatlar ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga kiritilishi usuliga ko‘ra bevosita va bilvosita xarajatlarga bo‘linadi.

Bevosita xarajatlar mahsulotning aniq turi talabidan hosil bo‘ladi. Ularni birlamchi hujjatlar ma’lumotlariga asoslanib, xarajat sodir etilgan paytda ishlab chiqilgan mahsulotning ma’lum turiga hesh bir qiyinshiliksiz qo‘shish mumkin. Bunga xomashyo sarfi, materiallar, ishlab chiqarish bilan band ishchilarning ish haqi, ya’ni birlamchi xarajatlar kiradi.

Bilvosita xarajatlar mahsulotning bir necha turi bo‘yicha hosil bo‘ladi. Odatda, bilvosita xarajatga ishlab chiqarishning bevosita mahsulotning ma’lum turiga qo‘shib bo‘lmaydigan ishlab chiqarishning ustama sarf-xarajatlari kiradi, shu sababli xarajatlarning umumiy miqdori maxsus stavkalar asosida mahsulotlarga taqsimlanadi;

d) ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxi to‘g‘risida hisobot. Ishlab chiqarish xarajatlari (asosiy mehnat, asosiy materiallar sarfi va ishlab chiqarish ustama xarajatlari) to‘planadi hamda ishlab chiqarilgan mahsulot to‘g‘risida hisobot va sotilgan mahsulot tannarxi to‘g‘risida hisobot tarzida ko‘rsatiladi. Bu hisobotlar alohida tuzilishi yoki ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulot tannarxi to‘g‘risidagi hisobotga birlashtirilishi mumkin

. Ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi ma’lum davrda ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotga tegishli ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga oladi. Ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxini hisoblash uchun ma’lum davrda qilingan ishlab

chiqarish xarajatlari tugallanmagan ishlab chiqarishning sof o'zgarishiga ko'payadi yoki kamayadi (tugallanmagan ishlab chiqarishning boshlang'ich qoldig'i minus tugallanmagan ishlab chiqarishning oxirgi qoldig'i). Sotilgan mahsulotning tannarxi daromad bilan taqqoslanadigan xarajatlarni ko'rsatadi.

Sotilgan mahsulotning tannarxini hisoblash uchun ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi tayyor mahsulot zaxiralaridagi sof o'zgarishga ko'payadi yoki kamayadi (tayyor mahsulotning boshlang'ich qoldig'i minus tayyor mahsulotning oxirgi qoldig'i).

Korxonalarda xarajatlar ishlab chiqarish xarajatlari, davr xarajatlari, moliyaviy faoliyat xarajatlari va favqulodda (ko'zda tutilmagan) xarajatlarga bo'linadi. Ishlab chiqarish xarajatlari o'z vazifasiga qarab elementlari va kalkulyatsiya moddalariga bo'linadi. Elementlari bo'yicha guruhlash ishlab chiqarish xarajatlarini ularning iqtisodiy mazmuniga ko'ra aniqlash va tegishli smetalar tuzish uchun xizmat qiladi. Kalkulyatsiya moddalari bo'yicha guruhlash esa mahsulot tannarxini hisoblash uchun kerak bo'ladi. Korxonalarda xarajatlar ishlab chiqarishda qatnashishiga qarab ishlab chiqarish va ishlab chiqarishdan tashqari xarajatlarga bo'linadi. Ishlab chiqarish xarajatlariga bevosita mahsulotni tayyorlash va qayta ishlash bilan bog'liq xarajatlar, ishlab chiqarishdan tashqari xarajatlarga esa madaniy-maishiy obyektlar xarajatlari kiradi.

Korxonalarda mahsulot tannarxiga qo'shilishiga qarab xarajatlar to'g'ri va egri xarajatlarga bo'linib, to'g'ri xarajatlarga mahsulotni tayyorlash va qayta ishlash bilan bevosita bog'liq bo'lgan material, ish haqi va boshqa xarajatlar kiradi.

Egri xarajatlarga esa mahsulot ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan xarajatlar, masalan, boshqaruv xarajatlari, asbobuskunalarni saqlash va foydalanish xarajatlari va shu kabilar kiradi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbatan o'zgarishiga qarab xarajatlar o'zgaruvchan va doimiy xarajatlarga bo'linadi.

O'zgaruvchan xarajatlarga miqdori mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi bilan o'zgaradigan xarajatlar, masalan, xomashyo, texnologik maqsadlar uchun mo'ljallangan yoqilg'i, energiya va shu kabilar kiradi.

Doimiy xarajatlarga esa miqdori mahsulot ishlab chiqarish hajmi o'zgarishi bilan o'zgarmaydigan xarajatlar kiradi. Unga boshqaruv xodimlarining ish haqi, boshqaruv binolarini saqlash xarajatlari va shu kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

Korxonalarining o'ziga xos xususiyatiga ko'ra, xarajatlar tayyorlov va qayta ishlash xarajatlariga bo'linadi. Tayyorlov xarajatlariga xomashyoni sotib olish, saqlash, jo'natish va boshqa xarajatlar kirsa, qayta ishlash xarajatlariga esa mahsulotni qayta ishlab mahsulotlar olish bilan bog'liq xarajatlar kiradi.

Yuqorida ta'kidlanganlar boshqaruv hisobi tizimida xarajatlar turli xil yo'nalishdagi maqsadlar uchun guruhlanishidan dalolat beradi. Buni amaliyotda keng joriy etish boshqaruvchilarga ishlab chiqarishni boshqarish borasida asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.

Suv xo‘jaligi korxonalarida davr xarajatlariga boshqaruv xarajatlari, mahsulotlarni sotish bilan bog‘liq xarajatlar, umumxo‘jalik xarajatlari, ishlab chiqarishni o‘zlashtirish xarajatlari kiradi. Bu tur xarajatlar ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga kiritilmaydi va fond hisobidan qoplanadi.

Korxonalarda moliyaviy faoliyat xarajatlariga bank krediti, ijara bilan, xorijiy valyuta jarayoni va boshqa moliyaviy faoliyat bilan bog‘liq xarajatlar kiradi.

Favqulodda xarajatlarga korxonalarda tabiiy ofatdan ko‘riladigan zararlar kiradi. Bu tur zararlar: korxonalarda, masalan, yong‘in natijasida mahsulot nobud bo‘ladi. Shuning uchun boshqaruvchilar bunday zararlariga pul qo‘ymaslik chora-tadbirlarini ko‘rishlari lozim. Ishlab chiqarish va davr xarajatlarining ajratilishi moddiy ishlab chiqarish zaxiralari qoldiqlari qiymatini aniqlash uchun zarur bo‘lib, davr xarajatlari tegishli bo‘lgan hisobot davrida hisobdan chiqariladi va sotilmagan mahsulot, tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig‘ida kelgusi davrlarga o‘tkazilmaydi. Bu narsa korxonada baho siyosati sohasida asoslangan qarorlarni qabul qilishda muhim ahamiyatga egadir. Bundan tashqari, ishlab chiqarish tannarxi va davr xarajatlarining alohida ajratib kursatilishi:

a) korxonaning ishlab chiqarish faoliyati;

b) ma‘muriy va ishlab chiqarishdan tashqari faoliyati oxirgi natijaga qanday ta‘sir ko‘rsatganligini baholash imkonini beradi. Boshqacha so‘z bilan aytadigan bo‘lsak, mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish tannarxi uni qayta ishlash bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xarajatlardan iborat bo‘ladi.

Ularga: – bevosita va bilvosita material xarajatlari;

– bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari;

– ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan ustama xarajatlari kiradi.

Mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish tannarxini tashkil etuvchi xarajatlar iqtisodiy mazmuniga ko‘ra quyidagi elementlar bo‘yicha guruhlanadi:

– ishlab chiqarish material xarajatlari (qaytarilgan chiqindilarning qiymati ayirib tashlangan holda);

– ishlab chiqarish xarakteridagi mehnatga haq to‘lash xarajatlari;

– ish haqiga nisbatan ajratilgan ijtimoiy sug‘urta ajratmalari;

– ishlab chiqarish ahamiyatidagi asosiy fondlar va nomoddiy aktivlarning amortizatsiya ajratmalari;

– boshqa xarajatlar. Keltirilgan ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, xarajat elementlarida pul xarajatlari boshqa xarajatlar elementida aks ettirilishi ko‘zda tutilgan. Korxonalarning pul xarajatlari, hozirda va keyinchalik katta o‘rin egallashini hisobga olib, ularni alohida element qilib chiqarish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Bunday guruhlash “Mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga qo‘shiladigan xarajatlar” umumiy ko‘rsatkichini hisoblash uchun zarurdir.

Bu ko‘rsatkich yangi schyotlar rejasida – 2010, 2310, 2510 schyotlarida hisobga olinadigan xarajatlar quyidagi turkumlardan tarkib topadi.

1. Material xarajatlari.

2. Mehnatga haq to‘lash xarajatlari.

3. Ijtimoiy sug'urta xarajatlari.
4. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning amortizatsiya ajratmalari.
5. Boshqa xarajatlar.

Bu schyotlar tegishli ishlab chiqarish ahamiyatidagi xarajatlarni to'plash uchun mo'ljallangan. Korxonalarning boshqaruvshilari bozor iqtisodiyoti sharoitida xarajatlar va ularni maqsadi haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Faqat bu ma'lumotlar asosidagina mahsulot (ish, xizmat)ni sotishdan keladigan foyda to'g'ri hisoblanishi, rentabellik to'g'ri aniqlanishi, sotilayotgan mahsulot bahosining asosli ekanligi tahlil qilinishi va umuman, tanlangan xo'jalik siyosatining to'g'ri ekanligi baholanishi mumkin. Alohida bo'limlar (sexlar, ishlab chiqarishlar) xarajatlari haqidagi aniq ma'lumotlarga ega bo'lingandagina, ular rentabelligi yoki zararlimi, u yerga qo'shimcha mablag' ajratish kerakmi yoki mutaxassisni almashtirish kerakmi, yoki bo'lmasa, butunlay yopish kerakmi, degan masalalarni hal qilish mumkin.

Suv xo'jaligi korxonalarida yuqorida berilgan elementlardan tashqari xarajatlarning moddalari bo'yicha ham hisob yuritish muhim ahamiyatga ega.

Suv xo'jaligi qurilish tashkilotlarida bajarilgan ishlarni quyidagilar bo'yicha kalkulyatsiya qilish mumkin:

1. Yer ishlarining tannarxi.
2. Beton ishlarining tannarxi.
3. Qurilish mashinalari bajargan ishining tannarxi.
4. Yerdagi ishlab chiqarish mahsulotlarining tannarxi.

Ma'muriy boshqaruv xarajatlari yangi schyotlar rejasida – 9400- "Davri xarajatlari" schyotida hisobga olinadi va hisobot yilining oxirida korxonaning olgan doromadi hisobidan qoplanadi.

Xarajatlarni kalkulyatsiya moddalari bo'yicha hisobga olish, u yoki bu xarajat turi qanday maqsadlarga sarflanayotganligini bilish mahsulotning ayrim turlari tannarxini kalkulyatsiya qilish imkonini beradi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, korxonalarning boshqaruvshilari bozor iqtisodiyoti sharoitida xarajatlar va ularning maqsadi haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lishlari kerak. Faqat ma'lumotlar asosidagina mahsulot (ish, xizmat)ni sotishdan oladigan foyda to'g'ri hisoblanishi, rentabellik to'g'ri aniqlanishi, sotilayotgan mahsulot bahosining asosli ekanligi tahlil qilinishi, umuman, tanlangan xo'jalik siyosatining to'g'ri ekanligi baholanishi mumkin.

7.2 Ishlab chiqarish xarajatlarini asosiy, yordamchi ishlab chiqarishlar va xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarishlar bo'yicha hisobga olishni tashkil qilish

Xo'jalik subyektlarining ishlab chiqarish jarayonida sodir bo'ladigan har bir muomalaning buxgalteriya hisobini yuritishda quyidagi schyotlar guruhidan foydalaniladi:

– 2010-«Asosiy ishlab chiqarish»;

- 2310-«Yordamchi ishlab chiqarish»;
- 2510-«Umumishlab chiqarish»;
- 2610-«Ishlab chiqarishdagi brak»;
- 3110-«Oldindan to‘langan ijara haqi»;
- 3120-«Oldindan to‘langan xizmat haqi»;
- 3190-«Boshqa bo‘nak xarajatlari»;
- 8910-«Kelgusi xarajatlar va to‘lovlar rezervi».

Ishlab chiqarish xarajatlarining elementlari va kalkulyatsiya moddalari bo‘yicha hisob yuritishni ta‘minlash maqsadida asosiy ishlab chiqarishning barcha xarajatlari 2010-«Asosiy ishlab chiqarish» schyotida tayyorlanayotgan mahsulot turlari bo‘yicha guruhlanadi.

2010-«Asosiy ishlab chiqarish» schyotidan xarajatlarni hisobga olishda quyidagi korxona va tashkilotlar foydalanadi:

- mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha sanoat va qishloq xo‘jaligi korxonalari;
- qurilish-montaj, geologiya-qidiruv ishlarini bajarish bo‘yicha pudrat, geologiya va loyiha qidiruv tashkilotlari;
- xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha transport va aloqa korxonalari;
- ilmiy tadqiqot va konstruktorlik ishlarini bajarish bo‘yicha ilmiy tadqiqot korxonalari;
- avtomobil yo‘llarini asrash va ta‘mirlash bo‘yicha yo‘l xo‘jaliklari.

Ushbu schyotning debetida mahsulotlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan to‘g‘ri xarajatlar, shuningdek, yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari, brakdan ko‘rilgan yo‘qotishlar va asosiy ishlab chiqarishni boshqarish va xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan egri xarajatlar aks ettiriladi.

2010-«Asosiy ishlab chiqarish» schyotining kreditida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot, bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlarning haqiqiy tannarxi summasi aks ettiriladi.

Yordamchi ishlab chiqarishdagi mahsulot (ish, xizmatlar) tannarxini aniqlash uchun tegishli xarajatlar 2300-«Yordamchi ishlab chiqarish hisobi» schyotlarida guruhlanadi.

2300-«Yordamchi ishlab chiqarishlar hisobi» schyotlaridan quyidagi yordamchi ishlab chiqarishlarni hisobga olishda foydalaniladi:

- energiya har xil turlari (elektroenergiya, gaz va shu kabilar) bilan yordam ko‘rsatish;
- transport xizmatlarini amalga oshirish;
- asosiy vositalarni ta‘mirlash;
- instrumentlar, shtamplar, qurilish detallari, konstruksiyalarni tayyorlash;
- tosh, shag‘al, qum va boshqa rudasiz materiallar qazib olish;
- yog‘osh materiallarini tayyorlash va ularga ishlov berish;
- qishloq xo‘jali mahsulotlarini tuzlash, qoqi qilish va konservalash (asosan, savdo korxonalarida);

– maxsus kiyimlar va poyafzallarni ta'mirlash, tikish va shu kabilar.

Shuningdek, mazkur schyotlarda 21-sonli BHMSga muvofiq, xo'jalik yurituvchi subyektlar balansida turgan ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik bo'linmalari xarajatlari ham hisobga olinishi mumkin.

2300-«Yordamchi ishlab chiqarishlar hisobi» schyotlarining debetida mahsulotlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish va ish bajarish bilan bog'liq bo'lgan bevosita xarajatlar, shu bilan birga, yordamchi ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan egri xarajatlar hamda brakdan ko'rilgan yo'qotishlar xarajatlari aks ettiriladi.

2300-«Yordamchi ishlab chiqarishlar hisobi» schyotlari debetlanganda quyidagi schyotlar kreditlanadi:

- 0200-«Asosiy vositalarning eskirishi hisobi»;
- 0500-«Nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi hisobi»;
- 1000-«Materiallar hisobi»;
- 1100-«O'stirishdagi va boquvdagi hayvonlar hisobi»;
- 1610-«Materiallar qiymatidagi og'ishishlar»;
- 2510-«Umumishlab chiqarish xarajatlari»;
- 2610-«Ishlab chiqarishdagi brak»;
- 2810-«Ombordagi tayyor mahsulotlar»;
- 3100-«Kelgusi davrlar xarajatlari hisobi»;
- 3200-«Muddati uzaytirilgan xarajatlar hisobi»;
- 4860-«Da'volar bo'yicha olinadigan schyotlar»;
- 6010-«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lovlar»;
- 6500-«Sug'urta bo'yicha qarzarlar va davlat maqsadli fondlariga to'lovlar hisobi»;
- 6710-«Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlar»;
- 6970-«Hisobdor shaxslarga qarzarlar»;
- 6990-«Boshqa majburiyatlar»;
- 6110-«Alohida balansga ajratilgan bo'linmalarga to'lanadigan schyotlar»;
- 9390-«Boshqa operatsion daromadlar».

2300-«Yordamchi ishlab chiqarishlar hisobi» schyotlarining kreditida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot (ko'rsatilgan xizmat, bajarilgan ishlar)ning haqiqiy tannarxi ko'rsatiladi

Korxonaning moliya-xo'jalik faoliyati uning uchun zarur bo'lgan pul mablag'lari, xom-ashyo, asosiy materiallar, sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar, yordamchi materiallar, asbob-uskunalar, imorat, inshoot va boshqa moddiy boyliklar bilan ta'minlangandan so'ng boshlanishi mumkin. Ishlab chiqarish jarayonida yuqorida sanab o'tilgan mehnat buyumlariga kishilar mehnat qurollari bilan ta'sir qilib, mehnat buyumlarining shakl va ko'rinishlarini o'zgartiradi, natijada ishlab chiqarish xarajatlari paydo bo'ladi. Bu xarajatlar ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotning asosini tashkil qiladigan mehnat buyumlarining qiymati, ularning shaklini o'zgartirishga ta'sir qilgan ishchilar ish haqi va ish haqiga nisbatan hisoblangan har xil ajratmalar summasi, mehnat

buyumlariga ta'sir qilishda ishchilar tomonidan foydalanilgan mehnat qurollarining amortizatsiya summasi hamda ishlab chiqarish faoliyatini boshqarish va unga rahbarlik qilish bilan bog'liq bo'lgan ko'plab sarf-xarajatlar yig'indisidan iborat bo'ladi.

Ishlab chiqarish jarayonining pirovard natijasidan tayyor mahsulotlar olinadi. Korxonalarda ishlab chiqarish jarayoni biznes-reja va shartnoma-kontraktasiya asosida amalga oshirilib, ularda ishlab chiqariladigan mahsulotlar hajmi va reja tannarxi belgilanadi.

Buxgalteriya hisobida ishlab chiqarish xarajatlari va olingan mahsulotlar aks ettiriladi hamda mahsulotlarning haqiqiy tannarxi hisob-kitob qilinadi.

Ishlab chiqarish jarayonini hisobga olishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- natural va pul ifodasida ishlab chiqarishning haqiqiy hajmini aniqlash. Bunda jami ishlab chiqarilgan mahsulotning miqdori kabi, ular ayrim turlarining ham miqdori aniqlanadi;

- ishlab chiqarishga qilingan xarajatlarni aniqlash va mahsulotlarning haqiqiy tannarxini hisoblash. Buning uchun korxonaning jami ishlab chiqarilgan mahsulotga qilgan xarajatlari hamda alohida mahsulot turlarining tannarxi aniqlanadi.

Ishlab chiqarish jarayonini hisobga olish uchun maxsus schyotlar tayinlangan. Ularning asosiylaridan biri **2010-«Asosiy ishlab chiqarish» schyoti** bo'lib, mahsulot ishlab chiqarish uchun qilingan xarajatlarni aks ettirish va ishlab chiqarilgan mahsulotning haqiqiy tannarxini aniqlash uchun qo'llaniladi. Ushbu schyotning debet tomonida mahsulot ishlab chiqarish uchun qilingan barcha xarajatlar to'planadi, uning kreditida esa ishlab chiqarilgan mahsulotlar reja tannarxi bo'yicha baholanib aks ettiriladi. Hisobot davri oxirida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning haqiqiy tannarxi aniqlanib, reja tannarx haqiqiy tannarx darajasiga yetkaziladi. Bu ikki xil usulda amalga oshiriladi.

Birinchisi, agar haqiqiy tannarx reja tannarxdan past, ya'ni xarajatlar tejalgan bo'lsa, o'rtadagi farq summaga bu schyotning krediti bo'yicha «qizil storno» yozuvi amalga oshiriladi.

Ikkinchisi aksincha, ya'ni haqiqiy tannarx reja tannarxdan yuqori bo'lsa, o'rtadagi farq summaga (rejadan oshiqcha sarflangan summaga) qo'shimcha buxgalteriya yozuvi tuziladi. Shu tarzda reja tannarx bilan haqiqiy tannarx o'rtasidagi farq tuzatiladi (korrektirovka qilinadi).

2010-«Asosiy ishlab chiqarish» schyoti aktiv bo'lib, uning debetida tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig'i qolishi mumkin.

Alohida mahsulot turlarining tannarxi analitik schyotlar ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi. Analitik schyotlar 2010-«Asosiy ishlab chiqarish» schyotiga buyumlarning alohida turlari yoki bir xil mahsulotlar guruhlari bo'yicha ochiladi. Oy davomida bu schyot debetiga faqat bevosita asosiy ishlab chiqarish schyotining tegishli analitik schyoti debetiga yozish va aniq bir mahsulot tannarxiga qo'shish mumkin bo'lgan xarajatlar yoziladi. Bunday xarajatlar **bevosita (to'g'ri)**

xarajatlar deb ataladi. Ularga ma'lum mahsulot turlarini ishlab chiqarish uchun sarflanadigan asosiy materiallar, ishlab chiqarish bilan band bo'lgan xodimlarning ish haqi, texnologik maqsadlar uchun ishlatiladigan yoqilg'i, elektr energiyasi, bug' va boshqalar kiradi. Ushbu schyotning yoki tegishli analitik schyotning debetiga bevosita olib borish imkoni bo'lmagan, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xarajatlari **bilvosita (egri) xarajatlar** deb ataladi. Ular maxsus yig'ib-taqsimlovchi schyotlarda hisobga olinadi.

7.3. Umumishlab chiqarish xarajatlari

Umumishlab chiqarish xarajatlariga quyidagilar kiradi: bo'linmalarning boshqarish va xizmat ko'rsatish xodimlarining ish haqi ijtimoiy sug'urta ajratmalari bilan birga, sexlarning binolarini yoritish, isitish va suv ta'minoti, amortizatsiya va joriy ta'mirlash xarajatlari, mehnatni muhofaza qilish va boshqa xarajatlar. 2510-«Umumishlab chiqarish xarajatlari» schyoti bo'yicha analitik schyotlar sanoat korxonalarida sexlar bo'yicha, qishloq xo'jalik korxonalarida tarmoqlar (dehqonchilik, chorvachilik, sanoat ishlab chiqarishi va h.k.) bo'yicha ochiladi, analitik schyotlar doirasida xarajatlar hisobi moddalar bo'yicha yuritiladi.

Barcha tegishli xarajatlar oy davomida 2510-«Umumishlab chiqarish xarajatlari» schyotining debetida hisobga olib boriladi. Oy oxirida bu xarajatlar ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat) tannarxiga qo'shish va tannarx hisoblash maqsadida 2510-«Umumishlab chiqarish xarajatlari» schyotining kreditidan 2010-«Asosiy ishlab chiqarish» schyoti va boshqa tegishli schyotlar debetiga taqsimlash yo'li bilan o'tkaziladi.

Taqsimlash hisob-kitobi tegishli tarmoqda qabul qilingan taqsimlash uslubiga muvofiq shu tarmoqdagi bevosita xarajatlarga mutanosib amalga oshiriladi. Masalan, ishlab chiqarishdagi ishchilarning ish haqiga mutanosib, qurilmalarning ishlagan mashina-soatlariga mutanosib yoki qandaydir boshqa usul bo'yicha hisob-kitob qilinadi. Qishloq xo'jaligidagi umumishlab chiqarish xarajatlari asosiy tarmoqlarning bevosita xarajatlari (dehqonchilikda – urug'lik, chorvachilikda – em xashak, sanoat ishlab chiqarishida – xom-ashyo va materiallar qiymati chegirib tashlangan holda) mutanosib taqsimlanadi. Shunday qilib, bu schyot bo'yicha barcha xarajatlar hisobdan o'chirilib, oy oxirida qoldiq qolmaydi. Ammo bu schyot oy davomida debet qoldiqqa ega bo'lganligi sababli aktiv schyot hisoblanadi.

8-ma'ruza. MAHSULOT, TOVAR (ISH, XIZMAT)LAR VA ULARNI SOTISH HISOBI

8.1 Tayyor mahsulot haqida tushuncha va uning turkumlanishi. Tayyor mahsulot (tovar, ish, xizmat)larni baholash.

8.2. Tayyor mahsulot (tovar)larning ombordagi va buxgalteriyadagi hisobi

8.3. Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini hisoblash usullari

8.4. Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini hisoblashning «standart kost» va «direkt kosting» usullari.

Tayanch iboralar: tayyor mahsulot, tayyor mahsulot tannarxi, tayyor mahsulotni sotilishi, tayyor mahsulotni ombordagi hisobi

8.1 Tayyor mahsulot haqida tushuncha va uning turkumlanishi. Tayyor mahsulot (tovar, ish, xizmat)larni baholash

Ishlab chiqarish jarayonining pirovard mahsuli bo'lib tayyor mahsulotlar hisoblanadi. Tayyor mahsulotlar – bu mazkur korxonada qaytadan ishlashni talab qilmaydigan, standartlar va texnik shartlariga to'liq javob beradigan, texnik nazorat bo'limi (TNB) yoki maxsus komissiya tomonidan qabul qilingan va korxona omboriga topshirilgan yoki buyurtmachi tomonidan qabul qilingan buyum va mahsulotlardir.

Tayyor mahsulot sotuvga mo'ljallangan moddiy-ishlab chiqarish zaxiralarning qismi hisoblanadi (ishlab chiqarish siklining pirovard natijasi – sotish uchun mo'ljallangan va qonun hujjatlari bilan belgilangan hollarda shartnomada yoki boshqa hujjatlarning talablarida nazarda tutilgan texnik va sifat tavsiflariga muvofiq keladigan ishlov berilishi (butlanishi) tugallangan aktiv).

Tayyor mahsulot hisobi tashkil qilinishi saqlash joylari va moddiy javobgar shaxslar bo'yicha tayyor mahsulot mavjudligi va harakati to'g'risida ma'lumot tuzilishini ta'minlashi lozim. Tayyor mahsulot hisobi miqdoriy va qiymat ko'rsatkichlarida amalga oshiriladi.

Tayyor mahsulotning miqdoriy hisobi uning jismoniy xususiyatlaridan (xajm, og'irligi, maydoni, uzunlik birliklari yoki donalab) kelib chiqib korxonada qabul qilingan o'lchov birligida olib boriladi.

Bir turdagi mahsulotning miqdoriy hisobini tashkil qilish uchun shartli-tabiiy o'lshagishlar qo'llanilishi mumkin.

Tayyor mahsulot hisobi haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi yoki hisob bahosi bo'yicha olib boriladi. Alohida hollarda tayyor mahsulot sotuvning sof qiymati bo'yicha hisoblanadi:

– 5-son BHMS 12-1-bandiga muvofiq maqsadga muvofiq foydalanish uchun uning tegishli ishini tekshirish jarayonida olinganganda;

– 4-son BHMS 40-bandiga muvofiq agar sotuv sof qiymatining o'lchami tayyor mahsulotning tannarxidan past bo'lgan holda

Tayyor mahsulotning tannarxi har xil usullar bilan: turi, ishlab chiqarish turi, uning murakkabligi, tugatilmagan ishlab chiqarishi mavjudligi, ishlab chiqarish davri davomiyligi, ishlab chiqariladigan mahsulotning nomenklaturasiga bog'liq holda aniqlanishi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar bozor talabini o'rgangan holda tuzilgan shartnomalarga, assortiment, son va sifat reja topshiriqlariga binoan, doimo ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini ko'paytirish, ularning assortimentini kengaytirish va sifatini oshirishga e'tibor berib mahsulot ishlab chiqaradilar.

Bozor munosabatlari sharoitida asosiy e'tibor mol yuborish – shartnomalari bo'yicha mol sotishga qaratiladi, chunki bu korxona faoliyatining maqsadga muvofiqligini, uning samaradorligini aniqlovchi iqtisodiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib hisoblanadi. Korxonaning hisob – kitob schyotiga pul tushgan va tushmaganligidan qat'i nazar barcha yuklangan va jo'natilgan mahsulotlar sotish hajmiga qo'shilishi mumkin.

Shunday qilib, sotish jarayoni korxona xo'jalik mablag'larining doiraviy aylanishini yakunlaydi. Bu o'z navbatida korxonaga davlat byudjeti, ssudalar bo'yicha banklar, ishchi va xizmatchilar, mol yuboruvchilar oldidagi majburiyatlarni bajarish, ishlab chiqarish xarajatlarini qoplash imkoniyatini beradi. Sotish rejasini bajarmaslik aylanma mablag'lar aylanishini sekinlashiga, xaridorlar oldida shartnoma vazifalarini bajarmaganligi uchun jarima to'lashga, to'lovlarni kechikishiga, korxonaning moliyaviy holatini yomonlashishiga olib keladi.

Korxona sotish hajmi bilan bir qatorda foyda summasini ham rejalashtiradi. Chunki, mahsulotning sotish (shartnoma) narxi belgilanganda uning tarkibiga ma'lum summada yoki foizda foyda (daromad) summasi ham kiritiladi. Agar shartnoma (reja) bo'yicha sotishga tegishli mahsulotlar miqdorini shartnoma bahosiga ko'paytirsan reja bo'yicha ularni sotish qiymati kelib chiqadi, foyda foiziga qarab esa reja foyda summasi hisoblab chiqiladi. Bu byudjetga foydadan bo'nak ajratmasini to'lash uchun baza bo'lib hisoblanadi.

Tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish sohasidan omborxonaga o'tkazish jarayonida quyidagi dastlabki hujjatlar:

- qabul qilish
- topshirish nakladnoylari,
- dalolatnomalar, – rejalar, – kartalariga muvofiq hisobga olinadi.

Tayyor mahsulotning ombordagi hisobi tezkor buxgalteriya usuli bo'yicha tashkil qilinadi, ya'ni har bir mahsulot nomenklatura raqamiga ombor materiallari hisobi kartochkasi oshiladi (M-17 shakli). Tayyor mahsulotning kelib tushishi va chetga berilishi bilanoq, ombor xodimi hujjatlar asosida ularning sonini kartochkalarga yozib qo'yadi va har bir yozuvdan keyin qoldiq hisoblab qo'yiladi. Buxgalter har kuni tugagan sutka uchun yoki belgilangan grafik bo'yicha

ombordan hujjatlarni qabul qilib olishi kerak (qabul qilish-topshirish yukxati, tovar-transport yukxatlari). Ombor hisobining to'g'ri yuritilganligi ombor hisobi kartochkasi asosida har oyda tayyor mahsulotning nomenklaturasi, o'lchov birligi, miqdoriga asoslangan holda tayyor mahsulotning qoldiq hisobi baholari bo'yicha qoldiqlar aniqlanadi.

Mahsulotning kirimi va chiqib ketishi bilan bog'liq muomalalar rasmiylashtirilgan datslabki hujjatlar ombor varoqalariga yozilgandan so'ng buxgalteriyaga topshiriladi. Bu yerda hujjatlar tekshiriladi, guruhlanadi va ular asosida tegishli hisob regitsrlari tuziladi.

Tayyor mahsulot harakatining pul ko'rinishida ifodalangan hisobi buxgalteriyada ombor mudirining hisoboti ma'lumotlari asosida yuritiladi. Tayyor mahsulotlar harakatini pul ko'rsatkichdagi hisobi 16- «Tayyor buyumlar harakatining puldagi ifodasi» qaydnomasida yuritiladi.

16-«Tayyor buyumlar harakatining puldagi ifodasi» qaydnomasining I bo'limidan 2810 schyotning to'liq ma'lumotlari ta'rifini ikki bahoda – haqiqiy va hisob bahoda olinadi. Bu oy oxiriga bo'lgan tayyor mahsulotlarning umumiy hajmidagi haqiqiy xarajatlar salmog'ini (oy boshiga qoldiq plyus mahsulotning kirimini ularning hisob bahosiga nisbati) topish uchun zarur. Agar shu foiz 100 ga teng bo'lsa, demak, haqiqiy xarajatlar rejaga teng ekanligi; agar foizi 100 dan kam bo'lsa, korxona mahsulot tannarxining pasayganligini, natijada ushbu mahsulotni sotishdan u rejadan ortiq foyda olganligini; agar shu foiz 100 dan ortiq bo'lsa, korxona kalkulyatsiya moddalari bo'yicha me'yorga nisbatan ortiqcha xarajatlarga yo'l qo'yganligini va bu o'z navbatida, foydani kamaytirganligini ko'rsatadi.

Shu jami mahsulotlarning haqiqiy tannarxini ularning hisob (reja) tannarxiga bo'lgan foiz nisbati buxgalteriya tomonidan hisobot oyida yuklab jo'natilgan, xaridorlar tomonidan qaytarilgan va oy oxiriga qolgan mahsulotlarning haqiqiy tannarxini hisoblash uchun foydalaniladi.

Oy oxiriga qolgan mahsulotlar haqiqiy tannarxini aniqlashning zaruriyati shundaki, uni Bosh daftar bilan taqqoslash mumkin, omborlardagi qoldiqlarni hisobga olish daftari bilan esa hisob bahosidagi qoldiq taqqoslanadi.

Tayyor mahsulotlarning ombordagi hisobi operativ – buxgalteriya usulida yuritiladi, ya'ni mahsulotlarning har bir nomenklatura raqamiga materiallarning ombor kartochka hisobi (17-M shakli) oshiladi. Tayyor mahsulotlarni kirimi va chiqimiga qarab omborshi hujjatlarga asosan kartochkalarga qiymatliklar miqdorini (kirim, chiqim) yozib qo'yadi hamda har bir yozuvdan keyin qoldig'i

chiqariladi.

O'tgan sutka ichida omborda yig'ilib qolgan hujjatlar (qabul qilish – topshirish nakladnoylari, buyruq-nakladnoylar, tovar-transport nakladnoylari)ni buxgalter har kuni qabul qilib boradi. Ombor hisobining to'g'ri yuritilishi buxgalterning ombor hisobi kartochkasiga qo'yilgan imzosi bilan tasdiqlanadi.

Moddiy – javobgar shaxs ombor hisobi kartochkalariga asosan har oyda tayyor mahsulotlar nomenklaturalari, o'lchov birligi, miqdorini kursatib tayyor mahsulotlar qoldig'ini hisobga olish qaydnomasini to'ldiradi va uni buxgalteriyaga topshiradi. Buxgalteriyada hisob bahosi bo'yicha taksirovka qilinadi va buxgalteriya ma'lumotlari (16 - qaydnomaning I - bo'limi) bilan solishtiriladi.

Tayyor mahsulotlarni yuklab jo'natish o'z ichiga ikkita hujjatni – omborga buyruq va jo'natish uchun nakladnoyni qamrab oladigan buyruq – nakladnoy bilan rasmiylashtiriladi. Omborga buyruqni xaridorlar bilan tuzilgan sharnoma shartlariga asosan mol oluvchining nomi, uning kodi, mahsulotning miqdori va assortimenti hamda jo'natish muddati ko'rsatilganligini tegishli xizmat bo'limi yozib beradi. Bu hujjat tegishli xizmat boshlig'i, omborchi va ekspeditor tomonidan imzolanadi.

Buyruq – nakladnoy ikki nusxada tuzilib, birinchisi tovar – transport nakladnoyiga binoan jo'natilgan o'rin miqdorini, yukning og'irligini va mol oluvchining bekatigacha mahsulotni yetkazib berish bo'yicha to'langan temir yo'l tarifi summasini ko'rsatish uchun ekspeditorga beriladi. Ikkinchi nusxasi molning jo'natganligi to'g'risida asos bo'lib omborshida qoladi. Unga binoan ombor hisobi kartochkasining «chiqim» grafasiga jo'natilgan mahsulotning miqdorini yozib qo'yadi va hujjat buxgalteriyaga topshiriladi.

Ekspeditor mahsulotni transport tashkilotiga topshirib undan yukni qabul qilib olganligi to'g'risida kvitansiya oladi. Mahsulot jo'natilgandan keyingi kuni ekspeditor buyruq – nakladnoyni va transport tashkilotining kvitansiyasini mol oluvchining nomiga to'lov talabnoma – topshiriq yoki boshqa hujjat yozish uchun buxgalteriyaga topshirishi shart. Shu bilan bir vaqtda schyot – faktura ham yoziladi.

To'lov talabnomasida jo'natilgan tovarning assortimenti, miqdori, sotish (shartnoma) bahosi va qiymati ko'rsatiladi, bunday holda schyot faktura to'lov talabnomasiga albatta ilova qilinishi kerak. To'lov talabnomasi mol oluvchining hisob – kitob schyotidan schyot – fakturaga asosan yuklab yuborilgan mahsulot qiymatini o'tkazib berishi to'g'risida mol yuboruvchining bankka bergan buyrug'i

boʻlib hisoblanadi.

Schyot – faktura yoki toʻlov talabnomasining alohida qatorida mol oluvchilar tomonidan toʻlanadigan idish va oʻrama qiymati hamda temir yoʻl tarifi koʻrsatiladi. Ayrim hollarda mol yuboruvchining toʻlaydigan temir yoʻl tarifi toʻlanmalar summasiga qoʻshilishi mumkin, QQS summasi alohida qatorda koʻrsatiladi.

Mol yuboruvchi bilan mol oluvchi oʻrtasida tuziladigan shartnomada mol yuboruvchi mahsulotni qaysi joy (franko – joy) gacha yetkazib berish xarajatlarini oʻz hisobiga olishi toʻgʻrisida kelishib olinadi.

Franko – joyning quyidagi turlari mavjud: - mol yuboruvchining franko – ombori – bunda mol yuboruvchi korxona mahsulot yuborish bilan bogʻliq boʻlgan barcha xarajatlar (ombordagi, temir yoʻl bekatidagi, yuklash – tushirish ishlar qiymati, tashish qiymati va temir yoʻl tarifi) toʻlov – talabnomasiga qoʻshiladi;

- franko – yuklab joʻnatish bekati – bunda mol yuboruvchi toʻlov – talabnomaga temir yoʻl tarifini va mahsulotni vagonga yuklash xarajatlari summasini qoʻshadi;

- franko – vagon tayinlanish bekati – bunda mol yuboruvchi toʻlov – talabnomaga faqat temir yoʻl (yoki boshqa transport) tarifi summasini qoʻshadi

; - franko – tayinlanish bekati – bunda temir yoʻl tarifi qoʻshilgan holda mahsulot joʻnatish bilan bogʻliq boʻlgan barcha xarajatlarni mol yuboruvchi toʻlaydi;

- franko – mol oluvchining ombori – bunda yuqorida koʻrsatilgan xarajatlar bilan bir qatorda mol yuboruvchi mol oluvchining bekatidagi va uning omboridagi tushirish – yuklash ishlari, uning omboriga olib borish va boshqa ishlar qiymatini toʻlaydi.

Oʻzbekistonda toʻlovning keng tarqalgan turi boʻlib franko – vagon tayinlanish bekati hisoblanadi.

Tayyor mahsulotlarning mavjudligi va harakati toʻgʻrisidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi.

- 2810 "Ombordagi tayyor mahsulotlar";
- 2820 "Koʻrgazmadagi tayyor mahsulotlar";
- 2830 "Komissiyaga berilgan tayyor mahsulotlar".

Chetga koʻrsatilgan xizmatlar va bajarilgan ishlarning qiymati tayyor mahsulotlarni hisobga oluvchi schyotlarda (2800) aks ettirilmaydi. Ular boʻyicha haqiqiy xarajatlar, xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlardan 9130 "Bajarilgan ish

va ko'rsatilgan xizmatlar tannarxi" schyotiga hisobdan chiqariladi. Buyurtmachilarga joyida topshiriladigan va qabul qilish dalolatnomasi bilan rasmiylashtirilmagan mahsulotlar tugallanmagan ishlab chiqarish tarkibida qoladi.

2810 "Ombordagi tayyor mahsulotlar" schyotida tayyor mahsulotlar haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha hisobga olinadi. Qishloq xo'jaligi korxonalari o'simlikshilik mahsulotlari, chorvachilik va qayta ishlangan mahsulotlarining harakatini biznes-rejadan kelib chiqib, yil davomida prognoz tannarxi bo'yicha hisobga oladi. Yil oxirida tayyor mahsulotning haqiqiy va prognoz tannarxi o'rtasida aniqlangan farq mahsulotlar schyotiga hisobot yili oxiridagi keltirilgan mahsulotlarning qoldig'iga taalluqli bo'lgan ulushlarda o'tkaziladi.

Sotish uchun tayyorlangan (olingan) tayyor mahsulotlar, shu jumladan, qisman korxonaning o'z ehtiyojlari uchun mo'ljallangan mahsulotlarning kirim qilinishi 2810 "Ombordagi tayyor mahsulot" schyotining debetida xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog'langan holda aks ettiriladi. Xaridorlar (buyurtmachilar)ga ortib jo'natilgan tayyor mahsulotlar va ular uchun ushbu xaridor (buyurtmachi)lar tomonidan hisob-kitob hujjatlarining taqdim etilishi 2810 "Ombordagi tayyor mahsulotlar" schyotining kreditidan sotilish tartibida 9110 "Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi" schyotining debetiga hisobdan chiqariladi.

2810 "Ombordagi tayyor mahsulotlar" schyotida haqiqiy ishlab chiqarish tannarxida hisobga olingan tayyor mahsulotlar, analitik hisobda alohida turdagilarning harakatini, mahsulotning haqiqiy ishlab chiqarish tannarxining, uning hisob bahosi qiymatidan farqini ajratgan holda ularni hisob baho (reja tannarxida, sotish bahosida va boshqa)da aks ettirish mumkin. Bunday farqlar tayyor mahsulotning alohida guruhlar bo'yicha korxona tomonidan shakllantiriladigan hisob bahosi qiymatidan haqiqiy ishlab chiqarish tannarxining farq darajasidan kelib chiqqan holda hisobga olinadi.

Tayyor mahsulotlarni 2810 "Ombordagi tayyor mahsulotlar" schyotidan hisobdan chiqarishda haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi analitik hisobda qabul qilingan bahosi bo'yicha qiymatidan farq summasi, hisobot davri boshiga tayyor mahsulotlar qoldig'idagi farqlar va hisobot oyi mobaynida omborga kelib tushgan tayyor mahsulotlar bo'yicha farqlarning bu mahsulotlarni hisob bahosidagi qiymatiga nisbati sifatida aniqlanadigan foizlar bo'yicha topiladi. Sotilgan mahsulotga to'g'ri keladigan tayyor mahsulot haqiqiy ishlab chiqarish tannarxining uning hisob bahosi bo'yicha qiymatidan farq summasi 2810 "Ombordagi tayyor

mahsulotlar" schyotining kreditida va ular ortiqcha xarajat yoki tejalganlikni ko'rsatishidan kelib chiqqan holda qo'shimcha yozuv orqali tegishli schyotlarning debetida aks ettiriladi.

2820 "Ko'rgazmadagi tayyor mahsulotlar" schyotida ko'rgazma, yarmarka, reklama va ko'rsatish uchun mo'ljallangan tayyor mahsulotlar haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha hisobga olinadi. Bunda 2820 "Ko'rgazmadagi tayyor mahsulotlar" schyotining debeti va 2810 "Ombordagi tayyor mahsulotlar" schyotining krediti bo'yicha yozuvlar amalga oshiriladi. Tayyor mahsulotlar uchun javobgarlik vaqtincha bir moddiy javobgar shaxsdan boshqasiga o'tadi. Agar ko'rgazmaga, yarmarkaga va h.k.ga qo'yilgan tayyor mahsulotlar sotilsa, u holda 2810 "Ombordagi tayyor mahsulot" schyotidagi kabi buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi.

2830 "Komissiyaga berilgan tayyor mahsulotlar" schyotida komissiya va konsignatsiya shartnomalari bo'yicha ortib jo'natilgan tayyor mahsulotlar aks ettiriladi. Boshqa korxonalarga komissiya va konsignatsiya shartlari asosida sotish uchun berilgan tayyor mahsulotlar 2810 "Ombordagi tayyor mahsulotlar" schyotidan 2830 "Komissiyaga berilgan tayyor mahsulotlar" schyotining debetiga hisobdan chiqariladi. Komissiya va konsignatsiya shartlari asosida berilgan tayyor mahsulotlarni sotishda 2810 "Ombordagi tayyor mahsulotlar" schyoti kabi buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi.

2810 "Ombordagi tayyor mahsulotlar", 2820 "Ko'rgazmadagi tayyor mahsulotlar", 2830 "Komissiyaga berilgan tayyor mahsulotlar" schyotlari bo'yicha analitik hisob javobgar shaxslar bo'yicha, turlari (sortlar, partiyalar, kiplar) bo'yicha va tayyor mahsulotni saqlash joylari bo'yicha yuritiladi.

Dehqonchilik tarmog'idan mahsulotlar olish uchun sarflanadigan xarajatlarga urug'lik, o'g'it, mehnat haqi, ijtimoiy maqsadlar uchun ajratmalar, o'simliklarni himoya qilish vositalari, asosiy vositalar amortizatsiyasi, ishlab chiqarishni boshqarish va tashkil etish xarajatlari va boshqa xarajatlari kiradi. Ushbu xarajatlarni quyidagi guruhlariga bo'lamiz:

1.Joriy yil hosili uchun o'tgan yillardagi xarajatlar (Joriy yil uchun tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari).

2.Joriy yil hosili uchun joriy yildagi xarajatlar.

3.Kelgusi yillar hosili uchun joriy yildagi xarajatlar (Kelgusi yillar uchun tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari).

Dehqonchilik tarmog'ida buxgalteriya hisobini tashkil etishda xarajatlarning

ushbu xususiyatlari hisobga olinib hisob ishlari tashkil etiladi, ya'ni ushbu xarajatlar bir-biri bilan qo'shib yuborilmay alohida hisobga olib boriladi. Xarajatlar hisobini xarajatlarni qaysi yil hosiliga tegishli ekanligiga qarab alohida olib borilishi xarajatlarni xarajat obyektlariga to'g'ri olib borilishini ta'minlash bilan birga har bir mahsulot tannarxini iqtisodiy asoslangan holda aniqlash imkonini beradi.

Dehqonchilik xarajatlari va mahsulotlar olinishi to'g'risidagi barcha yozuvlar tegishli dastlabki hujjatlar ma'lumotlariga asosan yoziladi. Foydalaniladigan buxgalteriya hujjatlari quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- 1.Mehnat sarfini hisobga oluvchi hujjatlar.
- 2.Mehnat predmetlari sarfini hisobga oluvchi hujjatlar.
- 3.Mehnat vositalari sarfini hisobga oluvchi hujjatlar.
- 4.Mahsulot chiqishini hisobga oluvchi hujjatlar.

Mehnat sarfini hisobga olish hujjatlarida dehqonchilik tarmog'ida o'stirilayotgan ekinlar bo'yicha muayyan ishlarni bajarish uchun sarflangan mehnat va hisoblangan to'lov aks ettiriladi. Mexanizatsiyalashtirilgan ishlarda traktorchi mashinistning hisob varaqalari (67- va 67-b shakllar), mexanizatsiyalashtirilmagan ishlarda mehnat hisobi va bajarilgan ishlar varaqalari (66-va 66-a shakllari) qo'llanadi. Shuningdek, ishbay ishlarda ishlangan vaqtni hisobga olish uchun – ish vaqtini hisobga olish tabeli (64-shakl) qo'llanadi.

Mehnat predmetlari sarfi hisobga olinadigan hujjatlarda dehqonchilik tarmog'ida sarflangan turli moddiy qiymatlar: urug'lik, o'g'it, zaharli ximikatlar, gerbitsidlar, ehtiyot qismlar va hokazolarni qayd etadi.

Ekishga sarflangan urug' va ekish materiallari urug' va ekish materillarini sarflash dalolatnomasi (119-shakl), o'g'it, zaharli ximikat va gerbitsidlar sarfi – ma'danli, organik va bakterial o'g'itlar zaharli ximikatlar va gerbitsidlarni ishlatish to'g'risida dalolatnoma (118-shakl), mayda inventar va buyumlar – ishlab chiqarish va xo'jalik inventari va buyumlarni hisobdan chiqarish dalolatnomasi (126-shakl) bilan rasmiylashtiriladi va hokazo. Dastlabki hujjatlar ko'rsatkichlari oy oxirida moddiy qiymatlar harakati haqidagi hisobotlarda (121-shakl) umumlashtiriladi, shundan so'ng bo'linmalarining ishlab chiqarish hisobotlariga moddiy qiymatlar sarfi haqida tegishli yozuvlar kiritiladi.

Mehnat vositalari sarfini hisobga olish hujjatlari dehqonchilik tarmog'ida foydalanilgan mehnat vositalari bo'yicha xarajatlar, xususan hisoblangan amortizatsiya ajratmalari aks ettiriladi. Bunga amortizatsiyani hisoblash va taqsimlash bo'yicha turli hisob-kitoblar: yil boshidagi holatiga ko'ra asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya ajratmalar hisob-kitobi kelib (52-shakl) tushgan va chiqib ketgan asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya ajratmalari hisob-kitobi (60-shakl), bir oylik amortizatsiya ajratmalarini hisoblash qaydnomasi (62-shakl), dehqonchilik tarmog'idagi asosiy vositalari bo'yicha hisoblangan amortizatsiyasi taqsimlash qaydnomasi (63-shakl).

Bu guruh bilan asosiy vositalarni joriy ta'mirlash bo'yicha hujjatlar uzviy boglangan. Bularga mashinalarni ta'mirlash uchun defektlar qaydnomasi (130-shakl), joriy ta'mirlash xarajatlarini taqsimlash qaydnomasi taalluqlidir.

Mahsulotlar chiqishini hisobga olish bo'yicha hujjatlar: don, texnik ekinlar, sabzavot, meva, ozuqa kabi dehqonchilik tarmogi mahsulotlarini kirim qilish qayd etiladi. Bularga: don ekinlari bo'yicha – don va boshqa mahsulotlarni daladan jo'natish qaydnomasi (77-shakl), mahsulotni daladan olib chiqish yo'llanmasi (77-a-shakl), donni talonli hisobga olish usulida talonlar (77-b, 77-v, 77-g-shakl), don va boshqa mahsulotlarni qabul qilish reestri (78-shakl), donni tarozibon tomonidan qabul qilish reestri (78-a-shakl), don va boshqa mahsulotlar harakati qaydnomasi (80-shakl); kartoshka, sabzavot, meva, rezavor meva va boshqa ekinlar bo'yicha - qishloq xo'jalik mahsulotining kelib tushish qaydnomasi (82-shakl), yopiq yerga ekilgan mahsulotning kelib tushish qaydnomasi (83-shakl), bog'dorchilik mahsulotlarini kelib tushish qaydnomasi (84-shakl); ozuqa ekinlari bo'yicha – dag'al va shirali ozuqalarni qabul qilish dalolatnomasi (92-shakl), yaylov ozuqalarini kirim qilish dalolatnomasi (93 va 93-a-shakllari) kiradi.

Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishini hisobga oluvchi hujjatlar buxgalteriyada qayta ishlanib, «Ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishini hisobga olish daftari»ga yozuvlar amalga oshiriladi. Daftarda har bir ekin turiga alohida betlar ajratilgan bo'lib, xarajatlar va olingan mahsulotlar tegishli betlarga yoziladi. Ushbu daftar hisob registri vazifasini bajarib, dehqonchilik tarmog'idagi har bir ekin turi bo'yicha xarajatlar va mahsulot chiqishini alohida hisobga olishni ta'minlaydi.

Dehqonchilikda ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqimini hisobi buxgalteriya hisobi schyotlar rejasining 2010-«Asosiy ishlab chiqarish» schyotida ochiladigan analitik schyotlarda hisobga olib boriladi. Bu schyotlar balansga nisbatan aktiv schyot bo'lib debetida dehqonchilik tarmog'iga qilingan xarajatlari, kreditida esa dehqonchilik tarmog'idan olingan mahsulotlar hisobga olib boriladi. Dehqonchilik tarmog'idan olingan mahsulotlar yil davomida reja tannarxida hisobga olinib, yil oxirida haqiqiy tannarxga tuzatiladi.

Fermer xo'jaliklarining xarajatlari ham «Mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom»ga asosan quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Mahsulot (ish, xizmat) tannarxiga kiritiladigan xarajatlar.
2. Asosiy faoliyatning boshqa xarajatlari.
3. Moliyaviy faoliyat xarajatlari.
4. Favqulodda zararlar.

Xarajatlarni iqtisodiy mohiyatiga ko'ra guruhlanishi **xarajat elementlari**

deyladi. Mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlar quyidagi xarajat elementlariga bo‘linadi:

- 1.Moddiy xarajatlar.
- 2.Mehnat haqi xarajatlari.
- 3.Ijtimoiy maqsadlar uchun ajratmalar.
- 4.Asosiy va nomoddiy aktivlar eskirishi (amortizasiyasi).
- 5.Boshqa xarajatlar.

Xarajatlarni turlariga ko‘ra guruhlanishi **xarajat moddalari** deyiladi. Xarajatlarni xarajat moddalari bo‘yicha hisobga olinishi boshqaruv hisobiga kirib, xo‘jalik yurituvchi subyektlar ishlab chiqarish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda xarajat moddalari sonini o‘zlari mustaqil belgilaydilar. Fermer xo‘jaliklarida dehqonchilik tarmog‘idagi xarajatlar quyidagi 9 ta xarajat moddasi bo‘yicha hisobga olinadi:

- 1.Mehnat haqi ajratmalari bilan birga.
- 2.O‘g‘itlar.
- 3.Asosiy vositalar amortizasiyasi.
- 4.Urug‘lik va ko‘chat materiallari.
- 5.Ish va xizmatlar.
- 6.Yoqilg‘i va moylash materiallari.
- 7.Sug‘urta to‘lovlari.
- 8.Umum ishlab chiqarish xarajatlari.
- 9.Boshqa xarajatlar.

8.3. Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini hisoblash usullari

Bozor islohotlarini chuqurlashtirish jarayonida korxonalar faoliyatida muhim vazifalardan biri ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tannarxini to‘g‘ri aniqlashdir. *Mahsulot tannarxi* uni ishlab chiqarishga qilingan bevosita xarajatlarning yig‘indisini ifodalaydi.

Mahsulot tannarxini kalkulyasiya qilish va xarajatlarni hisobga olish boshqaruv hisobining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi, chunki, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxi quyidagilar bo‘yicha boshqaruv qarorlarining qabul qilinishi uchun asos bo‘ladi:

- qanday turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, qaysilarini esa to‘xtatish bo‘yicha;
- zarur yordamchi mahsulotlarni sotib olish yoki ishlab chiqarish maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida;
- ishlab chiqarilishi rejalashtirilayotgan mahsulotga baho belgilash borasida;

- ishlab chiqarishni yangi texnika bilan qurollantirish bo'yicha;
- ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarni rivojlantirish bo'yicha berilgan tavsiyalarni asoslashda.

Boshqaruv hisobida tannarx quyidagi asosiy obyektlar bo'yicha aniqlanadi:

- alohida bo'linmalar bo'yicha;
- alohida mahsulot turlari bo'yicha.

Bunda xarajatlarni taqsimlash jarayoni ikki bosqichda amalga oshiriladi:

- xarajatlarni ular vujudga kelgan markazlar bo'yicha to'plash;
- xarajatlarni mahsulot turlari bo'yicha taqsimlash.

Xarajatlarni taqsimlash deganda, korxona faoliyatida vujudga kelgan xarajatlarni aniq obyektlar bo'yicha guruhlash jarayoni tushuniladi.

Xarajatlar obyekti sarflangan xarajatlar hisobga olinishi zarur bo'lgan tashkiliy bo'limdir.

Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish tannarxi bevosita xarajatlar, resurslardan samarali foydalanishni talab qiladi. Korxonadagi moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish ishlab chiqarilayotgan mahsulotning tannarxini pasaytirish imkonini beradi.

Mahsulot tannarxini aniqlashda kalkulyasion birlikni aniq belgilash muhim masala hisoblanadi.

Kalkulyasiya birligi - bu kalkulyasiya obyekti o'lchovidir. Uni tanlash mahsulotni tayyorlash xususiyatlari, nomenklatura kengligi, o'lchashda qo'llanadigan birliklar, amaldagi andozalar va ishlab chiqiladigan mahsulotning texnik shartlariga bog'liq bo'ladi.

Kalkulyasiya obyektlarini belgilashda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turlariga muvofiq ularning nomi, yog'lilik darajasi va idishning turiga qaraladi. Masalan, bir metr sig'imdagi qog'oz idishdagi 3,2% yog'lilikka ega sut, 0,5 metr sig'imdagi polietilen idishdagi 20% yog'lilikdagi smetana, 250g. og'irlikdagi o'rama qog'ozli yog'sizlantirilgan tvorog va h.k.

Amaliy faoliyatda ishlab chiqarish korxonalari kalkulyasiya birliklarning quyidagi guruhlaridan foydalanadilar:

- tabiiy birliklar - dona, kilogramm, tonna, metr, kub metr, kilovatt-soat va h.k.;
- shartli-tabiiy birliklar – konservalar (quyultirilgan sut) 100 shartli bankalari va h.k.;
- foydalaniladigan (ekspluatasion) birliklar - quvvat, mahsuldorlik va h.k.;
- ishlar birliklari - tashib keltirilgan yukning bir tonnasi, yo'l o'oplamasining yuz metri va h.k.;
- vaqt birliklari - mashina-kun, mashina-soat, norma-soat va h.k.

Mahsulot tannarxini kalkulyasiya qilish usullari

Korxonalarda mahsulot tannarxini kalkulyasiya qilishning normativ,

jarayonli, buyurtmali, to'liq tannarx, marjinal xarajatlarni umumlashtirish, xarajatlarni mutanosib taqsimlash, aralash kabi usullari mavjud.

Mahsulot tannarxini kalkulyasiya qilishning **normativ usuli** xarajatlar hisobi normativ usulining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bu usulning afzalligi unda hisob-kitoblarning oddiyligidir. O'uyidagi sabablarni mazkur usulning kamchiliklariga kiritish mumkin:

- foydalanilgan zahiralar miqdori va ularga qo'yilgan baholar nazorati uchun me'yorlarning mavjud emasligi;
- chetlanish sabablari, uning aybdorlari, joyini aniqlash va tahlil etish imkoniyatini yo'qligi;
- ishlab chiqarish jarayonida xarajatlar hisob-kitoblari faqat hisobot davri oxirida o'tkazilishi mumkin va h.k.

Normativ usulda normativ xarajatlar bilan haqiqiy xarajatlar o'rtasida yuzaga keladigan farq chetlanish deb ataladi.

Bir dona ishlab chiqarilgan mahsulotga to'g'ri keladigan normativ xarajatlar quyidagi elementlardan iborat bo'ladi:

- bevosita normativ moddiy xarajatlar;
- bevosita moddiy xarajatlarning normativ miqdori;
- normativ ish vaqti (bevosita mehnat haqi xarajatlari);
- ish vaqtining normalashtirilgan stavkasi;
- o'zgaruvchan umumishlab chiqarish xarajatlarining normativ koeffitsiyenti;
- doimiy umumishlab chiqarish xarajatlarining normativ koeffitsiyenti.

Ushbu usulni qo'llash quyidagi afzalliklarga ega: har bir xarajat turi bo'yicha norma va normativlarning o'rnatilganligi, ishlab chiqariladigan mahsulotlar birligi tannarxining normativ kalkulyasiyasini tuzish, amaldagi normalar va ulardan chetlanishlar bo'yicha xarajatlar hisobini yuritish.

Faqat miqdor bo'yicha normalardan foydalanilganda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$H_x = F_{zx} \times (M_f \pm M_{hx})$$

bu yerda,

M_f - xarajatlarning normativ miqdori;

M_{hx} - haqiqiy xarajatlarning normadan chetga chiqishi.

Sarflangan resurslardan ehtiyojga muvofiq normada foydalanilganda quyidagi formulani qo'llash maqsadga muvofiq:

$$H_x = (F_{zx} \pm M_{xb}) \times M$$

bu yerda,

M_{xb} - sarflangan resurslarning bahosi o'zgarishi natijasida chetlanishlar.

Sarflangan resurslarning miqdori va bahosi bo'yicha normalardan foydalanib, haqiqiy xarajatlar quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$H_x = (F_{zx} \pm M_{xb}) \times (M_m \pm M_{ch})$$

bu yerda,

M_M - normativ miqdor;

M_{ch} -haqiqiy xarajatlarning normadan chetga chiqishi (sarflangan resurslar miqdori o'zgarishi sababli).

Ushbu usul normativ kalkulyasiyalarni har bir buyum bo'yicha majburiy dastlabki tuzilishini ko'zda tutadi, ular hisobot davri boshida amal qiluvchi xarajatlar normalari asosida hisob-kitob qilinadi. Tashkiliy va ilmiy-texnik tadbirlarni tatbiq etish normalari va normativ xarajatlar yangilanishi bilan normativ kalkulyasiyalar ham yangilanadi.

Normativ usulda xarajatlar normalar doirasida va ulardan chetlanishlar bo'yicha olib boriladi. Mavjud chetlanishlar haqidagi axborot mahsulot tannarxini shakllantirish jarayonida tezkor ta'sir o'tkazish maqsadida boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Bu usulda mahsulotning haqiqiy normativ tannarxi har bir modda bo'yicha normalardan chetlanishlarni qo'shish yoki ayirish yo'li bilan hisoblanadi.

Normativ usuldan muvaffaqiyatli foydalanish uchun quyidagi shartlar bajarilishi zarur:

- resurslarning barcha turlari bo'yicha normativ asosni aniqlash;
- normativ kalkulyasiyalarni oldindan tuzish;
- xarajatlarning kelib chiqish joylari, normalardan chetlanishlarning aybdorlari va normalar o'zgarishi sabablari bo'yicha ishlab chiqarish xarajatlarini qayd etuvchi birlamchi hujjatlarni ishlab chiqish;
- har bir ishlab chiqarish bo'linmasi va butun korxona bo'yicha mahsulotlar tannarxini shakllantirish ustidan o'rnatilgan nazorat natijasi bo'yicha tezkor boshqaruv qarorlari qabul qilish va xulosalar chiqarish bo'yicha ishlarni tashkil etish.

Normativ usul ombor xo'jaligini to'g'ri tashkil etishni ham talab qiladi. Bunda omborni og'irlik o'lchov jihozlari bilan ta'minlash, ishlab chiqarish bo'linmalarini esa - suv, gaz bug', elektr quvvatini iste'mol qilish uchun o'lchov asboblari bilan ta'minlash, mahsulotlar nomenklaturasini ishlab chiqish, birlamchi hujjatlar va boshqa tashkiliy-texnik tadbirlarni sifatli rasmiylashtirishdan iborat.

Shunday qilib, mahsulot tannarxini kalkulyasiya qilishning normativ usuli korxonalarda xarajatlar hisobi xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning haqiqiy tannarxini aniqroq hisoblashga imkon beradi, bundan tashqari bu usul xarajatlar bo'yicha chetlanishlarni batafsil tahlil etib, aniqlangan chetlanishlar va ularning sabablarini aniqlashga imkon beradi. Demak, mazkur usul xarajatlarni operativ nazorat qilish va chetlanishlarni boshqarish uchun qulaydir.

Rejali (taxminiy) tannarx bo'yicha xarajatlar hisobi usuli normativ usulga qaraganda ko'proq qo'shimcha afzalliklarga ega. Unda normativ hajmlarga nisbatan rejalashtirilgan hajmlarni chuqurroq asoslanganligi, taxminlar aniqligi nazorat samaradorligini oshirishni ta'minlaydi. U mavjud ishlab chiqarish resurslarini hisobga olgan holda materiallar, yoqilg'i, energiya, ish haqi va boshqa xarajatlarni progressiv normalaridan kelib chiqib tashkil etiladi. Bu usulning asosiy afzalligi shundaki, unda rejali xarajatlar erishilgan natijaga emas, balki kelgusidagi taxminga asoslanadi.

Texnologik jarayonga nisbatan xarajatlar hisobini jarayonli va buyurtmalar bo'yicha tashkil etish mumkin.

Mahsulot tannarxini aniqlashning **jarayonli usulidan** mahsulot ishlab chiqarishda xomashyoning bir necha jarayondan o'tganidan so'ng tayyor mahsulot holiga keladigan ishlab chiqarishlarda foydalaniladi.

Tannarxni kalkulyasiya qilishning jarayonli usuli uzluksiz, bir necha bosqichdan iborat jarayonlar bo'yicha ko'p miqdordagi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarda qo'llaniladi. Bunda mahsulot tannarxini kalkulyasiya qilish ikki usulda amalga oshiriladi:

- o'rtacha hisob usuli. Mazkur usulda xarajatlar, shu jumladan, hisobot davri boshidagi qoldiq summasi ham qo'shib, shu davrda ishlab chiqilgan shartli tayyor mahsulot birligiga bo'linadi;

- FIFO usuli. Bunda hisobot davri boshidagi tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig'i tugatiladi so'ngra yangi mahsulot ishlab chiqarish amalga oshiriladi. FIFO usulini qo'llashda birmuncha qiyinchiliklar mavjud, biroq o'rtacha hisob usuliga nisbatan aniqroq hisoblanadi.

Xarajatlar hisobini jarayonli usulining ikki varianti mavjud: yarim tayyor mahsulotli va yarim tayyor mahsulotsiz.

Yarim tayyor mahsulotli usulda har bir oldingi qayta ishlangan mahsulot keyingi qayta ishlov uchun yarim tayyor mahsulot hisoblanadi va u tashqariga sotilishi mumkin. Bu yarim tayyor mahsulotlarni haqiqiy, normativ yoki rejali tannarx bo'yicha, hisob-kitob yoki mahsulotni sotish baholari bo'yicha baholash

zaruratini belgilaydi. Bu variantda yarim tayyor mahsulotlar qiymati alohida 2100 - “O‘zi ishlab chiqargan yarim tayyor mahsulotlar” nomli aktiv schetda aks ettiriladi.

Yarim tayyor mahsulotsiz usulda har bir qayta ishlov bo‘yicha, asosan, faqat ishlov berishga ketgan xarajatlar olinadi. Tayyor mahsulot tannarxi xomashyo, dastlabki materiallar xarajatlari, barcha qayta ishlash xarajatlari va boshqa ishlab chiqarish xarajatlarini umumlashtirish bilan aniqlanadi. Bunda faqat tayyor mahsulot tannarxi kalkulyasiya qilinadi.

Misol. Korxona erkaklar poyafzali ishlab chiqaradi. Ishlab chiqarish uchta jarayonda tashkil etilgan. Quyidagi ma’lumotlar mavjud:

- hisobot davrining birinchi choragida 1500 dona mahsulot ishlab chiqarilgan;
- dastlabki ishlov uchun xomashyo va materiallar sarflangan - 8400000 so‘m;
- oraliq mahsulotlarga xarajatlar qilindi - 2400000 so‘m;
- tayyor mahsulot holiga keltirish uchun mablag‘lar sarflandi - 1200000 so‘m.

Bunda jarayonlar bo‘yicha tannarx aniqlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1-jarayon - $8400000/1500=5600$

2-jarayon - $2400000/1500=1600$

3-jarayon - $1200000/1500=800$

Jami: $12000000/1500=8000$.

Yuqoridagi hisob-kitoblardan ko‘rinib turibdiki, bir birlik mahsulotning haqiqiy tannarxi 8000 so‘mni tashkil etadi.

Xarajatlar hisobining **buyurtmali usuli** xususiy va mayda turkumli ishlab chiqarishda, shuningdek, tajriba-eksperimental ishlab chiqarishda va ta’mirlash ishlarida qo‘llanishi mumkin.

Buyurtmali usulning mohiyati, bir yoki bir necha xildagi mahsulotlarning uncha katta bo‘lmagan turkumini tayyorlashda har bir buyurtma bo‘yicha alohida xarajatlar hisobini amalga oshiriladi.

Xarajatlarni hisobga olish va tannarxni kalkulyasiya qilishning buyurtmali usuli quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

- alohida buyurtmalar bo‘yicha, shuningdek, bir martalik mahsulot turi ishlab chiqarilayotganda qo‘llaniladi;
- bu usulda xarajatlar muayyan hisobot davri (bir oy, chorak, yil) oralig‘ida emas, balki bajarilayotgan buyurtma davri bo‘yicha aniqlanadi;
- qo‘shimcha analitik ma’lumotlarni yig‘ib borish uchun buyurtmalar kartochkasidan foydalanish mumkin. Ushbu buyurtmalar kartochkasidan xarajatlar tegishli javobgarlik markazlari bo‘yicha yig‘ib boriladi.

Bu usulda barcha bevosita xarajatlar ishlab chiqarilgan yoki bajarilgan buyurtma birligiga olib boriladi. Buyurtmali usulda umumishlab chiqarish xarajatlari maxsus usullar bo'yicha aniqlanadi va mahsulot tannarxiga olib boriladi. Umumishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning eng muqobil usuli normativ koeffitsiyentlar usulidir.

Koeffitsiyentlarni hisoblash uchun bosqichda amalga oshiriladi:

- umumishlab chiqarish xarajatlari rejasining yillik byudjeti tuziladi;
- xarajatlarning umumiy summasi rejalashtirilayotgan ishlab chiqarish hajmiga qarab aniqlanadi. Bunda xodimlarning mehnat haqi, sarflangan kishi soat, sarflangan mashina-soat va h.k.;
- rejalashtirilayotgan hisobot davri uchun aniqlangan umumishlab chiqarish xarajatlari summasi rejalashtirilgan ishlab chiqarish hajmiga bo'linadi.

Yuqoridagi hisob-kitoblardan so'ng, pul birligi, soat va boshqa istalgan o'lchov birligida aniqlanishi mumkin bo'lgan umumishlab chiqarish xarajatlarining normativ koeffitsiyenti yuzaga keladi.

Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini hisoblashning buyurtmali usulida kalkulyasiya obyekti bo'lib muayyn miqdordagi mahsulotni ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish)ga olingan buyurtma hisoblanadi.

Mahsulotni ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish)da asosiy buxgalteriya hisobi hujjati bo'lib, buyurtmachi va ishlab chiqaruvchi o'rtasida tuzilgan shartnoma hisoblanadi. Mazkur shartnomada quyidagilar o'z ifodasini topadi: shartnoma obyekti, shartnoma subyektlari va ularning manzillari, mahsulot (ish, xizmat)ning hajmi va yuklab jo'natish (qabul qilib olish) muddati, shartnoma bahosi, to'lov shakllari va boshqalar.

Buyurtmali usulda mahsulot tannarxini hisoblash yakka va turkumli ishlab chiqarishlarda qo'llaniladi.

Buyurtmalar bo'yicha material, mehnat haqi va shu kabi xarajatlar alohida taqsimlash jadvallarida guruhlanadi. Buyurtma obyektining tannarxi u ochilgan kundan boshlab amalga ishlab chiqarish xarajatlarining yig'indisi summasi orqali aniqlanadi.

Buning uchun har bir buyurtmaga buxgalteriyada alohida kartochka ochiladi, unda buyurtma bo'yicha xarajatlar buyurtmani bajarishning butun muddati mobaynida hisobga olinadi.

Bevosita xarajatlar birlamchi hujjatlar asosida sexlar va buyurtmalar bo'yicha hisobga olinadi. Bunda har bir buyurtma uchun alohida birlamchi hujjatlar rasmiylashtiriladi.

Bilvosita xarajatlar korxonada mutanosib ravishda qabul qilingan taqsimot bazasiga binoan taqsimlash yo'li bilan mahsulotlar tannarxiga kiritiladi.

Buyurtmani bajarish davrida xarajatlar tugallanmagan ishlab chiqarish sifatida hisobga olinadi.

Mahsulot ishlab chiqarish jarayoni tugagandan keyin kartochka yopiladi va buyurtmani bajarishga ketgan xarajatlar hisoblab chiqiladi.

Bu xarajatlardan qaytarilgan chiqindilar, tuzatib bo'lmaydigan brak va foydalanilmagan materiallarni omborga qaytarish xarajatlari chiqarib tashlangach, buyurtma bo'yicha ishlangan mahsulotning haqiqiy tannarxi kelib chiqadi.

Agar buyurtmaga muvofiq bir necha xil buyum tayyorlansa, haqiqiy xarajatlar summasini ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga kalkulyasiya moddalari bo'yicha bo'lish bilan bir birlik mahsulotning tannarxi aniqlanadi.

Misol. «Sadaf» AJ buyurtmalar bo'yicha tikuv mashinasi va muzlatgich ishlab chiqaradi. Buyurtmachilar tomonidan korxonaga 6ta tikuv mashinasi va 8ta muzlatgichga buyurtma berilgan. Buyurtmalar bajarib bo'lingan. Bir dona buyurtmaning haqiqiy tannarxini aniqlash zarur.

Buyurtmalar to'g'risida quyidagi ma'lumotlar mavjud:

1) Moddiy xarajatlar amalga oshirildi:

- tikuv mashinalari uchun - 288000 so'm;
- muzlatgichlar uchun - 768000 so'm.

2) Xodimlarga mehnat haqi to'landi:

- tikuv mashinalari uchun - 153600 so'm;
- muzlatgichlar uchun - 409600 so'm.

3) Buyurtmalar bo'yicha umumishlab chiqarish xarajatlari hisoblandi.

- tikuv mashinalari uchun - 38400 so'm;
- muzlatgichlar uchun - 102400 so'm.

Ishlab chiqarish jarayoniga sarflangan jami xarajatlar:

- tikuv mashinalari uchun - $288000+153600+38400=480000$ so'm;
- muzlatgichlar uchun - $768000+409600+102400=1280000$ so'm.

Ushbu ma'lumotlar bo'yicha bir dona buyurtmaning tannarxi quyidagicha bo'ladi:

Tikuv mashinasi uchun - $480000/6=80000$ so'm;

Muzlatgichlar uchun - $1280000/8=160000$ so'm.

Ko'pincha korxona amaliy faoliyatida jarayonli usul bilan bir qatorda buyurtmali usulning unsurlarini birgalikda qo'llovchi aralash tizimlardan foydalaniladi. Bunday tizimlar turkumli va seriyali mahsulot ishlab chiqarishlarda qo'llaniladi. Jumladan, **muomalalar bo'yicha tannarx aniqlash usuli** istiqbolli aralash tizimlardan biri hisoblanib, unda xarajatlarni hisobga olishning asosiy obyekti muomala hisoblanadi. Umumishlab chiqarish xarajatlari mazkur muomaladan o'tgan mahsulot birliklari o'rtasida asosiy ishlab chiqarish xodimlarining asosiy ish haqi salmog'iga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Asosiy materiallarga ketgan xarajatlar ham buyurtmali usul kabi mahsulotning alohida turi tannarxiga kiritiladi. Muomalalar usulining afzalligi kalkulyasiyani texnologik sharoitga yaqinlashtirishdan iborat.

Xalqaro amaliyotda korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining schetlar tizimida tannarxni shakllantirish usuliga qarab xarajatlar hisobini to'liq yoki cheklangan tannarx (marjinal daromad usuli) bo'yicha tashkil etishlari mumkin.

To'liq tannarx bo'yicha xarajatlar hisobi usulida mahsulot tannarxiga doimiy va o'zgaruvchan, bevosita va bilvosita xarajatlarga bo'linishidan qat'iy nazar, korxonaning barcha xarajatlari kiritiladi. Bevosita mahsulotga kiritib bo'lmaydigan xarajatlar avval ular kelib chiqqan javobgarlik markazlari bo'yicha taqsimlanadi, keyin esa tanlangan asosga mutanosib ravishda mahsulot tannarxiga kiritiladi. Ko'pincha taqsimlash bazasi sifatida ishlab chiqarish ishchilarining asosiy ish haqi, ishlab chiqarish tannarxi va h.k.lar tanlanadi.

To'liq tannarx bo'yicha xarajatlar hisobi usuli mamlakatimizda keng taro'algan va moliyaviy hisob hamda soliqqa tortish bo'yicha normativ hujjatlar talablari va O'zbekistonda yuzaga kelgan an'analarga mos keladi. Biroq, mazkur usul mahsulot ishlab chiqarish hajmi o'zgarganda mahsulot birligi tannarxida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni hisobga olmaydi.

Xo'jalik yuritishning hozirgi sharoitida **cheklangan tannarx ya'ni marjinal usul** bo'yicha xarajatlar hisobi usuliga alohida e'tibor berilishi zarur. Bu usulga muvofiq mahsulot tannarxiga korxona xarajatlarning hammasi kiritilmaydi, balki uning bir qismi - o'zgaruvchan xarajatlar kiritiladi. Ushbu usulda doimiy xarajatlarni mahsulot tannarxiga kiritmaydilar va shunday xarajatlar yuzaga kelganda o'sha davr foydasini kamaytirishga yo'naltiriladi. Aniq tasavvur hosil qilish uchun quyidagi misolni ko'rib chiqamiz (15-ilovaga qarang).

2010 yilda uyushma korxonalarining 10%li smetanani bir litrini ishlab chiqarish va sotishga qilingan o'rtacha xarajatlari so'mda quyidagicha:

1. Sotish bahosi	772-00
2. Qo'shilgan qiymat solig'i	129-00
3. O'zgaruvchan xarajatlar	270-20
4. Marjinal daromad (1q.-2q.-3q.)	372-80
5. Doimiy xarajatlar	265-80
6. Foyda (3q.-4q.)	107-00

Misoldan ko'rinib turibdiki, smetana birligidan olingan marjinal daromad 372-80 so'm (772,00-129,00-270,00)ni tashkil etadi va o'ziga xos yalpi foyda-brutto foydasi hosil bo'ladi. Marjinal daromad summasidan doimiy xarajatlar summasini ayirib operasion foyda-netto foydasi topiladi. Biroq, 17-ilova tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tarmoq korxonalarida hali marjinal daromad konsepsiyasi

qo‘llanilmayapti, vaholanki moliyaviy hisobotning 2-shakli «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot» marjinal daromadni aniqlash talablariga muvofiq tuzilgan va tasdiqlangan. Demak, boshqaruv hisobi tizimini ham shu talablarga moslashtirish lozim.

Binobarin, mahsulotlarning sotish bahosi va o‘zgaruvchan xarajatlar summasi o‘rtasidagi farq qancha ko‘p bo‘lsa, marjinal daromad va rentabellik darajasi ham shuncha baland bo‘ladi. Bundan tashqari, xarajatlarning doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlarga bo‘linishi korxona faoliyatini boshqarish va tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi, jumladan u assortiment siyosati, zararli faoliyat yuritgan holda yopib qo‘yish yoki inqirozga uchraganligini e‘lon qilish haqida qaror qabul qilish uchun zarur.

Bu usulning asosiy afzalligi doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlarning birlashishidan iborat. Ushbu xarajatlarni boshqarish quyidagi eng muhim vazifalarini hal etish imkonini beradi:

- mahsulot yoki buyurtma bahosining quyi chegarasini aniqlash;
- mahsulot turlari foydaliligini qiyosiy tahlili;
- mahsulot ishlab chiqarish va sotishning qulay dasturini aniqlash;
- mahsulot yoki xizmatlarning o‘z mahsuloti va ularni chetdan sotib olish o‘rtasidagi tafovut;
- ishlab chiqarish texnologiyasini iqtisodiy nuqtai-nazardan qulayligini tanlash;
- korxona raqobatbardoshligi zahirasi hamda zararsizlik nuqtasini belgilash va h.k.

Korxonalarda mahsulot tannarxini kalkulyasiya qilish usullari texnologiya va ishlab chiqarishni oqilona tashkil qilishni taqozo etadi. Hozirgi paytda korxonalarda oddiy, jarayonli (shu jumladan, bo‘linmali) va buyurtmali usullar xarajatlarni hisobga olish va tannarxni aniqlashning normativ usuli bilan bog‘lab olib borilmoqda.

2010-«Asosiy ishlab chiqarish» schetining har bir mahsulot turiga ochilgan analitik schetlarida xarajatlar belgilangan xarajat moddalari bo‘yicha hisobga olib boriladi.

Analitik schetlar mahsulotlarni qayta ishlashdagi texnologik jarayonlar bo‘yicha ochiladi.

Xarajatlarni umumlashtirish usuli (oddiy usul)da mahsulot tannarxi mahsulotning alohida qismlari yoki ularni tayyorlash jarayoni bo‘yicha aniqlanadi. Bu usul, odatda, bir xil mahsulot ishlab chiqarilganda qo‘llaniladi.

Qo‘shimcha mahsulotga xarajatlarni chiqarib tashlash usuli shundan iboratki, bunda ishlab chiqarishdan olinadigan mahsulotlar asosiy, qo‘shimcha va yondoshlarga bo‘linadi. Asosiy mahsulot tannarxini aniqlash uchun

qo'shimcha mahsulotlar va chiqindilar oldindan belgilangan baholar bo'yicha umumiy xarajatlardan chiqarib tashlanadi.

Xarajatlarni mutanosib taqsimlash usuli mahsulotlarning bir necha turini bir vaqtning o'zida ishlab chiqarish sharti bilan ular tannarxini kalkulyasiya qilish uchun qo'llaniladi. Ushbu usul asosan aralash mahsulotlar ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Bunda xarajatlar hisobi ishlab chiqariladigan mahsulotlar guruhi bo'yicha tashkil etiladi, guruhlar ichidagi xarajatlar esa iqtisodiy jihatdan asoslangan, ba'zida mutanosib ravishda mahsulotlarning alohida turlariga taqsimlanadi.

Kalkulyasiya qilishning aralash usuli yuqorida sanab o'tilgan usullarning har birini alohida qo'llash imkoni bo'lmasa yoki mahsulot tannarxini asosli hisobga olish ta'minlansa, ularning bir nechtasini o'zaro birikuvini ifodalaydi.

8.4. Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini hisoblashning «standart kost» va «direkt kosting» usullari

Xorijiy mamlakatlarda buxgalteriya hisobini yuritishning zamonaviy sharoitida strategik va taktik xususiyatga ega bo'lgan boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni korxonaning xarajatlari va moliyaviy natijalari haqidagi axborotga tayanadi. Bu vazifani bajarishda "Standart-kost" hisob tizimi korxona xarajatlarini boshqarishda samarali qurollardan biri hisoblanadi. Uning asosida belgilangan normalar doirasida hamda ulardan chetlanishlar bo'yicha hisob yuritish va nazorat qilish tamoyillari yotadi.

"Standart-kost" atamasi ikki so'zdan tashkil topgan: "standart"-mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun zaruriy bo'lgan moliyaviy, moddiy va mehnat xarajatlari uchun oldindan hisoblab qo'yilgan xarajatlarni normativini anglatga, "kost" so'zi esa mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xarajatlarni bildiradi. Shunday qilib, "Standart-kost" so'zi to'liq ma'nosida standart xarajatlarni anglatadi.

Standartlar - eng avvalo, ishlab chiqarishning bevosita xarajatlaridan foydalanish ustidan nazoratni o'rnatishga qaratilgan va bir-biriga bog'liq, smetalar esa taqsimlanadigan xarajatlar nazorati uchun mo'ljallangan.

«Standart-kost» tizimi - bu xarajatlar hisobi va tannarx aniqlash tizimi bo'lib, unda ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) tannarxi avvaldan puxta, obdon hisoblab chiqilgan normativ xarajatlar yordamida baholanadi, keyin esa haqiqiy qilingan xarajatlar bilan taqqoslanadi. Normativ va haqiqiy xarajatlar o'rtasidagi farq chetlanish deb ataladi. Xarajatlarni samarali boshqarishning muhim vositalaridan biri chetlanishlar tahlili deb yuritiladi.

“Standart-kost” tizimining tarkibi moddalar bo‘yicha xarajatlarning quyidagi dastlabki (ishlab chiqarish jarayoni boshlanguncha) normalaridan tashkil topadi:

- asosiy materiallar;
- asosiy ishlab chiqarishda band bo‘lgan ishchilarning mehnat haqi;
- ishlab chiqarishdagi taqsimlanadigan xarajatlar (yordamchi ishlab chiqarishdagi xodimlar ish haqi, yordamchi materiallar, ijara haqi, jihozlar amortizatsiyasi va h.k.)
- sotish xarajatlari (mahsulotni sotish bo‘yicha xarajatlar).

“Standart-kost” hisob tizimi bo‘yicha foyda quyidagi tartibda aniqlanadi:

1. Mahsulot sotishdan olingan yalpi daromad;
2. Mahsulotning standart tannarxi;
3. Yalpi foyda (1q-2q);
4. Standartlardan chetlanishlar;
5. Foyda (3q-4q).

Standartlar va normalar yordamida hisoblab chiqilgan kalkulyasiyalar ishlab chiqarish va xarajatlarni tezkor boshqarish uchun asos bo‘lib hisoblanadi. Xarajatlarning belgilangan standart normalaridan chetlanish darajasi mazkur chetlanishlarning kelib chiqish sabablarini aniqlash uchun tahlil qilinadi. Bu esa ma’muriyatga ishlab chiqarishdagi kamchiliklarni tezkor bartaraf etishga, kelajakda ham ularning oldini olishga imkon yaratadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, “Standart-kost” hisob tizimi xorij amaliyotida normativ hujjatlar bilan belgilab qo‘yilmagan, shu sababli bu tizim standartlarni belgilashni va hisob qaydnomalarini yurgizishning yagona usuliga ega emas, natijada birgina korxona ichida ham bazisli, joriy, mutlaq, taxminiy va yengillashtirilgan kabi turli normalar amal qiladi.

Normalarni belgilashda mahsulotni ishlab chiqarish uchun zarur xomashyo, ishchi kuchi va xizmatlar xarajatini tabiiy holda ifoda etishga imkon beruvchi miqdoriy standartlardan keng foydalaniladi.

Taqsimlanadigan xarajatlar. Taqsimlanadigan xarajatlar nazorati uchun mahsulotning taxminiy hajmidan kelib chiqib ma’lum davr uchun stavkalar belgilanadi. Taqsimlanadigan xarajatlar smetalari doimiy tavsifga ega, biroq ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishida taqsimlanadigan xarajatlar nazorati uchun o‘zgaruvchan standartlar va sirpanchiq smetalar tuziladi.

Taqsimlanadigan xarajatlarning sirpanchiq smetalari mahsulot ishlab chiqarish miqdoriga bog‘liq ravishda doimiy, o‘zgaruvchan va yarim o‘zgaruvchan xarajatlarga bo‘linadi. So‘nggilari o‘z navbatida, doimiy va o‘zgaruvchan tarkibiy unsurlarga bo‘lib chiqiladi. Bunday usulda

taqsimlanadigan xarajatlarning smeta stavkasi (normasi) mahsulot ishlab chiqarish va doimiy xarajatlar birligiga oldindan belgilangan normalar ulushining o'zgaruvchan qismi sifatida aniqlanadi.

Mahsulotning standart tannarxini aniqlash uchun xomashyoning normativ xarajatlari, ishchi kuchi va taqsimlanadigan xarajatlar umumlashtiriladi.

“Standart-kost” hisob tizimidan foydalanadigan korxonalar odatda, quyidagi xarajat moddolari bo'yicha hisobni tashkil etadilar: (3.1. -jadval).

- xomashyo xarajati bo'yicha chetlanishlar;
- mehnat haqi bo'yicha chetlanishlar;
- umumishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha chetlanishlar;
- davr xarajatlari bo'yicha chetlanishlar.

Zarurat tug'ilganda (masalan, javobgarlik markazlari bo'yicha bo'linmalarda chetlanishlarni aks ettirishda) bu xarajat moddalarining har biri bo'yicha analitik schetlar ochilishi mumkin.

“Standart-kost” hisob tizimidagi asosiy talab - bu xarajatlarning belgilangan normalaridan chetlanishlari ustidan nazorat bo'lib, u xarajatlar standartlarini takomillashtirishga imkon beradi. Agar bunday nazorat qo'llanilmasa, u holda “Standart-kost” tizimining qo'llanishi shartli bo'lib qoladi va ijobiy natija bermaydi.

«Standart-kost» hisob tizimi quyidagi afzalliklarga ega:

– «Standart-kost» tizimi xarajatlarni operativ boshqarishga ko'maklashadi. Chetlanishlarni o'rganishda e'tibor reja va normativlar mos kelmaydigan obyektlarga qaratiladi. «Standart-kost» tizimida chetlanishlar boshqa tizimlardan ko'ra tezkor va ancha aniq hisoblanadi;

– ishlab chiqarish texnologiyalarini modernizasiya qilish va qo'llashga ko'maklashadi. Investitsiyalar asosan tejimli texnologiyalarga yo'naltirilishi lozimligi sababli, ishlab chiqarish texnologiyalari doimo qayta ko'rib boriladi. Zarur paytda foydalanilayotgan ayrim elementlarga emas, balki butun texnologiya ham qayta ko'rib chiqilishi mumkin;

– xarajatlarni qattiq va aniq nazorat qilishni ta'minlaydi.

«Standart-kost» hisob tizimi tayyor mahsulot va uning tarkibiy qismlari aniq baholanishini nazarda tutadi. Normativ xarajatlar bu tizimda nafaqat o'rtacha norma, balki avvalgi yillar tajribasi asosida sinalgan kompleks baholash mezonlaridir.

1-jadval

**“Standart-kost” hisob tizimida xarajat moddolari bo'yicha
chetlanishlarni turkumlash**

	Chetlanish turlari	Chetlanishlarni tavsiflovchi ko'rsatkichlar va ularning hisob-kitobi
1	2	3
I. Homashyo		
1	<i>Homashyo qiymatidagi chetlanishlar</i>	- homashyo birligining normativ tannarxi; - haqiqiy baho; - sotib olingan homashyo qiymati.
2	<i>Homashyo miqdori bo'yicha chetlanishlar</i>	- mahsulotni ishlab chiqarishga sarflangan homashyoning normativ miqdori; - homashyo uchun sarôlangan haqiqiy xarajat.
3	<i>Homashyo birligiga sarôlanadigan xarajatlar bo'yicha chetlanishlar</i>	- homashyo birligiga sarôlangan normativ xarajatlar; - homashyo birligiga sarôlangan haqiqiy harajatlar.
II. Ishchi kuchi		
1	<i>Mehnat haqi stavkalari bo'yicha chetlanishlar</i>	- ish haqining normativ stavkasi; - ish haqining soatbay stavkasi; - haqiqiy ishlangan vaqt.
2	<i>Mehnat unumdorligi darajasi bo'yicha chetlanishlar</i>	- mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun normativ vaqt; - mahsulot birligiga sarflangan haqiqiy vaqt; - mehnatga haq to'lash normativ soatbay stavkasi.
III. Qo'shimcha xarajatlar		
1	<i>Doimiy qo'shimcha xarajatlar bo'yicha chetlanishlar</i>	- mahsulot birligiga sarflanadigan doimiy qo'shimcha xarajatlar me'yori; - mahsulot birligiga sarflanadigan haqiqiy doimiy qo'shimcha xarajatlar; - ishlab chiqarilgan mahsulotning haqiqiy hajmi.
2	<i>O'zgaruvchan qo'shimcha xarajatlar bo'yicha chetlanishlar</i>	- mahsulot birligiga sarflanadigan o'zgaruvchan qo'shimcha xarajatlar me'yori; - mahsulot birligiga sarflangan haqiqiy o'zgaruvchan qo'shimcha xarajat; - ishlab chiqarilgan mahsulotning haqiqiy hajmi.
IV. Yalpi foyda		

1	<i>Sotish bahosi bo'yicha chetlanishlar</i>	- mahsulot birligining normativ tannarxi; - mahsulot birligining haqiqiy tannarxi; - sotilgan mahsulot hajmi.
2	<i>Sotish hajmi bo'yicha chetlanishlar</i>	- smeta bo'yicha sotish hajmi; - haqiqiy sotilgan mahsulot hajmi; - mahsulot birligiga to'g'ri kelgan me'yoriy foyda.
3	<i>Yalpi foyda hajmi bo'yicha chetlanishlar</i>	- normativ foyda; - haqiqiy olingan foyda.

Yuqoridagi ijobiy tomonlar bilan birgalikda «Standart-kost» tizimining quyidagi kamchiliklari ham mavjud:

- «Standart-kost» tizimini qo'llash va uni takomillashtirish ko'p vaqt va xarajatlar talab qiladi. Ammo amaliyot ko'rsatishicha, ishlab chiqarish samaradorligini oshishi hisobiga bu xarajatlar tezda qoplanib ketadi;

- «Standart-kost» tizimi iqtisodiyotda baholar, foiz stavkalari, ishlab chiqarish texnologiyalari va usullari intensiv o'zgarib turadigan, beqaror sharoitlarda ijobiy samara bermay, o'z dolzarbligini yo'qotadi. O'z navbatida, bunday sharoitlarda tizim xarajatlarni operativ nazorat qilishdagi ustuvor vazifalarni bajarmay, samarali boshqarish dastagi rolini ijro etmay qoladi;

- xususan, bozordagi raqobat natijasida shakllangan bahoning o'zgarishi va inflyasiyani, ombordagi tayyor mahsulotlar qoldig'i va tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatini hisoblashni murakkablashtiradi;

- standartlarni barcha ishlab chiqarish xarajatlariga qo'llab bo'lmaydi, shu sababli ularni nazorat qilish susayadi;

- korxona qisqa muddat ichida tavsif va tipi bo'yicha turli buyurtmalarni katta miqdorda bajarayotganda standartlarni har bir buyurtmaga hisoblab chiqish imkonini chegaralangan. Bunday hollarda ilmiy asoslangan standartlar o'rniga har bir mahsulotga o'rtacha qiymat belgilanadi, u mahsulotga baho belgilash uchun asos (baza) bo'lib hisoblanadi.

Ushbu kamchiliklarga qaramay korxonalarning rahbarlari ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kalkulyasiyalash, shuningdek, boshqarish, rejalashtirish va zaruriy qarorlar qabul qilish uchun nazorat o'rnatishning ishonchli quroli sifatida "Standart-kost" hisob tizimidan foydalanadilar.

Normativ usul va "Standart-kost" tizimini o'rganish ular o'rtasida umumiyliklar mavjudligini tasdiqlaydi. Demak, har ikkala tizim uchun quyidagilar umumiy tamoyil bo'lib hisoblanadi:

- xarajatlarni qat'iy normalashtirish;
- xarajatlarni alohida moddalar bo'yicha normativ kalkulyasiyani oldindan (hisobot davri boshlanguncha) tuzish;
- chetlanishlarning paydo bo'lishi va javobgarlik markazlaridagi

chetlanishlar va joriy normalar bo'yicha xarajatlarning bo'linish hisobi hamda nazorati;

- ishlab chiqarish jarayonida va xarajatlarni boshqarishdagi salbiy hodisalarni bartaraf etish uchun axborotdan foydalanish maqsadida paydo bo'lgan chetlanishlarni tizimli umumlashtirish va tahlil qilish;

- mahsulot tannarxini kalkulyasiya qilish va xarajatlar hisobi usullarining har taraflamaligi hamda imkoniyatlarini inobatga olish.

- Shuni ta'kidlash lozimki, qayd qilingan umumiy tamoyillar o'rtasida quyidagi ayrim tafovutlar mavjud:

- normativ usuldan farqli ravishda "Standart-kost" hisob tizimida xarajatlar normalari o'zgarishlarining alohida hisobi olib borilmaydi;

- xarajatlarning dastlabki hisoblangan normalari haqiqiy xarajatlarni standartlarga muvofiq holga keltirish uchun qat'iy belgilangan stavkalar sifatida ko'rib chiqiladi;

- chetlanishlar paydo bo'lganda standart normalari o'zgarmaydi;

- ular butun hisobot davriga nisbatan barqaror bo'lib qoladi.

"Standart-kost" hisob tizimidan farqli o'laroq, normativ hisob ishlab chiqarishga yo'naltirilgan bo'lib, sotish jarayoniga mo'ljallanmagan. Bu esa mahsulotning sotish bahosini belgilash va asoslashni o'iyinlashtiradi.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda buxgalteriya hisobi tizimini isloh qilish jarayoni bormoqda. U bozor iqtisodi va buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari talablariga tobora ko'proq muvofiqlashtirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining "Hisob yuritish siyosati va moliyaviy hisobot" nomli 1-sonli BHMSiga ko'ra korxonalarga haqiqiy va normativ tannarx bo'yicha buxgalteriya hisobi obyektlarini baholash va aks ettirish, buxgalteriya hisobini yuritishning shakl va usullarini mustaqil belgilash huquqi berilgan. Masalan, normativ tannarx bo'yicha tayyor mahsulotlarning sintetik hisobini tashkil etuvchi korxonalar yangi schetlar rejasiga muvofiq (2002y.) 2800-"Tayyor mahsulotlar hisobi" schetlarini qo'llashlari mumkin. Bu schet hisobot davrida ishlab chiqarilgan mahsulotlar haqidagi axborotlarni umumlashtirish va ularning haqiqiy ishlab chiqarish tannarxini normativ (standart) tannarxidan chetlanishlarini aniqlash uchun mo'ljallangan.

Hisobot oyi tugaganda 2010-"Asosiy ishlab chiqarish" schetida qayd etilgan mahsulotlarning haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi shu schet kreditidan 2810-«Ombordagi tayyor mahsulot» scheti debetiga tuzatish provodkalari bilan o'tkazilishi kerak. Bunda ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot haqidagi axborot ikki xil bahoda shakllanadi: debet bo'yicha - haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi, kredit bo'yicha - normativ tannarx. Oy oxirida 2810-«Ombordagi tayyor

mahsulotlar hisobi» scheti bo'yicha debet va kredit oborotlarini taqqoslash bilan haqiqiy ishlab chiqarish tannarxining normativ tannarxdan chetlanishi aniqlanadi. Chetlanish summasi 2810-«Ombordagi tayyor mahsulotlar hisobi» scheti kreditidan 9100-«Sotilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) tannarxi hisobi» schetlarining debetiga hisobdan chiqarilishi lozim. Har chorakda 2810-«Ombordagi tayyor mahsulotlar hisobi» scheti yopiladi va kelasi chorakning boshigacha qoldiqqa ega bo'ladi.

Korxonalar amaliyotida normativ tannarx hisoblash tizimi orqali mahsulot tannarxini kalkulyasiya qilish xarajatlar hisobini xalqaro "Standart-kost" hisob tizimiga muvofiqlashtirishni ta'minlaydi.

Hisob amaliyotida 2800-«Tayyor mahsulotlar hisobi» schetlaridan foydalanishda mahsulotning haqiqiy tannarxi ishlab chiqarilgan, yuklab jo'natilgan va sotilgan mahsulotlar bo'yicha uning normativ tannarxidan chetlanishlari bo'yicha mehnattalab hisob-kitoblarni amalga oshirish zaruriyati qolmaydi, chunki, tayyor mahsulotlar bo'yicha aniqlangan chetlanishlar darhol 9100-«Sotilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) tannarxi hisobi» schetlariga yozib qo'yiladi, biroq, bu variant faqatgina mahsulot ishlab chiqarilgan va o'sha chorakning o'zida sotilgan bo'lsagina sotilgan mahsulotning haqiqiy tannarxini aniqlashga imkon beradi.

Amaldagi schetlar rejasi korxonalarda normativ tannarx bo'yicha materiallar hisobini ikki usul bilan olib borish imkonini yaratadi:

- haqiqiy tannarx bo'yicha;
- hisob baholari bo'yicha.

Korxonalar hisob baholari sifatida materiallarni sotib olishda normativ yoki rejadagi qiymatdan, sotib olish yoki o'rtacha baholar va h.k.dan foydalanishlari mumkin.

Birinchi usulga ko'ra, 1000-«Materiallar hisobi» schetlarida materiallarni sotib olish va tayyorlash bo'yicha barcha haqiqiy xarajatlar aks ettiriladi.

Ikkinchi usulda, 1510-«Materiallarni tayyorlash va sotib olish hisobi» hamda 1610-«Materiallar qiymatidagi chetlanishlar hisobi» schetlaridan foydalaniladi. Ushbu usullardan birontasini qo'llashni korxona mustaqil belgilaydi va uni o'z hisob siyosatida ko'rsatadi.

Materiallarning sintetik hisobi normativ usul bilan olib borilganda materiallar kirimi haqiqiy tannarx bo'yicha 1510-«Materiallarni tayyorlash va sotib olish hisobi» schetining debetida olib boriladi. Bunda kirim daftariga yozilgan materiallarning normativ qiymati 1000-«Materiallar hisobi» schyotlari

va sotib olingan mahsulotlarning haqiqiy tannarxining normativ tannarxidan chetlanishlari 1610-«Materiallar qiymatidagi chetlanishlar hisobi» schetining debeti hamda 1510-«Materiallarni tayyorlash va sotib olish hisobi» schetining kreditida aks ettiriladi.

Material va boshqa ishlab chiqarish zahiralarning cchetlar rejasida aks ettirilishidagi *vaqt o'rtasidagi tafovut* "Standart-kost" hisob tizimini qo'llashga salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki bir tomondan tayyor mahsulotlar zahiralari va jo'natilgan tovarlar normativ tannarx bo'yicha har hisobot kunining oxirida aks ettirilsa, ikkinchidan material zahiralari va tugallanmagan ishlab chiqarish haqiqiy tannarxi bo'yicha hisobot davrining oxirida qayd qilinadi.

"Direkt-kosting" hisob tizimi ham respublikamiz buxgalteriya hisobi uchun yangi tizimlardan hisoblanib, bugungi kunda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llanilmoqda. Germaniya va Avstraliyada mazkur usul "qisman xarajatlar hisobi" deb ataladi. Britaniyada u "marjinal xarajatlar hisobi", Fransiyada - "marjinal buxgalteriya" yoki "marjinal hisob" degan nomlarni olgan. O'zbekistonda esa "cheklangan, to'liq bo'lmagan yoki qisqartirilgan tannarx hisobi" tushunchalari qo'llanilib kelmoqda.

G'arb mamlakatlarida marjinal daromad usulidan ishlab chiqarishni (ekstensiv) rivojlantirish modeli o'rniga yangi model - intensiv rivojlanish modeli sifatida foydalanila boshlandi. Bunday modeldan foydalanish, o'z navbatida, xarajatlarni bevosita va bilvosita, asosiy va qo'shimcha, doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarga aniq bo'lishni va shu asosda boshqarishning strategik vazifalarini hal etishni talab qiladi.

Shuni nazarda tutish kerakki, "Direkt-kosting" tizimining paydo bo'lishi sof buxgalteriya hisobi bilan bog'liq edi. Hisob xodimlari o'sha davrda shunday xulosaga kelishdiki, barcha xarajatlar mazkur hisobot davriga va shu davrdagi ishlab chiqarilgan mahsulot bilan bog'liq ya'ni ular mahsulot sotilgandagi hisobot davriga tegishli bo'lishi lozim.

"Direkt-kosting" tizimining asosiy maqsadi korxona xarajatlarini ishlab chiqarish hajmi o'zgarishiga bog'liq holda doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarga bo'lishdan iborat.

"Direkt-kosting" hisob tizimi quyidagi xususiyatlarga ega:

- hisobni birinchi navbatda marjinal daromad ya'ni oraliq moliyaviy natijani aniqlashga yo'naltirilishi;
- mahsulotni faqat o'zgaruvchan xarajatlar nuqtai-nazaridan hisobga olish va ishlab chiqarish tannarxini aniqlash;
- korxona bo'yicha doimiy xarajatlar hisobi va ularni yakuniy moliyaviy natijani aniqlash uchun operasion foydani kamaytirishga qaratish;
- bahoni tezkor boshqarish jarayoni asosi sifatida marjinal daromadni aniqlash;
- sotish hajmi, tannarx va foyda o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va munosabatni aniqlash;

- zararsizlik nuqtasini belgilash.
- “Direkt-kosting” hisobi tizimining asosiy afzalliklari quyidagilar:
 - mahsulot tannarxini hisoblashdagi soddalashtirish va aniqlik (chunki, tannarx faqat o‘zgaruvchan xarajatlar qismidagina rejalashtiriladi va hisobga olinadi);
 - mahsulot turlari o‘rtasida doimiy xarajatlarni shartli taqsimlash uchun murakkab hisob-kitoblar qilinmasligi (ular mahsulot tannarxi tarkibiga kiritilmaydi va moliyaviy natijalar hisobidan qoplanadi);
 - rentabellik darajasi (zararsizlik nuqtasi, sotish hajmi), mahsulot bahosining quyi chegarasini aniqlash imkoniyati;
 - mahsulotning xilma-xil turlari bo‘yicha rentabellik darajasini qiyosiy tahlil qilish imkoniyati;
 - mahsulot ishlab chiqarish va sotishning qulay dasturini aniqlash imkoniyati;
 - o‘zi ishlab chiqargan mahsulot yoki xizmatlar hamda ularni chetdan sotib olishdagi tanlov imkoniyati.

“Direkt-kosting” hisob tizimi rahbarlarga korxona miqyosida va turli mahsulotlar bo‘yicha marjinal daromadning o‘zgarishiga e‘tiborni kuchaytirishga imkon beradi, bunda yuqori rentabelli mahsulotni aniqlashda sotish bahosi va o‘zgaruvchan xarajatlar summasi o‘rtasidagi tafovut alohida mahsulotlar tannarxiga doimiy xarajatlarni kiritish natijasida yashirinib qolmaydi, mazkur tizim bozor sharoiti o‘zgarishiga javoban xaridorgir mahsulotlarni tez ilg‘ab olish imkonini beradi. Erkin bozor raqobati sharoitida “Direkt-kosting” hisob tizimi korxonani boshqarish tizimi - marketingning tarkibiy qismiga aylanadi.

Bundan tashqari, “Direkt-kosting” hisob tizimi doimiy xarajatlar ustidan tezkor nazorat o‘rnatishga ko‘maklashadi, chunki tannarxni nazorat qilish jarayonida standart (normativ) xarajatlar (“Direkt-kosting” hisob tizimi «Standart-kost» tizimi bilan birgalikda tashkil etiladi) yoki moslashuvchan smetalardan foydalaniladi. Modomiki, “Direkt-kosting” tizimida standartlar qo‘llanilar ekan, bunda o‘zgaruvchan va doimiy xarajatlarga normalar belgilanadi. Shuni nazarda tutish kerakki, to‘liq tannarx hisobi tizimida qo‘shimcha xarajatlar taqsimlanmagan summasining bir qismi bir hisobot davridan boshqasiga o‘tadi, shu bois, ularni nazorat qilish sustlashadi. Bunday holda “Direkt-kosting” tizimi qo‘shimcha xarajatlar taqsimlanishining mehnattalabligini kamaytirishga yordam beradi.

Shuningdek, “Direkt-kosting” tizimining nazariy va amaliy jihatlarini tado‘iq qilish unga xos bo‘lgan quyidagi kamchiliklarni aniqlashga imkon beradi:

- raqobat kurashida baholarni sun‘iy ravishda pasaytirish kuzatilsa, doimiy xarajatlar marjinal daromad hisobidan o‘oplanishi mumkin bo‘lmaydi ya’ni korxona zarar ko‘ra boshlaydi.
- “Direkt-kosting” tizimini muxoliflarining fikricha, bu tizim ishlab

chiqarilgan mahsulotning to'liq tannarxini schetlar tizimida aniqlash mushkul. Shu bois, tayyor mahsulot yoki tugallanmagan ishlab chiqirishning to'liq tannarxini aniqlash zarur bo'lganda shartli-doimiy xarajatlarni qo'shimcha tarzda taqsimlash talab etiladi.

– faqat ishlab chiqarish tannarxi ya'ni moddalarni qisqartirilgan nomenklatura nuqtai-nazaridan hisob olib borish hisob talablariga javob bermaydi, chunki bunda zaruriy mahsulotning to'la tannarxi hisob-kitob qilinmaydi.

“Direkt-kosting” tizimini O'zbekiston korxonalarini boshqarishda qo'llashning imkoniyatlari va maqsadga muvofiqligini tahlil etish tadqiqotning navbatdagi bosqichi hisoblanadi.

“Direkt-kosting” tizimi elementlarini respublikamiz amaliyotiga qo'llashda 1994 yil burilish davri bo'ldi. Bunda korxonalar asta-sekin tannarxni kalkulyasiya qilishning O'zbekiston hisobi uchun noan'anaviy bo'lgan usulini o'zlashtira boshladilar. Bu usul “Direkt-kosting” tizimi asosida joriy qilina boshladi.

10-ma'ruza. HISOB-KITOBLAR HISOB

10.1 Majburiyatlar hisobi

10.2.Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar hisobi.

10.1.Majburiyatlar hisobi

Tovar-moddiy qiymatliklar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek tashish bo'yicha olingan xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga bo'lgan joriy majburiyatlar to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

6010 “Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar”;

6020 “Berilgan veksellar”.

Pudratchi qurilish va montaj, ilmiy-tadqiqot va shu kabi korxonalar bosh pudratchi (bosh korxona) hisoblansa, o'z subpudratchilariga bo'lgan majburiyatlarini ham ushbu schyotda aks ettiradi.

6010 “Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar” schyoti haqiqatda kelib tushgan TMZ va boshqa aktivlar, qabul qilingan ish va xizmatlarning qiymatiga ushbu qiymatliklarni yoki tegishli xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog'langan holda kreditlanadi.

Agar omborga kelib tushgan moddiy qiymatliklarning sifati, miqdori, shuningdek bahosi shartnomada kelishilgan shartlarga mos kelmasa, 6010 “Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar” schyoti 4860 “Da'volar bo'yicha olinadigan schyotlar” schyoti bilan bog'langan holda tegishli summaga kreditlanadi.

6010 “Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar” schyoti bo‘yicha analitik hisob har bir mol yetkazib beruvchi va pudratchi bo‘yicha alohida yuritiladi.

6020 “Berilgan veksellar” schyotining kreditida sotib olingan TMZ va boshqa aktivlar, qabul qilingan ish va xizmatlar uchun veksellar bilan ta‘minlangan joriy majburiyatlar hisobga olinadi va ularni qoplash davrigacha hisobda turadi. Veksellar bo‘yicha majburiyatlar qoplanishiga qarab ular pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning kreditidan 6020 “Berilgan veksellar” va 6920 “Hisoblangan foizlar” schyotlarining debetiga hisobdan chiqariladi.

6020 “Berilgan veksellar” schyoti bo‘yicha analitik hisob berilgan veksellarning har bir turi bo‘yicha alohida yuritiladi.

Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar (6000)ning boshqa schyotlar bilan bog‘lanishi:

T/r	Xo‘jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog‘lanishi	
		Debet	Kredit
1	Mol yetkazib beruvchilardan o‘rnatiladigan asbob-uskunalar kelib tushdi	0710, 0720	6010
2	Kapital qo‘yilmalar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarning bajargan ishlari va ko‘rsatgan xizmatlari yuzasidan berilgan schyotlar to‘lovga qabul qilindi	0810-0890	6010
3	Mol yetkazib beruvchilardan materiallar kelib tushdi	1010-1090	6010
4	Mol yetkazib beruvchilardan o‘stirishga va boquvga hayvonlar kelib tushdi	1110, 1120	6010
5	Mol yetkazib beruvchilardan turli TMZ kelib tushdi (1510-schyoti qo‘llanilganda)	1510	6010
6	Mol yetkazib beruvchilardan tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilishda hisobga olingan QQS summasi	4410	6010
7	Korxona tomonidan asosiy va yordamchi ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jalik, umumishlab chiqarish va boshqaruv ehtiyojlari uchun mol yetkazib beruvchilarning bajargan ish va xizmatlari (jumladan: energiya, gaz, bug‘, suv) qabul qilindi	2010, 2310, 2510, 2710, 9420	6010
8	Yaroqsiz mahsulotni tuzatish va kafolatli ta‘mirlash bo‘yicha mol yetkazib beruvchilarning ko‘rsatgan xizmatlari qabul qilindi	2610	6010
9	Mol yetkazib beruvchilardan kelgusi davr xarajatlariga tegishli bo‘lgan ish va	3190	6010

	xizmatlar qabul qilindi		
10	Mol yetkazib beruvchilardan tovarlar kelib tushdi	2910-2990	6010
11	Mahsulotlar, tovarlar, ish va xizmatlarni sotishda mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar ko'rsatgan ish va xizmatlar qabul qilindi	9410	6010
12	Tabiiy ofatlarni tugatish bo'yicha mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarning xizmatlari qabul qilindi	9720	6010
13	Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga bo'lgan qarzlari bankdagi schyotlardan to'landi	6010	5110-5530
14	Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarning schyotlarini to'lashda oldindan berilgan bo'naklarning hisobga olinishi	6010	4310-4330
15	Da'vo muddati tugagan kreditorlik qarzlari hisobdan chiqarildi	6010	9360
16	Kreditorlik qarzini to'lash uchun mol yetkazib beruvchiga oddiy veksell berildi	6010	6020

10.2.Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar hisobi

Korxonalarda xaridorlar va buyurtmachilar bilan tayyor mahsulotlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar uchun debitorlik qarzlari bo'yicha hisob-kitoblar to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish 4010-«Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar»da amalga oshiriladi.

Korxonalarda 4010-«Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyotida sotilgan mahsulot (tovar)lar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun xaridorlar va buyurtmachilarga taqdim etilgan hisob-kitob hujjatlari bo'yicha debitorlik qarzlari hisobga olinadi.

Korxonalarda 4010-«Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» asosiy (operasion) faoliyat daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar (9000), asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishini hisobga oluvchi schyotlar (9200) va asosiy faoliyatning boshqa daromadlarni hisobga oluvchi schyotlar (9300) bilan bog'langan holda xaridor (buyurtmachi)larga taqdim etilgan hisob-kitob hujjatlaridagi summaga debetlanadi.

Korxonalarda 4010-«Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar bilan kelib tushgan to'lovlar summasiga, olingan avanslarni hisobga olish va boshqalar bilan bog'langan holda kreditlanadi.

4010-«Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» bo'yicha analitik hisob har bir xaridor (buyurtmachi) bo'yicha yuritiladi.

4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar»ning
korrespondensiyasi.

T/r	Xo‘jalik operatsiyalarining mazmuni	Schyotlarning bog‘lanishi	
		Debet	Kredit
1	Mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdagi xaridorlar va buyurtmachilarning qarzlari summasi	4010	9010-9030
2	Asosiy vositalar va boshqa aktivlarni sotishdagi xaridorlar va buyurtmachilarning qarzlari summasi	4010	9210, 9220
3	Xaridorlar va buyurtmachilardan to‘lovlar kelib tushdi	5010-5530	4010
4	Xaridorlar va buyurtmachilarga sotilgan mahsulotlar, tovarlar, bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun da’vo bildirildi	4860	4010
5	Xaridorlar va buyurtmachilarga sotilgan tovarlar, mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha hisob-kitob hujjatlarini taqdim etishda olingan avanslarning hisobga olinishi	6310	4010
6	Xaridorlar va buyurtmachilarning to‘lanmagan qarzlarni zararga hisobdan chiqarilishi	9430	4010

11-ma’ruza. BANK KREDITLARI VA QARZLAR HISOBI

11.1 Misqa va uzoq muddatli bank kreditlari

11.2.Turli kreditorlarga bo‘lgan qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar

11.3.Turli kreditorlarga bo‘lgan uzoq muddatli qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar

11.1. Qisqa va uzoq muddatli bank kreditlari

Korxona tomonidan O‘zbekiston Respublikasi va chet eldagi banklar va qarz beruvchilardan so‘mda va chet el valyutasida olingan turli qisqa muddatli (12 oy muddatgacha) kredit va qarzlarning holatlari to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

6810 “Qisqa muddatli bank kreditlari”;

6820 “Qisqa muddatli qarzar”;

6830 “To‘lanadigan obligasiyalar”;

6840 “To‘lanadigan veksellar”.

6810 “Qisqa muddatli bank kreditlari” schyotida korxonaning banklardan olgan turli qisqa muddatli kreditlari hisobga olinadi.

Olingan qisqa muddatli bank kreditlarining summolari 6810 “Qisqa muddatli bank kreditlari” schyotining kreditida va pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning debetida aks ettiriladi.

Qaytarilgan qisqa muddatli bank kreditlari summasi 6810 “Qisqa muddatli bank kreditlari” schyotining debet tomonida pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

6810 “Qisqa muddatli bank kreditlari” schyoti bo‘yicha analitik hisob har bir kreditni taqdim etgan bank, kredit summasi, muddati bo‘yicha alohida yuritiladi.

6820 “Qisqa muddatli qarzar” schyotida O‘zbekiston Respublikasi va chet eldagi qarz beruvchilardan (bankdan tashqari) 12 oydan ko‘p bo‘lmagan muddatga olingan qarzar hisobga olinadi.

Qarz beruvchilardan (bankdan tashqari) tushgan mablag‘lar pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning debeti va 6820 “Qisqa muddatli qarzar” schyotining krediti bo‘yicha qayd qilib boriladi.

Olingan qarzlarni qaytarish 6820 “Qisqa muddatli qarzar” schyotining debetida va pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning kreditida aks ettiriladi.

6820 “Qisqa muddatli qarzar” schyoti bo‘yicha analitik hisob qarz beruvchilar va qarzlarni qaytarish muddati bo‘yicha alohida yuritiladi.

6830 “To‘lanadigan obligasiyalar” schyotida to‘lov muddati 12 oydan ortiq bo‘lmagan obligasiyalarni muomalaga chiqarish hisobiga korxonaga jalb etilgan mablag‘lar hisobga olinadi. Agar mablag‘larni jalb qilish obligasiyalarni nominal qiymatidan yuqori bahoga sotish yo‘li bilan amalga oshirilsa, unda obligasiyalarni sotish bahosi bilan nominal qiymati o‘rtasidagi farq 6220 “Mukofot (ustama)lar ko‘rinishidagi kechiktirilgan daromadlar” schyotining kreditida hisobga olinadi.

6830 “To‘lanadigan obligasiyalar” schyoti bo‘yicha analitik hisob har bir obligasiya turi va uni qoplash muddati bo‘yicha alohida yuritiladi.

6840 “To‘lanadigan veksellar” schyotida qoplash muddati 12 oydan ortiq bo‘lmagan berilgan veksellar hisobga olinadi.

Korxonada berilgan veksellarni hisobga olish muomalalari 6840 “To‘lanadigan veksellar” schyotining krediti va pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning debeti tomonida aks ettiriladi.

Veksel bo‘yicha muomalalar natijasida qarz beruvchidan olingan pul mablag‘larining korxona tomonidan qaytarilishi 6840 “To‘lanadigan veksellar” schyotining debetida pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

6840 “To‘lanadigan veksellar” schyoti bo‘yicha analitik hisob veksellar hisobini amalga oshiradigan banklar, veksel ushlovchilar va har bir veksel bo‘yicha alohida yuritiladi.

Qisqa muddatli kreditlar va qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (6800)ning boshqa schyotlar bilan bog‘lanishi:

T/r	Xo‘jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog‘lanishi	
		Debet	Kredit
1	Qisqa muddatli bank kreditlari va qarzar olindi	5110-5530	6810-6820
2	Qisqa muddatli bank kreditlari va qarzar hisobiga TMZ xarid qilindi	1010-2910	6810-6820
3	Qisqa muddatli bank kreditlari va qarzar hisobidan mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarning qarzi to‘landi	6010	6810-6820

4	Qisqa muddatli bank kreditlari va qarzlar qaytarildi	6810-6820	5110-5530
5	Qisqa muddatli bank kreditlari va qarzlar ajratilgan bo‘linmalar hisobidan qaytarildi	6810-6820	6110
6	Berilgan veksel va obligasiyalar evaziga qisqa muddatli qarz olindi	5110-5530	6830-6840
7	Berilgan veksel va obligasiyalar qoplandi	6830-6840	5110-5530

Korxonaning O‘zbekiston Respublikasi hududidagi va chet eldagi banklar va qarz beruvchilardan so‘mda va chet el valyutasida olgan uzoq muddatli (12 oydan uzoq muddatga) kredit va qarzlarining holatlari to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

7810 “Uzoq muddatli bank kreditlari”;

7820 “Uzoq muddatli qarzlar”;

7830 “To‘lanadigan obligasiyalar”;

7840 “To‘lanadigan veksellar”.

Olingan uzoq muddatli bank kreditlari summasi 7810 “Uzoq muddatli bank kreditlari” schyotining kreditida va pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning debetida aks ettiriladi.

Uzoq muddatli bank kreditini joriy qismga o‘tkazishda, tegishli summaga 7810 “Uzoq muddatli bank kreditlari” schyoti debetlanadi va 6950 “Uzoq muddatli majburiyatlar - joriy qismi” schyoti kreditlanadi bunda uzoq muddatli bank kreditining boshlang‘ich qiymati kamaytiriladi.

Uzoq muddatli kreditlarning analitik hisobi ularga berilgan kreditlarning turlari va muddatlari, banklar bo‘yicha alohida yuritiladi.

7820 “Uzoq muddatli qarzlar” schyotida korxonaning O‘zbekiston Respublikasi va chet eldagi qarz beruvchilardan (bankdan tashqari) 12 oydan uzoq muddatga olgan qarzlarini hisobga olinadi.

Qarz beruvchilardan (bankdan tashqari) kelib tushgan mablag‘lar pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning debeti va 7820 “Uzoq muddatli qarzlar” schyotining kreditida aks ettiriladi.

Uzoq muddatli qarzlar joriy qismga o‘tkazilganda 7820 “Uzoq muddatli qarzlar” schyoti debetlanadi va to‘lanadigan summa uzoq muddatli qarzlarining boshlang‘ich summasini ushbu miqdorga kamaytirib, 6950 “Uzoq muddatli majburiyatlar - joriy qism” schyotining kredit tomonida ko‘rsatiladi.

7820 “Uzoq muddatli qarzlar” schyoti bo‘yicha analitik hisob har bir qarz beruvchi va qarzlarini to‘lash muddati bo‘yicha alohida yuritiladi.

7830 “To‘lanadigan obligasiyalar” schyotida to‘lov muddati 12 oydan ko‘p bo‘lgan obligasiyalarni sotish hisobiga korxonaga jalb etilgan mablag‘lar hisobga olinadi. Agar mablag‘larni jalb qilish obligasiyalarni nominal qiymatidan yuqori bahoga sotish yo‘li bilan amalga oshirilsa, unda obligasiyalarni sotish bahosi bilan nominal qiymati o‘rtasidagi farq 7220 “Mukofot (ustama)lar ko‘rinishidagi uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar” schyotining kreditida hisobga olinadi.

Uzoq muddatli to‘lanadigan obligasiyalar joriy qismga o‘tkazilganda 7830 “To‘lanadigan obligasiyalar” schyoti debetlanadi va to‘lanadigan summa uzoq muddatli to‘lanadigan obligasiyalarning boshlang‘ich summasini ushbu miqdorga kamaytirib, 6950 “Uzoq muddatli majburiyatlar - joriy qism” schyotining kredit tomonida ko‘rsatiladi.

7830 “To‘lanadigan obligasiyalar” schyoti bo‘yicha analitik hisob har bir obligasiya turi va to‘lash muddati bo‘yicha alohida yuritiladi.

7840 “To‘lanadigan veksellar” schyotida qarz beruvchilarga 12 oydan ortiq muddatda qaytarish uchun berilgan veksellar hisobga olinadi.

Berilgan veksellar korxonada 7840 “To‘lanadigan veksellar” schyotining kreditida va pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning debetida hisobga olinadi.

Uzoq muddatli to‘lanadigan veksellar joriy qismga o‘tkazilganda 7840 “To‘lanadigan veksellar” schyoti debetlanadi va to‘lanadigan summa uzoq muddatli to‘lanadigan veksellarning boshlang‘ich summasini ushbu miqdorga kamaytirib 6950 “Uzoq muddatli majburiyatlar - joriy qism” schyotining kredit tomonida ko‘rsatiladi.

7840 “To‘lanadigan veksellar” schyoti bo‘yicha analitik hisob veksellar hisobini amalga oshiradigan banklar, veksellarning shartlari va har bir veksell bo‘yicha alohida yuritiladi.

Uzoq muddatli kreditlar va qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (7800)ning boshqa schyotlar bilan bog‘lanishi:

T/r	Xo‘jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog‘lanishi	
		Debet	Kredit
1	Uzoq muddatli bank kreditlari va qarzlarni olindi	5110-5530	7810-7820
2	Uzoq muddatli bank kreditlari va qarzlarni hisobiga olingan TMZ qabul qilindi	1010-2910	7810-7820
3	Uzoq muddatli bank kreditlari va qarzlarni hisobidan bo‘naklar berildi	4310-4330, 4410, 4510-4520	7810-7820
4	Uzoq muddatli kreditlar va qarzlarni hisobidan mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga bo‘lgan qarz to‘landi	6010	7810-7820
5	Berilgan veksell va obligasiyalar evaziga uzoq muddatli qarz olindi	5110-5530	7830-7840
6	Uzoq muddatli kreditlar, qarzlarni, obligasiyalar va veksellarni joriy qismga o‘tkazish	7810-7840	6950

11.2. Turli kreditorlarga bo‘lgan qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (6900)

Turli kreditorlar bilan muomalalari bo‘yicha qarzlarni to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

6910 “To‘lanadigan operativ ijara”;
6920 “Hisoblangan foizlar”;
6930 “Royalti bo‘yicha qarzlari”;
6940 “Kafolatlar bo‘yicha qarzlari”;
6950 “Uzoq muddatli majburiyatlar - joriy qismi”;
6960 “Da‘volar bo‘yicha to‘lanadigan schyotlar”;
6970 “Hisobdor shaxslarga bo‘lgan qarzlari”;
6990 “Boshqa majburiyatlar”.

6910 “To‘lanadigan operativ ijara” schyotida korxonaning operativ ijara bo‘yicha ijaraga beruvchi oldidagi majburiyati aks ettiriladi. Hisoblangan ijara summasi 6910 “To‘lanadigan operativ ijara” schyotining kredit tomonida, ijaraga beruvchiga to‘langan summa esa ushbu schyotning debet tomonida aks ettiriladi.

6910 “To‘lanadigan operativ ijara” schyoti bo‘yicha analitik hisob har bir operativ ijara shartnomasi bo‘yicha alohida yuritiladi.

6920 “Hisoblangan foizlar” schyotida kreditorlar tomonidan berilgan qarzlari va kreditlar bo‘yicha hisoblangan foizlar aks ettiriladi. To‘lanishi lozim bo‘lgan foizlar bo‘yicha hisoblangan summalar 6920 “Hisoblangan foizlar” schyotining kreditida, foizlar bo‘yicha qarzlarni to‘lash esa ushbu schyotning debetida aks ettiriladi.

6920 “Hisoblangan foizlar” schyoti bo‘yicha analitik hisob har bir kreditor bo‘yicha alohida yuritiladi.

6930 “Royalti bo‘yicha qarzlari” schyotida korxonaning boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlardan foydalanish uchun aktivlarning olinishi natijasida vujudga kelgan royalti to‘lovlari bo‘yicha korxonaning majburiyatlari hisobga olinadi. Royalti bo‘yicha hisoblangan qarzlari 6930 “Royalti bo‘yicha qarzlari” schyotining kredit tomonida xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

6930 “Royalti bo‘yicha qarzlari” schyoti bo‘yicha analitik hisob har bir kreditor bo‘yicha alohida yuritiladi.

6940 “Kafolatlar bo‘yicha qarzlari” schyotida korxonaning sotilgan mahsulotlarga kafolatli xizmat ko‘rsatish bo‘yicha xaridorlar oldidagi majburiyatlari aks ettiriladi. Agar korxona mahsulotini sotish vaqtida xaridorga kafolatli muddat bersa, ushbu majburiyat butun kafolat muddati davomida mavjud bo‘ladi. Kafolat summasi mahsulot sotish amalga oshirilgan davrda xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlarning debetida aks ettiriladi. Korxona o‘z tajribasidan kelib chiqqan holda, kelgusi davrlarga beriladigan kafolat summasi qanchaga to‘g‘ri kelishi, ya‘ni tovar yoki xizmatning bir birligiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha xizmat qiymatini hisoblab chiqishi va ushbu summani 6940 “Kafolatlar bo‘yicha qarzlari” schyotining kredit tomonida xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettirishi mumkin.

6940 “Kafolatlar bo‘yicha qarzlari” schyoti bo‘yicha analitik hisob kafolat bilan sotilgan har bir mahsulot, ish va xizmatlarning turlari bo‘yicha alohida yuritiladi.

6950 “Uzoq muddatli majburiyatlar - joriy qismi” schyotida 12 oy mobaynida to‘lanishi lozim bo‘lgan uzoq muddatli qarz majburiyatlarining joriy qismi aks ettiriladi. Uzoq muddatli majburiyatlar joriy qismga o‘tkazilganda 6950 “Uzoq muddatli majburiyatlar - joriy qismi” schyoti to‘lanadigan summaga uzoq muddatli majburiyatlarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda kreditlanadi va uzoq muddatli majburiyatlarning boshlang‘ich summasini kamaytiradi.

Shuningdek ushbu schyotda moliyaviy ijara bo‘yicha ijaraga beruvchi oldidagi uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi ham aks ettiriladi.

6950 “Uzoq muddatli majburiyatlar - joriy qismi” schyoti bo‘yicha analitik hisob uzoq muddatli majburiyatlarning turlari, qaytarilish muddatlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi hududidagi va uning tashqarisidagi uzoq muddatli majburiyatlarni ajratgan holda alohida yuritiladi.

6960 “Da‘volar bo‘yicha to‘lanadigan schyotlar” schyoti xaridorlar, buyurtmachilar va boshqa korxonalar tomonidan bildirilgan da‘volar, shuningdek tan olingan (yoki e‘tirof etilgan) jarimalar, penyalar va neustoykalar bo‘yicha korxonaning qarzi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni umumlashtirish uchun mo‘ljallangan. Da‘volar asosan shartnoma majburiyatlarini bajarmaganlikdan kelib chiqib, 6960 “Da‘volar bo‘yicha to‘lanadigan schyotlar” schyotining kreditida xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

6960 “Da‘volar bo‘yicha to‘lanadigan schyotlar” schyoti bo‘yicha analitik hisob har bir kreditor va da‘vo bo‘yicha alohida yuritiladi.

6970 “Hisobdor shaxslarga bo‘lgan qarzlar” schyoti korxona ishchilariga ma‘muriy-xo‘jalik va operasion xarajatlar, shuningdek xizmat safarlari uchun berilgan hisobdorlik summalari bilan haqiqiy sarflangan summalari o‘rtasidagi farq natijasida kelib chiqadigan qarzlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni umumlashtirish uchun mo‘ljallangan.

Agar sarflangan summa hisobdorlik bo‘yicha berilgan summadan oshsa, korxonaning hisobdor shaxs oldida qarzi vujudga keladi va ushbu summa 6970 “Hisobdor shaxslarga bo‘lgan qarzlar” schyotining kredit tomonida ko‘rsatiladi.

6970 “Hisobdor shaxslarga bo‘lgan qarzlar” schyoti bo‘yicha analitik hisob har bir hisobdor shaxslar bo‘yicha alohida yuritiladi.

6990 “Boshqa majburiyatlar” schyoti turli notijorat muomalalar bo‘yicha jismoniy va yuridik shaxslar (o‘quv yurtlari, ilmiy korxonalar va sh.k.) oldidagi sud organlarining ijroya hujjatlari yoki qarorlari asosida korxona ishchilarining mehnat haqidan turli korxona va alohida shaxslar foydasiga ushlab qolingan summalar bo‘yicha korxonaning joriy majburiyatlari aks ettiriladi.

6990 “Boshqa majburiyatlar” schyoti bo‘yicha analitik hisob boshqa majburiyatlarning har bir turi bo‘yicha alohida yuritiladi.

Turli kreditorlarga bo‘lgan qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (6900)ning boshqa schyotlar bilan bog‘lanishi:

T/r	Xo‘jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog‘lanishi	
		Debet	Kredit
1	Operativ ijara bo‘yicha foiz hisoblandi	Xarajatlarni	6910

		hisobga oluvchi schyotlar	
2	Operativ ijara bo'yicha qarz to'landi	6910	5010-5530
3	Moliyaviy ijara bo'yicha foiz hisoblandi	9610	6920
4	Qarzlarni bo'yicha foizlar hisoblandi	9610	6920
5	Qarzlarni bo'yicha hisoblangan foizlar to'landi	6920	5110-5530
6	Royalti hisoblandi	9690	6930
7	Hisoblangan royalti to'landi	6930	5110-5530
8	Kafolatli xizmat bo'yicha qarz hisoblandi	9430	6940
9	Kafolatli xizmat bo'yicha haqiqiy xarajatlar hisobdan chiqarildi	6940	Xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar
10	Uzoq muddatli majburiyatlar joriy qismga o'tkazildi	7810-7920	6950
11	Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi bo'yicha to'langan summa	6950	5110-5530
12	Tan olingan da'volar (xatolar, yo'ldagi kamomad, mahsulot sifatining muvofiq kelmasligi va hokazolar) bo'yicha qarzlarni hisoblandi	9430	6960
13	TMZlardagi arifmetik xatolardan kelib chiqqan da'volar bo'yicha qarzlarni (hisob-kitob hujjatlaridagidan haqiqatda kam yetkazib berilganda) hisoblandi	1010-2990	6960
14	Shartnoma majburiyatlariga rioya qilmaganlik uchun jarimalar, penyalar, neustoykalar summalarini bo'yicha qarzlarni (tan olingan yoki arbitraj tomonidan e'tirof etilgan hajmda) hisoblandi	9430	6960
15	Asosiy ishlab chiqarish, yordamchi ishlab chiqarish, umumishlab chiqarish va boshqaruv ehtiyojlari, xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarga taalluqli xarajatlarni amalga oshirganligi uchun hisobdor shaxslarga qarzlarni hisoblandi	2010, 2310, 2510, 2710, 9420	6970
16	Yaroqsiz mahsulot bilan bog'liq bo'lgan turli xarajatlar (qaytarib olib kelish va hokazo) to'lovi uchun hisobdor shaxslarga qarzlarni hisoblandi	2610	6970
17	Sotib olingan tovarlar uchun hisobdor shaxslarga bo'lgan qarzlarni hisoblandi	2910-2990	6970
18	Mahsulotni sotish bilan bog'liq bo'lgan	9410	6970

	(transport va boshqa) xarajatlarni amalga oshirganligi uchun hisobdor shaxslarga bo'lgan qarzlarni hisoblandi		
19	Tabiiy ofatlarning oldini olish yoki bartaraf qilish bilan bog'liq bo'lgan turli xarajatlarning to'lovi uchun hisobdor shaxslarga bo'lgan qarzlarni hisoblandi	9720	6970
20	Kapital qo'yimlarda turli korxonalar xizmatlar ko'rsatdi	0810-0890	6990
21	Turli korxona va shaxslardan turli TMZ sotib olindi va har xil xizmatlar qabul qilindi	1510	6990
22	Turli korxonalar asosiy, yordamchi, umumishlab chiqarish sevlari va xizmat ko'rsatish xo'jaliklariga xizmatlar ko'rsatishdi	2010, 2310, 2510, 2710	6990
23	Yaroqsiz mahsulotni tuzatish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni bo'yicha iste'molchilarga bo'lgan qarzlarni	2610	6990
24	Boshqa shaxslardan tovarlar kelib tushdi	2910-2990	6990
25	Asosiy vositalarni hisobdan chiqarishda ko'rsatgan xizmatlari uchun boshqa korxonalarga bo'lgan qarzlarni	9210	6990
26	Boshqa shaxslardan pul ekvivalentlari kelib tushdi	5610	6990
27	Boshqa shaxslardan o'tkazmalar kelib tushdi	5710	6990
28	Boshqa shaxslardan qimmatli qog'ozlar sotib olindi	0610, 5810	6990
29	Turli korxonalarning ijtimoiy soha obyektlarini saqlash bo'yicha ko'rsatgan xizmatlari hisoblandi	2710	6990
30	Sotib olingan aksiyalarni saqlaganligi uchun depozitariyga bo'lgan qarzlarni hisoblandi	9690	6990

11.3. Turli kreditorlarga bo'lgan uzoq muddatli qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar

Korxonaning turli jismoniy va yuridik shaxslar oldidagi moliyaviy ijara, notijorat muomalalar (o'quv yurtlari, ilmiy korxonalar va hokazo); transport korxonalarining ko'rsatgan xizmatlari bo'yicha, sud idoralarining qarorlariga va boshqa hujjatlarga asosan turli korxonalar va alohida shaxslar manfaati uchun

korxona ishchilarining ish haqidan ushlangan summalar bo'yicha uzoq muddatli majburiyatlari to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

7910 "To'lanadigan moliyaviy ijara";

7920 "Turli kreditorlarga bo'lgan uzoq muddatli qarzlari".

7910 "To'lanadigan moliyaviy ijara" schyotida ijaraga olingan uzoq muddatli aktivlar uchun ijaraga beruvchi bilan hisob-kitoblar hisobga olinadi.

Korxonaga kelib tushgan uzoq muddatli aktivlar uchun ijaraga beruvchi oldidagi qarzlari 0310 "Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar" schyoti bilan bog'langan holda 7910 "To'lanadigan moliyaviy ijara" schyotining kreditida hisobga olinadi.

Korxonaning turli kreditorlarga bo'lgan uzoq muddatli qarzlari 7920 "Turli kreditorlarga bo'lgan uzoq muddatli qarzlari" schyotining kreditida TMQ va xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog'langan holda aks ettiriladi.

7920 "Turli kreditorlarga bo'lgan uzoq muddatli qarzlari" schyoti bo'yicha analitik hisob har bir kreditor bo'yicha alohida yuritiladi.

Turli kreditorlarga bo'lgan uzoq muddatli qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (7900)ning bog'lanishi:

T/r	Xo'jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog'lanishi	
		Debet	Kredit
1	Moliyaviy ijaraga ijara shartlari asosida kelib tushgan asosiy vositalar uchun ijaraga beruvchi oldidagi qarz	0310	7910
2	Moliyaviy ijara bo'yicha to'lovlarni joriy qismga o'tkazish	7910	6950
3	Turli korxonalar va shaxslardan tovar-moddiy zaxiralar sotib olindi	1010-2990	7920
4	O'rnatiladigan asbob-uskunalarini sotib olishda va kapital qo'yilmalarda turli korxonalarning ko'rsatgan xizmati	0710-0720, 0810-0890	7920
5	Turli korxonalar umumishlab chiqarish va ma'muriy yo'nalishdagi asosiy, yordamchi sexlarga xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar bo'yicha yaroqsiz mahsulotni tuzatish bo'yicha xizmatlar ko'rsatdi	2010, 2310, 2510, 2610, 2710, 9420	7920
6	Asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishida ko'rsatgan xizmatlari uchun turli korxonalar oldidagi qarz	9210, 9220	7920
7	Turli korxona va shaxslardan pul ekvivalentlari kelib tushdi	5610	7920
8	Boshqa shaxslardan pul o'tkazmalari kelib tushdi	5710	7920
9	Boshqa shaxslardan qimmatli qog'ozlar sotib	0610, 5810	7920

	olindi		
10	Ijtimoiy soha obyektlarini saqlash uchun turli korxonalarning ko'rsatgan xizmatlari	9430	7920

12-ma'ruza. . XUSUSIY KAPITAL TO'G'RISIDA HISOBOT

12.1. Xususiy kapital va uning tarkibi

12.2. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotni to'ldirish bo'yicha axborot manbalari va uni to'lg'azish. hisobotdagi o'zaro bog'lanishlar

Tayanch tushunchalar. *Xususiy kapital. Ustav kapitali. Qo'shilgan kapital. Zaxira kapitali. Xususiy kapital to'g'risida hisobotni to'ldirish bo'yicha axborot manbalari va ushbu hisobotdagi o'zaro bog'lanishlar.*

12.1 Xususiy kapital va uning tarkibi

Fondlar, kapital va rezervlarni hisobga olish buxgalteriya hisobining ikki yoklamali yozuv usulida yuritish qoidasiga mos keladi. Chunki fondlar, kapital va rezervlar korxona aktivlarining manbalarini, ya'ni o'z mablag'larining manbalarini ifodalaydi.

Fond so'zi lotin tilidagi «fondus» so'zidan olingan bo'lib, o'zbek tilida «asos» degan ma'noni bildiradi. Buxgalteriya hisobida fondlar ma'lum bir aktivlarning manbalarini, ya'ni asosini bildiradi. Bundan tashqari fondlar ma'lum maqsadlar uchun tashkil etiladi va faqat shu maqsadlar uchun ishlatiladi.

Xususiy kapital – bu korxona egalariga tegishli bo'lgan aktivlarning bir qismidir. Egallik nazariyasiga binoan xususiy kapital (XK) subyektning aktivlaridan (A) majburiyatlarni (M) chegirilgandan kolgan qismidir:

$$XS = A - M$$

O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi to'g'risida qonunning 19-moddasiga binoan korxona kapitali quyidagi tarkibga ega:

1. Ustav kapitali
2. Qo'shilgan kapital
3. Zaxira kapitali
4. Taqsimlanmagan foyda

Ustav kapitali – ta'sis hujjatlarida belgilangan hissa shaklida qo'shiladigan moddiy va nomoddiy aktivlar ta'sischilar kelishuviga yoki yuridik shaxs ijroiya organining qaroriga ko'ra baholanadi va hisobga olinadi.

Xususiy kapital maqsadli moliyalashtirishlar, grantlar va subsidiyalar hamda kelgusi davr xarajatlari va to'lovlari rezervi bilan birga korxona o'z mablag'larining manbaini tashkil etadi.

Hisobning vazifalari:

1. Fondlar va rezervlarni belgilangan tartibda tashkil etilishini nazorat qilish.
2. Fondlar, kapital va rezervlar harakatini o'z vaqtida va to'g'ri hisobga olib borish.

3.Rezervlarni maqsadga muvofiq ishlatilishini (hisobdan chiqarilishini) ta'minlash.

4.Fondlar, kapital va rezervlar holati va harakati to'g'risidagi axborotlar bilan foydalanuvchilarni o'z vaqtida ta'minlash.

Ustav kapitali – ta'sis hujjatlarida belgilangan hissalarining (pul ifodasida) yig'indisidir. («Buxgalteriya hisobi to'g'risida» qonun, 19-modda). Shuningdek, ustav kapitalini tashkil bo'lish tartibi O'zbekiston Respublikasining qonunlari va ta'sis hujjatlari asosida, tashkiliy-huquqiy shaklga mos holda tartibga solinadi. Ustav kapitaliga hissa shaklida qo'shiladigan moddiy va nomoddiy aktivlar ta'sischilar kelishuviga yoki yuridik shaxs boshqaruv organining qaroriga ko'ra baholanadi va hisobga olinadi.

O'z navbatida ular investisiyalangan kapital va taqsimlanmagan foyda kategoriyalariga bo'linadi.

Xususiy kapital faoliyat natijalariga hamda mulk egalariining amalga oshirgan qo'shimcha investisiyalari asosida ko'payishi yoki kamayishi mumkin.

Ustav kapitali – ta'sis hujjatlarida belgilangan xissalarning pul ifodasidagi umumiy yig'indisi hisoblanadi.

Ta'sischilar tomonidan ustav kapitaliga qo'shiladigan moddiy va nomoddiy aktivlar ta'sischilarning kelishuviga yoki yuridik shaxs ijro organlirining qaroriga muvofiq kayta baxolanadi va hisobga olinadi. Shu asosga ustav kapitalining mikdori ko'payish yoki kamayish tomoniga uzgarishi mumkin. Bunday holatda u ta'sis hujjatlarida belgilangan tartibda kayta ro'yxatdan utkaziladi. Ustav kapitalini uzgarishi uchytoda fakat kayta ro'yxatdan utgandan keyin aks ettiriladi. Odatda korxona va tashkilotlar buxgalteriya hisobida ustav kapitalning amaldagi mikdori aks ettirilishi lozim. O'z kapitalini belgilangan muddatda (davlat ro'yxatidan utgandan keyin 1 yil ichida) shakllantiraolmagan korxona tugatilishi lozim.

Hissadorlik jamiyatlarida ustav kapitali tashkil etishda jamiyatning oddiy va imtiyozli aksiyalar ham ishtirok etadi. Oddiy aksiyalar sof foydani taqsimlashda ishtirok etadi va tegishli ovozga ega (imtiyozli aksiyalardan keyin).

Imtiyozli aksiyalar foyda taqsimotida aksiyadorga tegishli ovozni ta'minlamasada oddiy aksiyalarga nisbatan ustunlikga ega.

Tashkiliy – huquqiy shakliga ko'ra ustav kapitali davlat korxonalarida davlat tomonidan ajratilgan asosiy va aylanma mablag'larning yig'indisi sifatida Ustav fondi deb, xo'jalik jamiyatlari (tovarimyestva) xo'jalik faoliyatini birgalikda yuritish bo'yicha xissalarini ulush kapitali deb, ishlab chiqarish kooperativlari a'zolarini birgalikda tadbirkorlik faoliyatini yuritishga karatilgan xissa badallari yig'indisini xissa fondlari deb atash qabul qilingan.

Korxonada ustav kapitali (fondi)ning holati va harakati to'g'risidagi ma'lumotlar passiv schyot bo'lgan 8300-«Ustav kapitalini hisobga oluvchi schyotlar» tarkibidagi quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

8310-“Oddiy aksiyalar”

8320-“Imtiyozli aksiyalar”

8330-“Pay va ulushlar”.

8310 “Oddiy aksiyalar” schyoti oddiy aksiyalarni o‘zida mujassamlashtirgan aksiyadorlik kapitalining holati va harakati to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish uchun mo‘ljallangan.

Aksiyadorlik jamiyati davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgandan keyin uning ustav kapitali emissiya prospektida ro‘yxatga olingan summada 8310 “Oddiy aksiyalar” schyotining krediti va 4610 “Ustav kapitaliga ulushlar bo‘yicha ta’sischilarning qarzlari” schyotining debetida aks ettiriladi.

8320 “Imtiyozli aksiyalar” schyoti imtiyozli aksiya ko‘rinishida chiqarilgan aksiyadorlik kapitalining holati va harakati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni umumlashtirish uchun mo‘ljallangan.

Aksiyalar 8310 “Oddiy aksiyalar” va 8320 “Imtiyozli aksiyalar” schyotlarda nominal qiymatlari bo‘yicha hisobga olinadi.

8330 “Pay va ulushlar” schyoti korxonaning tashkiliy-huquqiy shakllariga asosan qatnashuvchilarning ulushlarini o‘zida mujassamlashtirgan ustav kapitalining holati va harakati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni umumlashtirish uchun mo‘ljallangan. Passiv schyot bo‘lgan 8330-«Pay va ulushlar» schyoti korxonada ustav kapitali (fondi) hajmini bildiradi.

Davlat korxonasida – ustav fondi shu korxonaga davlat tomonidan ajratilgan asosiy va aylanma mablag‘lar summasini yig‘indisidan iborat bo‘ladi.

Ulush kapitali – xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish uchun, korxonani tashkil etishda qatnashayotganlar qo‘shgan ulushining summasidan iborat.

Pay fondi – tadbirkorlik faoliyatini bir martalikda amalga oshirish uchun ishlab chiqarish kooperativ (shirkat) a‘zolarining pay badallari yig‘indisidan iborat.

Korxona ro‘yxatdan o‘tgandan keyin uning ustav kapitali ta’sischilarning ta’sis hujjatlarida belgilangan pay va ulushlaridan tashkil topadi va 8330 “Pay va ulushlar” schyotining krediti, hamda 4610 “Ustav kapitaliga ulushlar bo‘yicha ta’sischilarning qarzlari” schyotining debet tomonida aks ettiriladi.

Qo‘shilgan kapital bu aksiyalarni nominal qiymatidan yukori narxlarda sotishdan olinadigan emissiya daromadlari hisoblanadi.

Qo‘shilgan kapitalning tarkibiy qismlari bo‘lib ustav kapitaliga xissalarni to‘lashda sodir buladigan valyuta kursidagi farqlari hamda qaytarib bermaslik sharti bilan olingan mulk hisoblanadi.

Oddiy va imtiyozli aksiyalarni sotishdan olingan summalarning aksiyalar nominal qiymatidan oshgan miqdori ko‘rinishidagi qo‘shilgan kapital naqdligi va harakati to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

8410 “Emissiya daromadi”;

8420 “Ustav kapitalini shakllantirishdagi kurs farqi”.

8410 “Emissiya daromadi” schyoti aksiyalarni dastlabki sotishda nominal qiymatidan yuqori bahoda olingan mablag‘lar to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish uchun mo‘ljallangan. Ushbu mablag‘lar kelib tushganda 8410 “Emissiya daromadi” schyoti kreditlanib, xususiy aksiyalarni bekor qilishda sotib

olish qiymati va nominal qiymati o'rtasidagi farq qoplanganda esa ushbu schyot debetlanadi.

8410 "Emissiya daromadi" schyoti bo'yicha analitik hisob oddiy va imtiyozli aksiyalardan olingan daromadlar bo'yicha alohida yuritiladi.

8420 "Ustav kapitalini shakllantirishda kurs farqi" schyoti ustav kapitalini shakllantirish jarayonida vujudga keladigan kurs farqlarni hisobga olish uchun mo'ljallangan. Ustav kapitalini shakllantirish uchun berilgan valyuta va valyuta qiymatliklari, ustav kapitaliga ulushlarni kiritish sanasidagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha baholanadi. Valyuta va valyuta qiymatliklarini va boshqa mulklarni baholash ro'yxatdan o'tkazish sanasidagi ta'sis hujjatlarida belgilangan baholardan farq qilishi mumkin. Bunda vujudga kelgan kurs farqlari 8420 "Ustav kapitalini shakllantirishda kurs farqi" schyotida hisobga olinadi. Baholardagi ijobiy kurs farqlari 8420 "Ustav kapitalini shakllantirishda kurs farqi" schyotining kreditida, salbiy kurs farqlari esa mazkur schyotning debetida aks ettiriladi. Kurs farqlarini bu tartibda hisobdan chiqarilishi ta'sis hujjatlarida oldindan kelishilgan, ustav kapitalidagi ta'sischilarning ulushining o'zgarmasligiga imkon beradi.

8420 "Ustav kapitalini shakllantirishda kurs farqi" schyoti bo'yicha analitik hisob har bir ta'sischi bo'yicha alohida yuritiladi.

Qaytarib bermaslik sharti bilan olingan mulk moddiy va nomoddiy aktiv sifatida 8530 – «Begaraz olingan mol-mulk» hisobvaragining krediti va moddiy va nomoddiy aktivlar hisobga olinadigan hisobvaraqlarning debeti bo'yicha aks ettirilib ular qiymatidan daromad (foyda) soligi to'lanadi.

Amaldagi moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirish bo'yicha qo'llanmalarga (Rizayev Ch. va boshqalar) binoan zaxira kapitali belgilangan tartibga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi va Moliya vazirligining ruxsati bilan asosiy vositalar, aylanma mablag'larni (pul mablag'laridan tashqari) utgan yillardagi qayta baxolash, taqsimlanmagan foyda, ishlatilmay qolgan jamgarmalar hisobidan tashkil etiladi.

Zaxira kapitali aktivlarni kayta baxolash bo'yicha tuzatishlar va zaxira kapitaliga bo'linadi.

Aktivlarni kayta baxolash bo'yicha tuzatishlar aktivlarni qayta baxolashda ular qiymatini oshishi shaklida (tegishli aktivlar hisobvaragining debeti va 8500 hisobvaraqlarning krediti) yoki aktivlar qiymatining kamayishi shaklida (Dt 8500, Kt aktivlarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar) amalga oshadi. Aktivlarni qayta baxolashda ular qiymati kamayishini ular qiymatining oshishi utgan qayta baxolashga nisbatan farqi xarajat hisoblanib № 9430 «Boshqa operasion xarajatlar» hisobvaragiga olib boriladi.

Rezervlar korxonada belgilangan tartibda ishlab chiqarish va operasion xarajatlarga xarajatlarni teng miqdorlarda qo'shish uchun tashkil etilgan summasini bildiradi. Rezervlarni tashkil etish tartibi «Xarajatlar tarkibi to'g'risida Nizom»ga asosan amalga oshiriladi, ya'ni korxona xarajatlari hisobidan tashkil etadi.

Korxona ta'sis hujjatlariga asosan foyda hisobidan shakllantiriladigan rezerv kapitali, mulkni qayta baholashdan yuzaga keladigan inflyasiya rezervlari, pul mablag'laridan tashqari tekinga olingan mulklar to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish 8500-Rezerv kapitalini hisobga oluvchi schyotlar tarkibidagi quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

8510-“Mulkni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar”

8520-“Rezerv kapitali”

8530-“Tekinga olingan mulk”.

8510 “Mulkni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar” schyotida mulklarni qayta baholash natijasida vujudga kelgan o'zgarishlar hisobga olinadi. Mulklarni qayta baholash natijasida rezerv kapitalining shakllanishi va to'ldirilishi 8510 “Mulkni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar” schyotining kreditida qayta baholash natijasida qiymati oshgan mulklarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog'langan holda aks ettiriladi.

Agar qayta baholash natijasida mulklarning qiymati kamaysa, kamaygan summa o'sha mulkning navbatdagi qiymati oshishi hisobiga to'ldiriladi va u 8510 “Mulkni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar” schyotining debetida aks ettiriladi. Shu mulkning avvalgi qayta baholashdagi qiymatidan oshgan arzonlashtirilgan summa xarajat sifatida tan olinadi va 9430 “Boshqa operasion xarajatlar” schyotida aks ettiriladi.

Mulkni qayta baholash bo'yicha jamlangan summaning ta'sischi o'rtasida taqsimlanishi 8510 “Mulkni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar” schyotning debetida 6620 “Chiqib ketayotgan ta'sischi ulushlari bo'yicha qarzlari” schyoti bilan bog'langan holda aks ettiriladi.

8520 “Rezerv kapitali” schyoti korxona tomonidan ta'sis hujjatlari va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq tashkil etilgan rezerv kapitalining holati va xarakati to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirish uchun mo'ljallangan.

Rezerv kapitali mablag'lari korxona zararlarini qoplash va boshqa qoplash manbalari bo'lmagan boshqa maqsadlarga sarflanishi mumkin.

Rezerv kapitalining shakllanishi 8520 “Rezerv kapitali” schyotining kreditida 8710 “Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)” schyoti bilan bog'langan holda aks ettiriladi.

8530 “Tekinga olingan mulklar” schyoti korxona tomonidan tekinga olingan mulkni hisobga olish uchun mo'ljallangan.

Tekinga olingan mulklar 8530 “Tekinga olingan mulklar” schyotining kreditida korxona mulklarini hisobga oluvchi schyotlar bilan bog'langan holda aks ettiriladi. Tekinga olingan mulklar qiymati soliqqa tortish maqsadida umumiy korxona umumiy daromadiga qo'shiladi. Tekinga olingan mulklarni soliqqa tortish tartibi O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

Zaxira kapitali zararlarini, ko'zda tutilmagan xarajatlarni qoplash, boshqa qoplash manbalari bulmaganda ayrim qarzlarga va boshqa maqsadlarga foydalaniladi.

Xususiy kapitalning tarkibiy qismi bo'lib taqsimlanmagan foyda (koplanmagan zarar) hisoblanadi va u hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (koplanmagan zarari – 8710) hamda jamgarilgan foyda (koplanmagan zarar – 8720) ga bo'linadi.

Jamgarilgan foyda – bu xo'jalik subyekting tashkil bo'lgan paytidan boshlab olgan sof foydasi hisoblanib undan mulk egasining qaroriga ko'ra zararlar, dividendlar va xususiy kapitalga investisiyalangan foyda chiqariladi.

Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (koplanmagan zarari) korxonaning hisobot yilidagi natijasi hisoblanadi.

Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasidan hisoblangan dividendlar chiqarilgach uni qolgani jamgarilgan foydaga qo'shiladi.

12.2.Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotni to'ldirish bo'yicha axborot manbalari va uni to'lg'azish. Hisobotdagi o'zaro bog'lanishlar

Ushbu hisobotni to'ldirish uchun asosiy manbalar bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. 8300, 8400, 8500, 8600, 8700 va boshqa xususiy kapital hisobiga tegishli hisobvaraqlarning ma'lumotlari.

2. Ustav kapitaliga (fondi)ga badallar bo'yicha muassislarning qarzlari bo'yicha hisobvaraqlar (4610) ma'lumotlari.

3. O'z kapitalini shakllanishi va undan foydalanish bo'yicha amaldagi qoidalar, me'yoriy hujjatlar va boshqa ayrim manbalar axboroti.

Moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirish bo'yicha qoidalarga binoan xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda yukoridagi manbalar asosida quyidagilar aks ettiriladi:

010 - «Yil boshiga qoldiq» satrida:

a) ustav kapitali 3-ustunda ta'sis hujjatlarida qayd etilgan va ustav kapitalini hisobga olish hisobvaraqlarida (8300) ko'rsatilgan ustav kapitali summasi;

b) qo'shilgan kapital – 4-ustunda qo'shilgan kapitalni hisobga olish hisobvaraqlarida (8400) qayd etilgan summa;

c) rezerv kapital – 5-ustunda qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan rezerv kapitalni hisobga olish hisobvaraqlarida (8500) qayd etilgan summa;

d) taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) – 6-ustunda yil boshidagi taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)ni hisobga olish hisobvaraqlarida (8700) qayd etilgan summa;

e) sotib olingan xususiy aksiyalar – 7-ustunda sotib olingan uz aksiyalarini hisobga olish hisobvaraqlarida (8600) qayd etilgan, korxonada bo'lgan sotib olingan uz aksiyalarining summasi; ularni keyin tarkatish yoki yo'q qilishga bo'lgan xarajatlar summasi;

j) maqsadli tushumlar va boshqalar – 8-ustunda maqsadli tadbirlarni amalga oshirish uchun byudjetdan, maxsus jamgarmalar, boshqa korxonalar, jismoniy shaxslardan grantlar, subsidiyalar, a'zolik badallari ko'rinishida tekinga olingan

aktivlar va boshqa maqsadli tushumlar, shuningdek uz sarmoyasini shakllantirishning boshqa manbalari ko'rsatiladi.

020 – «Qimmatli qog'ozlar emiisiyasi» satrida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisobot davrida qimmatli qog'ozlarni chiqarish va sotishdan olingan emissiya daromadi summasi ko'rsatiladi.

030 – «Uzoq muddatli aktivlarni kayta baxolash» satrida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisobot yilida utkazilgan, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va boshqa uzoq muddatli aktivlarni qayta baxolash summasi ko'rsatiladi.

040 – «Ustav kapitalini shakllantirishda paydo bo'lgan valyuta kursi farqlari» satrida buxgalteriya hisobi 8420 – hisobvaragida aks ettirilgan, ta'sis hujjatlarini ro'yxatdan utkazish sanasida va mablag'lar ustav kapitaliga haqiqatda kiritilgan sanada Markaziy bank kurslari urtasida yuzaga keladigan korxonaning ustav kapitalini shakllantirish chogida hisobot davri uchun kurslardagi farq aks ettiriladi.

050 – «Rezerv kapitaliga ajratmalar» satrida ta'sis hujjatlariga ko'ra va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisobot yili uchun rezerv kapitaliga ajratmalar summasi aks ettiriladi.

060 – «Joriy yilning taqsimlanmagan foydasi (zarari)» satrida hisobot yilida olingan sof foyda (zarar) summasi ko'rsatiladi.

070 – «Tekinga olingan mol-mulk» satrida hisobot yilida turli manbalardan tekinga olingan mol-mulkning qiymati ko'rsatiladi.

080 – «Maqsadli foydalanish uchun olingan mablag'lar» satrida hisobot yilida olingan grantlar, subsidiyalar, a'zolik badallari va maqsadli foydalanish uchun boshqa maqsadli tushumlar ko'rsatiladi.

090 – «Tulangan dividendlar» satrida avvalgi yil uchun faoliyat yakunlari bo'yicha hisobot yili boshida taqsimlanmagan foyda hisobidan hisoblangan dividendlar summasi ko'rsatiladi.

100 – «Xususiy kapital shakllantirishining boshqa manbalari» satrida uz sarmoyasini shakllantirishning boshqa manbalari summasi ko'rsatiladi.

110 – «Yil oxiridagi qoldiq» satrida tegishli ustunlar bo'yicha hisobot davri oxirida uz kapitalining koldigi ko'rsatiladi.

120 – «Xususiy kapitalning ko'payishi (+) yoki kamayishi (-)» satrida yil boshidagi summa bilan qiyoslaganda hisobot yili oxirida o'z kapitalining ko'payishi yoki kamayishi summasi ko'rsatiladi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida 130 dan 150 gacha bo'lgan satrlar ma'lumot uchun to'ldiriladi.

Amaldagi moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirish bo'yicha qoidalarga binoan xususiy kapital to'g'risida hisobotni to'ldirishda quyidagi o'zaro bog'lanishlarga rioya qilinishi lozim.

1. Satr 010 ustun 3 = shakl 1 satr 410 ustun 3
2. Satr 110 ustun 3 = shakl 1 satr 410 ustun 4
3. Satr 010 ustun 4 = shakl 1 satr 420 ustun 3
4. Satr 110 ustun 4 = shakl 1 satr 420 ustun 4
5. Satr 010 ustun 5 = shakl 1 satr 430 ustun 3

6. Satr 110 ustun 5 = shakl 1 satr 430 ustun 4
7. Satr 010 ustun 6 = shakl 1 satr 450 ustun 3
8. Satr 110 ustun 6 = shakl 1 satr 450 ustun 4
9. Satr 010 ustun 7 = shakl 1 satr 440 ustun 3
10. Satr 110 ustun 7 = shakl 1 satr 440 ustun 4
11. Satr 010 ustun 8 = shakl 1 satr 460 ustun 3
12. Satr 110 ustun 8 = shakl 1 satr 460 ustun 4

Korxona xususiy kapitali tarkibida hisobot yili davomidagi uzgarishlar (+, -):

1. Satr 010 ustun 3 $\pm$ satr 110 ustun 3 = satr 120
2. Satr 010 ustun 4 $\pm$ satr 110 ustun 4 = satr 120
3. Satr 010 ustun 5 $\pm$ satr 110 ustun 5 = satr 120
4. Satr 010 ustun 6 $\pm$ satr 110 ustun 6 = satr 120
5. Satr 010 ustun 7 $\pm$ satr 110 ustun 7 = satr 120
6. Satr 010 ustun 8 $\pm$ satr 110 ustun 8 = satr 120

13-ma'ruza. SOLIQ VA YIG'IMLAR HISOBI

13.1. Soliq va boshqa majburiy to'lovlar hisobi

13.2. Sug'urta va maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzlarini hisobga oluvchi schyotlar

13.3. Sug'urta va maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzlarini hisobga oluvchi schyotlar

13.1. Soliq va boshqa majburiy to'lovlar hisobi

Byudjetga to'lovlar bo'yicha korxonaning joriy majburiyatlari to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish 6410 "Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlar (turlari bo'yicha)" schyotida amalga oshiriladi.

6410 "Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlar (turlari bo'yicha)" schyotining kreditida byudjetga to'lanishi kerak bo'lgan majburiyat summasi olinadigan schyotlar, davr xarajatlari, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash uchun foydaning ishlatilishi, mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog'langan holda aks ettiriladi. Yakuniy hisob-kitobda, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha byudjetga ilgari o'tkazilgan bo'nak to'lovlari 6410 "Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlar (turlari bo'yicha)" schyotining debet tomonida byudjetga bo'nak to'lovlarni hisobga oluvchi schyotlar (4400) bilan bog'langan holda aks ettiriladi. Byudjetga haqiqatda o'tkazilgan summalar 6410 "Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlar (turlari bo'yicha)" schyotining debet tomonida pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar bilan bog'langan holda aks ettiriladi.

6410 "Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlar (turlari bo'yicha)" schyoti bo'yicha analitik hisobi har bir soliq turlari bo'yicha alohida yuritiladi.

Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarini hisobga oluvchi schyot (6400)ning boshqa schyotla bilan bog'lanishi:

T/r	Xo'jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog'lanishi	
		Debet	Kredit
1	Davr xarajatlariga taalluqli xar xil ajratmalar, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha byudjetga qarzlar	9430	6410
2	Tayyor mahsulotlarni, tovarlarni sotishda, ishlarni bajarish va xizmatlarni ko'rsatish, shuningdek asosiy vositalar va boshqa aktivlarni sotish va turli chiqarishda QQS va aksiz summasi hisoblandi	4010	6410
3	Byudjetdan mablag'lar qaytarildi yoki kelgusi to'lovlar hisobiga o'tkazildi (yakuniy hisob-kitoblar va sh.k.)	5110, 5210, 5530, 4410	6410
4	Jismoniy shaxslarning ish haqidan daromad solig'i summasi ushlab qolindi	6710	6410
5	Hisoblangan dividenddan daromad solig'i summasi ushlab qolindi	6610	6410
6	Foydadan byudjetga to'lovlar hisoblandi	9810-9890	6410
7	Byudjetga to'lovlar o'tkazib berildi	6410	5010-5530
8	Moddiy resurslar, tovarlar, ishlar va xizmatlarga tegishli bo'lgan QQS summasi hisobga olindi	6410	4410
9	Olingan kreditlar va qarzlar hisobidan byudjetga qarzlar to'landi	6410	6810-6840, 7810-7840

13.2. Sug'urta va maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzlarini hisobga oluvchi schyotlar

Korxona mulki va xodimlarini sug'urta qilish, davlat ijtimoiy sug'urtasi, korxona xodimlarining nafaqa ta'minoti va tibbiy sug'urtasi, maqsadli davlat jamg'armalariga ajratmalar, shuningdek uchinchi shaxslar mulkiy manfaatlariga keltirilgan zararlar uchun fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish bo'yicha qarzlar to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

6510 "Sug'urta bo'yicha to'lovlar";

6520 "Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar".

6510 "Sug'urta bo'yicha to'lovlar" schyoti korxonaning mulki va xodimini sug'urtalash bo'yicha qarzlarini to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirish uchun mo'ljallangan.

6520 "Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar" schyoti maqsadli davlat jamg'armalari oldidagi ajratmalar bo'yicha qarzlar to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirish uchun mo'ljallangan.

Sug'urta to'lovlari va maqsadli davlat jamg'armalariga ajratmalar bo'yicha qarz summolari sug'urta va maqsadli davlat jamg'armalari bo'yicha qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (6500)ning kredit tomonida xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog'langan holda aks ettiriladi. Sug'urta to'lovlari va maqsadli davlat jamg'armalariga ajratmalar bo'yicha qarz summalarining to'lanishi sug'urta va maqsadli davlat jamg'armalari bo'yicha qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (6500)ning debet tomonida pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar bilan bog'langan holda aks ettiriladi.

Sug'urta va maqsadli davlat jamg'armalari bo'yicha qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (6500) bo'yicha analitik hisob sug'urtachilar va alohida sug'urta shartnomalari, shuningdek korxona to'lovchi deb hisoblangan har bir maqsadli davlat jamg'armalari bo'yicha alohida yuritiladi.

Sug'urta va maqsadli davlat jamg'armalari bo'yicha qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (6500)ning boshqa schyotlar bilan bog'lanishi:

T/r	Xo'jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog'lanishi	
		Debet	Kredit
1	Kapital qo'yilmalar bilan bog'liq sug'urta to'lovlari bo'yicha qarz summolari	0810-0890	6510
2	Sug'urta bo'yicha hisoblangan to'lovlar korxona xarajatlariga o'tkazildi	Xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar	6510
3	Hisoblangan sug'urta to'lovlari summasi bankdagi schyotlardan to'landi	6510	5110-5530
4	Korxona xodimi hisobidan maqsadli davlat jamg'armalariga ajratmalar qilindi	6710	6520
5	Korxona xodimi hisobidan maqsadli davlat jamg'armalariga ajratmalar qilindi	Xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar	6520
6	Maqsadli davlat jamg'armalariga ilgari hisoblangan summalar o'tkazib berildi	6520	5110-5530

Ta'sisчилarga bo'lgan qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar

Korxonaning ta'sisчилar oldida dividendlar bo'yicha va chiqib ketayotgan ta'sisчилar oldida ularning ulushlari hamda ta'sisчилarga ta'sis hujjatlaridagi o'zgartirishlar davlat ro'yxatidan o'tkazilgangacha kiritilgan ulushlar bo'yicha joriy majburiyatlari to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

6610 "To'lanadigan dividendlar";

6620 "Chiqib ketayotgan ta'sisчилarga ulushlari bo'yicha qarzlar".

6630 "Ta'sisчилarning ustav kapitalini oshirish bo'yicha ulushlari"

Korxona rahbariyati tomonidan aksiyalarga dividendlar to'lash to'g'risida qaror e'lon qilinganidan so'ng, dividend summasi joriy majburiyat sifatida aks ettiriladi. Dividendlar aksiyalar bo'yicha qonunchilikka muvofiq taqsimlanadi.

6610 “To‘lanadigan dividendlar” schyoti hisoblangan dividend summasiga 8710 “Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)” schyoti bilan bog‘langan holda kreditlanadi.

6620 “Chiqib ketayotgan ta’sischi'larga ulushlari bo'yicha qarzlari” schyotining kredit tomonida korxonaning chiqib ketayotgan ta'sischisi ulushlari bo'yicha hisoblangan majburiyatlari summasi 8330 “Pay va ulushlar”, 8610 “Sotib olingan xususiy aksiyalar - oddiy”, 8610 “Sotib olingan xususiy aksiyalar - imtiyozli” schyotlari bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

6610 “To‘lanadigan dividendlar”, 6620 “Chiqib ketayotgan ta’sischi'larga ulushlari bo'yicha qarzlari” schyotlari bo'yicha analitik hisob (ko'rsatuvchiga aksiyalardan tashqari) har bir ta'sischi bo'yicha alohida yuritiladi.

6630 “Ta’sischi'larning ustav kapitalini oshirish bo'yicha ulushlari” schyotida ta'sischi'larga ta'sis hujjatlaridagi o'zgartirishlar davlat ro'yxatidan o'tkazilganga kiritilgan ulushlar bo'yicha joriy majburiyatlar aktivlarni hisobga oluvchi tegishli schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Ta'sischi'larga bo'lgan qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (6600)ning boshqa schyotlar bilan bog'lanishi:

T/r	Xo'jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog'lanishi	
		Debet	Kredit
1	Aksiyadorlarga (ta'sischi'larga) dividendlar hisoblandi	8710, 8720	6610
2	Dividend to'lash manbaida daromad solig'i hisoblandi	6610	6410
3	Hisoblangan dividendlar to'landi	6610	5010-5530
4	Chiqib ketayotgan ta'sischi'larga ulushlari bo'yicha qarzlari hisoblandi	8330, 8610, 8620	6620
5	Chiqib ketayotgan ta'sischi'larga ulushlari bo'yicha qarzlari to'landi	6620	5010-5530
6	Ta'sischi'lardan ta'sis hujjatlaridagi o'zgartirishlar davlat ro'yxatidan o'tkazilganga kiritilgan ulushlar kirimi	Aktivlarni hisobga oluvchi schyotlar	6630

14-ma'ruza. DAROMADLAR VA XARAJATLAR HISOBID

14.1 Daromadlar va xarajatlar hisobi

14.2. Asosiy (operatsion) faoliyatning daromadlarini hisobga olish

14.3. Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari va uni hisobdan chiqarish hisobi

14.1 Daromadlar va xarajatlar hisobi

Moliyaviy natijalarni shakllantirish uchun alohida daromadlarni hisobga oluvchi schyotlar va alohida xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar ishlatiladi. Mahsulot (tovar, ish, xizmat)larni sotishdagi qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz va boshqa to'lovlar olinadigan schyotlar yoki pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlarning

debetida va byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga oluvchi schyotlarning (6400) kreditida aks ettiriladi.

Yalpi daromad korxonaning asosiy va asosiy bo'lmagan faoliyatidan olingan daromadlarni o'z ichiga oladi. Asosiy faoliyatdan daromad mahsulot, ishlar, xizmatlar, tovar-moddiy zaxiralar, boshqa aktivlarni sotishdan, shuningdek mukofotlar, foizlar va dividendlar, gonorollar va xo'jalik yurituvchi subyektning asosiy faoliyatiga bog'liq bo'lgan rentadan olinishi mumkin.

Korxona asosiy bo'lmagan faoliyat natijasida oladigan daromadlar, daromadni aniqlashga mos keladigan moddalarni o'z ichiga oladi va kontseptual asosning alohida tarkibiy qismlari deb hisoblanmaydi.

Birjada muomalada bo'ladigan qimmatli qog'ozlarni qayta baholash va boshqalar asosiy bo'lmagan faoliyat natijasida paydo bo'ladigan daromadlarga misol bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bunday daromadlar, agar moliyaviy natijalar haqidagi hisobotda e'tirof etilsa, alohida ko'rsatiladi, chunki iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda ular haqidagi axborot foydali bo'lishi mumkin.

Xarajatlarni belgilash mulkni, ishlab chiqarishni boshqarish bilan hamda mahsulot sotish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish va zararlar bilan bog'liq xarajatlarni o'z ichiga oladi. Ular odatda pul mablag'lari, moddiy zaxiralar, inshootlar, uskunalar va boshqalar singari aktivlarning chiqishi yoki ulardan foydalanilishi shaklida bo'ladi.

Daromadlar va xarajatlar hisobi — bu moliyaviy faoliyatni boshqarish va tahlil qilish uchun muhim jarayon. Ushbu hisoblar orqali tashkilot yoki shaxsning moliyaviy holatini baholash, daromadlarni oshirish va xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlarini aniqlash mumkin.

Daromadlar — bu tashkilot yoki shaxsning o'z faoliyatidan olgan pullari. Ular quyidagi turlarga bo'linishi mumkin:

1. Asosiy daromadlar: Tashkilotning asosiy faoliyatidan (masalan, mahsulot sotish, xizmat ko'rsatish) kelib chiqadigan daromadlar.
2. Qo'shimcha daromadlar: Asosiy faoliyatdan tashqari, masalan, investitsiyalardan yoki ijara to'lovlaridan olinadigan daromadlar.
3. Maqsadli daromadlar: Maxsus loyihalar yoki dasturlar uchun ajratilgan mablag'lar

Xarajatlar — bu tashkilot yoki shaxsning faoliyati uchun sarflanadigan pullar. Xarajatlar ham turli xil bo'lishi mumkin:

1. Doimiy xarajatlar: Tashkilotning muntazam faoliyatida doimiy ravishda yuzaga keladigan xarajatlar (masalan, ish haqi, ijara to'lovi).
2. O'zgaruvchan xarajatlar: Faoliyat hajmiga qarab o'zgaradigan xarajatlar (masalan, ishlab chiqarish xarajatlari).
3. Bir martalik xarajatlar: Ma'lum bir voqea yoki loyiha bilan bog'liq bo'lgan bir martalik xarajatlar (masalan, uskunalarni sotib olish).

Daromadlar va xarajatlarni hisoblash jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Daromadlarni yig'ish: Barcha manbalardan olingan daromadlarni to'plash.

2. Xarajatlarni hisoblash: Har bir xarajat turini hisobga olish va umumiy xarajatlarni aniqlash.

3. Tahlil qilish: Daromadlar va xarajatlarni solishtirish orqali moliyaviy natijalarni tahlil qilish. Bu orqali foyda yoki zarar miqdorini aniqlash mumkin.

4. Rejalashtirish: Olingan ma'lumotlarga asoslanib, kelgusi davr uchun moliyaviy reja tuzish.

- Foyda (yoki zarar): Daromadlardan xarajatlarni ayirib olinganda qoladigan summa.

- Daromadlilik koeffitsienti: Daromadlarning xarajatlarga nisbati.

- Xarajatlarning tuzilishi: Xarajatlarning qaysi turga ko'proq e'tibor berilayotganini ko'rsatadi.

Daromadlar va xarajatlar hisobi har qanday tashkilot yoki shaxs uchun muvaffaqiyatli moliyaviy boshqaruvning asosi hisoblanadi. Bu jarayonni to'g'ri tashkil etish orqali moliyaviy barqarorlikka erishish mumkin.

14.2. Asosiy (operatsion) faoliyatning daromadlarini hisobga olish

Tayyor mahsulot, tovar, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarni sotishdan olingan daromadlar, shuningdek sotilgan tovarlarning qaytishi, sotish va baholardan chegirmalar to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

- 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar»;
- 9020 «Tovarlarni sotishdan daromadlar»;
- 9030 «Ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan daromadlar»;
- 9040 «Sotilgan tovarlarning qaytishi»;
- 9050 «Xaridorlar va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar».

9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar», 9020 «Tovarlarni sotishdan daromadlar»

9030 «Ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan daromadlar» schyotlarining kreditida korxonaning asosiy faoliyati (tayyor mahsulotlar, tovarlarni sotish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish)dan daromadlar 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti, 4120 «Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlaridan olinadigan schyotlar» schyoti va boshqa olinadigan schyotlar hamda pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar (5000, 5100, 5200, 5500) bilan bog'langan holda aks ettiriladi, biroq, oldingi hisobot davrlarida olingan, ammo joriy hisobot davriga tegishli bo'lgan daromad summolari 6230 «Boshqa kechiktirilgan daromadlar» schyoti bilan bog'langan holda aks ettirilad.

Mahsulot, tovar, ish, xizmatlarni sotishda 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar», 9020 «Tovarlarni sotishdan daromadlar», 9030 «Ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan daromadlar» schyotlarida sotishdan tushgan sof tushum summasi aks ettiriladi. Hisobot davrining oxirida 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar», 9020 «Tovarlarni sotishdan daromadlar», 9030 «Ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan daromadlar» schyotlari 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti bilan yopiladi.

9040 «Sotilgan tovarlarning qaytishi» schyoti sotilgan mahsulot va tovarlarning qaytishini hisobga olish uchun mo'ljallangan bo'lib, 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar», 9020 «Tovarlarini sotishdan daromadlar», 9030 «Ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan daromadlar» schyotlariga kontr-passiv schyot hisoblanadi va uning debet aylanmasi mahsulotlar va tovarlar sotishdan daromadni kamaytiradi. 9040 «Sotilgan tovarlarning qaytishi» schyotining debetida qaytarilgan tovarlar qiymati, tegishli pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar (5000, 5100, 5200, 5500) bilan - xaridorlar va buyurtmachilar tomonidan qaytarilgan tovarlarning qiymati; 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti, 4120 «Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlaridan olinadigan schyotlar» schyoti va boshqa olinadigan schyotlar bilan - qaytarilgan tovarlar bo'yicha bekor qilingan debitorlik qarzlari summasi; to'lanadigan schyotlar bilan - mazkur tovarlar uchun xaridorlar va buyurtmachilardan olingan to'lovlar va bo'naklar bo'yicha vujudga kelgan qarz summasi aks ettiriladi. Bunda ilgari hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i bo'yicha byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga oluvchi tegishli schyotlarning debeti va pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar, olinadigan schyotlarning kreditida yozuv amalga oshiriladi. Qaytarilgan mahsulotlar va tovarlarning tannarxi TMZlarni hisobga oluvchi tegishli schyotlarning debetida va sotilgan mahsulotlar va tovarlarning tannarxini hisobga oluvchi tegishli schyotlarning kreditida aks ettiriladi

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda xarajatlar alohida o'rin tutadi. Xarajatlar mahsulotlarni ishlab chiqarish, tovarlar sotish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan sarflarning puldagi ifodasidir. Xarajat moddiy resurslarni sotib olishga qilingan sarflar bo'lib, daromadlar va xarajatlar konsepsiyasiga ko'ra, shu davrning o'zida daromad keltirishi kerak.

Xarajatlarga milliy standartlarda quyidagicha ta'rif beriladi: xarajatlar - aktivlarning qisqarishi yoki sarflanishi natijasida iqtisodiy resurslarning kamayishi, shuningdek, daromadlarni olishga oid xo'jalik subyekting odatiy faoliyati natijasida majburiyatlarning paydo bo'lishidir.²¹ Xarajatlarning hisobini tashkil qilishning huquqiy-me'yoriy asoslari quyidagilar hisoblanadi:

– O'zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi qonuni. 1996-y. (Yangi tahriri. 2016-yil 13-aprel. O'RQ-404-sonli) ;

– “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida”gi nizom (05.02.1999-y., O'zR VM, 54-sonli qaror);

– Buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari to'plami;

– O'zbekiston Respublikasining Buxgalteriya hisobi milliy standartlari to'plami (2012-yil). Xarajatlarni hisobga olishning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- iqtisodiy natijalarini hisobga olgan holda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun subyekt ma'muriyatini zarur ma'lumotlar bilan ta'minlash;

- chetga chiqishlarni aniqlash maqsadida haqiqatda sarflangan xarajatlarni kuzatish va nazorat o'rnatish, ularni me'yoriy va rejadagi hajmi bilan taqqoslash va kelgusidagi iqtisodiy strategiyasini shakllantirish; - ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarni baholash va moliyaviy natijalarni hisoblash uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tannarxini hisoblash;

- subyektning tarkibiy bo'linmalari ishlab chiqarish faoliyatining iqtisodiy natijalarini aniqlash va baholash

- uzoq muddatli xususiyatga ega bo'lgan ishlab chiqarish texnologiyalarining qoplanishi, bozorlarda sotilayotgan mahsulotlarning turlari bo'yicha rentabellik darajasi, ularga qo'yilgan kapitallarning samaradorligi va faoliyati bo'yicha boshqaruv hisobi ma'lumotlarini bir tizimga keltirish

Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari xarajat kalkulasiya moddalarini bo'yicha ishlab chiqarish turlari, xarajatlarning vujudga kelish joylari, mahsulot turlari bo'yicha buxgalteriya hisobida aks ettiriladi. Xarajatlarni hisobga olish hamda mahsulot tannarxini kalkulasiya qilishdan asosiy maqsad ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq xarajatlarni o'z vaqtida, to'raligicha va haqqoniy aniqlash, shu bilan birga, ayrim mahsulotlarning haqiqiy tannarxini hisoblash hamda korxona resurslari va pul mablag'lari ishlatilishi ustidan nazoratni o'rnatishdir.

Moliyaviy hisobning asosiy vazifasi foydalanuvchilarni korxona faoliyatining moliyaviy natijalari, uning moliyaviy holati, xususan, mulkiy holati hamda to'lov qobiliyati haqidagi axborot bilan ta'minlashdir. Demak, bu jihatdan xarajatlar hisobi oldida quyidagi vazifalar turadi

- korxona faoliyati bilan bog'liq barcha xarajatlarni o'z vaqtida to'raligicha hisobga olish;

- xarajatlar haqidagi ma'lumotlarni alohida hisob varaqalarida hamda hisobot shakllarida to'g'ri aks ettirish va soliqlarni hisoblash uchun yetarli darajadagi ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlash

Bu vazifalarni bajarish uchun xarajatlarning moliyaviy hisob tamoyillari, xususan, ikkiyoqlama yozuv asosida hisobga olish yetarlidir. Boshqaruv hisobining eng asosiy xususiyati esa uning ma'lumotlari boshqaruv uchun foydaliligidir. Jumladan, boshqaruv hisobi xarajatlar haqida shunday batafsil ma'lumotlarni berishi kerakki, toki uning asosida eng to'g'ri boshqaruv qarorlari qabul qilishning imkoniyati paydo bo'lsin. Bu sohadagi xalqaro tajribalardan kelib chiqqan holda xarajatlar hisobi haqidagi ma'lumotlarni korxona quyidagi holatda shakllantirishi kerak:

- xarajatlarni ularning paydo bo'lish joylari bo'yicha hisobga olish;

- xarajatlar hisobini javobgar xo'jalik markazlari bo'yicha tashkil qilish

- xarajatlarni ularni paydo qilgan obyektlari yoki ularning tashuvchilari, ya'ni alohida mahsulot turlari bo'yicha jamlab berish

Bu vazifalar boshqaruv hisobining asosiy vazifasini bajarishga imkon beradi. Masalan, xarajatlarni ularning paydo bo'lish joylari va javobgar xo'jalik markazlari bo'yicha hisobga olish eng muhim boshqaruv qarorlarini qabul qilishga imkon yaratadi

Demak, xarajatlarni hisobga olishning quyidagi vazifalarini ham sanab o'tishimiz kerak ekan:

- alohida ishlab chiqarish jarayonlari yoki bo'linmalari bo'yicha xarajatlar hisobini tashkil qilish va ular ustidan nazoratni ta'minlash;
- alohida mahsulot turlari bo'yicha asosiy ishlab chiqarish xarajatlari haqidagi ma'lumotni shakllantirib berish;
- korxonaning ishlab chiqarishdan tashqari barcha boshqaruv xarajatlarning tahliliy ma'lumotlarini yig'ib berish va ularning talqinini amalga oshirish.

14.3. Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari va uni hisobdan chiqarish hisobi

Xo'jalik subyektlarining ishlab chiqarish jarayonida sodir bo'ladigan har bir muomalaning buxgalteriya hisobini yuritishda quyidagi schyotlar guruhidan foydalaniladi: – 2010-“Asosiy ishlab chiqarish”;

- 2310-“Yordamchi ishlab chiqarish”;
 - 2510-“Umumishlab chiqarish”;
 - 2610-“Ishlab chiqarishdagi brak”;
 - 3110-“Oldindan to'langan ijara haqi”;
 - 3120-“Oldindan to'langan xizmat haqi”;
 - 3190-“Boshqa bo'nak xarajatlari”
- ; – 8910-“Kelgusi xarajatlar va to'lovlar rezervi”.

Korxonaning asosiy faoliyat turi hisoblangan mahsulot (ish, xizmat)lar, asosiy ishlab chiqarish xarajatlari to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish 2010-“Asosiy ishlab chiqarish” schyotida amalga oshiriladi.

Oldindan (ijara, abonent to'lovi va h.k.) yoki keyingi davrlardagi (hisobdor summasining ortiqcha xarajatlari uchun to'lovlar va boshqalar) korxona xarajatlari mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxiga ularning to'langan muddatidan qat'i nazar qaysi davrga taalluqli bo'lsa, o'sha hisobot davrida kiritiladi.

2010-“Asosiy ishlab chiqarish” schyotining debeti bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bevosita bog'liq bo'lgan to'g'ri 224 xarajatlar, shuningdek, yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari, asosiy ishlab chiqarishni boshqarish va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan egri xarajatlar va yaroqsiz mahsulot hisobiga yo'qotishlar aks ettiriladi.

Mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko'rsatish bilan bevosita bog'liq bo'lgan to'g'ri xarajatlar 2010-“Asosiy ishlab chiqarish” schyotiga ishlab chiqarish zaxiralari, mehnatga haq to'lash bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar va boshqalarni hisobga oluvchi schyotlarning kreditidan hisobdan chiqariladi.

Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari 2010-“Asosiy ishlab chiqarish” schyotiga 2310-“Yordamchi ishlab chiqarish” schyotining kreditidan hisobdan chiqariladi.

Asosiy ishlab chiqarishni boshqarish va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan egri xarajatlar 2010-“Asosiy ishlab chiqarish” schyotiga 2510-“Umumiy ishlab chiqarish xarajatlari” schyotidan hisobdan chiqariladi. Yaroqsiz mahsulot hisobiga yo'qotishlar 2010-“Asosiy ishlab chiqarish” schyotiga 2610-“Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlar” schyotidan hisobdan chiqariladi.

2010-“Asosiy ishlab chiqarish” schyotining kreditida tugallangan mahsulot ishlab chiqarish, ish va xizmatlarni bajarishning haqiqiy tannarx summalarini aks ettiriladi. Ushbu summalar 2010-“Asosiy ishlab chiqarish” schyotidan 2810- “Ombordagi tayyor mahsulotlar”, 9110-“Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi”, 9130-“Bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlarning tannarxi” schyotlarining debetiga hisobdan chiqarilishi mumkin. 2010-“Asosiy ishlab chiqarish” schyoti bo‘yicha oy oxiridagi qoldiq tugallanmagan ishlab chiqarishning tannarxini ko‘rsatadi.

Analitik hisob xarajatlarning turlari va chiqarilayotgan mahsulotlarning turlari bo‘yicha yuritiladi. Xarajatlarning yuzaga kelish joylari va boshqa belgilari bo‘yicha guruhlanishi, shuningdek, kalkulyatsion hisob alohida schyotlar tizimida amalga oshiriladi. Ushbu schyotlarning tarkibi va foydalanish uslubiyatini har bir korxona o‘zining ishlab chiqarish faoliyati, tuzilishi, boshqarishni tashkil etish xususiyatlariga qarab belgilaydi. Agar xarajatlarning vujudga kelish joyi va boshqa belgilari bo‘yicha guruhlanishi hamda kalkulyatsion hisob alohida schyotlar tizimida hisobga olinmasa, 2010-“Asosiy ishlab chiqarish” schyotining analitik hisobi ham korxonaning alohida bo‘linmalari bo‘yicha yuritiladi

15-ma’ruza. BUXGALTERIYA HISOBI SCHYOTLARINI YOPISH TARTIBI

Buxgalteriya hisobi schyotlarini yopish tartibi — bu moliyaviy hisobotlar tayyorlash jarayonining muhim qismi. Bu jarayon, asosan, moliyaviy yillik hisobotni tayyorlashdan oldin amalga oshiriladi va buxgalteriya hisobining to‘g‘riligi va aniqligini ta‘minlaydi. Quyida buxgalteriya hisobi schyotlarini yopish tartibi haqida batafsil ma‘lumot beraman.

1. Schyotlarni yopish jarayoni

Buxgalteriya hisobida schyotlarni yopish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

1.1. Hisob-kitoblarni tekshirish

- Hisob-kitoblar to‘g‘riligini tekshirish: Har bir schyot bo‘yicha barcha operatsiyalarni va ularning to‘g‘riligini tekshirish zarur. Bu jarayonda har bir operatsiya uchun tegishli hujjatlar (invoices, qabul qilingan tovarlar uchun hujjatlar va boshqalar) ko‘rib chiqilishi kerak.
- Xatolarni tuzatish: Agar xatolar aniqlansa, ularni tuzatish zarur. Bu hisob-kitoblar to‘g‘riligini ta‘minlash uchun muhimdir.

1.2. Schyotlarni moslashtirish

- Schyotlar o‘rtasidagi moslikni ta‘minlash: Schyotlar o‘rtasida moslikni ta‘minlash uchun barcha daromadlar va xarajatlar hisobga olinishi kerak.
- Balansni tekshirish: Har bir schyotning balansini tekshirish va ularning umumiy summasini taqqoslash zarur.

1.3. Yil oxirgi hisob-kitoblarni tayyorlash

- Yil oxiridagi operatsiyalarni hisobga olish: Yil oxirida amalga oshirilgan barcha operatsiyalarni hisobga olish zarur. Bu, asosan, daromad va xarajatlarni to‘g‘ri aks ettirish uchun muhimdir.

- Rejalashtirish va prognoz qilish: Kelgusi yil uchun rejalashtirish va prognoz qilishda o'zgaruvchan xarajatlar va daromadlar tahlil qilinishi kerak.

2. Schyotlarni yopish tartibi

2.1. Daromadlarni yopish

- Daromad schyotlarini yopish: Yil oxirida barcha daromad schyotlari (masalan, 90-schyot) yopilishi kerak. Buning uchun daromadlar summasi yig'iladi va foyda yoki zarar schyotiga (99-schyot) o'tkaziladi.

2.2. Xarajatlarni yopish

- Xarajat schyotlarini yopish: Xarajatlar schyotlari (masalan, 20-schyot) ham yil oxirida yopilishi kerak. Xarajatlar summasi yig'iladi va foyda yoki zarar schyotiga o'tkaziladi.

2.3. Foyda yoki zarar hisobi

- Foyda yoki zarar hisobi: Daromadlar va xarajatlar yig'ilgandan so'ng, umumiy foyda yoki zarar hisoblanadi. Bu hisoblangan summalar 99-schyotga o'tkaziladi.

3. Hisobot tayyorlash

3.1. Moliyaviy hisobotlar tayyorlash

- Balans hisobi: Balans hisobi tayyorlanadi, bunda aktivlar, passivlar va kapital ko'rsatiladi.
- Foyda va zarar hisobi: Foyda va zarar hisobi tayyorlanadi, bunda daromadlar va xarajatlar ko'rsatiladi.

3.2. Hisobotlarni tasdiqlash

- Hisobotlarni tasdiqlash: Tayyorlangan moliyaviy hisobotlar rahbariyat tomonidan tasdiqlanishi kerak.

4. Moliyaviy hujjatlarni saqlash

- Hujjatlarni saqlash: Barcha moliyaviy hujjatlar va hisob-kitoblar qonuniy talablarga muvofiq saqlanishi zarur

3.2. Amaliy mashgʻulotlar uchun oʻquv materiallari

1-amaliy mashg'ulot: ASOSIY VOSITALAR HISOBI

1–topshiriq. Quyidagi xo'jalik operatsiyalari ta'sirida o'zgarish ro'y beradigan balans moddalarini va o'zgarish tipi (xili)ni aniqlang.

№	Xo'jalik operatsiyalari mazmuni	Summasi, ming so'm
1.	Hisob–kitob schyotidan kassaga pul olib kelindi	45000
2.	O'simlikchilik tarmog'i ishchilariga mehnat haqi hisoblandi	72000
3.	Taqsimlanmagan foydaning bir qismi ustav fondiga qo'shildi	30000
4.	Kassadan xo'jalik xodimlariga mehnat haqi berildi	44000
5.	Kartoshka ekishga kartoshka urug'i sarflandi	60000
6.	Bug'doy hosili daromadga olindi	41000
7.	Xaridorlardan hisob–kitob schyotiga sotilgan bug'doy puli kelib tushdi	21000
8.	Ta'minot tashkilotidan bo'lgan qarz uchun hisob–kitob schyotidan pul o'tkazildi	30500
9.	Qoramollarni oziqlantirish uchun yem–xashak sarflandi	50000
10.	Taqsimlanmagan foydadan zahira kapitali shakllantirildi	34000
11.	Akkreditivning foydalanilmay qolgan qismi hisob–kitob schyotiga o'tkazildi	2000
12.	Mehnat haqidan daromad solig'i ushlendi	8500
13.	Kassadagi limitdan ortiq pullar hisob–kitob schyotiga topshirildi	800
14.	Kreditorlik qarzlari to'landi	15000

2-topshiriq. Korxonada quyidagi asosiy vositalar mavjud, bino va traktorga to'g'ri chiziqli usulda, mebel va kompyuterga kumulyativ (yillar yig'indisi) usulda amortizatsiya hisoblang.

T/r	Asosiy vosita nomi	Balans qiymati, ming so'm	Tugatilish qiymati, ming so'm	Amortizatsiya normasi, foizda
1.	Bino	300000	5000	
2.	Traktor	80000	2000	
3.	Mebel	8500	500	
4.	Kompyuter	2000	–	
	Jami:	150500	–	–

2-amaliy mashg'ulot: Nomoddiy aktivlar hisobi

1–topshiriq. Korxonada nomoddiy aktivlar harakati bo'yicha quyidagi xo'jalik operatsiyalariga buxgalteriya provodkasini tuzing

№	Xo'jalik operatsiyalari mazmuni	Summasi, ming
----------	--	----------------------

		so'm
1.	Mol yetkazib beruvchilardan nomoddiy aktivlar boshlang'ich qiymatda kirim qilinganda	155000
		155000
2.	Korxonada ishlab chiqarilgan nomoddiy aktivlar haqiqiy tannarx bahosida kirim qilinganda	64000
		64000
3.	Ta'sisчилarning ulush sifatida ustav kapitaliga qo'shgan nomoddiy aktivlar kirim qilinganda	81500
4.	Nomoddiy aktivlar tekinga (bepul) berilganda	23000
5.	Nomoddiy aktivlarga eskirish hisoblanganda	3500
6.	Sotishga chiqarilgan nomoddiy aktivlarning qiymatiga qo'shilgan qiymat solig'i hisoblanganda	12000
7.	Nomoddiy aktivlarni sotishdan olingan foyda summasidan byudjetga foyda solig'i hisoblanganda	8000
8.	Sotishga chiqarilgan nomoddiy aktivlar hisobidan hisob-kitob schyotiga pul kelib tushganda	74200
9.	Nomoddiy aktivlar boshlang'ich qiymatda hisobdan chiqarilganda	155000
10.	Nomoddiy aktivlar boshqa korxonalarning ustav kapitaliga ulush sifatida berilganda	31500
		31500
11.	Nomoddiy aktivlarga hisoblangan eskirish summasi hisobdan chiqarilganda	3500
12.	Nomoddiy aktivlarni hisobdan chiqarish va sotish natijasida aniqlangan moliyaviy natijalar hisobga olinganda:	
	a) zarar summasiga	
	b) foyda summasiga	

2-topshiriq. Korxonada nomoddiy aktivlar harakati bo'yicha quyidagi xo'jalik operatsiyalariga buxgalteriya provodkasini tuzing

T/r	Xo'jalik muomalalarining mazmuni
1	Asosiy, yordamchi ishlab chikarishda foydalanilayotgan nomoddiy aktivlar bo'yicha amortizasiya hisoblash
2	Umumishlab chiqarish maqsadida va xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarda foydalanilayotgan nomoddiy aktivlar bo'yicha amortizasiya hisoblash
3	Savdo korxonalarida foydalanilayotgan nomoddiy aktivlar bo'yicha amortizasiya hisoblanganda
4	Boshqaruv maqsadida foydalanilayotgan nomoddiy aktivlar bo'yicha amortizasiya hisoblanganda
5	Quyidagi maqsadlarda foydalanilayotgan asosiy vositalarga eskirish hisoblanganda: a) yangi turdagi mahsulot ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan ishga tushirish ishlarida;

	b) umumiy yoki yakka tartibda ishlab chiqarishga mo'ljallanmagan yangi texnologik jarayonlarni o'zlashtirishda.
6	Kapital quyilmalarda foydalanilayotgan nomoddiy aktivlar bo'yicha amortizasiya hisoblanganda
7	Nomoddiy aktivlarni tugatish, sotish, tekinga berish, ustav kapitaliga ulush sifatida berish, moliyaviy ijaraga berish, kamomad yoki buzilishi natijasida yig'ilgan amortizasiya summasini hisobdan chiqarish

3-amaliy mashg'ulot: PUL MABLAG'LARI HISOBI:

1-topshiriq. Pul mablag'lari harakati bo'yicha quyidagi xo'jalik operatsiyalariga buxgalteriya provodkalari tuzing.

№	Xo'jalik operatsiyalari mazmuni	Summasi, ming so'm
1.	Xo'jalikning hisob-kitob schyotidan ehtiyot qismlar sotib olish uchun akkreditiv ochildi	55000
2.	Xo'jalik hisob-kitob schyotiga sotilgan asosiy vosita puli xaridorlardan kelib tushdi	295000
3.	Hisob-kitob schyotiga ta'sis etuvchilardan nizom kapitalini ko'paytirish uchun pul kelib tushdi	20000
4.	Sotib olingan ehtiyot qismlar puli ta'minotchilarga ochilgan akkreditiv hisobidan to'landi	54500
5.	Foydalanilmay qolgan akkreditiv summasi hisob-kitob schyotiga qaytarildi	500
6.	Qisqa muddatli bank kreditlari hisobidan akkreditiv ochildi	11450
7.	Hisob-kitob schyotidan uzoq muddatli kreditni qaytarish uchun pul o'tkazildi	22200
8.	Hisob-kitob schyotidan pul o'tkazish yo'li bilan yo'lovchi poyezdi chiptalari sotib olindi	600

4-amaliy mashg'ulot: INVESTITSİYALAR HISOBI

1-topshiriq. Korxonada bo'lib o'tgan quyidagi xo'jalik operatsiyalariga buxgalteriya provodkalari tuzing.

T/r	Xo'jalik muomalalarining mazmuni
1	Sotuvchi korxonaga asosiy vositalarni berish yo'li bilan qimmatli qog'ozlarni xarid qilish
2	Sotuvchi korxonaga nomoddiy aktivlar va materiallar berish yo'li bilan qimmatli qog'ozlarni xarid qilish
3	Sotuvchi korxonaga mahsulot, tovar, ish, xizmatlarni berish yo'li bilan qimmatli qog'ozlarni xarid qilish

4	Sotuvchi korxonaga o'rnatiladigan asbob-uskunalarini berish yo'li bilan qimmatli qog'ozlarni xarid qilish
5	Qimmatli qog'ozlar uzoq muddatli investitsiyalar sifatida tekinga olinganda
6	Boshqa korxonalarning qimmatli qog'ozlari xarid qilinganda
7	Debitorlik qarzlari hisobiga qimmatli qog'ozlarning xarid qilinishi
8	Qisqa muddatli investitsiyalar tarkibi o'zgartirilganda (restrukturizasiya)
9	Ta'sisчилarning korxona ustav kapitaliga ularning ulushi sifatida berilgan qimmatli qog'ozlarning qiymati
10	Korxona qimmatli qog'ozlarga tegishli huquqlar unga o'tganligi to'g'risida guvohnoma oldi
11	Obligatsiyalar va boshqa qarzga oid qimmatli qog'ozlarning xarid va nominal qiymatlari o'rtasidagi farq: a) nominal qiymati xarid qiymatidan yuqori; b) xarid qiymati nominal qiymatdan yuqori.
12.	Chet el valyutasidagi uzoq muddatli investitsiyalar bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha kurs farqlari: Ijobiy Salbiy
13	Uzoq muddatli investitsiyalarni: a) sho'ba xo'jalik jamiyatlarida; b) qaram xo'jalik jamiyatlarida; d) chet el kapitali mavjud bo'lgan korxonalarda aks ettirish.
14	Uzoq muddatli investitsiyalar sifatida hisobga olingan qimmatli qog'ozlarning qoplanishi (sotib olinishi)
15	Uzoq muddatli investitsiyalar sifatida hisobga olingan qimmatli qog'ozlarning sotilishi

2-topshiriq. Korxonada bo'lib o'tgan quyidagi xo'jalik operatsiyalariga buxgalteriya provodkalari tuzing.

T/r	Xo'jalik muomalalarining mazmuni
1	Qimmatli qog'ozlar mahsulotlar, tovarlar, ish, xizmatlarni berish yo'li bilan xarid qilindi
2	Qimmatli qog'ozlar asosiy vositalar va boshqa aktivlarni berish yo'li bilan xarid qilindi
3	Uzoq muddatli investitsiyalarning tarkibiy o'zgarishi (restrukturizasiya) amalga oshirildi
4	Qimmatli qog'ozlar naqd pulga xarid qilindi
5	Qimmatli qog'ozlar qiymati bankdagi schyotdan to'lanishi orqali xarid qilindi
6	Xaridorlarga ssuda mablag'larining vekselda berilishi

7	Aksiyalarning to'lov sifatida qimmatli qog'ozlarning kelib tushishi
8	Qimmatli qog'ozlarning sotilishi
9	Korxonaning qarzi qimmatli qog'ozlar bilan qoplanishi
10	Majburiyatlar uchun garov sifatida aksiyalarning berilishi
11	Xaridorga veksel summasiga da'vo bildirilishi
12	Da'vo muddati tugaganligi tufayli veksel bo'yicha qarzni zarar hisobiga chiqarish
13	Inventarizatsiya natijasida qimmatli qog'ozlarning kamomadi

5-amaliy mashg'ulot: TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOB

1-topshiriq. Korxonada bo'lib o'tgan quyidagi xo'jalik operatsiyalariga buxgalteriya provodkalari tuzing.

T.r.	Xo'jalik operatsiyalari mazmuni	Summasi, ming so'm
1.	Tumandagi neftbazadan yoqilg'i sotib olindi	10000
2.	Ta'minot tashkilotidan xom-ashyo va materiallar olib kelindi	120000
3.	Tuman mashina traktor parkidan turli xil ehtiyot qismlar sotib olindi	13000
4.	Asosiy vositani tugatishdan qurilish materiallari daromadga olindi	5000
5.	Sotib olingan xom-ashyolar bo'yicha ta'minot tashkilotiga pul o'tkazildi	110000
6.	Bug'doy ekishga sarflangan urug'lik hisobdan chiqarildi	25600
7.	Tugallanmagan qurilish uchun qurilish materiallari sarflandi	34500
8.	Sabzavotchilikka sarflangan urug'lik hisobdan chiqarildi	55600
9.	Bug'doy ekishga yoqilg'i sarflandi	29400

2-topshiriq. Quyidagi xo'jalik operatsiyalariga buxgalteriya provodkalari tuzing.

№	Xo'jalik muomalalari mazmuni	Summasi, ming so'm
1.	Korxona kassasida inventarizatsiya natijasida pul mablag'larining kamomadi aniqlandi	1200
2.	sh tashkiloti omborida inventarizatsiya natijasida qurilish materiallarining kamomadi aniqlandi va ombor mudiri hisobiga yozildi:	
	a) tannarxi	6500
	or baxosi	8200
3.	Chorvachilik fermasida o'tkazilgan inventarizatsiya natijasida bir bosh buzoq kamomadi aniqlandi	2100
4.	Inventarizatsiya natijasida qimmatli qog'ozlarning kamomadi aniqlandi	14000

5.	ofat natijasida bir bosh ishchi ot nobud bo'lganligi inventarizatsiyada aniqlanganda:	
	ing balans qiymati	
	irish qiymati	
	bud bo'lgan otdan teri daromadga olindi	
	bud bo'lgan ishchi otdan moliyaviy natija aniqlanib, tegishli schyotga o'tkazildi	
6.	Inventarizatsiya natijasida mineral o'g'it bo'yicha kamomad aniqlanib, moddiy javobgar hisobiga o'tkazildi:	
	a) tannarxi	102000
	b) bozor baxosi	135000
7.	tarizatsiya natijasida yaroqsiz holga kelganligi (eskirganligi) tufayli dala shiyponi hisobdan chiqarildi:	
	a shiyponining dastlabki qiymati	45600
	irish qiymati	
8.	dan chiqarilgan dala shiyponini buzish bo'yicha quyidagi operatsiyalar amalga oshirildi:	
	limlarga mehnat haqi hisoblandi	
	x avtotransportidan foydalanildi	1200
	dalansa bo'ladigan qurilish materiallari daromadga olindi	4560
	a shiyponini buzishdan moliyaviy natija aniqlanib, tegishli schyotga o'tkazildi	
9.	ofat natijasida o'tkazilgan inventarizatsiya bir bosh ishchi ot nobud bo'ldi:	
	ing balans qiymati	8200
	irish qiymati	8200
	bud bo'lgan otdan teri daromadga olindi	500
	bud bo'lgan ishchi otdan moliyaviy natija aniqlanib, tegishli schyotga o'tkazildi	
10.	tarizatsiya natijasida bir bosh sigir yetishmasligi aniqlanib, ferma mudiri hisobiga yozildi:	
	ans qiymati	5850
	zor qiymati	6200
11.	tarizatsiya natijasida aniqlangan kamomadni aybdor shaxsni aniqlash imkoni bo'lmagan holdagi kamomadlar va yo'qotishlar hisobdan chiqarilganda	14600
12.	tarizatsiya natijasida ortiqcha tayyor mahsulotlar korxona foydasiga kirim qilinganda	2500

6-amaliy mashg'ulot: MEHNAT VA UNGA HAQ TO'LASHNING HISOBI
1-topshiriq. Quyidagi xo'jalik operatsiyalariga buxgalteriya provodkalarini tuzing.

№	Xo'jalik operatsiyalari mazmuni	Summasi,
---	---------------------------------	----------

		ming so'm
1.	Korxonada kapital qurilish sohasida band bo'lgan xodimlarga mehnat haqi hisoblanganda	16000
2.	Qishloq xo'jalik tarmog'ida band bo'lgan xodimlarga mehnat haqi hisoblanganda	12500
3.	Xizmat ko'rsatuvchi tarmoqda band bo'lgan xodimlarga mehnat haqi hisoblanganda	6500
4.	Korxonada qishloq xo'jalik texnikasini ta'mirlashda band bo'lgan xodimlarga mehnat haqi hisoblanganda	2400
5.	Umumishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlarga mehnat haqi hisoblanganda	8300
6.	Mahsulot sotish sohasida band bo'lgan xodimlarga mehnat haqi hisoblanganda	3500
7.	Boshqaruv apparatida band bo'lgan xodimlarga mehnat haqi hisoblanganda	18000
8.	Korxonada asosiy vositalarni hisobdan chiqarishda ishlagan xodimlarga mehnat haqi hisoblanganda	7600
9.	Tabiiy ofatlar bartaraf etishda qatnashgan xodimlarga mehnat haqi hisoblanganda	11600
10.	Xodimlarga bir martalik mukofot hisoblanganda	9000
11.	Xizmat ko'rsatuvchi tarmoqda band bo'lgan xodimlarga mehnat haqi korxona kassasidan berilganda	5900
12.	Mahsulot sotish sohasida band bo'lgan xodimlarga mehnat haqi korxona kassasidan berilganda	3100
13.	Boshqaruv apparati xodimlariga mehnat haqi korxona kassasidan berilganda	16850
14.	Hisobdor shaxslardan hisobi beriladigan summaning qaytarilmagan qismi mehnat haqidan ushlab qolinganda	1500

2–topshiriq. Quyidagi xo'jalik operatsiyalariga buxgalteriya provodkalarini tuzing.

№	Xo'jalik operatsiyalari mazmuni	Summasi, ming so'm
1.	Xodimlarning mehnat haqida o'z vaqtida to'lanmagan aksiyalar bo'yicha majburiyatlar ushlab qolinganda	5850
2.	Xodimlarning mehnat haqidan kreditga sotib olingan tovarlar qiymati uchun navbatdagi to'lovi ushlab qolinganda	1850
3.	Korxonaga yetkazilgan zarar summasi aybdor xodimning mehnat haqidan ushlab qolinganda	4500
4.	Korxonada xodimlarga muddatida to'lanmagan mehnat haqi deponentga o'tkazilganda	13500

5.	Korxonada lavozim shtatlari qisqarishi natijasida bo'shatilgan xodimlarga ishdan bo'shatish nafaqasi hisoblanganda	2200
6.	Ishdan bo'shatish nafaqalari xodimlarga to'langanda	1936
7.	Hisobot davrida xodimlarga mehnat haqini to'lash maqsadida plastik kartochkalar bo'yicha to'lovlar uchun hisobraqamidan mablag'lar o'tkazilganda	7500
8.	Plastik kartochkalarga o'tkazilgan mablag'lar har bir xodim uchun ochilgan maxsus hisobraqamlariga o'tkazilganda	7500
9.	Xodimlar mehnat haqidan joriy oy uchun daromad solig'i hisoblanganda	4560
10.	Xodimlarga mehnat haqi hisobidan berilgan avans summasi ushlab qolinganda	14800

7-amaliy mashg'ulot: XARAJATLARI HISOBI

1-topshiriq. Quyidagi xo'jalik operatsiyalariga buxgalteriya provodkalarini tuzing

T/r	Xo'jalik muomalalarining mazmuni	
1	Mol yetkazib beruvchilardan o'rnatiladigan asbob-uskunalar kelib tushdi	
2	Kapital qo'yilmalar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarning bajargan ishlari va ko'rsatgan xizmatlari yuzasidan berilgan schyotlar to'lovga qabul qilindi	
3	Mol yetkazib beruvchilardan materiallar kelib tushdi	
4	Mol yetkazib beruvchilardan o'stirishga va boquvga hayvonlar kelib tushdi	
5	Mol yetkazib beruvchilardan turli TMZ kelib tushdi (1510-schyoti qo'llanilganda)	
6	Mol yetkazib beruvchilardan tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilishda hisobga olingan QQS summasi	
7	Korxona tomonidan asosiy va yordamchi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatuvchi xo'jalik, umumishlab chiqarish va boshqaruv ehtiyojlari uchun mol yetkazib beruvchilarning bajargan ish va xizmatlari (jumladan: energiya, gaz, bug', suv) qabul qilindi	
8	Yaroqsiz mahsulotni tuzatish va kafolatli ta'mirlash bo'yicha mol yetkazib beruvchilarning ko'rsatgan xizmatlari qabul qilindi	
9	Mol yetkazib beruvchilardan kelgusi davr xarajatlariga tegishli bo'lgan ish va xizmatlar qabul qilindi	
10	Mol yetkazib beruvchilardan tovarlar kelib tushdi	
11	Mahsulotlar, tovarlar, ish va xizmatlarni sotishda mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar ko'rsatgan ish va xizmatlar qabul qilindi	
12	Tabiiy ofatlarni tugatish bo'yicha mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarning xizmatlari qabul qilindi	
13	Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga bo'lgan qarzlar bankdagi schyotlardan to'landi	

14	Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarning schyotlarini to‘lashda oldindan berilgan bo‘naklarning hisobga olinishi
15	Da’vo muddati tugagan kreditorlik qarzlari hisobdan chiqarildi
16	Kreditorlik qarzini to‘lash uchun mol yetkazib beruvchiga oddiy veksel berildi

2–topshiriq. Quyidagi xo‘jalik operatsiyalariga buxgalteriya provodkalarini tuzing

T/r	Xo‘jalik muomalalarining mazmuni
1	Davr xarajatlariga taalluqli xar xil ajratmalar, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha byudjetga qarzlari
2	Tayyor mahsulotlarni, tovarlarni sotishda, ishlarni bajarish va xizmatlarni ko‘rsatish, shuningdek asosiy vositalar va boshqa aktivlarni sotish va turli chiqarishda QQS va aksiz summasi hisoblandi
3	Byudjetdan mablag‘lar qaytarildi yoki kelgusi to‘lovlar hisobiga o‘tkazildi (yakuniy hisob-kitoblar va sh.k.)
4	Jismoniy shaxslarning ish haqidan daromad solig‘i summasi ushlab qolindi
5	Hisoblangan dividenddan daromad solig‘i summasi ushlab qolindi
6	Foydadan byudjetga to‘lovlar hisoblandi
7	Byudjetga to‘lovlar o‘tkazib berildi
8	Moddiy resurslar, tovarlar, ishlar va xizmatlarga tegishli bo‘lgan QQS summasi hisobga olindi
9	Olingan kreditlar va qarzlari hisobidan byudjetga qarzlari to‘landi

8-amaliy mashg‘ulot: MAHSULOT, TOVAR (ISH, XIZMAT)LAR VA ULARNI SOTISH HISOBI


Mashg‘ulot bo‘yicha amaliy topshiriq.

1-topshiriq. O‘zbekistonda buxgalteriya hisobini normativ-huquqiy tartibga solish tizimi va uning asosiy elementlarini yozing va ularni izohlab bering.

2-topshiriq. O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonunining moddalari va nomini yozing hamda ularni qisqacha tavsiflab bering.

Moddalar	Qonun moddalarining nomi
1-modda	
2-modda	
...	
..	
32-modda	

3-topshiriq. Klaster tuzing



3. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunining mazmuni va ahamiyati nimadan iborat?

4. Buxgalteriya hisobining milliy standartlarining ahamiyati qanday?
5. Buxgalteriya hisobi milliy standartlari buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzishdagi ahamiyatini tushuntiring.
6. Hisob siyosatining mohiyatini tushuntiring

Mavzu bo'yicha test topshiriqlari.

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi yangi tahrirdagi Qonuni qachon qabul qilingan?

- A) 2016 yil 13 aprel
- B) 2016 yil 30 aprel
- D) 1996 yil 30 avgust
- E) 1998 yil 30 aprel

2. Korxonaning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risida ishonchli va o'z vaqtida axborotlar olishda hisob jarayonining shart-sharoitlar tizimi va ular elementlarining tuzilishi nima deyiladi?

- A) buxgalteriya hisobini tashkil etish
- B) hujjatlar aylanish grafigi
- D) buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi
- E) hisob siyosati

3. Buxgalteriya hisobini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslari qanday guruhlanadi?

- A) buxgalteriya hisobining qonun hujjatlari, asosiy qoidalar, turli tashkilotlarning ko'rsatma va yo'riqnomalari, ichki ish hujjatlari
- B) buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun, BHMSlar, nizom va yo'riqnomalari
- D) buxgalteriya hisobi milliy andozalari, hisobvaraqlar rejasi, dastlabki hujjatlar, asosiy registrlar

E) qonun hujjatlari, vazirlik va idoralar yo'riqnomalari, umum qabul qilingan hujjat va registrlar, ichki ish hujjatlari

4. Buxgalteriya hisobini yuritishning asosiy qoidalari asosan qanday me'yoriy hujjatda berilgan?

- A) turli yo'riqnomalar
- B) hisob varaqlar rejasi
- D) buxgalteriya hisobining milliy andozalari
- E) ish hujjatlari

5. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni tartibga solish, buxgalteriya hisobi standartlarini ishlab chiqish va tasdiqlash qaysi yuqori organ zimmasiga yuklatilgan?

- A) O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining zimmasiga
- B) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi zimmasiga
- D) O'zbekiston Respublikasi davlat Soliq qo'mitasi zimmasiga
- E) O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining zimmasiga

6. Korxonada buxgalteriya hisobi va hisobotni tashkil etish kim tomonidan amalga oshiriladi?

- A) buxgalteriya hisobi yuritilayotgan har bir bo'linma rahbari tomonidan
- B) buxgalteriya hisobi xizmatining rahbari tomonidan
- D) bosh iqtisodchi tomonidan
- E) buxgalteriya hisobi subyekting rahbari tomonidan

7. Bosh buxgalter yoki buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqarish vazifalarini amalga oshiruvchi boshqa mansabdor shaxs ...

- A) buxgalteriya hisobi subyekting rahbari
- B) buxgalteriya hisobi xizmatining rahbari
- D) auditorlik xizmati rahbari
- E) bo'linma rahbari

8. Yuqori malakali professional tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan va tavsiyanoma xarakteriga ega bo'lgan buxgalteriya hisobi qoidalari, metodlari va atamalari majmuasi...

- A) buxgalteriya hisobi milliy standartlari deb ataladi
- B) moliyaviy hisobot xalqaro standartlari deb ataladi
- D) buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari deb ataladi
- E) moliyaviy hisobot shakllari deb ataladi

9. Kimlar buxgalteriya hisobi subyektlari hisoblanadi?

- A) yuridik shaxslar
- B) jismoniy shaxslar
- D) xususiy tadbirkorlar
- E) davlat

10. Buxgalteriya hisobini yuritishning asosiy qoidalari asosan qanday me'yoriy hujjatda berilgan?

- A) ish hujjatlari
- B) hisob varaqlar rejasi

- D) turli yo'riqnomalar
- E) buxgalteriya hisobining milliy andozalari

9-amaliy mashg'ulot: IJARA HISOBI

Topshiriq 1: Ijara shartnomasi

Ijara shartnomasining asosiy elementlarini aniqlang. Quyidagi savollarga javob bering:

- Ijara muddati qanday?
- Ijara to'lovi qanday belgilangan?
- Ijara obyekti qanday tavsiflangan?
- Ijara to'lovlari qachon amalga oshiriladi?

Topshiriq 2: Ijara turlari

Ijara turlarini tasniflang va har bir turga qisqacha ta'rif bering. Misollar:

- Moliyaviy ijara
- Operatsion ijara
- Ijara shartnomasi

2. Amaliy topshiriqlar

Topshiriq 3: Ijara to'lovlarini hisoblash

Sizda quyidagi ma'lumotlar mavjud:

- Ijara obyekti: Ofis binosi
- Ijara muddati: 2 yil
- Oylik ijara to'lovi: 1,000,000 so'm
- Yillik inflyatsiya darajasi: 10%

Hisoblang:

- 2 yil davomida to'lanadigan jami ijara to'lovi.
- Har bir yil uchun to'lanadigan ijara to'lovini inflyatsiya hisobga olgan holda aniqlang.

Topshiriq 4: Ijara hisoblari

Sizda quyidagi ma'lumotlar mavjud:

- Ijaraga olingan uskunalar: Kompyuterlar (5 dona)
- Har bir kompyuterning ijara narxi: 300,000 so'm
- Ijara muddati: 1 yil

Hisoblang:

- Yil davomida to'lanadigan jami ijara to'lovi.
- Hisob-kitoblarni tuzib, buxgalteriya yozuvlarini ko'rsating.

3. Analitik topshiriqlar

Topshiriq 5: Ijara hisobotini tayyorlash

Sizda ijara shartnomasi bo'yicha quyidagi ma'lumotlar mavjud:

- Ijara obyekti: Transport vositasi
- Ijara muddati: 3 yil
- Oylik ijara to'lovi: 500,000 so'm

Tayyorlang:


- Yil oxirida ijara hisobotini (foyda va zarar hisobi) tayyorlang.
- Moliyaviy hisobotda ijara to'lovlarining aks ettirilishi.

| Topshiriq 6: Ijara shartnomasining ta'siri


Ijara shartnomasining kompaniya moliyaviy holatiga ta'sirini tahlil qiling. Qanday omillar ijara shartnomasi orqali kompaniyaning moliyaviy ko'rsatkichlariga ta'sir qiladi? O'z fikrlaringizni yozing

Mavzu bo'yicha amaliy topshiriq.

1-topshiriq. Moliyaviy hisobning mohiyati, maqsadi, vazifalari, tamoyillari, yuritishga qo'yiladigan asosiy talablar, axborotlaridan foydalanuvchilar va uning xo'jalik hisobining boshqa turlaridan farqli xususiyatlarini yozing va tushuntiring.



3-topshiriq. Moliyaviy hisob fanining boshqa o'quv fanlari bilan aloqadorligini tavsiflang.



4-topshiriq. Hisobot davri boshlangan va yakunlangan hisobi ob'ektlari to'g'risida ma'lumot.

Buxgalteriya hisobi ob'ektlari	Shu jumladan					
	Aktivlar			Korxon a kapitali	Majburiyatlar	
	so'm	Uzoq muddatli	Joriy		Uzoq muddatli	Joriy
Bino va inshootlar	65000					
Asosiy vositalar eskirishi	34000					
Kompyuterlar	2500					
Qurilish materiallari	8500					
O'simlikchilik tugalanmagan ishlab chiqarishi	42050					
Mehnat haqi bo'yicha hisob kitoblar	18250					
Deponentlar bilan hisob-kitoblar	280					
Yem-xashaklar	21000					
Urug'lik va ko'chatlar	7200					
Ta'minotchilardan olingan o'g'it bo'yicha qarzдорlik	5100					
Hisob-kitob schyotidagi pul mablag'lari	17100					
Kassadagi pul mablag'lari	50					
Taqsimlanmagan foyda	24000					

Inventarlar	2850					
Transport vositalari	68450					
O‘stirishdagi va boquvdagi mollar	34540					
Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha hisob-kitoblar	1000					
Kelgusi davr xarajatlari uchun rezervlar	3450					
Bankning qisqa muddatli kreditlari	6000					
Bankning uzoq muddatli kreditlari	9000					
Pensiya fondiga bo‘lgan qarzlar	3400					
Xaridorlardan olingan avanslar	2000					
Mulk sug‘urtasi bo‘yicha qarzlar	1500					
Ustav fondi	175040					
Uzatuvchi moslamalar	24050					
Ko‘p yillik daraxtlar	17050					
Akkreditivlar	1230					
Uzoq muddatli moliyaviy qo‘yilmalar	6000					
Mahsuldor hayvonlar	38750					
O‘rnatishga mo‘ljallangan uskunalar	2150					
Tugallanmagan qurilish	14000					
Boshqa asosiy vositalar	29400					
Pudrat tashkilotidan bo‘lgan qarz	5500					
Boshqa debitorlik qarzlar	1750					
Boshqa kreditorlik qarzlar	970					
Ombordagi tayyor mahsulotlar	3400					
Yoqilg‘i va moylash materiallari	1500					
Zaxira kapitali	24500					
Hisobdor shaxslarga berilgan avanslar	250					
Xaridorlarning sotilgan mahsulotlar bo‘yicha qarzi	23750					
Qo‘shilgan kapital	42700					

Talab qilinadi.

1. Berilgan ma'lumotlar asosida buxgaltyeriya hisobi ob'yektlarini “+” ishorasi bilan ajrating.

10-amaliy mashg‘ulot: HISOB-KITOBLAR HISOB

1–topshiriq. Quyidagi xo‘jalik operatsiyalariga buxgalteriya provodkalarini tuzing

T/r	Xo‘jalik muomalalarining mazmuni
1	Operativ ijara bo‘yicha foiz hisoblandi
2	Operativ ijara bo‘yicha qarz to‘landi
3	Moliyaviy ijara bo‘yicha foiz hisoblandi
4	Qarzlarni bo‘yicha foizlar hisoblandi
5	Qarzlarni bo‘yicha hisoblangan foizlar to‘landi
6	Royalti hisoblandi
7	Hisoblangan royalti to‘landi
8	Kafolatli xizmat bo‘yicha qarz hisoblandi
9	Kafolatli xizmat bo‘yicha haqiqiy xarajatlar hisobdan chiqarildi
10	Uzoq muddatli majburiyatlar joriy qismga o‘tkazildi
11	Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi bo‘yicha to‘langan summa
12	Tan olingan da‘volar (xatolar, yo‘ldagi kamomad, mahsulot sifatining muvofiq kelmasligi va hokazolar) bo‘yicha qarzlarni hisoblandi
13	TMZlardagi arifmetik xatolardan kelib chiqqan da‘volar bo‘yicha qarzlarni (hisob-kitob hujjatlaridagidan haqiqatda kam yetkazib berilganda) hisoblandi
14	Shartnoma majburiyatlariga rioya qilmaganlik uchun jarimalar, penyalarni, neustoykalar summalarini bo‘yicha qarzlarni (tan olingan yoki arbitraj tomonidan e‘tirof etilgan hajmda) hisoblandi
15	Asosiy ishlab chiqarish, yordamchi ishlab chiqarish, umumishlab chiqarish va boshqaruv ehtiyojlari, xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklarga taalluqli xarajatlarni amalga oshirganligi uchun hisobdor shaxslarga qarzlarni hisoblandi

11-amaliy mashg‘ulot: BANK KREDITLARI VA QARZLAR HISOBI

1–topshiriq. Quyidagi xo‘jalik operatsiyalariga buxgalteriya provodkalarini tuzing

T/r	Xo‘jalik muomalalarining mazmuni
1	Qisqa muddatli bank kreditlari va qarzlarni olindi
2	Qisqa muddatli bank kreditlari va qarzlarni hisobiga TMZ xarid qilindi
3	Qisqa muddatli bank kreditlari va qarzlarni hisobidan mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarning qarzi to‘landi
4	Qisqa muddatli bank kreditlari va qarzlarni qaytarildi
5	Qisqa muddatli bank kreditlari va qarzlarni ajratilgan bo‘linmalar hisobidan qaytarildi
6	Berilgan veksel va obligatsiyalar evaziga qisqa muddatli qarz olindi
7	Berilgan veksel va obligatsiyalar qoplandi

12-amaliy mashg'ulot: XUSUSIY KAPITAL HISOBI

1–topshiriq. Quyidagi xo‘jalik operatsiyalariga buxgalteriya provodkalarini tuzing

T/r	Xo‘jalik muomalalarining mazmuni
1	Ta’sis hujjatlarida ko‘zda tutilgan summada, (korxona ro‘yxatdan o‘tkazilgandan keyin) ustav kapitali tasdiqlandi
2	Foydaning bir qismi ustav kapitalini ko‘paytirishga yo‘naltirildi: a) hisoblangan dividendlar miqdorida; b) ustav kapitalini ko‘paytirishga yo‘naltirilgan foyda miqdorida.
3	Ustav kapitali to‘plangan kapital miqdorigacha kamaytirildi
4	Korxona ta’sischilariga ulushlari qaytarildi
5	Aksiyadorlardan sotib olingan va bekor qilingan xususiy aksiyalar ustav kapitalining kamaytirilishiga hisobdan chiqarildi: a) nominal qiymatdan yuqori bahoda sotib olish: nominal qiymatiga; nominal qiymatidan oshgan summaga; b) nominal qiymatidan past narxda sotib olish: sotib olish qiymatiga; nominal qiymatidan past summaga.

2–topshiriq. Quyidagi xo‘jalik operatsiyalariga buxgalteriya provodkalarini tuzing

T/r	Xo‘jalik muomalalarining mazmuni
1	Birlamchi emissiya aksiyalarning nominal va emissiya qiymatlari o‘rtasidagi farq sifatida qo‘shimcha to‘langan kapital mablag‘lari kelib tushdi
2	Qo‘shilgan kapital mablag‘lari xususiy aksiyalarni bekor qilishda sotib olish va nominal qiymatlari o‘rtasidagi farqni qoplashga ishlatildi
3	Ustav kapitalining shakllanish jarayonida vujudga kelgan ijobiy kurs farqi hisobga olindi
4	Ajratilgan grant va subsidiyalar haqida xabarnoma olindi
5	Grant va subsidiyalar bo‘yicha mablag‘lar olindi
6	Tegishli tuzulmalarning qaroriga muvofiq berilgan grant va subsidiya summasi korxona ustav kapitali hajmini ko‘paytirishga yo‘naltirildi
7	Tegishli tuzulmalarning qaroriga muvofiq ilgari berilgan grant va subsidiya summasi korxona rezerv kapitali hajmining ko‘payishiga yo‘naltirildi
8	A‘zolik badallari va boshqa maqsadli tushumlar kelib tushdi
9	Soliqqa tortishdan ozod qilish natijasida vujudga kelgan bo‘sh pul mablag‘lari hisobga olindi
10	Soliqqa tortishdan ozod qilish bo‘yicha imtiyozli davrning tugashi natijasida vujudga kelgan bo‘sh pul mablag‘lari hisobdan chiqarildi
11	Boshqa maqsadli tushumlar kelib tushdi

13-amaliy mashg'ulot: SOLIQ VA YIG'IMLAR HISOBI

Mavzu bo'yicha amaliy topshiriqlar.

1-topshiriq. Korxonada hisobot davri boshiga buxgalteriya hisobi obyektlarini guruhlang va har biriga tavsif bering.

№	Buxgalteriya hisobi obyektlari	Shu jumladan				
		Aktivlar		Korxon a kapitali	Majburiyatlar	
		Uzoq muddat li	Joriy		Uzoq muddat li	Joriy
1.	Suv inshootlari					
2.	Royalti bo'yicha qarzlar					
3.	Kompyuterlar					
4.	Grantlar					
5.	Dehqonchilik ishlab chiqarishi					
6.	Mehnat haqi bo'yicha hisob kitoblar					
7.	Yem-xashaklar					
8.	Subsidiya					
9.	Urug'lik va ko'chatlar					
10.	Ta'minotchilardan qarzdorlik					
11.	Sanatoriya yo'llanmasi					
12.	Berilgan avanslar					
13.	Qurilish materiallari					
14.	Gudvill					
15.	Transport vositalari					
16.	Pay va ulushlar					
17.	Foyda solig'i					
18.	Kelgusi davr xarajatlari uchun rezervlar					
19.	Bankning ipoteka kreditlari					
20.	Ustav fondi					
21.	Pensiya fondiga bo'lgan qarzlar					
22.	Xaridorlardan olingan avanslar					
23.	Mulk sug'urtasi bo'yicha qarzlar					
24.	Yengil avtomashina					
25.	Uzatuvchi moslamalar					
26.	Tutazorlar					
27.	Akkreditivlar					
28.	Uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar					
29.	Mahsuldor hayvonlar					

30.	O'rnatishga mo'ljallangan uskunalar					
31.	Moddiy zarar bo'yicha xodim qarzi					
32.	Yer					
33.	Pudrat tashkilotidan bo'lgan qarz					
34.	Zaxira kapitali					
35.	Ombordagi kartoshka					
36.	Yoqilg'i va moylash materiallari					
37.	Hisobdor shaxslarga berilgan avanslar					
38.	Xaridorlarning sotilgan mahsulotlar bo'yicha qarzi					
39.	Buyurtmachilardan olingan avanslar					

2-topshiriq. Korxonaning mablag'lari va ularning tashkil topish manbalari haqida ma'lumot.

Ma'muriyat binosi	Boshqa kreditorlarga qarz
Valyuta schyotidagi pul mablag'i	Ta'til haqi to'lash rezervi
Ofis mebellari	Urug'lik
Kapital qo'yilmalar	Kelgusi davr xarajatlari
Jamg'arilgan foyda	Hisob-kitob schyotidagi mablag'lar
Mol yetkazib beruvchilardan qarz	Kitob javoni
Kompyuter	Tugallanmagan qurilish
Xizmat safariga berilgan avanslar	Xaridorlarning qarzlari
Yoqilg'i	Savdo ustamasi
Qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar	Maqsadli jamg'armalarga avans to'lovlari
Ehtiyot qismlar	Oddiy aksiyalar
Ishlab chiqarish binosi	O'rnatiladigan asbob uskunalar
Xom ashyo	Pensiya jamg'armasiga qarz
Ta'sisчилarga qarz	Foizlar bo'yicha qarzlar
Olingan avanslar	Kelgusi xarajatlar rezervi
Patent	Chek daftarchalari
Ustav kapitaliga ta'sisчилarning ulushlari bo'yicha qarzi	O'zida ishlangan yarim tayyor mahsulotlar
To'lanadigan obligatsiyalar	Qisqa muddatli qarzlar
Berilgan avanslar	Hisobdor shaxslarga qarz
Uzoq muddatli qarzlar	Tugallanmagan ishlab chiqarish
Litsenziya	Yuk mashinasi
Qo'shilgan kapital	Franchayza
Maxsus kiyimlar	Boshqa joriy majburiyatlar
Temiryo'l chiptalari	Maqsadli tushumlar
Soliqlar bo'yicha qarz	Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarz

Talab qilinadi: Guruhlash natijalarini quyidagi jadvalda aks ettiring va har biriga


tavsif bering

Xo‘jalik mablag‘lari		Xo‘jalik mablag‘larining manbalari	
Uzoq muddatli aktivlar	Joriy aktivlar	O‘z mablag‘larining manbalari	Majburiyatlar


14-amaliy mashg‘ulot: DAROMADLAR VA XARAJATLAR HISOBİ

Mavzu bo‘yicha amaliy mashqlar.

1-topshiriq. Buxgalteriya hisobining obyektlarini guruhlang va tavsiflang.



2-topshiriq. Xo‘jalik jarayonlarini turkumlang va mohiyatini tushuntiring.



3-topshiriq. Quyidagi buxgalteriya hisobi obyektlarini guruhlang va har biriga tavsif bering

Mebel va ofis jihozlari	Boshqa kreditorlik qarzlar
Olinadigan dividendlar	Tekinga olingan mulk
Xaridorlar olingan avanslar	Qisqa muddatli bank krediti
Hisobdor shaxslarga bo'lgan qarz	Xizmat safarlariga berilgan avanslar
Xom ashyo va materiallar	Olinadigan foizlar
Mehnat haqi bo'yicha berilgan avanslar	Hisob-kitob schyotidagi pul mablag'lari
Oldindan to'langan xizmat haqi	Ma'muriyat binosi
Xo'jalik jihozlari	Yoqilg'i
Sanoat namunalari	Buzoqlar
Mualliflik huquqi	To'lanadigan dividendlar
Uzoq muddatli qarzlar	Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz
Yo'ldagi tovarlar	Bug'doy
Ishchi va mahsuldor hayvonlar	To'lanadigan qisqa muddatli ijara
Maqsadli tushumlar	Taqsimlanmagan foyda
Asosiy ishlab chiqarish	Bank kreditlari
Nomoddiy aktivlar	Asosiy vositalar
Hisoblangan foizlar	Xaridorlardan olinadigan schyotlar
Oddiy aksiyalar	Deponentlangan ish haqi
A'zolik badallari	Hisoblangan penya
Dasturiy ta'minot	O'stirishdagi va boquvdagi mollar
Tugalanmagan ishlab chiqarish	Ombordagi tayyor mahsulotlar
Boshqa debitorlik qarzlar	Savdo belgisi


Talab qilinadi: Guruhlash natijalarini quyidagi jadvalda aks ettiring

Xo'jalik mablag'lari		Xo'jalik mablag'larining manbalari	
Uzoq muddatli aktivlar	Joriy aktivlar	O'z mablag'larining manbalari	Majburiyatlar

15-amaliy mashg'ulot: BUXGALTERIYA HISOBI SCHYOTLARINI YOPIISH TARTIBI

Mavzu bo'yicha amaliy topshiriqlar.

1-topshiriq. Buxgalteriya balansining tuzilishini aks ettiring va bo'limlariga izoh bering.



2-topshiriq. 1 yanvar holatiga Bosh daftarda bo'yicha schyotlar qoldig'i.

Schyotlar nomi	Qoldig'i, ming so'm
Asosiy vositalar	42840,0
Asosiy vositalar eskirishi	5340,0
Nomoddiy aktivlar	2850,0
Nomoddiy aktivlar eskirishi	740,0
Tugallanmagan qurilish	2110,0
O'rnatishga mo'ljallangan uskunalar	750,0
Akkreditivlar	2800,0
O'simlikchilik tugallanmagan ishlab chiqarish	3890,0
Kassadagi pul mablag'lari	76,0
Mehnat haqi bo'yicha hisob-kitoblar	2050,0
Byudjetdan bo'lgan qarz	2000,0
Ustav kapitali	38656,0
O'stirishdagi va boquvdagi mollar	3450,0
Xaridorlardan olingan avanslar	8750,0
Kelgusi davr to'lovlari va xarajatlari uchun rezervlar	2100,0
Tayyor mahsulot	400,0
Materiallar	2720,0
Qisqa muddatli bank kreditlari	2400,0
Taqsimlanmagan foyda	4150,0
Turli shaxslardan olingan uzoq muddatli qarzlar	1950,0
Hisob-kitob schyotidagi mablag'lar	2700,0
Ta'minotchilarga berilgan avanslar	1500,0
Pensiya fondiga bo'lgan qarz	870,0
Boshqa debetorlik qarzlar	2920,0

Talab qilinadi.

1. Berilgan ma'lumotlar asosida xo'jalikning 1 yanvar holatiga balansini tuzing

3-topshiriq. Fermer xo‘jaligida quyidagi xo‘jalik muomalalari bo‘lib o‘tgan.

№	Xo‘jalik muomalalari mazmuni	Summasi, ming so‘m	O‘zgarish bo‘ladigan balans moddasi +/-	O‘zgarish tipi
1.	Hisob-kitob schyotidan kassaga pul olib kelindi	4500		
2.	O‘simlikchilik tarmog‘i ishlovchilariga mehnat haqi hisoblandi	7200		
3.	Taqsimlanmagan foydaning bir qismi ustav fondiga qo‘shildi	3000		
4.	Kassadan xo‘jalik xodimlariga mehnat haqi berildi	4400		
5.	Kartoshka ekishga kartoshka urug‘i sarflandi	6000		
6.	Bug‘doy hosili daromadga olindi	41000		
7.	Xaridorlardan hisob-kitob schyotiga sotilgan bug‘doy puli kelib tushdi	21000		
8.	Ta‘minot tashkilotidan bo‘lgan qarz uchun hisob-kitob schyotidan pul o‘tkazildi	30500		
9.	Qoramollarni oziqlantirish uchun yem-xashak sarflandi	5000		
10.	Taqsimlanmagan foydadan zahira kapitali shakllantirildi	340		
11.	Akkreditivning foydalanilmay qolgan qismi hisob-kitob schyotiga o‘tkazildi	200		
12.	Mehnat haqidan daromad solig‘i ushlandi	85		
13.	Kassadagi limitdan ortiq pullar hisob-kitob schyotiga topshirildi	800		
14.	Kreditorlik qarzlar to‘landi	150		

Talab qilinadi:

1.Xo‘jalik muomalalari ta’sirida o‘zgarish ro‘y beradigan balans moddalarini aniqlang.

2.Balansda bo‘ladigan o‘zgarish tipi (xili)ni aniqlang.

3.3. Laboratoriya mashgʻulotlari rejalashtirilmagan

1.4. Mustaqil ta'lim bo'yicha o'quv materiallari

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Amalga oshirish mexanizmi
1.	Asosiy vositalar hisobi	Referat yozib, taqdimot tayyorlash
2.	Asosiy vositalar amortizatsiyasining hisobi	Referat yozib, taqdimot tayyorlash
3.	Nomoddiy aktivlar hisobi	Adabiyotlardan foydalanib, individual topshiriqlarni bajarish
4.	Nomoddiy aktivlar amortizatsiyasining hisobi	Adabiyotlardan foydalanib, individual topshiriqlarni bajarish
5.	Kassa operatsiyalari hisobi	Referat yozib, taqdimot tayyorlash
6.	Hisob-kitob operatsiyalari hisobi	Referat yozib, taqdimot tayyorlash
7.	Valyuta operatsiyalari hisobi	Referat yozib, taqdimot tayyorlash
8.	Materiallar hisobi	Referat yozib, taqdimot tayyorlash
9.	O'stirishdagi va boquvdagi hayvonlar hisobi	Adabiyotlardan foydalanib, individual topshiriqlarni bajarish
10.	Tayyor mahsulotlar va tovarlarning hisobi	Referat yozib, taqdimot tayyorlash
11.	Mehnat va unga haq to'lashning hisobi	Referat yozib, taqdimot tayyorlash
12.	Xarajatlar hisobi	Referat yozib, taqdimot tayyorlash
13.	Majburiyatlar hisobi	Referat yozib, taqdimot tayyorlash
14.	Soliq va yig'imlar hisobi	Referat yozib, taqdimot tayyorlash
15.	Ustav kapitali hisobi	Referat yozib, taqdimot tayyorlash
16.	Qo'shilgan kapital hisobi	Adabiyotlardan foydalanib, individual topshiriqlarni bajarish

17.	Rezerv kapitali hisobi	Referat yozib, taqdimot tayyorlash
18.	Sotib olingan xususiy aksiyalar hisobi	Referat yozib, taqdimot tayyorlash
19.	Taqsimlanmagan foyda hisobi	Adabiyotlardan foydalanib, individual topshiriqlarni bajarish
20.	Maqsadli tushumlar hisobi	Referat yozib, taqdimot tayyorlash
21.	Kelgusi xarajatlar va to'lovlar rezervlari hisobi i	Adabiyotlardan foydalanib, individual topshiriqlarni bajarish
22.	Asosiy (operatsion) faoliyatning daromadlari hisobi	Referat yozib, taqdimot tayyorlash
23.	Sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)larning tannarxi hisobi	Referat yozib, taqdimot tayyorlash
24.	Asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishi hisobi	Adabiyotlardan foydalanib, individual topshiriqlarni bajarish
25.	Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari hisobi	Referat yozib, taqdimot tayyorlash
26.	Davr xarajatlari hisobi	Referat yozib, taqdimot tayyorlash
27.	Moliyaviy faoliyat bo'yicha daromadlar va xarajatlar hisobi	Referat yozib, taqdimot tayyorlash
28.	Favqulodda vaziyatlardan olingan foyda (zarar) hisobi	Adabiyotlardan foydalanib, individual topshiriqlarni bajarish
29.	Yakuniy moliyaviy natija hisobi	Referat yozib, taqdimot tayyorlash
30.	Buxgalteriya schyotlarini yopish tartibi	Referat yozib, taqdimot tayyorlash

3.5. Fan bo'yicha glossariy (o'zbek, rus, ingliz tillarida)

Atamaning o'zbek tilidagi nomlanishi	Atamaning ingliz tilidagi nomlanishi	Atamaning rus tilidagi nomlanishi	Atamaning ma'nosi
Moliyaviy hisobot	Financial reporting	Финансовый отчет	xo'jalik yurituvchi subyekt alohida mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektligi yoki xo'jalik yurituvchi subyektlarning jamlangan guruhiga kirishidan qat'iy nazar shu xo'jalik yurituvchi subyektning ma'lum bir davrdagi faoliyatini ko'rsatuvchi moliyaviy axborotni taqdim etish usuli
Moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar	Users of financial reporting	Пользователи финансовой отчетности	haqiqiy va bo'lg'usi investorlar, kreditorlar, mahsulot yetkazib beruvchilar, xaridorlar, xodimlar, shuningdek hukumat muassasalari, vazirliklar, idoralar, jamoatchilik va boshqa manfaatdor foydalanuvchilar
Moliyaviy hisobotning unsurlari	Elements of financial reporting	Элементы финансовой отчетности	aktivlar, xususi sarmoya, majburiyatlar, daromadlar, xarajatlar, moliyaviy natijalar, rezervlar
Pul	Money	Деньги	bu maxsus tovar, umumiy ekvivalent bo'lib, abstrakt mehnat xarajatlarini o'zida aks ettiradi va tovar xo'jaligidagi ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarini ifodalaydi
Aktiv	Aktiv	Актив	ma'lum bir sanaga pul ko'rsatkichida korxonaning mablag'lari, ularning tarkibi va joylashishini aks ettiruvchi buxgalteriya balansining qismi.
Analitik hisob	Analytical account	Аналитический учет	pul va zarur bo'lgan hollarda natura shaklida detallashtgan ko'rsatkichlarni beruvchi hisob
Balans	The balance	Баланс	tenglik degan ma'noni anglatadi, aktiv va passivga bo'linadi
Balansdan tashqari schyotlar	Balance accounts	Забалансовые счета	qoldig'i buxgalteriya balansiga kirmaydigan buxgalteriya hisobi schyotlari.
Baho	Appreciation	Оценка	tovar qiymatining pul ko'rinishida ifodalanishi
Bosh daftar	Main book	Главная книга	sintetik hisob yuritish uchun tayinlangan hisob registri
Brutto	Brutto	Брутто	tovarlarning idishi yoki o'rovi bilan birgalikdagi og'irligi

Buxgalter	Accountant	Бухгалтер	ichki boshqarish va tashqi iste'molchilarning maqsadlari uchun joriy va yakuniy axborotni olish bilan korxonalar, tashkilotlar hamda muassasalarning xo'jalik faoliyati ustidan uzluksiz va o'zaro bog'liq bo'lgan kuzatish va nazorat qilish tizimidan iborat
Buxgalteriya	Accounting	Бухгалтерия	buxgalteriya hisobini tashkil etadigan va yuritadigan hisob apparati.
Debet	Debet	Дебет	buxgalteriya hisobi schyotining bir qismi.
Ikkiyoqlama yozuv	Double entry	Двойная запись	xo'jalik muomalalarini buxgalteriya hisobi schyotlarida registrasiya qilish.
Inventarizasiya	Inventory	Инвентаризация	natura shaklidagi mavjud mablag'lar haqiqiysining buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga to'g'ri kelishini, majburiyatlar hisobda to'g'ri aks ettirilishini tekshirish usuli
Kalkulyasiya	Calculation	Калкуляция	xarajatlarni guruhlash va sotib olingan moddiy qiymatliklarni, tayyorlangan mahsulot va bajarilgan ishlar tannarxini aniqlash usuli
Kapital qo'yilmalar	Capital investments	Капитальные вложения	natijada asosiy vositalarni ko'paytiradigan xarajatlar.
Memorial-order	Memorial warrant	Мемориал-ордер	buxgalteriya provodkasi aks ettiriladigan hujjat.
Passiv	Passive	Пассив	buxgalteriya balansining bir qismi bo'lib, unda korxona mablag'lari tashkil bo'lish manbalari va tayinlanishi ko'rsatiladi
Tannarx	Cost	Стоимость	mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatishda foydalaniladigan moddiy resurslarning, asosiy fondlarning, mehnat resurslarining, shuningdek tovarlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish jarayonini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshqa turdagi xarajatlarning qiymat bahosi
Tezkor hisob	Operational account	Оперативный учет	tezkor yoki tezkor-texnik hisob xo'jalik faoliyatining ayrim uchastkalarida reja bajarilishi to'g'risidagi axborotlarni sistematik ravishda olib turish

			maqsadida ma'lum xo'jalik muomalalarini bevosita joyida va ular amalga oshishi paytida ro'yxatga olish tizimi bo'lib hisoblanadi.
Hisob	Account	Счёт	biror narsa mavjudligini belgilash, uni o'lchash va son hamda sifat tomonidan qayd etish
Hujjatlashtirish	Documenting	Документация	xo'jalik muomalalarini hujjatlar bilan rasmiylashtirish.
Daromad	Income	Доход	hisobot davrida aktivlarning ko'payishi yoxud majburiyatlarning kamayishi
